

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

I.TUXTASINOV, N.ISAKULOVA, B.KULMATOV

# **BOLALAR PEDAGOGIKASI**

(Maktabgacha ta‘lim  
pedagogikasi)



**Ta‘lim yo‘nalishlari: 5112200 – Maktabgacha va  
boshlang‘ich ta‘limda xorijiy til (ingliz tili)**

  
YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2020

**UO‘K: 373.2**

**KBK 74.102**

**T-93**

**TUXTASINOV, I**

Bolalar pedagogikasi: darslik/ I.Tuxtasinov, N.Isakulova, B.Kulmatov. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – 246 b.

Darslikning birinchi qismida maktabgacha ta’lim – uzluksiz ta’limning bo‘g‘ini, maktabgacha pedagogika tarixi, maktabgacha ta’lim muassasalaridagi ta’lim faoliyatining maqsad va tamoyillari, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi, maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limiga kompetensiyaviy yondashuv, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat, maktabgacha ta’lim muassasasida o‘yin, bola va jamiyat berilgan. Mazkur darslikdan talabalar, professor-o‘qituvchilar, malaka oshirish tinglovchilari foydalanishi mumkin.

В первом разделе учебника говорится о дошкольном образовании как части непрерывного образования; истории и педагогике дошкольного образования; целях и принципах воспитательной деятельности в дошкольном образовании; развитии и воспитании дошкольников; грамотном подходе к дошкольному образованию. Сформулированы цели и задачи воспитания детей определенного возраста, воспитательная деятельность, игры в дошкольном учреждении; также определена роль ребенка в обществе. Данный учебник может быть использован студентами, преподавателями и стажерами.

The section I of the textbook discusses paragraphs such as Preschool education as an integral part of continuing education, the history of preschool pedagogy, the objectives and principles of educational activities in preschool education, the development and education of preschool children, as well as a competent approach to preschool education. The objectives and tasks in education of children of a certain age, educational activities, games in a preschool institution are formulated, and the role of a child in society is defined.

***Ushbu qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi 359-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etildi.***

***The present tutorial can be used by students, teachers and interns.***

***Mas’ul muharrir***

N.J.Isakulova, pedagogika fanlari doktori, professor

***Taqrizchilar:***

M.Maxmudova, pedagogika fanlari doktori, professor

D.Xoshimova, pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN 978-9943-20-768-4

I.Tuxtasinov, N.Isakulova, B.Kulmatov, «Bolalar pedagogikasi». «Yangi asr avlodi», 2020.

## MUNDARIJA

KIRISH.....	7
1-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM – UZLUKSIZ TA'LIM- NINGBO'G'INI.....	8
Davlat va jamiyat tomonidan yosh avlod tarbiyasiga talablar ....	8
Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari .....	19
2-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARISH VA UNING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI .....	28
Boshqaruv tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	28
Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi.....	37
3-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTAB- GACHATA'LIMTASHKILOTLARI.....	53
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari.....	53
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kas- bi.....	55
4-BOB. MAKTABGACHA PEDAGOGIKA TARIXI .....	63
Maktabgacha pedagogika tarixi .....	63
O'rta asrlarda Sharqda, Yevropada, Rossiyada ta'lim va tarbiya berish hamda til ta'limiga e'tibor .....	66
O'zbekistonda maktabgacha pedagogikaning rivojlani- shi.....	79
5-BOB. XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI.....	83
Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.....	83
Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'limning variativ shakl- lari.....	86

Jahon ta'lim tajribasida differensial va integratsion ta'lim masalalari.....	86
<b>6-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDAGI TA'LIM FAOLIYATINING MAQSAD VA TAMOYILLARI.....</b>	<b>106</b>
Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim faoliyatining maqsadlari va tashkil qilish tamoyillari.....	106
Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish va sog'lom ovqatlanishni tashkil etish.....	107
<b>7-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHIVATARBIYASI.....</b>	<b>113</b>
Bolaning ruhiy taraqqiyotida ta'lim va tarbiyaning roli .....	113
Muhit va biogenetik omillarning roli .....	114
Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari.....	118
<b>8-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIMIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV.....</b>	<b>123</b>
Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning asosiy umumiy kompetensiyalari.....	123
Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari.....	124
<b>9-BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIVIALASHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.....</b>	<b>129</b>
Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning maqsad va vazifalari.....	129
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish.....	131
Jismoniy tarbiya. Aqliy tarbiya. Axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi .....	132
<b>10-BOB. O'QUV-TARBIYAVIY FAOLIYAT .....</b>	<b>152</b>
Maktabgacha ta'lim bo'yicha metodik ishlarni tashkil qilish vazifalari, mazmuni va shakllari.....	152

O'quv-tarbiyaviy faoliyat va uni rejalashtirish.....	153
Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish.....	154
11-BOB. MTM TA'LIM DASTURI VA UNI TUZISH TALABLARI.....	156
MTM ta'lim dasturini tuzish bo'yicha tavsiyalar.....	156
Namunaviy o'quv rejasi va soatlar miqdori.....	161
3 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish xaritasi.....	167
12-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA O'YIN.....	171
O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi ekanligi. O'yinning ijtimoiy xarakteri. O'yin bolalar hayotini tashkil etish vositasi ekanligi .....	171
O'yin turlari: mazmunli, ijroli, o'yinlar, harakatli o'yinlar, ta'limiy o'yinlar, syujetli-rolli o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari .....	173
Kichik yoshdagi bolalar o'yiniga rahbarlik kilish. O'yinchoq va uning ta'lim-tarbiyadagiahamiyati.....	181
13-BOB. INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA KOMMUNIKATIV O'YINLAR.....	185
«Head and shoulders» va «So'zni ayt» o'yinlari.....	186
«I can see» va «Simon says» o'yinlari .....	186
«My family» o'yini va «Compliment» o'yinlari .....	187
«Ikki qo'g'irchoq» va «Hayvonot bog'ida» o'yinlari .....	187
«To have» va «Stand up! Sit down!» o'yinlari.....	188
14-BOB. BOLA VA JAMIYAT.....	190
Bolalar tarbiyasida oilaning roli. Ota-onalar bilan hamkorlik..	190
MTT oila bilan ishlash shakllari. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati .....	194

Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari. Tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar. Bog'cha bilan maktab o'rtasidagi aloqa shakllari.....	195
Sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish.....	202
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	206
GLOSSARY.....	208
ILOVALAR.....	211

## KIRISH

Ushbu darslik maktabgacha yoshdagi bolalarning til ta'limini tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari, bolalarning ma'naviy, jismoniy, aqliy-axloqiy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik ta'limini amalga oshirishning metod va vositalari kabi masalalarni qamrab oladi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishning asosiy xususiyatlari, yuqori malakali rahbar, metodist-nazoratchi, pedagog-xodimlarni tayyorlash vazifalari, metodlari, metodik rahbarlik qilish tamoyillari bilan qurollantiradi.

«Bolalar pedagogikasi» fani ixtisoslik fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 3-kursda o'qitilishi maqsadga muvofiq. «Bolalar pedagogikasi» fani ixtisoslik fanlari turkumiga kiradi va maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladi.

Darslikda maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'limning bo'g'ini, maktabgacha pedagogika tarixi, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim faoliyatining maqsad va tamoyillari, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va tarbiyasi, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limiga kompetensiyaviy yondashuv, maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyat, maktabgacha ta'lim muassasasida o'yin, bola va jamiyat berilgan.

Mazkur darslikdan talabalar, professor-o'qituvchilar, malaka oshirish instituti tinglovchilari foydalanishi mumkin.

# 1-MODUL. MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGIKASI

## 1-BOB. MAKTABGACHA TA'LIM – UZLUKSIZ TA'LIMNING BO'G'INI

### **Reja:**

1.1. Davlat va jamiyat tomonidan yosh avlod tarbiyasiga talablar.

1.2. Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari («Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturi. «Bolajon» tayanch dasturi. «Ilk qadam» maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi).

**Tayanch so'z va iboralar:** yosh avlod, maktabgacha ta'lim, davlat dasturi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, rahbarlik qilish, davlat maktabgacha ta'lim muassasalari, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari, maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo'lgan «Mehribonlik» uylari, ilk yosh guruh (2-3 yosh), kichik guruh (3-4 yosh), o'rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh), maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh).

### **Davlat va jamiyat tomonidan yosh avlod tarbiyasiga talablar**

So'nggi yillardagi ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini yangilashga e'tibor berish, maktabgacha ta'limga oid innovatsiyalarni izlash, uni ta'lim-tarbiya jarayoniga, tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kiritib borishda malaka oshirish tizimining ahamiyati kattadir. Ayniqsa, pedagogik jarayonga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, innovatsiyalarni joriy etish, o'qituvchi va tarbiyachilarni zamonaviy usullardan foydalanish, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish malaka oshirish tizimi oldiga qo'yilgan vazifalar zamirida amalga oshirilmoqda.

Pedagogika yo'nalishida tatbiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masala borki, u ham bo'lsa tarbiyachilarning pedagogik jarayonni zamonaviy usullar asosida maqsadli, tizimli va natijalarni bashorat qila olish orqali metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishlarini ta'minlashdir. Interfaol usullar hozirgi kunda ta'lim islohotlaridagi ustuvor jihati va pedagogik muammolarni hal etishdagi roli, ta'lim



samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan ekanligini e'tirof etish joizdir. Pedagogik texnologiya nazariyasining muhim jihati har bir pedagogning o'z imkoniyati darajasida, shuningdek, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'quv faolligini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida interfaol metodlardan samarali foydalana olish bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2017-yil 30-sentyabrdagi PQ-3305-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5198-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3651-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-avgustdagi «Davlat-xususiy sherikchilik asosida zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasasini tashkil etish to'g'risida»gi 681-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risida Nizom, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentyabrdagi «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3955-son qarori, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim – bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi [1]. Maktabgacha ta'lim vazirligi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi (1.1-jadvalga qarang):

*1.1-jadval*

**Maktabgacha ta'lim vazirligi vazifalari**

<b>No</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
1	maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida	<p>maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etish va yaxshilash masalalarida davlat boshqaruvini amalga oshiradi; yagona davlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga, shu jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni, shuningdek, ularni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga doir takliflarni ko'rib chiqish uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;</p> <p>normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini, shuningdek, Vazirlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish bilan bog'liq boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritadi; Vazirlik tizimiga kiradigan maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirish istiqbollarini prognozlashtiradi, davlat dasturlarini va hududiy dasturlarni ishlab chiqadi;</p> <p>maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari sifatli bajarilishini ta'minlash borasida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi;</p> <p>maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, maktabgacha ta'lim tizimi mutaxassislariga qo'yiladigan malaka talablari bajarilishi ustidan idoraviy nazoratni tashkil etadi;</p>

<b>No</b>	<b>Maktagacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
		<p>maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga metodik rahbarlik qiladi; tarbiyalanuvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hamda ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ilmiy-texnik taraqqiyotdan, jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, o'quv dasturlari, darsliklar uzluksiz takomillashtirilishini tashkil etadi;</p> <p>shu jumladan, axborot texnologiyalarini va moliyaviy nazoratning e'tirof etilgan xalqaro standartlarini joriy etish yo'li bilan idoraviy mansub ta'lim muassasalarida byudjet qonunchiligi buzilishi profilaktikasi va uning oldini olishga qaratilgan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi; rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari belgilaydi, maktabgacha ta'limning holatini qiyosiy tahlil qiladi; maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'i faoliyat ko'rsatishining ta'lim bilan bog'liq va ijtimoiy samaradorligini tahlil qiladi, uni maqbullashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi; jurnallar, blankalar, o'quv-metodik komplekslar, byulletenlar nashr etilishini va Vazirlik tizimi faoliyatiga taalluqli o'quv qo'llanmalari e'lon qilinishini, shuningdek, Vazirlikning veb saytini tashkil etadi;</p>

<b>No</b>	<b>Maktagacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
2	<p>maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish sohasida</p>	<p>maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish masalalariga umumiy rahbarlik qiladi;</p> <p>idoraviy mansub ta'lim muassasalarida binolar va inshootlardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtiradi;</p> <p>ta'mirlashtirish, qurilish ishlarini, shuningdek, maktabgacha ta'lim muassasalarini kuz-qish fasliga tayyorlash bo'yicha ishlarni, maktabgacha ta'lim muassasalarini binolari va inshootlarining joriy ish holatini saqlashni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalarining ehtiyojlarini aniqlaydi va har yili ularni jihozlash (qayta jihozlash) dasturlarini ishlab chiqadi;</p> <p>manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish bo'yicha loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;</p> <p>O'zbekistonning investitsiya dasturlariga kiritilgan maktabgacha ta'lim obyektlarida har yili olib boriladigan qurilish-ta'mirlash ishlarining tizimli monitoringini olib boradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalarini tarbiyalanuvchilarining ma'naviy-axloqiy va intellektual saviyasini oshirish maqsadida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni oshirish va maktabgacha ta'lim sohasidagi muammolarni aniqlash bo'yicha jamoatchilik fikri o'rganilishini tashkil etadi;</p> <p>maktabgacha ta'lim tizimida xalqaro aloqalarni kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi, maktabgacha ta'lim masalalari bo'yicha xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalar va hamkorlik o'rnatadi</p>

<b>No</b>	<b>Maktagacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
3	bolalarni maktabgacha ta'lim bilan bosqichma-bosqich to'liq qamrab olishni ta'minlash sohasida	<p>fuqarolarning maktabgacha ta'limdan foydalanishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishi uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalari bazasida bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha har xil muqobil modellarni ishlab chiqadi;</p> <p>maktabgacha ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining dolzarb va istiqbolli ehtiyojlari tahlil qilinishini tashkil etadi;</p> <p>maktabgacha ta'limning amalga oshirilayotgan ta'lim dasturlari va umumta'lim maktablarining 1-sinfi dasturi uzviylikini amalga oshirish masalalarida idoraviy mansub muassasalarga rahbarlik qiladi;</p> <p>raqobatlashuvchi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalalarida ko'maklashadi,</p> <p>konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni, shu jumladan, xalqaro tadbirlarni tashkil etish orqali maktabgacha ta'lim sohasida mamlakatimiz yutuqlarini keng targ'ib qiladi;</p> <p>bolalarni maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etish ko'lamlarini kengaytirish maqsadida aholi orasida axborot targ'ibotini amalga oshiradi, shu jumladan, ruhiy-pedagogik ma'rifat bo'yicha fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi;</p> <p>bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha moslashuvchan, muqobil modellarni rivojlantirish maqsadida hududiy boshqaruv organlarida, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarida</p>

<b>№</b>	<b>Maktagacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
		<p>prognozlashtirish bo'yicha axborot-tahlil ishlari o'tkazilishini ta'minlaydi;</p> <p>davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini rivojlantirish masalalarida manfaatdor tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;</p> <p>nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha fuqarolarga va tadbirkorlik subyektlariga metodik yordam beradi</p>
4	<p>zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish sohasida ologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish sohasida</p>	<p>maktabgacha ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish va joriy etishni rag'batlantiradi va muvofiqlashtiradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim sifatini baholash natijalarini tahlil qiladi;</p> <p>milliy mustaqillik g'oyasiga, boy milliy madaniy-tarixiy merosga, milliy urf-odatlariga va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy barkamol yosh avlod tarbiyasining samarali tashkiliy va pedagogik shakllari hamda usullarini ishlab chiqadi;</p> <p>o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish orqali tarbiyalanuvchilarning har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi;</p> <p>zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, samarali shakllar hamda usullardan foydalanib, shu jumladan, tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishda ular bilan yakka tartibdagi ishlarni ta'minlashga ko'maklashadi;</p>

<b>No</b>	<b>Maktagacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
		<p>ilg'or pedagogik texnologiyalarni, shu jumladan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni kamol toptirish borasidagi zamonaviy xalqaro tajribani o'rganadi, umumlashtiradi va maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etadi;</p> <p>maktabgacha ta'lim sohasida mutaxassislarning xalqaro tajribasini o'rganish maqsadida o'quv safarlarini tashkil etadi</p>
5	<p>maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash sohasida</p>	<p>o'quv dasturlari, o'quv-metodik adabiyotlarni pedagogika amaliyotiga joriy etish ustidan nazorat qiladi;</p> <p>ilg'or pedagogika texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-metodik komplekslarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik ta'minlash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantiruvchi o'yinlar va o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqish uyg'otuvchi badiiy adabiyotlar bilan ta'minlashni tashkil etadi;</p> <p>bolalarni yot g'oyalardan himoya qilish, ularning ma'naviy dunyosini oshirish, milliy va jahon adabiyotini targ'ib qilish maqsadida bolalarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi;</p> <p>maktabgacha ta'lim tizimining jurnal-larida Vazirlikning metodik tavsiyalari va buyruqlarini nashr etish orqali ilmiy-metodik axborotni yoyishga ko'maklashadi;</p>

<b>No</b>	<b>Maktagacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
		<p>qat'iy hisobot beriladigan hujjatlar namunalarini ishlab chiqadi va ularning ko'paytirilishini tashkil etadi;</p> <p>bolalar badiiy adabiyotlarini, o'quv-metodik qo'llanmalarni, didaktik o'yinlar va o'yinchoqlarni yaratish bo'yicha nashriyotlar, tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi</p>
6	<p>zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama kamol toptirish masalalarini yuqori professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasida</p>	<p>maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtiradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog kadrlar bilan ta'minlanganligi monitoringini olib boradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-metodik faoliyatni amalga oshiradi va muvofiqlashtiradi;</p> <p>pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimiga maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ilg'or xorijiy tajribani joriy etishga ko'maklashadi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni professional tayyorlash amalga oshiriladigan kasblar va mutaxassisliklar ro'yxatini belgilaydi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazadi</p>



7	<p>maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali, yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish sohasida</p>	<p>maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi; davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlaydi; har yili oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish borasida maktabgacha ta'lim sohasida takliflarni shakllantiradi; o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqishga, pedagogik texnologiyalarni maktabgacha ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayoniga istiqbolli joriy etishga ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarini, pedagogik jamoatchilikni jalb etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi; maktabgacha ta'lim sohasida mutaxassislarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish bo'yicha kasb mahorati tanlovlari o'tkazadi, tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi; ta'lim, ilmiy-tadqiqot, xorijiy va xalqaro tashkilotlar ishtirokida uzoq muddatli dasturlar, loyihalar, rejalarni ishlab chiqadi, ularni bajarish bo'yicha asosiy talablarni belgilaydi</p>
8	<p>maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun munosib shart-sharoitlar yaratish sohasida</p>	<p>jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish sohasida maktabgacha yoshdagi bolalarni kamol toptirishda ruhiy-pedagogik va tashkiliy sharoitlarni ta'minlaydi; maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-kommunikativ, bilishni rivojlantirish, nutq, o'qish va yozishga, chet tilining dastlabki asoslariga tayyorlash, badiiy-estetik va musiqiy tarbiya sohasida to'laqonli kamol toptirishni ta'minlaydi; bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish dasturlari va tadbirlarini ishlab chiqadi, bolalarning psixofizik</p>

№	<b>Maktagacha ta'lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta'lim vazirligi funksiyalari</b>
		<p>xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni turli to'garaklar bilan qamrab olish bo'yicha tizimli faoliyatni tashkil etadi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining to'laqonli, oqilona, muvozanatlashgan, sog'lom ovqatlanishini ta'minlaydi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini har xil yo'nalishlardagi to'garaklarda shug'ullanishga jalb etish strategiyasini ishlab chiqadi</p>
9	<p>O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish sohasida</p>	<p>maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish faoliyatini muvofiqlashtiradi;</p> <p>bolalarning hayoti va salomatligini himoya qilish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlarga rahbarlik qiladi va ularni muvofiqlashtiradi;</p> <p>maktabgacha ta'lim muassasalari tibbiyot xodimlarining malakasi muntazam oshirilishiga ko'maklashadi</p>

## **Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablari**

O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 21-noyabrda 929-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi Nizomni hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida»gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni (bundan buyon matnda bolalar deb yuritiladi) har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi. Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida mulkchilik shakli va idoraviy tasarrufidan qat'i nazar, quyidagi ta'lim muassasalariga qo'llaniladi:

davlat maktabgacha ta'lim muassasalari;

nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari;

maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo'lgan «Mehribonlik» uylari [10].

Maktabgacha ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim turlari bo'yicha pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashni amalga oshiradigan muassasalar, maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar mazkur Davlat talablariga rioya qilishlari lozim.

Davlat talablarida quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi (1.2-jadvalga qarang):

## Davlat talablaridagi asosiy tushunchalar

№	Tushunchalar	Tushunchalarning mazmun-mohiyati
1	maktabgacha ta'lim	maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy meyorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon
2	rivojlanish	inson tanasi tuzilishi, ruhiyati va xulqida biologik jarayonlar hamda atrof muhit ta'sirida ro'y beradigan o'zgarishlar
3	rivojlanish sohasi	bola rivojlanishidagi aniq bir yo'nalishlar
4	kichik soha	sohaning kichik guruhlari. Asosiy sohalarning kichik sohasi rivojlanishning ma'lum bir tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi va ularning aniq bir yo'nalishini ko'rsatib beradi
5	kutilayotgan natija	bolalarda kutilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar ko'rsatkichi
6	bola kompetensiyasi	ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo'lgan bolaning bilimi, ko'nikmasi va malakalari hamda qadriyatları
7	integratsiya	bola ta'limi va rivojlanishidagi mazmun tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqlik
8	inklyuziv ta'lim	bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim va tarbiya olinishini teng ta'minlovchi jarayon
9	«Men» konsepsiyasi	bolani o'zi haqidagi anglangan tasavvurlari tizimi, uning refleksiv faoliyatini bir qismi
10	refleksiv faoliyat	bolada o'z tushunchalari va xatti-harakatlarini anglash va mustaqil tahlil qilishi asosida xulosalar shakllanishi jarayoni

***Davlat talablarining maqsadi*** – mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta‘lim tizimida ma‘nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

***Davlat talablarining vazifalari*** quyidagilar hisoblanadi:

maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta‘lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma‘naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta‘lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

ta‘lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta‘minlash.

***Davlat talablari quyidagi tamoyillar*** asosida tatbiq etiladi:

bolaning noyobligi;

«Men» konsepsiyasi va shaxsiy ta‘limini yaratishda bolaning faol roli;

bolaning huquqlarini himoya qilish va ta‘minlashning muhimligi;

bola ta‘limi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;

bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, har bir bolaga moslashuvchan bo‘lib, individual variativlik asosida yondashish.

Maktabgacha ta‘lim muassalari «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta‘lim tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari» asosida tuzilgan «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturi bolalarni har tomonlama kamolga yetkazish hamda ularni maktabga tayyorlash nazarda tutilgan. «Uchinchi ming yillikning bolasi» tayanch dasturidagi ma‘naviy-axloqiy tarbiya vazifalarida bolalarning murg‘akligidan maktabga borganiga qadar bo‘lgan talablar belgilab berilgan.

«***Bolajon***» ***tayanch dasturi*** maktabgacha ta‘lim tizimidagi barcha muassasalar uchun bajarilishi zarur bo‘lgan dastur hisoblanadi. Tayanch dasturining maqsadi maktabgacha yoshdagi har bir bolani maktab ta‘limiga sifatli tayyorlash: odobli, aqlli, xushmuomala, o‘ziga ishongan, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadini

amalga oshirishga intiladigan, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umummilliy qadriyatlarni qadrlaydigan, jismonan sogʻlom bolani tarbiyalashdan iborat. Takomillashtirilgan «Bolajon» tayanch dasturi Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vaziriligining 2016-yil 28-yanvardagi 1-sonli hayʼat yigʻilishida tasdiqlangan [11].

***Dasturning vazifasi*** bolani jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va sogʻligʻini muhofaza qilish; erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy va maʼnaviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil inson qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

***Dasturning mazmuni quyidagi tamoyillarga tayanilgan:***

maktabgacha taʼlimning davlat va jamiyat talablariga mosligi;  
maktabgacha taʼlimning demokratikligi;  
bola shaxsiga yoʻnaltirilganligi;  
bolani sogʻlomlashtirishga qaratilganligi;  
bolaning qobiliyati, ehtiyoji, imkoniyatiga mosligi;  
maktabgacha taʼlimda oʻyin faoliyatining yetakchiligi;  
maktabgacha taʼlimning insonparvarligi;  
maktabgacha taʼlimning ijtimoiy turmush bilan mosligi;  
maktabgacha taʼlimning oila va boshlangʻich taʼlim bilan uzviyligi.

***Muassasa dasturni amalga oshirishda har bir bolada quyidagi sifatlarni rivojlantirishni maqsad qilib qoʻygan:***

ijodkorlik, tasavvur eta olish, zukkolik;  
mustaqil fikrlash layoqatiga ega boʻlish;  
muammolarni aniqlash va ularni hal etish yoʻllarini topishga intilish;  
jamiyat, mamlakatlar, atrof-muhit muammolariga befarq qaramaslik.

***«Bolajon» tayanch dasturida har bir bolani rivojlantirish va maktabga tayyorlash quyidagi omillarga asoslanilgan:***

davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish va uning barkamol shaxsiga boʻlgan munosabatining kuchayganligi;  
erkin fuqaro maʼnaviyatining shakllanishi;  
milliy urf-odatlar va tarixiy xotira, oʻzlikni anglash tuygʻusi rivojlanayotganligi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuygʻusini shakllanayotganligi.

Aynan shu omillar bola shaxsining jismoniy rivojlanish, oʻz-oʻziga xizmat va gigiyena, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, oʻqish va savodga tayyorgarlik, bilish jarayoni va atrof-muhit toʻgʻrisidagi bilimlarga ega boʻlish yoʻnalishlariga mos tarzda umumiy rivojlanishini taminlaydi.

***Mazmun jihatdan dastur tarkibiga:***

jismoniy rivojlanish, oʻz-oʻziga xizmat va gigiyena;  
ijtimoiy-hissiy rivojlanish;  
nutq, oʻqish va savodga tayyorgarlik;  
bilish jarayoni va atrof-muhit toʻgʻrisidagi bilimlarga ega boʻlish yoʻnalishlarida taʼlim-tarbiya vazifalari kiritilgan [11].

«Bolajon» tayanch dasturining tuzilmasi:

Kirish

1. Bolalarning rivojlanish xususiyatlari.
2. Jismoniy rivojlanish.
3. Mashgʻulotlar jadvali (haftalik, oylik, 1-yarim, 2-yarim yillik va jami).
4. Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.
5. Nutq, oʻqish va savodga tayyorgarlik.
6. Bilish jarayoni: atrof-olam toʻgʻrisidagi bilimga ega boʻlish va uni anglash.
7. Foydalanilgan adabiyotlar.

Mashgʻulotlar mavzuli-taqvim rejasi yoshlar boʻyicha berilgan:

Ilk yosh guruh (2-3 yosh).

Kichik guruh (3-4 yosh).

Oʻrta guruh (4-5 yosh).

Katta guruh (5-6 yosh).

Maktabga tayyorlov guruh (6-7 yosh) [16].

Ushbu «Bolajon» dasturi bolani shaxs sifatida shakllantirishda maktabgacha taʼlim tizimi mutaxassislari va ota-onalar uchun eng yaqin maslahatchi boʻlib xizmat qilgan.

Maktabgacha taʼlim vazirligining Oʻquv-metodik majmualarni yaratishni muvofiqlashtirish va metodik xizmatni tashkil etish boshqarmasi xodimlari tomonidan «Ilk qadam» davlat dasturi amaliyotga joriy etilgan. «Ilk qadam» dasturining muhim jihati

bolaning rivojlanish kartasining yuritilishidir. U oʻzida bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan davrini qamrab oladi. Karta bir yilda uch marta toʻldiriladi va bola bogʻchada tarbiyalanganidan soʻng, yaʼni 6-7 yoshida uning maktabga tayyorligi kartasi bilan taʼlim dargohiga yuboriladi.

Dastur Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hayʼat yigʻilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr qilish uchun tavsiya etilgan. MTM davlat oʻquv dasturi variativ oʻquv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi. Taʼlim muassasalari Maktabgacha taʼlim vazirligi tomonidan tasdiqlangan variativ oʻquv dasturlaridan foydalanish huquqiga ega. Maktabgacha taʼlim muassasasi davlat oʻquv dasturi asosida oʻzining MTM ishchi oʻquv dasturini ishlab chiqish huquqiga ega. Taʼlim muassasasining ishchi oʻquv dasturi muassasa pedagoglari tomonidan ota-onalarni jalb etgan holda tuziladi va amaldagi qonunchilik tartibida tasdiqlanadi [12]. Dastur quyidagilardan iborat (1.3-jadvalga qarang):

### *1.3-jadval*

#### **«Ilk qadam» Maktabgacha taʼlim muassasasining Davlat oʻquv dasturi tarkibi**

<b>Boblar</b>	<b>Boblar mazmuni</b>	<b>Boblar mohiyati</b>
1-bob	Umumiy qoidalar	1.2. MTMning maqsad va vazifalari
2-bob	MTM taʼlim jarayonining maqsad va tamoyillari	2.1. MTM taʼlim jarayonining maqsadlari. 2.2. MTMda taʼlim jarayonini tashkil qilish tamoyillari. 2.3. Qoʻshimcha taʼlim xizmatlarini tashkil qilish. 2.4. Alohida ehtiyojga ega boʻlgan bolalar uchun moʻljallangan taʼlim faoliyati. 2.5. Ota-onalar bilan hamkorlik



<b>Boblar</b>	<b>Boblar mazmuni</b>	<b>Boblar mohiyati</b>
3-bob	Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv	3.1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari. 3.2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari. 3.2.1. «Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalar 3.2.2. «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari. 3.2.3. «Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari. 3.2.4. «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari. 3.2.5. «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari
4 bob	O'quv-tarbiyaviy faoliyat	4.1. O'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish
5-bob	Bolani rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari	
6-bob	Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish	
7-bob	Ilovalar	MTM ta'lim dasturini tuzish bo'yicha tavsiyalar. Bolalar to'liq kun mobaynida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi. Bolalar qisqa muddatda bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi. Namunaviy o'quv dasturi. Yillik mavzuviy reja namunasi. Namunaviy haftalik ish reja. 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish xaritasi. 3 dan 5 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish xaritasi. 5 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish xaritasi. 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi.

## **O‘zini o‘zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qanday hujjatlar qabul qilingan?
2. Maktabgacha ta’lim vazirligi vazifalari nimalardan iborat?
3. Maktabgacha ta’limga qanday davlat talablari qo‘yiladigan?
4. Davlat talablarida qanday asosiy tushunchalardan foydalaniladi?
5. Davlat talablarining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
6. «Bolajon» tayanch dasturining tuzilmasi nimadan iborat?
7. «Ilk qadam» maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi tarkibi nimadan iborat?
8. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi nimalarni o‘z ichiga oladi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasidagi vazifalarini «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

<b>№</b>	<b>Maktabgacha ta’lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta’lim vazirligi funksiyalari</b>
1	Maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasida	


2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish sohasidagi vazifalarini «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

<b>№</b>	<b>Maktabgacha ta’lim vazirligi vazifalari</b>	<b>Maktabgacha ta’lim vazirligi funksiyalari</b>
1	Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratish sohasida	

3. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan hujjatlarini «Toifalash» jadvali asosida namuna bo'yicha loyihalashtiring:

Hujjat organi	Hujjat mazmuni	Hujjat chiqqan muddati	Hujjat raqami
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida	2017-yil 30-sentyabr	PQ-3305

4. «Bolajon» bilan «Ilk qadam» davlat dasturlarini «Ven diagrammasi» asosida loyihalashtiring:



## 2-BOB.

### MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI BOSHQARISH VA UNING FAOLIYATINI TASHKIL ETISH TARTIBI

#### Reja:

- 2.1. Boshqaruv tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.
- 2.2. Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi.

**Tayanch soʻz va iboralar:** boshqaruv, boshqaruv subyekti, boshqaruv obyekti, boshqarish usullari, boshqaruv ilmi, qabul qilish ilmi, tizimli tahlil, tizimlar haqida ilm, operatsiyalar tadqiqoti, yosh avlod, maktabgacha ta'lim, davlat dasturi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, rahbarlik qilish, davlat maktabgacha ta'lim muassasalari, nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari.

#### Boshqaruv tushunchasi va uning mazmun-mohiyati

Boshqaruv tushunchasi tor ma'noda biror bir tashkilot maqsadini aniqlash va unga erishish uchun zarur bo'lgan rejalashtirish, tashkil etish va nazorat jarayonlarini foyda keltirishi, samara berishi qanchalik faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlay bilish, qarorlar qabul qila olishga hamda uning boshqarilishini nazorat qilishga va bu jarayon borishiga bog'liq bo'ladi. Boshqaruv keng ma'noli tushuncha sifatida jahondagi boshqaruv va uni tashkil etishning nazariyotchilaridan biri Piter F.Druker aytganidek, «*Boshqaruv alohida faoliyat turi bo'lib, tashkil etilmagan betartib ommani, bir maqsadga yo'naltirilgan samarali va unumli guruhga, jamiyatga aylantiradigan, ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantiruvchi element hisoblanadi*». Boshqaruv nafaqat korxonada doirasida, qolaversa, butun bir jamiyat, davlatni o'z tanlagan yo'li maqsad va intilishlariga yetaklovchi, iqtisodiyotni kuchli barqaror ishlovchi mexanizmga aylantirishda muhim ta'sir etuvchi kuch hisoblanadi [28; 10-b.].

#### ***Boshqaruv subyekti:***

qonun chiqaruvchi hokimiyat;  
ijro etuvchi hokimiyat;  
sud hokimiyati;  
vazirlar kengashi;

oliy sud, viloyat sudlari;  
tuman xalq deputatlari;  
hokimliklar;  
qo‘mitalar va ularning raislari;  
vazirliklar va vazirlar;  
jamoat kengash raislari;  
korxonalar rahbarlari, bo‘g‘in boshliqlari;  
fuqarolar yig‘ini, raisi (oqsoqollar) va b.

***Boshqaruv obyekti:***

mamlakat;  
respublika;  
viloyat;  
tuman;  
konsern;  
tarmoq;  
korxonalar;  
xodimlar;  
ishlab chiqarish;  
samaradorlik va b.

***Boshqarish usullari*** kishilarni, jamiyatni obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonunlari talablarini bajarishga undaydi. Ular aniq bir usul, uslub, maqsadga erishish yo‘lini ifodalaydi. Demak, boshqaruv uslubi – bu ishchi va xodimlarga umuman boshqarish obyektiga qo‘yilgan maqsadga erishish jarayonida ularning faoliyatini muvofiqlashtirishni maxsus izlanish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. ***Tizim usuli*** boshqaruv muammolarini yechishda ishlatiladi va tizimni butunligiga asoslanadi. Taraqqiy etgan davlatlarda: tizimli majmualar, tizimli tarkib, tizimli funksional, tizimli kommunikatsion va boshqa ko‘rinishlari mavjud.

2. ***Izlanishning majmui usuli*** voqealarni va ularni bir-biri bilan bo‘lgan aloqalarini faqat ushbu fan usuli bilan emas, balki boshqa bir xil hodisalarni o‘rganuvchi fanlar bilan o‘rganadi.

3. ***Izlanishning tarkibiy usuli*** – bu murakkab hodisalarni bo‘laklarga ajratishdan iborat.

4. ***Vaziyatli yondashish*** – bu boshqaruv faoliyatini maqbul usullarini ichki va tashqi sharoitga qarab belgilash.

5. **Integratsion yondashish** – bu izlanish usuli boshqa usullar ko‘rsatkichlarni hisobga olish asosida boshqarish hisoblanadi.

6. **Modellashirish boshqariluvchi** obyektini boshqarish turli sxema, grafik va chizmalar, xomaki materiallar tayyorlash yordamida boshqarish usuli.

7. **Matematik yondashuv** – optimal qaror qabul qilish maqsadida matematik uslublar va kompyuterlar keng miqyosda qo‘llanadi.

8. **Kuzatish usuli** – bu boshqaruv obyektini to‘g‘risidagi ma‘lumotni rejali, ilmiy, uyushtirilgan asosda to‘plash usuli

9. **Eksperiment** – boshqarish asosida boshqariluvchi obyektga nisbatan namunaviy tajribadan o‘tgan usullarni qo‘llash.

Undan tashqari, boshqaruvning eng asosiy bilish uslubi - dialektik uslub bo‘lib, u boshqaruvga o‘rganilayotgan ijtimoiy hodisalarning mohiyatini ochishga yordam beradi. Boshqarish usullarini ta‘sir etishning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra: ma‘muriy-tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy psixologik va huquqiy shakllarga ajratish mumkin. Boshqaruv mahorati uning barcha uslublarini egallash, ular to‘g‘ri baholab qo‘llash, har bir aniq vaziyatda eng samaralisini topish qobiliyatiga ega bo‘lishidan iboratdir [28; 14-b.].

Bugungi kunda «boshqaruv ilmi», «qabul qilish ilmi», «tizimli tahlil», «tizimlar haqida ilm», lekin ko‘proq «operatsiyalar tadqiqoti» bir-birini almashtiradigan tushunchalarni uchratish mumkin. Boshqaruv ilmining yondashish sifatida o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

ilmiy usulning qo‘llanilishi;

tizimli yondashish;

modellar ishlatilishi.

Ilmiy usul boshqaruv ilmi maktabining amaliyotda birinchi bor ishlatilgan har qanday ilmiy tadqiqotning fundamental tadbiridir. U uch bosqichdan iborat.

1. **Kuzatuv**. Gap muammo va vaziyat haqida axborotni obyektiv tarzda yig‘ish va tahlil qilish ustida ketmoqda. Masalan, mahsulotlarga ehtiyoj va zahiralarning darajasi o‘rtasidagi bog‘liqligi ko‘rib chiqilayotganda, rahbar zahiralarning darajasi ehtiyojga qarab o‘zgarilishini baholash kerak. (Bugungi kunda ilmiy tahlilning bu va deyarli hamma boshqa jihatlari odatda idora bo‘linmalari mutaxassislari tomonidan o‘tqaziladi).

2. **Gipotezaning ifoda qilinishi.** Gipotezani ifoda etayotib, tadqiqotchi mavjud imkoniyatlar (alternativlar) – faoliyat (harakat) variantlari – va vaziyat uchun ularning oqibatlarini aniqlaydi, va shuningdek ushbu kuzatuvlar asosida bo‘lgan prognozni qiladi. Maqsad – muammoning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish. Masalan, kuzatuv oy davomida ehtiyoj 10 foizga o‘sganda zahiralar kamayishini ko‘rsatsa, rahbar gipotezaga asoslanishi mumkin, qaysiki zaxiralarning muayyan miqdorga o‘sishi ularning bunday vaziyatda qisqarishi oldini oladi.

3. **Verifikatsiya.** Verifikatsiyaning yoki gipotezaning to‘g‘riligini tasdiqlanishining uchinchi bosqichida tadqiqotchi gipotezani qabul qilingan qarorning natijalarini kuzatib tekshiradi. Bizning misolni davom ettirib, rahbar aslini olganda zahiralar darajasini idora mutaxassisi taklif etgan miqdorga ko‘paytirishi mumkin. Agar bunda zahiralar kamaymasa yoki haddan ziyod ko‘paymasa, gipotezani to‘g‘ri deb tan olish kerak. Agar har holda ehtiyojning o‘sishi bilan mahsulotlarning yetishmasligi paydo bo‘lsa yoki zahiralar shunchalar o‘ssaki, ularni saqlash chiqimlari haddan ziyod bo‘lib qolsa, unda gipotezani noto‘g‘ri deb tan olish kerak. Bu holda, rahbar birinchi bosqichga qaytib, mavjud axborotga gipotezani tekshirish bosqichida yig‘ilgan axborotni va boshqa ma‘lumotlarni qo‘shgandan keyin, yangi gipotezani ifoda qilishi kerak.

Boshqaruv muammolarini hal etayotganda ilmiy usulni qo‘llab turib shuni esda tutish kerakki, tashkilot – bu o‘zaro bog‘langan qismlardan iborat ochiq tizimdir. Shuning uchun boshqaruvga ilmiy yondashishning ikkinchi xususiyati bo‘lib tizimli yondashish turadi.

Boshqaruv ilmining uchinchi xususiyati – modellarni ishlatishdir. Modellashtirish ko‘p hollarda boshqaruv muammolarining murakkabligi va ilmiy tajribalarni real hayotda o‘tkazish qiyinchiligi tufayli zarurdir.

Modellashtirish – bizning muhokamada ko‘p e‘tibor berilgan konsepsiyadir. Ilmiy boshqaruv maktabining eng ko‘rinadigan va ehtimol eng yirik hissasi oddiy sabab-oqibatli baholash uchun juda murakkab vaziyatlarda obyektiv qaror qabul qilishga imkoniyat beradigan muqobil modellarni ishlab chiqishdadir. Bunday modellarning ko‘pi shunchalik murakkabki, har o‘rta rahbar mustaqil ravishda ularni ishlatishga qodir emaslar. Biroq, modellar

haqida ishonarli tasavvurning yo‘qligi rahbarning sinash va xatolar usulini qo‘llashga va tekshirilgan usullar qo‘llashning o‘rniga o‘ylanmagan qabul qilishga olib keladi [28; 17-b.].

Boshqarish bu – boshqalarni ishlashga undash, nazorat qilish, to‘g‘ri qaror qabul qilish, jarayonni tashkil etish va boshqarish demakdir. Rahbarlik bu – turli xil vazifalarning to‘plami yoki amal kursidan iborat emas, balki kasbdir. Rahbarlik insondan zarur xarakter, bilim, ko‘nikma, malaka, mahorat, madaniyat kasbiy nazokat, tajriba, qobiliyat va o‘ziga xos xususiyat talab etadi.

***Boshqarish:***

kelajakni ko‘ruvchi;  
faoliyatni tashkillashtiruvchi;  
tashkilotni idora qiluvchi;  
faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi;  
qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli quroldir (Fransuz olimi A.Fayol).

***Boshqaruv funksiyalari:***

rejalashtirish;  
tashkil etish;  
farmoyish berish;  
muvofiqlashtirish;  
nazorat (Fransuz olimi A.Fayol).

Boshqaruvni jarayon sifatida qaraydigan bo‘lsak, u rahbar tomonidan o‘z qo‘l ostidagilarga bo‘yruq berishdan iborat bo‘lib, bunda topshirilgan ishning maqsadi, muddatlari, ish sharoiti va ijro natijalarini baholashning kriteriyalari qayd qilingan bo‘ladi.

***Pedagogik boshqaruvning maqsadi*** ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish va tizim faoliyatini ta‘minlash, jamiyat tomonidan ta‘lim tarbiyaga qo‘yilayotgan talablarni bajarishini ta‘minlash uchun tizimning takomillashuvini oshirish yo‘llarini ishlab chiqishdan iborat.

***Pedagogik boshqaruvning predmeti*** ta‘lim-tarbiyani rejalashtirish, amalga oshirish kabi vazifalarni bajarib kelayotganlarning faoliyati.

Pedagogik boshqaruv manbalari ta‘lim-tarbiya sohasiga oid bo‘lgan ilm-fanning yutuqlari:

– ta‘lim falsafasi, ta‘lim sotsiologiyasi, ta‘lim psixologiyasi, ta‘lim va tarbiya nazariya, ta‘lim iqtisodi, ta‘lim huquqi, ta‘lim medetsinasi kabilarning natijalari.



### ***Pedagogik boshqaruvning funksiyalari:***

1. Diagnostik funksiya.
2. Qayta aloqa o'rnatish funksiyasi.
3. Mo'ljallash funksiyasi.
4. Stimullashtiruvchi funksiya.
5. Korrektsiyaviy funksiya.
6. Nazorat etish funksiyasi.

Pedagogik boshqaruv, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilmagan resurslarni jalb etish mexanizmini quyidagicha belgilab olish imkoniyatini beradi:

motivatsion;  
intellektual;  
axborotli;  
kommunikativ;  
ijtimoiy-psixologik;  
raqobatli;  
demografik;  
ijtimoiy-ekologik;  
faoliyatli;  
innovatsion;  
strategik;  
pedagog kadrlarga oid;  
tashkiliy;  
bushqaruv;  
ilmiy;  
uslubiy va b.

***Boshqaruvda motivatsiya tushunchasi.*** Motivatsiya motiv so'zidan kelib chiqadi va biron harakat sababi ma'nosini anglatadi. Faoliyat asosi sifatida avval odamda u yoki bu ehtiyoj paydo bo'ladi, shundan so'ng ehtiyoj qondirilishi uchun harakat amalga oshiriladi. Aynan shu harakatga turtki bo'luvchi ichki kuch motiv va ehtiyojni qondirish davomida ishga tushuvchi qator motivlar majmuasi motivatsiya deb ataladi.

Xorijiy mamlakatlarda umumiy vakolatli davlat organlari quyidagilardan iborat:

Parlament; hukumat; mahalliy davlat hokimiyati organlari (2.1-jadvalga qarang):

## Umumiy vakolatli davlat organlari

<b>Parlament</b>		
Rossiya Federatsiyasida parlamentning ta'lim sohasidagi faoliyati	Buyuk Britaniya parlamentining ta'lim sohasidagi faoliyati	AQSH parlamenti
<p>Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasidagi ta'lim bo'yicha qo'mitalar:</p> <p>Fan va ilmiy texnologiyalar bo'yicha qo'mita (9 ta a'zo);</p> <p>Ta'lim bo'yicha qo'mita (14 ta a'zo) faoliyat ko'rsatadi.</p>	<p>Quyi palatasida faoliyat ko'rsatadigan ta'lim bo'yicha qo'mitalar:</p> <p>Fan va texnologiyalar qo'mitasi (11 ta a'zo);</p> <p>Ta'lim qo'mitasi (11 ta a'zo) faoliyat ko'rsatadi.</p>	<p>Kongressning quyi palatasida (Vakillar palatasi) faoliyat ko'rsatadigan ta'lim bo'yicha qo'mitalar:</p> <p>Ta'lim va ishchi kuchi bo'yicha qo'mita (28 ta a'zo). Uning tarkibida 4 ta kichik qo'mitalar faoliyat yuritadi:</p> <p>Yosh bolalar, boshlang'ich va o'rta ta'lim bo'yicha;</p> <p>Ishchi kuchini muhofaza qilish bo'yicha;</p> <p>Oliy ta'lim va ishchi kuchini tayyorlash bo'yicha; Salomatlik, ish haqi, mehnat va nafaqa bo'yicha</p>
<b>Hukumat</b>		
RF Hukumatining ta'lim sohasidagi faoliyati		
<p>Rossiya Federatsiyasi Hukumati huzurida ta'lim masalalari bilan shug'ullanuvchi quyidagi tuzilmalar mavjud:</p> <p>RF xalq xo'jaligi tashkilotlari uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlashni tashkil etish bo'yicha Komissiya;</p> <p>RF yetakchi universitetlarining dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim markazlari o'rtasida raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha Kengash;</p> <p>Rossiya oliy ta'lim muassasalari, davlat, fanlar akademiyasi ilmiy muassasalari va davlat ilmiy markazlarida yetakchi olimlar rahbarligida o'tkazilayotgan ilmiy tadqiqotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha Hukumat Kengashi.</p>		

<b>Mahalliy davlat hokimiyati organlari</b>		
AQShda vakolatlarning kattagina qismi – ta'lim muassasalarini saqlash, moliyalashtirishning ayrim masalalari, akkreditatsiya qilish va boshqa masalalar bevosita mahalliy hokimiyat vakolatiga mansub	Germaniya, Kanadada muhim vakolatlar joylardagi mahalliy davlat organlariga (oliy ta'lim sohasidagi maxsus organning boshqarmalari, bo'limlari) o'tkazilgan, bunda ta'lim sohasidagi markaziy organ davlat ta'lim siyosatini amalga oshirishni muvofiqlashtirish funksiyasini amalga oshirish bilan cheklanadi	Yangi Zelandiya, Vengriya, Ispaniya kabi davlatlar ta'lim sohasini boshqarishni markazlashtirish siyosatidan butkul voz kechganlar, ushbu davlatlarda davlatning faqatgina muvofiqlashtirish va nazorat qilish funksiyalari saqlanib qolgan; qolgan barcha vakolatlar mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazilgan bo'lib, ular ta'lim tizimi sohasida bevosita tezkor boshqaruvni amalga oshiradilar hamda shu maqsadda tegishli qarorlar qabul qiladilar

<b>Maxsus vakolatli davlat organlari tizimi</b>		
AQShda – Ta'lim vazirligi	Yaponiyada – Ta'lim, fan va madaniyat vazirligi	Buyuk Britaniyada – Ta'lim va fan vazirligi
Fransiyada – Milliy ta'lim vazirligi	GFRda – Fan va ta'lim federal vazirligi	Rossiyada – Ta'lim va fan vazirligi
<b>OTMni boshqarish bo'yicha muhim vazifalarni hal qiluvchi muvofiqlashtiruvchi organlar</b>		
AQShda muvofiqlashtiruvchi kengashlar	GFRda Yerlar madaniyat vazirlarining doimiy konferensiyasi	Fransiyada – Oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha Milliy kengash
Buyuk Britaniyada – Universitet rektorlari va vitsekanslerlari qo'mitasi		

<b>Xorijiy mamlakatlarda ta'lim sohasida universitetlarning vakolatlari</b>		
<p>Fransiyada davlat universitetlari mustaqil hisoblanadilar. 1968-yilgi «Oliy ta'limni yo'naltirish to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, universitet mustaqilligi uch jihatga ega:</p> <p>1) ma'muriy jihatdan mustaqillik – universitet va ularning o'quv-tadqiqot birliklari (departament, fakultet) saylanadigan organlar tomonidan boshqariladi;</p> <p>2) moliyaviy jihatdan mustaqillik – universitetlar davlat byudjeti va boshqa manbalardan olingan o'z moliyaviy mablag'larini erkin tasarruf etadilar</p> <p>3) o'quv jihatdan mustaqillik:</p> <p>universitetlar o'quv dasturlari mazmunini;</p> <p>o'quv jarayoni;</p> <p>ilmiy-tadqiqot ishlarini;</p> <p>talabalar bilimni tekshirish usullarini mustaqil belgilaydilar.</p>	<p>Italiyada universitetlar mustaqilligi mamlakat Konstitusiyasi bilan kafolatlanadi (33-modda). Biroq, ushbu mustaqillik universitetlar boshqa o'quv muassasalari singari yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgani va davlat muassasasi hisoblangani bois davlat tuzilmasiga uning tarkibiy qismi sifatida kiritilganligi bilan cheklanadi. Shunga ko'ra, barcha universitet xodimlari davlat xizmatchilariga tenglashtirilgan. Ya'ni, ushbu xodimlar o'zlari mehnat qilib turgan universitetga emas, balki davlatga buysunadi. Universitet tizimi tuzilmasi to'g'risida»gi Qonunning 7-moddasiga ko'ra:</p> <p>universitet xodimlariga o'qitish va ilmiy taqiqotlar erkinligi;</p> <p>«tashkiliy va pedagogik tajribalar» (o'qitish va ilmiy tadqiqotlarning yangi tashkiliy shakl va usullarini ishlab chiqish va qo'llash) o'tkazish; shartnoma asosida davlat va nodavlat tashkilotlar bilan ilmiy-maslahat faoliyati bilan shug'ullanish huquqi kafolatlanadi.</p>	<p>Germaniyada:</p> <p>oliy maktablar o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega; oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi;</p> <p>o'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlarining bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi; uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi; talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan;</p> <p>ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejaları taklif etiladi</p>

<b>Xorijiy mamlakatlarda ta'lim sohasida boshqaruvni amalga oshirishda jamoat tuzilmalari</b>	
Bunday amaliyot anglo-sakson huquq oilasida kengroq uchraydi. AQShda universitetlar mustaqillik va akademik erkinlikka ega bo'lib, o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatida ko'proq davlat emas, balki jamoatchilik tuzilmalariga tayanadi	Buyuk Britaniyada ta'lim bo'yicha jamoatchilik tuzilmalari: Oliy maktabni moliyalashtirish bo'yicha Kengash; Sifatni ta'minlash agentligi (o'qitish sifatini baholash va monitoring qilish); Oliy maktab statistikasi bo'yicha agentlik (statistik ma'lumotlarni to'plash); Oliy maktab tahliliy instituti (alohida tahliliy tadqiqotlar bo'yicha mustaqil organ).

### **Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi**

Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta'minlash. So'nggi yillarda maktabgacha ta'limni boshqarish tizimida institusional islohotlar amalga oshirildi:

Vazirlik va uning joylardagi hududiy bo'linmalari tashkil etildi; zamonaviy boshqaruv shakllarini joriy etish maqsadida davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida Kuzatuv kengashlari tashkil etildi;

maktabgacha ta'limni rivojlantirish jamg'armasi tashkil etildi, uning asosiy vazifalari maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik holatini yaxshilash, maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini hamda Vazirlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni moliyalashtirishdan iborat;

Toshkent shahrining uchta tumanida hamda Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanida sinov rejimida jon boshiga normativ moliyalashtirish joriy etilmoqda;

davlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini rag'batlantirish maqsadida ularga qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish huquqi berilgan.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'limni boshqarish va moliyalashtirish tizimini yanada takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi, ular qatorida:

1) maktabgacha ta'lim tizimida davlat talablarining monitoringi va ularga rioya etilishining samarali mexanizmlarini yaratish;

2) Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning hududiy bo'linmalari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlash, jismoniy va yuridik shaxslarga axborot berishning zamonaviy shakllarini joriy etish, jamiyat va biznes bilan o'zaro hamkorlikda ortiqcha ma'muriy ovoragarchiliklarga barham berish;

3) Vazirlikning boshqaruv jarayoniga ishni rejalashtirish va tashkil qilishning zamonaviy innovatsion usullarini, sifat menejmenti tizimlarini, aniq natijalarga erishishga qaratilgan maqsadli indikatorlarni, xodimlarni tanlab olish, motivatsiya qilish, rivojlantirish va baholash usullarini joriy etish;

4) jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, aholi bilan ochiq muloqotni, jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yo'lga qo'yishning yangi samarali mexanizmlari va usullarini joriy etish;

5) maktabgacha ta'lim muassasalarining turlari, shakllari va ixtisoslashtirilganligini hisobga olgan holda, butun respublika bo'yicha maktabgacha ta'limni jon boshiga normativ moliyalashtirishni izchil joriy etish;

6) maktabgacha ta'lim sohasida byudjetdan moliyalashtirishni boshqarishdagi yangi yondashuv sifatida, maktabgacha ta'lim muassasalari xizmatlariga davlat buyurtmasini joriy etish;

7) davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining ishlashdan maqsadlarini hamda tovarlar va xizmatlarni tabiiy ko'rinishda iste'mol qilishning oqilona meyorlarini hisobga olgan holda ularni moliyalashtirishning yangi normativlarini ishlab chiqish hisobiga maktabgacha ta'lim xizmatlaridan keng aholi qatlamlari foydalanishini ta'minlash;

8) moliyaviy nazorat, maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan byudjet qonunchiligi buzilishining oldini olish va profilaktikasini amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

9) maktabgacha ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish, ular ishtirokidagi amaldagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash [6].

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunning Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;  
 O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
 Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (bundan buyon  
 matnda Davlat inspeksiyasi deb yuritiladi);  
 O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi;  
 O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi;  
 o‘z tasarrufida maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lgan boshqa  
 davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari;  
 mahalliy davlat hokimiyati organlari (2.2-jadvalga qarang) [3]:

### 2.2-jadval

<b>№</b>	<b>Qonun moddalarlari</b>	<b>Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro‘yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar</b>
1	8-modda	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari
2	9-modda	Davlat inspeksiyasining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari
3	10-modda	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari
4	11-modda	O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari
5	12-modda	O‘z tasarrufida maktabgacha ta’lim tashkilotlari bo‘lgan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining vakolatlari
6	13-modda	Mahalliy davlat hokimiyati organlarining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi vakolatlari
7	14-modda	Fuqarolarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi tadbirlarda ishtirok etishi

O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi axborotni yig‘ish, saqlash, izlashni, unga ishlov berish va undan foydalanishni amalga oshirish imkonini beruvchi Maktabgacha ta’limni boshqarishning axborot tizimi yaratilishini hamda faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydi. Maktabgacha ta’lim

tashkiloti to'g'risidagi ma'lumotlarni Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimiga kiritish barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun majburiydir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlari Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimiga kiritiladigan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar bo'ladi. Maktabgacha ta'limni boshqarishning axborot tizimiga kiritiladigan ma'lumotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi [3].

O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishni quyidagilar amalga oshiradi:

pedagogik kengash;

kuzatuv kengashi;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish tartibi uning ta'xis hujjatlarida belgilanadi [3].

O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi pedagog xodimlardan iborat bo'lgan, uning pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishga doir vakolatlarni amalga oshiradigan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining kollegial boshqaruv organidir. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin [3].

O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tarbiyalash, rivojlantirish va unga ta'lim berishga ko'maklashish maqsadida kuzatuv kengashi tashkil etilib, uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, o'z xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari orasidan shakllantiriladi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti kuzatuv ken ashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi [3] (2.3-jadvalga qarang):



## Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish

<p>takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilaydi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan o'zaro munosabatlari tartibini belgilaydi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlarining malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbuskorligini rivojlantirish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilmfan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining va pedagog xodimlarining hisobotlarini eshitadi</p>	<p>davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;</p> <p>O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga kelishib olishga kiritish uchun tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini belgilaydi, shuningdek uni egallab turgan lavozimidan ozod etish yuzasidan takliflar kiritadi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining ushbu tashkilot faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet mablag'laridan, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hiso-botlarini eshitadi;</p> <p>davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining va boshqa xodimlarining faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;</p> <p>tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarini va boshqa xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.</p>
--	---

Boshqaruv funksiyalarini bajarishda va jamoat ishlab chiqarishida zamonaviy menejer:

- rahbar – boshqaruvchi;
- rahbar – diplomat;
- rahbar – murabbiy, tarbiyachi;
- rahbar – inson;
- rahbar – tadbirkor.

**Rahbar** – innovator sifatida maydonga chiqadi. Har bir menejer o‘ziga xos boshqaruv uslubiga ega. Uslub – bu ishlash, boshqarishdagi o‘ziga xos yo‘l, usul ma’nosini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan quyidagi tushunchalarni ajrata bilish lozim:

- boshqaruv uslubi;
- ish uslubi;
- rahbarning ish uslubi.

**Boshqaruv uslubi** – bu boshqaruv jarayonida yuzaga chiqadigan muammolarni hal qilish usullari, yo‘llari majmuidir.

Ish uslubi – bu boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish maqsadida biror-bir organning yoki rahbarning bo‘ysunuvchilarga aniq, va nisbatan barqaror ta’sir ko‘rsatish usuli va yo‘llari majmuyidir.

Masalan:

- mamlakat boshqaruv organlarining ish uslubi;
- vazirlik, qo‘mita, hokimlarning ish uslubi;
- sud, prokuraturaning ish uslubi;
- korxonalar, sexlarning ish uslubi;
- ayrim rahbarlarning ish uslubi va hokazolar.

Boshqaruvning turli pog‘ona va bosqichlarida turgan boshqaruv organlari va rahbarlarning ish uslublari har xildir. Shu nuqtayi nazardan ish uslubi g‘oyat ko‘p qirrali tushunchadir.

**Rahbarning ish uslubi** – bu boshqaruv jarayonida u yoki bu masalani hal qilishda uning o‘ziga xos yondashishidir. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil etganda va qo‘l ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda u o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. Biroq har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayonida o‘zi uchun mos bo‘lgan, O‘z rahbarlik uslubini belgilaydigan usullar bilan harakat qiladi. Mutlaqo bir xil ikki kishi bo‘lmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yuq. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo‘l ostidagilari bilan aloqasida, ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi. Uslub boshqaruv organining intellektual salohiyoti, sifatleri, uning individual xususiyatlari bilan belgilanadi (2.4-jadvalga qarang):

2.4-jadval

Rahbar turlarining o'ziga xos xususiyatlari

№	Belgilari	Avtoritar rahbar	Demokratik rahbar	Liberal rahbar
1	Qaror qabul qilishda	Yakkabosh, jamoa fikri bilan hisoblashmaydi	Jamoa fikri bilan hisoblashadi	Ko'rsatma-ga binoan ish tutadi
2	Qaror yechimlarini bo'ysunuvchilarga yetkazishda	Yozma va og'zaki buyruq, ko'rsatma orqali	Taklif orqali	Iltilmos qilish, yalinish orqali
3	Mas'uliyatni taqsimlash	To'la-to'kis rahbar qo'lida	Vakolatiga binoan	To'la-to'kis ijrochilarning foiziga ko'ra
4	Bo'ysunuvchilarning tashabbuskorligiga	Yo'l qo'yadi	Rarbatlantiradi va foydalanadi	To'la-to'kis tayanadi
5	Kadrlarni tanlashda	Kuchli raqobatdoshlardan qutulish tarafdori	Ishchan, bilimdon xodimlarga mo'ljal oladi va ularning o'sishiga yordam beradi	Beparvo
6	Bilimga bo'lgan munosabatda	Hamma narsani o'zim bilaman deb hisoblaydi	Muttasil o'qiydi va qo'l ostidagi bo'ysunuvchilardan ham shuni talab qiladi	E'tiborsiz, baribir, beparvo
7	Muomalada	Salbiy, masofa saqlaydi	Ijobiy, muloqotda kirishimli va faol	Tashabbus ko'rsatmaydi
8	Bo'ysunuvchilarga nisbatan	Kayfiyatiga qarab muomala qiladi, asabiy	Har xil, talabchan, xayrixoh, andishali	Talabchan emas, muloyim
9	Intizomga nisbatan	Qattiq, rasmiy, yuzaki	Maqsadga muvofiq talab qiladi	Yumshoq, yuzaki
10	Rag'batlantirishga nisbatan	Onda-sonda pag'batlantirib, tez-tez jazolash tarafdori	Onda-sonda jazolab, tez-tez rarbatlantirish tarafdori	Aniq mo'ljali yo'q

Kasbiy faoliyatni tashkil etishda rahbar quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur:

muayyan rahbarlik vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish;

xodimlar, hamkasblar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etish;

amaldagi lavozimiga, jamoaga hamda jamiyatga bo'lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash.

Pedagogik majburiyatlar sirasidan, yana shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo'lish, o'ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va malakasini oshirishga intilish, xodimlar bilan o'zaro hurmatga asoslangan va talabchan munosabatni o'rnatish, murakkab nizolarni ijobiy hal qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabilar ham o'rin oladi.

Rahbar madaniyati deganda rahbar odobi va iqtidori o'rtasidagi dialektik bog'lanish tushuniladi. Bu bog'lanish quyidagi fazilatlar majmuida o'z aksini topadi:

Rahbar madaniyati = odob+iymon+insof+adolat+iqtidor. Odob – aqlning suyanchig'i, barcha fazilatlarining mezoni. Behudaga xalqimizda «Aql bilan odob – egizak» deyishmaydi. Odob - yaxshilik bilan yomonlikning farqini bilish, foyda bilan zarar orasidagi tafovutni anglashdir. Odob vositasida kishi o'z jonini yomon xislatlardan davolaydi, yoqimsiz ayblardan poklaydi, chiroyli fazilatlardan bezaydi. Odob rahbari eng chiroyli xulq bilan qurollantiradi. Natijada aql egalari bunday rahbardan har ishda rozi bo'ladilar. Odobli rahbar esa kundan-kunga obro' topadi, nufuzi oshadi, ishlari ravnaq topadi. Ba'zi xakimlar odobni eng mas'um va ko'rkam fe'lga ega bo'lish desalar, ba'zilar nafsni barcha kasb, odatlardan tozalash deydilar. Demak, rahbardagi odobning mavjudligi, bu noyob ne'matning mavjudligidir

Kvalimetriya – tabiatdagi barcha obyektlarni va jamiyatda sodir bo'ladigan barcha jarayonlar, ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlarning sifatini miqdoriy baholash muammolari va metodologiyasini o'rganuvchi ilmiy fan. Kvalimetriya fan sifatida o'rganilishi va baholanishi lozim bo'lgan obyektning sifatini belgilovchi hajm, birlik, shkala, talablar yordamida mazkur obyektning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlashni belgilangan

va qabul qilingan o'lchov jarayonini amalga oshirish nazariyasi asosida o'rganadi.

Hozirgi zamon nuqtayi nazaridan kvalimetriyaning sifat ko'rsatkichlari ikkita yirik guruh: tabiiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarga ajratib o'rganiladi.

Tabiiy ko'rsatkichlar o'z navbatida: o'rganilayotgan obyektning fizikaviy, kimyoviy va biologik miqdor ko'rsatkichlariga ajratiladi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqea-hodisalar, ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlari, pedagogik jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqei va o'rni, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga qo'llaniladi .

Kvalimetriya yuqorida qayd etilgan har bir guruhning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxlitlikda o'rganadi va baholashning umumiy tartibini ishlab chiqadi.

Kvalimetriyaning uchta: nazariy (umumiy), maxsus, va amaliy tarmoqlari mavjud.

Nazariy kvalimetriyada aniq obyekt loyihalanadi (abstraksiyalanadi) va uning sifat ko'rsatkichlarining umumiy qonuniyatlari va matematik modellari o'rganiladi. Nazariy kvalimetriyaning tadqiqot obyekti jism, ishlab chiqarish mahsulotlari, obyekt va subyektlarning sifatini miqdoriy baholashning falsafiy va metodologik asoslarini ishlab chiqish sanaladi. Nazariy kvalimetriyaning amaliy sohalarida turli obyekt va jarayonlarning sifatini baholash metodikasi va nazariy asoslari umumiy xususiyatga ega.

Maxsus kvalimetriya turli xildagi va har xil maqsadda foydalaniladigan aniq obyektning sifatini baholashning aniq metodikasi va matematik modelini ishlab chiqadi. Maxsus kvalimetriyaning ekspert, ehtimollik-statistik, indeksli, kvalimetrik taksonomiya kabi turlari mavjud.

Amaliy kvalimetriya – texnika, ishlab chiqarish, inson mehnati faoliyati, turli loyiha va jarayonlarning sifatini baholashni ishlab chiqadigan soha sanaladi. Amaliy kvalimetriyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanib, texnik kvalimetriya, ijtimoiy kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, tibbiy kvalimetriya, geologik kvalimetriya va hokazo tarmoqlari mavjud (2.5-jadvalga qarang):

**Rahbar faoliyatida kvalimetriyaning roli**

№	Kvalimetriya	Rahbar faoliyatidagi roli
1	Tabiiy ko'rsatkichlar o'z navbatida: o'rganilayotgan obyektning fizikaviy, kimyoviy va biologik miqdor ko'rsatkichlariga ajratiladi.	Xodimlarining tabiiy holatini tahlil qiladi. Boshqaruvdagi tabiiy jarayolarni tahlil qilishda muhim
2	Ijtimoiy ko'rsatkichlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichidagi voqea-hodisalar, ishlab chiqarish va iste'mol mahsulotlari, pedagogik jarayonlar, shaxsning ijtimoiy va mustaqil hayotdagi mavqeyi va o'rni, savodxonligi, tarbiyalanganlik darajasi, shaxs kamolotiga qo'llaniladi	Xodimlarining ijtimoiy kelib chiqishi, uning oilaviy munosabatlari hamda moddiy hayotini tahlil qiladi. Boshqaruvdagi shaxslararo munosabatlarni tartiblashga muhim
3	Nazariy kvalimetriyada aniq obyekt loyihalanaadi (abstraksiyalanaadi) va uning sifat ko'rsatkichlarining umumiy qonuniyatlari va matematik modellari o'rganiladi. Nazariy kvalimetriyaning tadqiqot objekti jism, ishlab chiqarish mahsulotlari, obyekt va subyektlarning sifatini miqdoriy baholashning falsafiy va metodologik asoslarini ishlab chiqish sanaladi.	Har bir xodimi bo'yicha ma'lumotlar o'rganiladi. Boshqaruv faoliyatining har bir qismining funksiyalariga e'tibor qaratiladi
4	Maxsus kvalimetriya turli xildagi va har xil maqsadda foydalaniladigan aniq obyektning sifatini baholashning aniq metodikasi va matematik modelini ishlab chiqadi.	Har bir xodimining maxsus tomonlari baholanadi.
5	Amaliy kvalimetriya-texnika, ishlab chiqarish, inson mehnati faoliyati, turli loyiha va jarayonlarning sifatini baholashni ishlab chiqadigan soha sanaladi.	Boshqaruv faoliyatidagi xodimlarining mehnat faoliyati baholanadi.

O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunining 51-moddasida davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari berilgan. Direktor davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbaridir. Direktor davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi. Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti direktorining huquq va majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatlar, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining ustavi, shuningdek mehnat shartnomasi bilan belgilanadi [3].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishiga qadar mudira tushuncha amaliyotda qo‘llanilgan. Mudira – maktabgacha ta’lim muassasasining rahbari bo‘lib quyidagi vazifalarni bajarilgan:

1. Mudiraning tashkiliy, ma’muriy, pedagogik faoliyati va unga quyilgan talablar.

2. Mudira ishining mazmuni:

- a) ma’muriy-xo‘jalik ishlarini boshqarish;
- b) tashkiliy-pedagogik ishlarga rahbarlik;
- v) ta’lim-tarbiya va metodik ishlarga rahbarlik;
- g) ota-onalar bilan ishlash uslublari;
- d) dastur talablarining bajarilishini nazorat qilish;
- e) mudiraning maktabgacha ta’limi bo‘linmalari, ota-onalar, jamoatchilik oldidagi mas’uliyati;
- j) mudira ishini rejalashtirish;
- z) mudiraning xuquq va vazifalari.

3. Maktabgacha ta’lim muassasasi uslubchisi, uning yutuqlari, vazifalari va unga quyilgan talablar.

4. Uslubchining metodik ishlarga rahbarligi (2.6-jadvalga qarang) [21; 65-b.]:

## Mudiraga xos holatlar

№	Kvalimet-riya	Rahbar faoliyatidagi roli
1	Lavozim vazifalari	<p>a) maktabgacha ta'lim muassasasi umumiy faoliyatiga rahbarlik qilish;</p> <p>b) pedagogik jamoa va boshqa xodimlarning bolalar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlarida yuqori samaraga erishishini tashkil qilish;</p> <p>v) tarbiyaviy jarayonda mehnatni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan foydalanish;</p> <p>g) bolalarni maktabda o'qitishga tayyorlash bo'yicha davlat talablariga muvofiq tarbiyalash dasturlarining bajarilishini nazorat qilish;</p> <p>d) bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, ularni pedagogika va gigiyena talablariga muvofiq tarbiyalash va o'tish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'minlash;</p> <p>e) pedagogik kengashga rahbarlik qilish, oilada farzand tarbiyasi masalalari bo'yicha ota-onalar bilan ishlashni tashkil qilish;</p> <p>j) sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash;</p> <p>z) bolalarning ovqatlanishini, yozgi sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilish;</p> <p>i) maktabgacha ta'lim muassasasida tasdiqlangan rejaga muvofiq ish yuritishni tashkil qilish, tarbiyalanuvchilar ro'yxati bo'yicha to'ldirilishini amalga oshirish;</p> <p>y) jihozlardan to'g'ri foydalanish, ularning hisobini yuritish va saqlanishini ta'minlash;</p> <p>k) kadrlarni tanlash, joy-joyiga to'g'ri (optimal, samarali) qo'yishni ta'minlash, ularning ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;</p> <p>i) byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish va muassasa mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzish, maktabgacha ta'lim muassasasi nomidan faoliyat yuritish, uning manfaatlarini himoya qilish, ishonchnomalar berish, turli yo'nalishlardagi davlat va nodavlat jamg'armalar bilan o'zaro hamkorlikda ish yuritish;</p>



№	Kvalimet-riya	Rahbar faoliyatidagi roli
2	Mudira malakasiga qo'yiladigan talablar	a) o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot va kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha maxsus kurslarni tugatgani; b) xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini bilishi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olishi; v) besh yildan kam bo'lmagan ish stajiga ega bo'lishi
3	Siyosiy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan	<ul style="list-style-type: none"> <li>- siyosiy va huquqiy yetuklik;</li> <li>- bilimdonlik;</li> <li>- xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;</li> <li>- topshirilgan ish uchun shaxsiy mas'uliyatni his etish;</li> <li>- halollik, vijdonlilik;</li> <li>- shaxsiy manfaatlarni jamoat manfaatlariga bo'ysundirish;</li> <li>- qo'l ostidagi xodimlarga nisbatan mehribon va e'tiborli bo'lish, jamoadan uzilib qolmaslik;</li> <li>- tashabbus va yangiliklarga intilishni qo'llab-quvvatlash;</li> <li>- qat'iyat va kuchli iroda;</li> <li>- tanqidni to'g'ri qabul qilish, o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish;</li> <li>- doimo ma'naviy jihatdan uyg'oq bo'lish</li> </ul>
4	Mehnat va ijro intizomiga munosabati	<ul style="list-style-type: none"> <li>- mehnatsevarlik; qo'l ostidagi xodimlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;</li> <li>- jamoada namunali mehnat va ijro intizomini yo'lga qo'yish;</li> <li>- ishni reja asosida tashkil etish va uning bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish</li> </ul>
5	Bilim darajasi nuqtayi nazaridan	iqtisodiyot asoslarini bilishi, boshqarish ilmini chuqur egallash; <ul style="list-style-type: none"> <li>- zamonaviy axborot-kommunikatsiya va texnologiyalaridan xabardor bo'lish;</li> <li>- boshqarish ilmi, uning mazmun-moxiyati, funksiyalari va tuzilishini bilish;</li> <li>- innovatsiyalar, yangiliklarga chanqoqlik;</li> <li>- o'z ustida tinimsiz ishlab, bilim darajasi va dunyoqarashini yuksaltirib borishga intilish va h.k.</li> </ul>

№	Kvalimet-riya	Rahbar faoliyatidagi roli
6	Tashkilot-chilik qobiliyati nuqtayi nazaridan	<ul style="list-style-type: none"> <li>- xodimlarni tanlay bilish, ularning bilimi va tajribasidan samarali foydalanishni ta'minlash;</li> <li>- qo'l ostidagi xodimlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;</li> <li>- jamoada jipslik va uyushqoqlik muhitini vujudga keltira olish;</li> <li>- maqsad sari intiluvchanlik;</li> <li>- murakkab vaziyatlarda esankiramasdan, to'g'ri, oqilona qarorlar qabul qila olish</li> </ul>
7	Boshqarish samaradorligini ta'minlash jihatidan	<ul style="list-style-type: none"> <li>boshqarishni kollegial tarzda (bamasla-hat) tashkil qila olish;</li> <li>- maqsad va vazifalarni qisqa va aniq, bayon etish;</li> <li>- ishga oid xatlar, buyruqlar, farmo-yishlarni bekorlik bilan tayyorlay olish;</li> <li>- turli manbalardan ish va boshqarish samaradorligini oshirish uchun zarur axborotlarni topa olish va ulardan foydalanish;</li> <li>- rahbarlar va qo'l ostidagi xodimlar fikr-mulohazalarini tinglay bilish;</li> <li>- asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qilish;</li> <li>- xodimlarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ta'minlash;</li> <li>- boshqaruv organi qarorlarining bajarilishi ustidan izchil nazoratni ta'minlash;</li> <li>- boshqaruv tuzilmasi va boshqarish usullarini uzluksiz takomillashtirib borish va hokazo.</li> </ul>

### **O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Boshqaruv tushunchasi va uning mohiyati nimalardan iborat?
2. Boshqaruv subyekti ba obyektiga nimalar kiradi?
3. Boshqarish usullari deganda nimani tushunasiz?
4. Qanday boshqaruv usullari mavjud?
5. Boshqaruv ilmi deganda nimani tushunasiz?
6. Maktabgacha ta'limni boshqarish tizimi qanday amalga oshiriladi?
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbarining faoliyatini izohlab bering.

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. Boshqaruv sohasiga oid tushunchalarni «Tushunchalar tahlili» asosida loyihalashtiring:

№	Tushunchalar	Tushunchalar mazmuni
1	boshqaruv	
2	boshqarish usullari	
3	qabul qilish ilmi	
4	tizimli tahlil	
5	tizimlar haqida ilm	

2. Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar vakolatlarini «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

№	Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlar	Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi organlarning vakolatlari
1	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	
2	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	
3	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi	
4	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	
5	O'z tasarrufida maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'lgan boshqa davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari	
6	Mahalliy davlat hokimiyati organlari	

3. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishni «Toifalash jadvali» asosida loyihalashtiring:

№	<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish</b>	<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish mazmuni</b>
1	Pedagogik kengash	
2	Kuzatuv kengashi	
3	Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari	
4	Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish	

### **3-BOB.**

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI**

### **Reja:**

- 3.1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari.
- 3.2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** yosh avlod, maktabgacha ta’lim, davlat dasturi, maktabgacha ta’lim tashkiloti, davlat maktabgacha ta’lim muassasalari, nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari, maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo‘lgan «Mehribonlik» uylari, ilk yosh guruh (2-3 yosh), kichik guruh (3-4 yosh), o‘rta guruh (4-5 yosh), katta guruh (5-6 yosh), maktabga tayyorlov guruhi (6-7 yosh).

### **Maktabgacha ta’lim tashkilotlari**

O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunning 15-moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi belgilangan. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

ta’lim berishning muqobil shakllari;

maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta’lim tashkilotlari;

maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar [3].

O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunning 16-moddasida maktabgacha ta’lim tashkilotining maqomi berilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat va nodavlat tashkiloti bo‘lishi mumkin. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ham tashkil etilishi mumkin. Maktabgacha ta’lim tashkilotida siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga hamda faoliyat yuritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi [3].

O‘zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunning 17-moddasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari berilgan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari quyidagi turlar bo‘yicha tashkil etiladi:

- umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti (3.1-jadvalga qarang) [3]:

### *3.1-jadval*

#### **Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari**

№	<b>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari</b>	<b>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari faoliyati</b>
1	umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	umumiy rivojlantirish yo‘nalishidagi guruhlarda maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi
2	ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti	rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi
3	inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti	bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi
4	qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo‘lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o‘qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa turlarda ham tashkil etilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunning 31-moddasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish rejimi berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davrni, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar ularda bolalarning bo'lishi davomiyligiga qarab ajratiladi (3.2-jadvalga qarang):

### 3.2-jadval

#### Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi guruhlar davomiyligi

№	Guruhlar	Guruhlar davomiyligi	Uyqu	Ovqatlantirish
1	bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlar	3-4 soat	kunduzgi uyqu	bir martalik ovqatlantirish
2	to'liq kunli guruhlar	9, 10, 5 soat	kunduzgi uyqu	uch martalik ovqatlantirish
		12 soat		to'rt martalik ovqatlantirish
3	bolalar kecha-yu kunduz bo'ladigan guruhlar		kunduzgi va tungi uyqu	besh martalik ovqatlantirish

#### Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining kasbi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkil etilgunga qadar tarbiyachi tushunchasi pedagog xodimlari tushunchasiga o'zgartirildi. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli va ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga,

ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borishga yordam beradi.

Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoiy faol bo'lishi, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi lozim. Shuningdek, tarbiyachining pedagogik hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtayi nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Buning uchun o'sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog'lom ma'naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo'yildi. Har bir tarbiyachi o'zini talab va nazorat qila bilishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo'ygan talablarni amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Bolaning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash.
2. Aqliy qobiliyatini o'stirish.
3. Milliy qadriyatimiz va ma'naviyatimizning g'oyaviy-aqliy tamoyillariga mos keluvchi e'tiqod va qarashlarini tarkib toptirish.
4. Ona vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish.
5. Yosh avlodda o'rtoqlik, do'stlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish [25; 30-31-b.].

Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to'g'ri tahlil qilib, unga ta'sir etuvchi vositalarni qo'llay olishi kerak. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo'lishi va uning nutqi quyidagi xususiyatlarda aks ettira olishi kerak:

nutqning aniqligi; nutqning irodaviyligi; nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon, (muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos so'zlar) varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o'zga millatlarga xos so'zlarning o'rinsiz qo'llanilishi) vulgarizm (harakat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rinni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so'zlash) so'zlaridan xoli bo'lishi va pedagogning nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;



nutqning ravonligi; nutqning boyligi (soʻzlash jarayonida maqsadga muvofiq tarzda hikmatli soʻzlar, maqollar, koʻchirma gaplardan foydalana olish) [25; 33-34-b.].

Tarbiyachi oʻziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda oʻsha faoliyatiga nisbatan qiziqish uygʻota olishi, ularning diqqatini jalb qilib faolligini oʻstirish bolalarni xulqini xatti-harakatini real baholay olishi kerak. Har bir faoliyat uchun kerakli materialni oldindan tayyorlab qoʻyishi yangi bilimni egallagan bilimlari bilan bogʻlay olishi hamda bolalar egallab olishi lozim boʻlgan bilim, malaka va koʻnikmalar ularning yosh imkoniyatlariga mos boʻlishi va ularni asta-sekin murakkablashtirib borishi kerak.

Oʻzbekiston Respublikasining «Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida»gi qonunining 39-moddasida maktabgacha taʼlim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari berilgan. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining pedagog xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega boʻlishi mumkin. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining pedagog xodimlarini oʻz kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bogʻliq boʻlmagan ish turlariga jalb etishga yoʻl qoʻyilmaydi, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining pedagog xodimlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham boʻlishi mumkin. Taʼlim-tarbiya jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki bolalarni qonun hujjatlariga zid boʻlgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi [3] (3.3-jadvalga qarang):

### 3.3-jadval

#### Maktabgacha taʼlim tashkilotlari pedagog-xodimlarining huquq va majburiyatlari

<b>Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining pedagog xodimlari huquqlari</b>	<b>Maktabgacha taʼlim tashkilotlarining pedagog xodimlari majburiyatlari</b>
kasbiy shaʼni, qadr-qimmatini va ishchanlik obroʻsini himoya qilish; ijodiy tashabbus koʻrsatish, taʼlim va tarbiya uslubiyotlarini, oʻquv qoʻllanmalari hamda taʼlim vosita-	bolalarga professional darajada taʼlim va tarbiya berishi; pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilishi, bolalarni zoʻravonlik

larini erkin tanlash; maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish; maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirilish; maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish	ko'rinishlaridan himoya qilishi, ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga hurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi; maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini bajarishi; o'z malakasini oshirishi; o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart
---	--

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining 40-moddasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklamasi berilgan. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari uchun haftalik ish yuklamasining miqdorlari qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining haftalik ish yuklamasi ushbu ish turi bo'yicha ish vaqti normalangan davomiyligining bir yarim baravari miqdoridan oshmasligi kerak. Qonun hujjatlarida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarining ayrim toifalari uchun haftalik ish yuklamasining boshqacha davomiyligi belgilanishi mumkin [3].

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining 41-moddasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash va dam olishi belgilab berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining mehnatiga haq to'lash miqdori va tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimining lavozimi va malaka toifasiga muvofiq belgilangan bazaviy tarif stavkalari;

lavozim maoshlariga ustamalar va qo'shimcha haqlar.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlari uchun quyidagi malaka toifalari belgilanadi:

o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga ega mutaxassis;

bakalavr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega ikkinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega birinchi toifali mutaxassis;

bakalavr, magistr darajasiga yoki oliy ta'lim darajasi bo'yicha akademik darajalar joriy etilguniga qadar olingan oliy ma'lumotga ega oliy toifali mutaxassis.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, har yilgi uzaytirilgan haq to'lanadigan ta'til va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi [3].

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining 42-moddasida pedagogning kasbiy standarti va 43-moddasida esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish belgilab berilgan. Pedagogning kasbiy standarti hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlari inobatga olingan holda talablar bilan to'ldirilishi mumkin. Pedagogning kasbiy standarti pedagogning shaxsiy sifatlariga nisbatan uning bilimlari, mahorati va ko'nikmalaridan ajralmas bo'lgan talablar qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Pedagogning malaka toifasi pedagogning kasbiy standartiga muvofiq beriladi [3] (3.4-jadvalga qarang):

### 3.4-jadval

#### **Pedagogning kasbiy standarti va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish**

<b>Ish beruvchilar tomonidan pedagogning kasbiy standarti</b>	<b>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish</b>
kadrlar siyosatini shakllantirish; pedagog kadrlarni ishga qabul qilish;	maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan

mehnat shartnomalarini tuzish; lavozim yo'riqnomasini ishlab chiqish; mehnatga haq to'lash; pedagoglar o'qishini tashkil etish; maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini attestatsiyadan o'tkazish chog'ida qo'llaniladi	o'tkazish besh yilda kamida bir marta amalga oshiriladi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish Davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi; maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish natijalariga ko'ra pedagog xodimning egallab turgan lavozimiga muvofiqligi aniqlanadi va uning malaka toifasi belgilanadi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi
---	--

O'zbekiston Respublikasining «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining 44-moddasida maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir cheklovlar belgilab berilgan. Muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, shuningdek, qasddan jinoyatlar sodir etganligi uchun ilgari hukm qilingan shaxslar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Ilgari o'zining aybli harakatlari sababli mehnat shartnomasi tugatilgan shaxslar, shuningdek, qo'llanilgan jazo chorasidan, sudlanganligi holati tugatilganligidan yoki olib tashlanganligidan hamda o'ziga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo'llanilganligidan qat'i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ilgari hukm qilingan shaxslar, jinoyat ishlari aybdorligi to'g'risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslar maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi organlari va tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas. Qonunda maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir boshqa cheklovlar ham belgilanishi mumkin [3].

## **O‘zini o‘zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari qanday turlar bo‘yicha tashkil etiladi?
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi guruhlar ularda bolalarning bo‘lishi davomiyligiga qarab qanday ajratiladi?
3. Maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi davlat siyosatining ro‘yobga chiqarilishini amalga oshiruvchi qanday organlar mavjud?
4. Davlat MTT boshqarish qanday amalga oshiradi?
5. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining qanday huquq va majburiyatlari mavjud?
6. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining lavozim maoshlari nimalar asosida shakllantiriladi?
7. Pedagogning kasbiy standarti nimadan iborat?
8. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari qanday attestatsiyadan o‘tkaziladi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari turlarining «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

<b>Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti</b>	<b>Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti</b>	<b>Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti</b>	<b>Qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti</b>

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi guruhlar davomiyligini «Toifalash jadvali» asosida loyihalashtiring:

<b>№</b>	<b>Guruhlar</b>	<b>Guruhlar davomiyligi</b>	<b>Uyqu</b>	<b>Ovqatlan-tirish</b>
1	bolalar qisqa vaqt bo‘ladigan guruhlar			
2	to‘liq kunli guruhlar			

<b>№</b>	<b>Guruhlar</b>	<b>Guruhlar davomiyligi</b>	<b>Uyqu</b>	<b>Ovqatlan-tirish</b>
3	bolalar kecha-yu kunduz bo‘ladigan guruhlar			

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog-xodimlarining huquq va majburiyatlari «Toifalash jadvali» asosida loyihalashtiring:

<b>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari huquqlari</b>	<b>Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari majburiyatlari</b>

## 4-BOB.

### MAKTABGACHA PEDAGOGIKA TARIXI

#### Reja:

- 4.1. Maktabgacha pedagogika tarixi.
- 4.2. O'rta asrlarda Sharqda, Yevropada, Rossiyada ta'lim va tarbiya berish hamda til ta'limiga e'tibor.
- 4.3. O'zbekistonda maktabgacha pedagogikaning rivojlanishi.

#### Tayanch so'z va boralar:

Waldkindergarten, Bauernhofkindergarten, Reggio-Kindergarten, Freinet-Kindergarten, Integratsion bolalar bog'chalari, Internatsional bolalar bog'chalari, bolalar yaslisi, bolalarga qarash markazlar (hoikuen), bolalar bog'chalari (yōchien), nogironlar uchun maxsus muassasalar.

### Maktabgacha pedagogika tarixi

Insoniyat tarixida bolalarga, bolalikka munosabat va umuman ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar juda keskin o'zgaradi va hayotimizning hozirgi bosqichini tushunish uchun o'tmishda qanday narsalar borligini bilish foydalidir. Qadimda milodiy to'rtinchi asrgacha bolalarni o'ldirish oddiy hisoblangan. Ota-onalar bolani tarbiyalash yoki boqish qiyin bo'lishidan qo'rqqanlarida odatda uni halok qilishgan.

Osiyo, Afrika va Amerikada, ayniqsa, turli mintaqalarda sanalar juda boshqacha. Rossiya Yevropadan 500 yil orqada. Qadimda, bir bola oson, chunki jismoniy nogironlik yoki bola boqish uchun qiyin bo'ladi, deb qo'rqib chiqib halok bo'lishi mumkin. Ota-onalar qizlardan ko'ra o'g'il bolalarni tirik qoldirish ehtimoli ko'proq edi.

Birinchi asrning oilaviy maktubi. Rim muallifi o'zining (ehtimol, sevimli) xotiniga yozadi: «Hilariondan Aziz Yelis, shuningdek, aziz Berous va Apollinarionga salom. Biz Iskandariyadamiz. Chaqalog'imizga qarang. Pul to'lashim bilanoq sizga pul jo'nataman. Agar men xudolarga ibodat qilsam, siz xavfsiz tug'ilasiz, bolani ushlab turing va qizni tashlang. Afrodiziyalarga sizni unutmashlikni aytdingiz. Seni qanday unutay? Xavotir olmang».

Miloddan avvalgi 228 – 220-yillar atrofida milet fuqarosi bo'lgan 79 oilada 118 o'g'il va 28 qiz bo'lgan. Bolalar ko'pincha

xudolarga qurbon bo'lgan. Bu odat ko'plab xalqlar orasida mavjud edi: Irlandiya Keltlari, Gauls, skandinavialiklar, misrliklar va boshqalar, hatto Rimda ham bolalarni qurbon qilish bo'yicha qonunlar mavjud bo'lgan [20].

Bolalarni nobud qilish milodiy to'rtinchi asrdan XIX asrga qadar davom etgan. Bolalarni itoatkor qilish uchun kattalar ularni har xil voqealar bilan qo'rqitdilar. Qadimgilarning aksariyati bolalar oldida tungi jinlar va jodugarlarning tasvirlarini saqlab qolish, ularni o'g'irlash kabi yovuzliklar amalga oshirilgan. Milodiy IV – XIII asrlarda bolani rad etish, uni islimiy hamshiraga, kichik bolalar uchun monastirga yoki muassasaga, xizmatkor yoki garovga oluvchi sifatida boshqa zodagon oilaning uyiga yuborish odatiy hol hisoblangan. Bola boshqa oilaga sotilishi mumkin edi; bu umumiy mahsulot edi. Uyda bolaga kattalardek muomala qilinar, darhol ishga yuklanardi. Uch yoshidan boshlab bog'da yoki uyda boshqa kattalar bilan birga ishlashi mumkin edi.

Rim davridan boshlab, o'g'il-qizlar har doim ota-onalariga xizmat qilganlar va o'rta asrlarda Qirol oilasining a'zolaridan tashqari barcha bolalar xizmatkor sifatida ishlatilgan. XIX asrgacha bolalar mehnatidan foydalanish muhokama mavzusiga aylanmagan edi [20].

O'rta asrlarda bolalar uchun «qo'rqq» rolini cherkov o'z zimmasiga olgan. Reformatsiyadan keyin «o'rgimchaklarni yoki boshqa jirkanch hasharotlarni olovga hukm qilganingizdek, do'zax oloviga hukm qiladigan» Xudoning o'zi bolalarni qo'rqitish uchun asosiy qo'rqinch edi. XIV – XVII asrlar – bola allaqachon ota-onalar hissiy hayotga qo'shilishga ruxsat etiladi. Biroq ota-onalarning asosiy vazifasi uni «shakl», «to'qish»ga «tashlash»dir. Dominikidan Lokkgacha bo'lgan faylasuflar orasida eng mashhur metafora bolalarni yumshoq mum, gips va loy bilan taqqoslash edi. Ko'p bola tarbiyalovchi qo'llanmalar paydo bo'ldi va Maryam va chaqaloq Isoning kulti tarqaldi, san'atda esa «g'amxo'r ona obrazi» ommalashgan.

O'n sakkizinchi asrga qadar bolalarning juda katta qismi muntazam ravishda kaltaklandi. Qamchilash asboblari turlicha bo'lib, qamchi, tayoqlar juda ham ko'p edi. Hatto Qirol oilasiga mansublik ham ularni kaltaklashdan ozod qilmadi. Hatto shoh sifatida, Louis XIII ko'pincha tunda uyg'onib, ertalab flogged



bo'lishi kutgan. Koronatsiya kuni sakkiz yoshli Luisni kaltaklashdi va u shunday dedi: «Men bu sharaflarsiz, shuning uchun men flogged» bo'lmayman. Faqat Uyg'onish davrida bolalarni bu qadar shafqatsizlarcha kaltaklamalik kerakligi haqida fikrlar paydo bo'la boshladi. O'n sakkizinchi asrga qadar bolalar Pottiga borishga o'rgatilmadi, balki uning o'rniga sog'lom yoki kasal bo'lishidan qat'i nazar, klizmalar va shamlar, laksatiflar va yemetiklar berildi. Bolalarning ichaklarida kattalarga nisbatan zararli va shafqatsiz narsalarni yashirishadi. Bolaning ichak harakatlari hidi yomon edi, bola aslida boshqalar haqida yomon his degan ma'noni anglatadi [20].

O'n sakkizinchi asr ota-onalar uning ichki holatini, g'azabini, ehtiyojlarini, masturbatsiya, hatto uning irodasini nazorat qilish, bu kuch orqali allaqachon uning aqli ustidan nazoratni qozonish uchun harakat boshlandi. Bola bunday ota-onalar tomonidan tarbiyalangan bo'lsa, onasi emizgan; u doimiy klizmalarsiz edi; u hojatxonaga borishga ko'nikkan; majbur emas, lekin ko'ndirar; ba'zan mag'lub, lekin muntazam emas; masturbatsiya uchun jazolanadi; ko'pincha so'zlar bilan qilingan itoat emas, balki tahdidlar. Ba'zi pediatrik bolalar ota-ona qaramog'ida umumiy yaxshilanishga erishish va natijada bolalar o'limini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ldi, bu esa XVIII asrda demografik o'zgarishlarga zamin yaratdi.

Bolalar uchun jismoniy jazo cheklashga urinishlar XVII asrda qilingan, lekin eng katta o'zgarishlar o'n sakkizinchi asrda sodir bo'lgan. XIX asrda, eski spanking Yevropa va Amerika ko'p yo'qotish boshladi. Bu jarayon Germaniyada cho'zilgan edi, anonim tadqiqotlar ko'rsatadiki, 80% ota-onalar huquqi poymol qilingan. Cherkov bezoriligida yanada qo'rqinchli belgilar paydo bo'ldi: arvoqlar, kurtlar va boshqalar. U kulgili tarzda kiyinadi, xonaga kiradi, o'sadi va bolalarning quloqlarini bezovta qiladigan jirkanch ovozda bolaga baqiradi. O'n to'qqizinchi asrgacha bolalarni xo'rlash an'anasi hujumga uchrangani yo'q. Bolaning harakat erkinligini turli qurilmalar bilan cheklash deyarli universal odat edi. Dastlabki yillarida bola hayotining eng muhim jihati puchga chiqdi. So'nggi tibbiy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalar juda passiv, ularning yurak tezligi sekin, ular kamroq qichqirar, uyqu juda ham ko'p, va umuman, ular ota-onalari uchun muammo keltirmas edi [20].

Bola tagliklardan chiqqanida unga, har bir mamlakatda va har bir davr uchun o'z harakatchanligini cheklashning boshqa usullari qo'llanilgan. Ba'zan bolalar emaklab ketmasligi uchun stullarga bog'lab qo'yilardi. O'n to'qqizinchi asrga qadar, bolaning kiyimi uni yaxshiroq kuzatish va to'g'ri yo'nalishda boshqarish uchun sling bilan bog'langan. Bola sharoitga moslashishga, ijtimoiylashishga o'rgatiladi. O'n to'qqizinchi asrda otalar farzandlariga qiziqish ko'rsatish, ba'zan ota-onaning qiyinchilikdan ozod qilish ehtimoli juda ham ko'p bo'ldi. XX asrgacha yosh bolalarni yolg'iz qoldirish odat tusiga kirgan. Ota-onalar kamdan-kam hollarda bolalar xavfsizligi va baxtsiz hodisalar oldini olish haqida g'amxo'rlik qilishgan. Qamchi jazosi amaliyotdan chiqa boshlagach, bolalarni itoatkor qilish uchun boshqa jazo oldi. Misol uchun, o'n sakkizinchi va o'n to'qqizinchi asrlarda bolalarni zulmatda qulflash juda mashhur bo'ldi. XX asr o'rtalaridan boshlab yordam uslubi ommalashib ketdi. Bu uslub bola rivojlanishining har bir bosqichida ota-onadan ko'ra o'z ehtiyojlarini yaxshiroq biladi, degan taxminga asoslangan. Intizom yoki shakl «xususiyatlar» uchun hech qanday urinish, albatta, yo'q. Bolalar kaltaklangan yoki haqoratlanmagan, ular stress ostida sahna qilsalar kechiriladi. Ota-onalar oilada to'ng'ich emas, xizmatkor bo'lishni normal hisoblaydilar. Oilada asosiy faoliyat – bola bo'ladi [20].

### **O'rta asrlarda Sharqda, Yevropada, Rossiyada ta'lim va tarbiya berish hamda til ta'limiga e'tibor**

Rossiya Federatsiyasi maktabgacha ta'lim tizimining xususiyatlari. Ta'lim doirasidagi davlat siyosati mamlakat konstitusiyasi va ta'lim to'g'risidagi qonunida o'z aksini topgan gumanizm va demokratiya g'oyalari asosida qurilgan. Bu hujjatlarda ta'lim insonni davlat, jamiyat va shaxsning o'z manfaatiga maqsadli yo'naltirilgan o'qitish va tarbiyalash jarayoni ekanligi to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan. Rossiya ta'limining tarkibini o'quv dasturlari va turli pog'onali davlat standartlari hamda yo'nalishlari, shuningdek boshqaruvchi tashkilotlar – ta'lim tizimidan tashqari va ta'lim tizimiga bo'ysunuvchi muassasalar tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim Rossiya Federatsiyasi o'qitish tizimining birinchi pog'onasidir. Eng kichik yoshdagi bolalar uchun ham ta'lim olish imkoniyatini

berish g'oyasi 1918-yilda «Yagona mehnat maktabi to'g'risidagi Nizom» vujudga kelgandan so'ng paydo bo'lgan. Nizom qabul qilingan kundan boshlab har bir bola tug'ilganidan boshlab o'qish huquqiga ega bo'lishi mumkinligi kafolatlangan. Bugungi kun ta'lim standartlari «Bolalar huquqlari xalqaro Konvensiya»sida ifodalanib, unda quyidagilar ta'kidlanadi:

bolalar ta'lim olish maskanlariga qatnash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak;

kattalar bolalarga o'qish faoliyati uchun sharoit yaratib berishlari lozim;

ta'lim o'z ichiga kichik odamni jamiyat doirasida o'z hayotini tushunib yetishga tayyorlash uchun barcha kerakli sharoitlarni qamrab olgan bo'lishi zarur;

o'quv jarayoni qatnashchilarining o'zaro harakatlari bolani hurmat qilishni ifodalashga asoslangan bo'lishi kerak [18; 37-b.].

Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tizimi doimo o'zgaruvchan holatda bo'lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko'rinishini o'zgartiradi va mukammallashib boradi. Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go'dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari lozim. Maktabgacha tarbiya muassasalari (MTM) faoliyati oilalarga bilim olish va tarbiyaning keyingi bosqichida yordam berishga qaratilgan. Ayrim mutaxassislar bolalar bog'chalariga hojat yo'q, maktabgacha tarbiya esa to'liq ota-onalar zimmasiga yuklatilsin va ularning o'zlari bolani 1-sinfga qayerda va qanday qilib tayyorlash yo'lini hal qilsinlar, deb ta'kidlaydilar. Lekin statistik ma'lumotlarga ko'ra, MTMlar xizmatidan aksariyat ota-onalar foydalanadilar. Shuning uchun ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi kelajakda Rossiya maktabgacha tarbiya modernizatsiyasini birinchi darajali masalalaridan biri deb belgilaydi. Namunaviy nizomlarga binoan, bolalar ta'lim muassasalari besh turga bo'linadi:

rivojlanishning bir-ikki yo'nalishini amalga oshirishni muhim deb bilgan bolalar bog'chalari;

psixikasi normadan og'ib ketgan bolalarni malakali korrektsiyalashga qaratilgan kompensatsiyalovchi turdagi bog'chalar;

tarbiyachi nazorati ostida bolalar bilan sog'lomlashtirish mashqlari o'tkazib boriladigan bolalar bog'chalari;

o'z hududida umumiy rivojlanish, sog'lomlashtirish va kompensatsiyalovchi guruhlar turli variantlarda jamlangan bolalar bog'chalari;

bolalarni erta rivojlantirish markazlari – kichkintoylar sog'lomlashishi, yangi bilimlar va qobiliyatlarni egallashi, ruhiy madad olishi mumkin bo'lgan bolalar bog'chalari [18; 37-b.].

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tizimi ko'p funktsionallik, rang-barang rejalashtirish, ustuvor rivojlantirish yo'nalishi va turli dasturlashni aniqlash erkinligi bilan ifodalanadi. Rossiyaning maktabgacha ta'lim tizimi «O'quv jarayonni modernizatsiyasi Konsepsiyasi»ga asoslangan. Bu konsepsiyada ta'limning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashga muhim ahamiyat berilgan. Bu hujjat ta'lim to'g'risidagi qonunga, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasiga, MTM to'g'risidagi Namunaviy nizomlarga va Ta'lim vazirligining boshqa qarorlariga asoslangan. Bu Konsepsiyada alohida tashkilotlarning foydali tajribasi asosida o'qitish mazmunini yangilash kerakligi haqida so'z yuritiladi. Nazariy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim mazmunini to'ldirishga stereotip yondashishlarni o'zgartirish kerak, ta'lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketma-ketligi asosida ko'rilishi lozim:

o'qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida o'qitishni olib borish bolalarning yashirin va salohiyatli xislatlarini namoyon qiladi;

tizimli ta'lim bolalarga hodisalar, o'rganilayotgan obyektlar va hayotiy qadriyatlarining o'zaro bog'liqligini aniqlashga yordam beradi;

bolaning rivojlanishi uning his-tuyg'ulari va yoshiga mos bilim olishning ratsional shakllariga tayanadi;

ko'p madaniyatli tarbiyaning mazmunan kichkintoylarni madaniyat va o'zining mahalliy hamda boshqa millat va elatlarning urf-odatlarining o'ziga xosligiga yaqinlashtirish, boshqalar fikriga chidamliroq bo'lish, o'zining noroziligi, g'azablanishi va xafaligini meyorlangan holda ifodalashdan iborat;

salomatligining sog'lom turmush tarzi, gigiyena qoidalariga amal qilish va sport bilan shug'ullanish ehtiyojiga asoslanadi [18; 38-b.].

***Maktabgacha ta'limning ingliz tizimi.*** Buyuk Britaniya noyob madaniyat va an'analar davlati hisoblanadi. Ingliz ta'lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri deb hisoblanadi,

Britaniya ta'lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi. Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'lim berish kambag'al ishchi oilalar bolalariga ko'ngilli yordam berish harakatiga asosan vujudga kelgan. 1816-yilda Robert Ouen ilk bor Shotlandiyada o'z fabrikasi ishchilarining farzandlari uchun ilk bor bolalar bog'chasini ochgan. XX asr boshlarida opa-singil Makmillanlarning tashabbusi bilan bir nechta bolalar bog'chalari ochilib, ularda asosan kam ta'minlangan oilalar farzandlarining salomatligi va yaxshi ovqatlanishlari uchun g'amxo'rlik ko'rsatilgan [18; 38-b.].

**Rivojlanish bosqichlari.** 1988-yilda «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni kuchga kirib, unda nafaqat ta'lim standartlari, balki bolalarni maktabga qabul qilish vaqtida ruhiy rivojlanish darajasiga bazaviy baho berish ham belgilangan. Angliya, Shotlandiya va Uelsda majburiy ta'lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada esa 4 yoshdan boshlanadi. O'qitishni boshlash muddati Yevropada eng erta deb hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim ustuvor yo'nalish toifasiga 1996-yilda maktabgacha ta'lim tizimi haqidagi qonun qabul qilingandan keyingina tushgan. Uni qabul qilishdan asosiy maqsad bolalar bog'chalarida ta'lim berish sifatini yaxshilash, ta'lim standartlarini oshirish va erta ta'lim berishni moliyalashni oshirishdan iborat. Taklif qilingan tizim doirasida o'ziga xos o'quv rejasi o'rnatilib, uning bajarilishi maktabgacha ta'lim muassasasining davlat ta'lim tizimi talablariga javob berishi lozim. Maxsus ehtiyojlarga muhtoj va ingliz tili ularning ona tili bo'lmagan bolalarga alohida e'tibor berilgan. Shuni ta'kidlash joizki, bolalar tarbiyasi va ta'lim olishi o'rtasidagi farq hamma mamlakatlarda mavjud emas. Buyuk Britaniyada esa ikkalasi ham ahamiyatli va zarur, deb tan olingan. Birlashgan Qirollikda bunday xizmat ko'rsatuvchi 25 turdagi muassasalar faoliyat olib boradi va shuning uchun bu yerdagi ta'lim tizimi turlicha va ahamiyati ham teng emas. 1997-yildan Angliyada erta ta'lim islohoti amalga oshirilmoqda. Bu davrgacha erta ta'lim olish va tarbiyalashga yondashish tizimlashtirilmagan edi – maktabgacha tarbiya muassasasi xohlaganicha o'qitish dasturi yoki xizmat ko'rsatish turlarini qo'llashi mumkin edi. Bu holat yagona ta'lim tizimiga jamlanmagan «noyob» yondashishlarning tarqalishiga olib keldi. O'qitish uchun xizmatlar sifati o'zgarib turar edi. Angliyadagi 3-4 yoshdagi bolalar uchun maktabgacha ta'lim Yevropada eng yaxshilardan biri deb tan olingan bo'lsa-da, Buyuk Britaniyada o'tgan asrning 90-yillar boshiga kelib undan

faqat 20 foizgina bolalar foydalanar edilar. Qabul qilingan islohot 3-4 yoshdagi bolalar tarbiyasi uchun yagona ta'lim dasturi ishlab chiqarilishiga yo'naltirilgan edi. 1988-yilda maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun 15 mlrd. dollar miqdorida mablag' sarflangan. Shu bilan birga 1997-yilga kelib Buyuk Britaniyada maktabgacha ta'limning birorta ham xususiy tizimi bo'lmagan bo'lsa-da, hozirga kelib ularning soni 20 tadan oshib ketdi [18; 41-b.].

***Germaniyada maktabgacha ta'lim tizimi.*** Germaniya qonunlarida maktabgacha ta'lim olishning bepul huquqi belgilangan. Bolalarni 4 oyligidanoq yasliga olib borish mumkin. Ko'pchilik nemislar bu huquqdan foydalanadilar. Nemislarda keksa avlod vakillari bo'lmish buvi va buvalar nevaralar tug'ilgandan so'ng nafaqaga chiqib, ularga qarash majburiyatlari tushunchasi yo'q. Shuning uchun ota-onalar bolalarini bolalar bog'chalari va yasliga berishga majbur bo'ladilar. Maktabgacha tarbiya muassasalarining (MTM) rang-barang shakllari va turlari hayratlantiradi. Eng qiziqarli bolalar bog'chalari turlari quyidagicha:

1. *Waldkindergarten* (nemischa Wald so'zidan – o'rmon, Kindergarten – bolalar bog'chasi). Bunday bolalar bog'chalarini yaratish fikri Skandinaviyada boshlangan. Ko'pincha bunday bog'chalar o'rmonda joylashadi. Bolajonlar doimo ochiq havoda bo'ladilar, daraxtlar va boshqa o'simliklarni o'rganadilar, tabiiy materiallardan turli narsalar yasaydilar. Bolalarga tabiatni sevish va uni asrab-avaylash o'rgatiladi.

2. *Bauernhofkindergarten* (nemischa Bauernhof so'zidan – dehqon hovlisi, qo'rg'oni; Kindergarten – bolalar bog'chasi). Bunday bog'chalar dehqon xo'jaliklarida, fermalar yoki ularga yaqin yerlarda joylashgan bo'ladi. Bolalar kuchlari yetguncha fermerlarga mollarni boqishda, dala va bog'larda sabzavot va mevalar o'stirishda yordam beradilar.

3. *Reggio-Kindergarten*. Bunday bolalar bog'chalarini yaratish konsepsiyasi Italiyaning Rejio-Emilio shahrida paydo bo'lgan va nomi ham shundan olingan. Bunday maktabgacha tarbiya muassasasi bozor (yarmarka) maydonini eslatuvchi – o'rtada katta bir xona (xoll) va undan shaharchaning turli «mavzellariga» – kichik xonalarga chiquvchi inshootni eslatadi. Bunday turdagi bog'chalarda bolalar joylashgan muhit asosiy tarbiyachi deb ataladi. Har kuni ertalab bolalar tarbiyachi bilan katta xonada yig'ilishib,

kun rejasini maslahatlashadilar, soʻngra xonalarga tarqalishadi. Bitta xona qurilish va turli konstruktorlar yigʻish xonasiga aylantiriladi. Bu yerda bolalar kubiklar oʻynashi, konstruktorlar yigʻishi mumkin. Yana rasm chizish xonasi ham bor, odatda u yerda boʻyoqlar va devorlarga vatman qogʻozlar osib qoʻyilgan. Bolalarga maxsus kiyim kiygazib qoʻyiladi va ular xohlagan yerlariga – devorlar, pol, bir-birlariga rasm chizishlari mumkin. Bu yerda hunarmandchilik, musiqiy va boshqa xonalar ham bor. Bunday bogʻchalarda tarbiyachilar bolalarga faqat atrofdagi joyni oʻzlashtirishlarida koʻmaklashadilar [18; 41-b.].

4. *Freinet-Kindergarten*. Maktabgacha pedagogikaning bu yoʻnalishi oʻz nomini bolalar tarbiyasiga oʻziga xos yondashish usulini ishlab chiqqan italiyalik oilaviy juftlik familiyasidan olingan. Bu yoʻnalishning asosiy tamoyili – bolaning butunlay erkinligi va mustaqilligidir. Fraynet-bogʻchasida bolalar nima qilishlari, qanday oʻyin oʻynashlari, nima bilan shugʻullanishlari, qachon ovqatlanishlari va uxlashlarini oʻzlari hal qiladilar. «Bolalar konferensiyasi» deb atalmish yigʻilishlarda bolalar MTM doirasida xulq-atvor qoidalarini oʻzlari belgilashadi. Bunday bogʻchalarda ijod qilish, syujet-rol oʻyinlari, eksperimentlar, tabiat qoʻyni yoki shaharning korxonalar va tashkilotlariga ekskursiyaga borishlarga katta ahamiyat beriladi [18; 42-b.].

5. *Integratsion bolalar bogʻchalari*. Bunday turdagi MTMlarda sogʻlom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhiy nosogʻlom bolalar birgalikda tarbiyalanadi. Bunday sharoit oddiy bolalar uchun chidamlilik, bagʻrikenglik va hurmat qilishni oʻrganishga ajoyib imkoniyat, deb qaraladi. Imkoniyatlari cheklangan bolalar jamiyatdan ajralgan holatda boʻlmaydilar, oʻz tengdoshlari bilan muloqot va hamjihatlikda boʻlishni oʻrganadilar. Shunday bogʻcha va maktablarning soni koʻpligi Germaniyada nogironlarning yashashi, taʼlim olishi va oʻzini namoyon qilishi uchun qulay sharoitlar yaratadi.

6. *Internatsional bolalar bogʻchalari*. Bunday MTMlar emigrantlar uchun yaratilgan boʻlib, koʻpincha ularni emigrantlarning oʻzlari farzandlari uchun tashkil etadilar. Germaniyada turk-nemis, yahudiy, rus-nemis bolalar bogʻchalari juda koʻp. Bu muassasalarning konsepsiyasi bilingvallik tamoyiliga asoslangan. Yaʼni guruhlarda doimo bolalar bilan ona tilida soʻzlovchi tarbiyachi bilan birga nemis

tilida soʻzlovchi tarbiyachi ham boʻladi. Bunda bolalar ham ota-onalarining tilini, ham nemis tilini oʻrganadilar. Rus-nemis bogʻchalarida koʻpincha Rossiya mualliflarining dasturlaridan foydalaniladi. Unda Rossiyada nishonlanadigan anʼanaviy – Maslennitsa, 8-mart, Yangi yil kabi koʻp bayramlarga bogʻishlangan mashgʻulotlar ham bor. Shuningdek, Germaniyada Valdorf bolalar bogʻchalari va Montessori tizimida ishlaydigan bolalar bogʻchalari ham mavjud. Agar oʻrta statistik nemis bolalar bogʻchasini olsak, uning faoliyati loyihalar tamoyili asosida tashkil etilganligi namoyon boʻladi. Masalan, «Kasb» loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qoʻyadilar, pechenye pishiradilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Bolalar stulchalarda oʻtirib tarbiyachini eshitadigan turdagi mashgʻulotlar yoʻq. Bolalarga koʻp erkinlik beriladi. Ular istagan narsani qilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari, butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin. Bolalar bilan ishlashga bunday yondashishning koʻp ijobiy va salbiy tomonlarini topish mumkin. Lekin ota-onalar oldida konsepsiya, nazariya va gʻoyalardan iborat katta tanlash huquqi bor. Ular farzandlarini bola uchun eng qulay bogʻchaga berishlari mumkin.

***Yaponiyada maktabgacha taʼlim.*** Yaponiyada bolalarni tarbiyalash metodi toʻgʻrisida quyidagi keng tarqalgan iborani keltirish mumkin: «Bola 5 yoshgacha – qirol, 5 yoshdan 15 yoshgacha – qul, 15 yoshdan keyin esa barcha bilan teng huquqli inson». Bu iboraning turli talqini boshqa millatlarda ham uchraydi. Albatta, bu falsafiy iborani boricha qabul qilish shart emas. Lekin bolaning hayoti bir necha davrlarga boʻlinadi va bulardan birinchi davrida bola hammani oʻziga maftun etadi, uni asrab-avaylashadi, erkalashadi. Yoshi ulgʻaygach bolada lazzatlanishdan tashqari oʻzining harakatlari uchun masʼuliyat va qator majburiyatlar paydo boʻladi. Ulgʻayishning maʼlum yoshiga yetgach kechagi bolakay bugun jamiyatning teng huquqli va teng maqomga ega aʼzoriga aylanadi. Buning hammasi Yaponiyaning taʼlim tizimida bir marom va ketma-ketlikda kuzatilib boriladi. Taʼlim tizimining, shu jumladan maktabgacha taʼlim rivojlanishi tarixi uzoq oʻtmishning Meydzi davriga borib taqaladi. Yaponiyada 1876-yilda boy xonadon farzandlari uchun birinchi bolalar bogʻchasi ochilgan. Bolalar bogʻchalarining ochilishidan maqsad bolalarning aqlan va jismonan rivojlanishiga yordam beradigan oʻzaro munosabatda boʻlish



muhitini yaratishdan iborat bo'lgan. Albatta bola tarbiyasida onaning roli turlicha, lekin bolalarning o'z tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqoti, birga o'ynashi va birgalikda mehnat qilishi uy sharoitida erishib bo'lmaydigan natijalarga, ya'ni uning sog'lom va garmonik rivojlanishiga imkoniyat beradi. Davlat darajasidagi maktabgacha tarbiya tizimi faqat 1961-yildan keyin keng tarqala boshladi.

Bugungi kunga kelib, amalda har bir yapon bolasi bolalar bog'chasi yoki bolalarga qarash markaziga qatnaydi [18; 43-b.].

**Yaponiyada bolalar bog'chasi.** Bolalarga nisbatan mehribonlik va muhabbat yapon jamiyati uchun muhim jihatlardan biri bo'lib bunday muhabbatning asosiy va muhim manbai ayoldir. Yakin davrlargacha yapon oilalarida ayollar o'z oilasini asrovchi, g'amxo'r xotin, mehribon ona bo'lib bolaga barkamol tarbiya berish uning vazifasi hisoblanar edi. Oxirgi vaqtda vaziyat o'zgarib, yaponlar kech turmush quryaptilar va ko'p ayollar ishlashni xohlayptilar yoki ishlashga majburlar. Shunga qaramay yapon onalarining aksariyati bolalarni 3 yoshgacha uy sharoitida tarbiyalab, keyin ijtimoiylashish uchun bolalar bog'chalariga joylashtiradilar. Yaponiyada maktabgacha ta'lim quyidagi muassasalarda amalga oshiriladi:

bolalar yaslisi, bolalarga qarash markazlar (hoikuen);

bolalar bog'chalari (yōchien);

nogironlar uchun maxsus muassasalar.

Maktabgacha ta'lim umummajburiy bo'lmasa ham bolalar bolalar yaslilari va bog'chalari katta ehtiyojga ega hamda bolani bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun avvalroq harakat qilish lozim. O'rtacha olganda bolalar bog'chasiga joylashtirish uchun 25000 bola navbatga turadi. Yaponiyada bolani bolalar bog'chasiga uch yoshdan bersa bo'ladi, yoki ko'pincha bolani 4 yoshdan beriladi. Maktabgacha o'qitish muddati 3 yil davom etib so'ngra bola boshlang'ich maktabga qabul qilinadi.

Bolalar yaslisiga (bolaga qarash markazi) bolani uch oyligidan berish mumkin, lekin bunday holat yaponlar orasida keng tarqalgan emas, chunki bunday yoshda bolani yasluga joylashtirish uchun onada juda jiddiy sabab bo'lishi kerak. Shuningdek, bunday ayol jamiyat tomonidan yaxshi ona deb baholanmaydi. Atrofdagilarning fikri esa yaponlar uchun eng asosiy deb hisoblanadi. Yaponiyada bolalar yaslisiga faqat ota-onasi ishlaydigan bolalar qabul qilinadi. Buning uchun munitsipalitetga ota-ona ish joyidan ma'lumotnoma

va oilada boshqa bolaga qarab turuvchi oila a'zosi yo'qligi haqida hujjatlar taqdim etiladi. Bolalar yaslilari bolalarga qarab turish faoliyati bilan shug'ullanadilar va u yerda ta'lim berish dasturlari nazarda tutilmaydi hamda ular Ta'lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligiga emas balki Sog'liqni saqlash, mehnat va farovonlik vazirligiga bo'yinsunadilar.

**Yaponiyada bolalar yaslilari.** Bolani maktabgacha tarbiya muassasiga joylashtirish masalasini, qanday muassasa (davlatga qarashli yoki xususiy) bo'lishidan qat'i nazar, munitsipalitet hal qiladi. Meriyaga (shahar hokimiyatiga) murojaat qilgan ota-onalarga bolalar bog'chalari (yaslilar) qayerda joylashganligi ko'rsatilgan atlas beriladi. Bu atlasda u yerga boruvchi sxema, maktabgacha tarbiya muassasidagi joylar soni ko'rsatilgan. Ota-onalar avvalroq bolalar bog'chasiga borishlari, tarbiyachilar bilan suhbatlashishlari va ularga yoqqan bog'chani tanlashlari mumkin, lekin hal qiluvchi natijani munitsipalitet belgilaydi va bo'sh o'rin bo'lsa ota-onalarga bolani bog'chaga (yasliga) borish uchun ruhsat beradi. Bolani bog'chaga yilning barcha oyidan olib borish mumkin, lekin bo'sh o'rinlar soni 1 aprelga kelib ko'payadi chunki shu paytda o'quv yili boshlanib bog'chalarni bitiruvchi bolalarning bir qismi boshlang'ich maktabga yo'l oladilar. Yaponiyaning maktabgacha tarbiya tizimiga quyidagi turdagi muassasalar kiradi:

davlatga, munitsipalitetga, prefekturaga tegishli;  
xususiy [18; 43-b.].

Shuningdek maktablar va institutlar qoshida ham bolalar bog'chalari mavjud. Ya'ni bolalar uchun bog'cha yoshidanoq uning kelajakdagi o'qish jarayoni belgilanadi. Bunday ixtisoslashtirilgan bolalar bog'cha tarbiyalanuvchisi kelajakda tegishli nufuzli maktabga keyinroq esa universitetga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Farzandining porloq kelajagini shakllantirishda ota-onalar maktabgacha va ta'lim muassasalarni tanlashga mantiqiy siyosat bilan yondashadilar. Bu jarayon bolani nufuzli bolalar bog'chasiga keyin boshlang'ich so'ngra eng yaxshi o'rta maktabga joylashtirish bilan boshlanadi va bola katta bo'lguncha davom etadi. Natijada bola munosib kasb egasi bo'lishi va shunga mos ish haqi olishi uchun ota-otalar bola tug'ilishidan boshlab uning ta'lim olishiga katta mablag' sarflashlari kerak. Agar oila biror bir sabab bilan bolani bolalar bog'chasiga olib bormasa, unda onaning o'zi uni

maktabga tayyorlash uchun hamma kerakli bilimni o'rgatishi lozim. Yaponiyaning maktabgacha ta'lim tizimining 80 foizini xususiy bolalar bog'chalari va bolaga qarash markazlari tashkil etadi. Davlatga tegishli va xususiy bog'chalar o'rtasidagi farq katta emas. ta'lim berish jarayonining tizimi va yondashish ikkala turdagi muassasalarda ham 2006-yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi asosiy qonun»ga mos ravishda olib boriladi. Bunda bolaning xoh davlatga qarashli, xoh xususiy bog'chada tarbiyalanishi uchun to'lov puli ota-onaning daromadiga qarab belgilanadi – oila daromadi qancha katta bo'lsa bog'cha puli ham shuncha katta bo'ladi. O'rtacha qilib olganda kam ta'minlanganlar uchun 100 AQSH dollardan, badavlat oilalar uchun 500 dollargacha to'lov amalga oshiriladi. Yaslilarda (bolaga qarash markazlarida) yana bolaning yoshi ham hisobga olinadi – bola qanchalik kichik bo'lsa, to'lov bahosi yuqori bo'ladi. Lekin baribir xususiy bog'chalarda to'lov narxi yuqoriroq hamda har oylik to'lovdan tashqari kirish to'lovini ham o'z ichiga oladi va bu esa 1000 AQSH dollargacha borishi mumkin. Shular bilan birga hamma bog'chalar uchun majburiy bo'lgan forma uchun ham pul to'lash kerak bo'ladi. Har bir bolalar bog'chasi o'z formasiga ega bo'lib bunda bir xil shimchalar, yubkachalar, ko'ylakchalar, issiq ko'ynaklar, bosh kiyim va orqasiga osib yuriladigan xaltalar bo'lishi kerak. Formalarni kiyib yurish majburiy.

***Yaponiyada maktabgacha tarbiya.*** Maktabgacha ta'lim muassasidagi bola tarbiya va mazmuni sifati bog'channing davlatga qarashli yoki xususiyligida emas balki aniq bog'channing o'ziga, u joylashgan hududi va pedagogik jamoasiga bog'liq bo'ladi. Guruhlardagi bolalarning soni ham turlicha bo'lib, 8 nafardan 40 – 50 nafargacha bo'lishi mumkin. Yaponiyada maktabgacha tarbiya muassasalarida ish soatlari turlicha. Misol qilib aytganda, davlat bog'chalari ikki xil ko'rinishda bo'ladi – to'liq ish kunidan iborat bog'cha bo'lib, uning tartibiga ko'ra bog'cha har kuni va shanba (yarim kun) kuni qo'shilgan tarzda ishlaydi. Bunday bog'chaga ikkala ota-onasi kuniga 4 soatdan ko'proq ishlaydigan bolalar qabul qilinadi.

Kun bunday bog'chalarda ertalab soat 8 dan boshlanib, bolani kechki soat beshgacha xohlagan vaqtda olib ketish mumkin. Qo'shimcha to'lov evaziga bolaga kechki soat 7 gacha qarab turish mumkin. Ikkinchi ko'rinishdagi bog'chalar, bu bolalarni yarim kunga

qabul qiladigan bog‘chalar. Bir xil kutilmagan sharoitlarda, masalan kuchli to‘fon xavfi haqidagi ogohlantiruvdan so‘ng ota-onalar bolalarni maktabgacha ta‘lim muassasidan olib ketishlari shart [18; 44-b.].

Bolalar bog‘chalarida ota-onalarni tarbiyaga jalb qilish jarayoni o‘ta yuqori darajada. Ertalab vaqtlil bolalarni bog‘chaga tashlab ketib kechqurun olib ketadigan bizning ota-onalar uchun Yaponiya bolalar bog‘chalaridagi tartibga ko‘nikish juda qiyin, chunki u yerda bola tarbiyasida ota-onaning muntazam qatnashishi va faol ishtiroki talab qilinadi. Bolalar bog‘chada ota-onalarsiz ikki soat, uzog‘i bilan to‘rt soat bo‘lishlari mumkin. Va bu jarayonda nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham tarbiyalanadilar Bolalar yaslilarida tarbiyachilar kundalik daftar tutib unga bolaning kun davomidagi faoliyatini yozib boradi: bola qanday ovqatlandi, qanday uxladi, o‘zini qanday his qildi va hokazolar, va xuddi shu narsalarni ota-onalardan ham kutadilar. Pedagoglar va ota-onalar har bir bola tarbiyasi to‘g‘risida o‘zlarining qiziq kuzatuvlarini va fikrlarini yozib boradilar. Bolalar tarbiyasi jarayoni pedagog va ota-onaning birgalikdagi yaqin hamkorligida amalga oshiriladi. Lekin shuni ham ta‘kidlash lozim, bu jarayonda pedagog (tarbiyachi) boshlovchi tomon hisoblanadi. U esa o‘z navbatida ota-onalarning bolalar tarbiyasida yo‘l qo‘ygan kamchilik hamda adashishlarini ko‘rsatib berishi mumkin va ota-onalar buni nafaqat hisobga olishi, balki kelajakda undan qo‘llanma sifatida foydalanishi zarur. Maktabgacha tarbiya muassasa pedagogik jamoalari tomonidan bolalarni tarbiyalash usuli bo‘yicha ota-onalar o‘qitib boriladi, muntazam ravishda ota-onalar majlislari o‘tkaziladi. Bolalarning onalari odatda bir-birlari bilan tez-tez o‘zaro suhbatlashib turadilar, turli masalalarni hal qiluvchi «onalar» qo‘mitalari tuzadilar, bolalar muassalarida o‘tkazib turiladigan sport kunlari, kuzatuv va boshqa tadbirlar kunlarida qatnashib turadilar. Ammo, avvalambor, maktabgacha yoshdagi yapon bolalarining tarbiyasi uydin boshlanadi. Aynan ota-onalar o‘z farzandlariga ma‘lum axloq usullarini singdirib boradilar, o‘z xatti-harakatlari bilan bolalarni mehribon, xushmuomalali, rahmdil va mustaqil bo‘lishni o‘rgatadilar. Bola uchun onaning mehri juda yuqori darajada va onaning yaxshi munosabatini yo‘qotish uning uchun oliy jazodan ham qo‘rqinchi hol. Yapon oilalarida odatda bola hech qachon jazolanmaydi va unga «yo‘q» deyilmaydi. Buning o‘rniga oilada – bu harakatingdan ota, ona yoki yana biror kimsa ranjishi

mumkin, degan ibora ishlatiladi. Shunga o'xshash, tarbiyalash maqsadida, bolaga bunday ishing kimgadir yoqmaydi, deyish ham mumkin. Va bu «kimdir» bu yaponning butun hayoti davomi uning yonidaligi his etiladi, va yaponlar uchun jamoat fikri juda muhim. Oiladagi asos solingan tarbiya asoslari bolalarning jamoaviy hamkorligi sharoitida rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarga o'zaro munosabatda bo'lishni o'rgatish jarayonida alohida kichik guruhlar – «xan» tuzadi. Bu guruhlarda bolalar o'zaro fikr almashish va mustaqil bo'lish ko'nikmalarini o'rganishadi. Bolalarga guruhdagi boshqa qatnashchilarning fikriga quloq solib, hisobga olgan holda o'z fikrini bildirishga o'rganadilar. Bolalar o'z guruhlarida o'zlari qulayliklar va tartib yaratadilar, yig'ishtirib gullarni parvarish qiladilar, hatto mustaqil ravishda o'zlariga ovqat ham tayyorlaydilar. Shu yo'l bilan bolalarni guruhlarda harakat qilishga o'rgatadilar. Bolalarning o'rtasidagi kelishmovchiliklar yoki yoqalashishlar paydo bo'lganda tarbiyachi darrov aralashib, o'rtaga tushmaydi, chunki bolaning o'zi kelishmovchilikni hal qila bilishni o'rganishi kerak va bu unga kuchliroq bo'lishda yordam beradi. Yaponiyada maktabgacha tarbiya jarayonida tez-tez tarbiyachi va guruhlar o'zgartirib turiladi. Bu bolani bir xil odamlarga, bir xil sharoitga o'rganib qolmay jamiyatda yashashga o'rgatish uchun zarur. Bolalar maktabda yozishni, o'qishni o'rganadilar, lekin bolalar bog'chasiga qatnashdan asosiy maqsad bolani ijtimoylashtirish. Uni guruhlarda yashash, guruh manfaatlari bilan yashashga o'rgatishdir. Yaponiyada maktabgacha tarbiya beshta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olgan, bular:

ijtimoiy munosabatlar;

salomatlik, xavfsizlik;

til;

atrof-muhit;

his-tuyg'ularini ifodalash [18; 45-b.].

Maktabgacha va maktab ta'limi sohalardagi bunday davlat siyosatiga tufayli yapon bolalariga sport bilan shug'ullanish va chiniqish ko'nikmalari singdiriladi. Tez-tez Yaponiya ko'chalarida oktyabr oyida bog'cha rangidagi kalta shim kiygan bolalarni uchratish mumkin. Bu bolalarda sovuq kunlarda oyoq yalang yurish ko'nikmalarini singdirishni amaliyotidan darak beradi. Bolalarga oilada va jamoatda muomala qilishni, o'ziga ishonishni, yangi ko'nikmalarni egallashga, xalq ertaklarini va kitoblarni o'qib tilga

va madaniyatga o'rgatadilar. Yaponiyadagi maktabgacha tarbiya tamoyillari – sog'lom, mustaqil, har tamonlama rivojlangan, bilimga ega va o'z madaniyati hamda Vatanini sevuvchi jamiyat a'zosini yaratishga qaratilgan.

Bolalar bog'chalaridagi mashg'ulotlar. Bolalar bog'chalarida ta'lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o'qishdan tashqari bolalarga qo'shiq aytish o'rgatiladi, sport musobaqalari o'tkazilib, muntazam sayrlarga (poxodga) chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o'tkazilishidan maqsad – bolada hamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo'shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo'shiqchi qo'llanilmaydi, musobaqa o'tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g'oliblikka erishiladi, va mutlaqo yakka g'olib emas. Jamoa bilan muntazam ravishda bir kunlik sayrga chiqishdan maqsad bolani chidamlikka o'rgatish va o'zi atrofidagi hududni o'rganish. Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Balkim, aynan shuning uchun ham Yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag'ishlangan milliy bayram va festivallar ko'p bo'lsa kerak. Yoshlikdan go'zallikni sevishni va tabiatni his etishni o'rgatilgan yapon bolalar bu tuyg'ular bilan umrbod yashaydilar. Bolalarni tarbiyalashdagi bunday ijobiy qarashlar bilan bir vaqtda, davlatdan tashqarida Yaponiyada jamoaviylik hislatlari juda rivojlanib, shaxsiyat tushunchalarini inkor etiladi fikrlar tarqalgan. O'zini shaxs sifatida namoyon etadigan inson Yaponiya jamiyatida qo'llab quvvatlanmaydi. Lekin bu Yaponiyada hamma birdek hisoblanib, shaxsiyat inkor etiladi degani emas. Yaponiya yoshlarini fotosuratlarini ko'rsangiz u yerda yetarlicha rang-barang, o'ziga ishongan yigit-qizlarni ko'rasiz, lekin ular guruh bo'lib yashaydilar va bu ularning ulg'ayshlaridagi ma'lum pog'ona demakdir. Maktab va institutlarni tugatgan rang-barang va o'zgacha fikr yurituvchi yoshlar qonunlarga itoat etuvchi va mehnatsevar yapon fuqarolari qatoriga qo'shilib ketadilar [18; 45-b.].

Doktor Avima Lombard tomonidan 1969-yil Isroilda asos solingan maktabgacha yoshidagi bolalarning ota-onasi uchun mo'ljallangan uy darsligi ota-onalarga 3-4 va 5 yoshdagi farzandlarini muvaffaqiyatga tayyorlashga yordam beradi. Ota-onalar farzandlarining kognitiv va savodxonlik ko'nikmalarini, ijtimoiy-hissiy va jismoniy rivojlanishini oshiradigan o'quv rejasi,

kitoblar va materiallar to'plami bilan ta'minlanadilar. Ushbu oilani qo'llab-quvvatlash dasturida ota-onalarni maxsus professionalar tomonidan o'qitiladilar [14; 25-b.].

### **O'zbekistonda maktabgacha pedagogikaning rivojlanishi**

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi – maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish hamda ularning shaxsiyatini shakllantirish qonuniyatlari, tamoyillari, vositalari, shakl, usul va metodlarini o'rganuvchi sohasi. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi bola psixologiyasi, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, tibbiyot, gigiyena, shuningdek, tilshunoslik, nafasat tarbiyasi, axloq fanlari bilan uzviy bog'liq. XIX asrning ikkinchi yarmida umumiy pedagogikadan ajralib chiqqan. Bu bir tomondan yosh psixologiyasining rivojlanishi va ilmning alohida tarmog'i sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan ayollarning fabrika va zavodlarga jalb etilishi natijasida bolalar muassasalarining vujudga kelishi bilan izohlanadi. Ingliz utopik sotsialisti R.Ouen birinchi bo'lib bolalarga ilk yoshdan ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini asoslab berdi va proletar bolalari uchun maktabgacha yoshdagi bolalar muassasasini ochdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanning maxsus tarmog'i sifatida shakllandi va rivojlana boshladi. 20-asr boshlarida erkin tarbiya jarayonida bola shaxsiyatini rivojlantirish g'oyasi keng tarqaldi [15].

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining asosiy vazifasi – maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning mazmun, shakl va metodlarini ishlab chiqishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi hamda shaxsning evolyusion tarzda taraqqiy etish qonuniyatlari, O'zRning 1997-yilgi «Ta'lim to'grisida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», o'zbek xalqining ma'naviy-axloqiy merosi hamda bola tarbiyasiga oid tarixiy tajribasi, ilg'or mamlakatlardagi pedagogik qarashlar, pedagogika, psixologiya, falsafa, etika, estetika, tilshunoslik, tibbiyot, odam fiziologiyasi va gigiyenasi, antropologiya kabi fanlarning ilmiy asoslari, xulosalari hamda qonuniyatlari tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasidan tadqiqotlar kuzatish, pedagogik tajriba, suhbat, hujjatlarni o'rganish, bolalar faoliyati mahsulini taviil qilish metodlari orqali amalga oshiriladi. Bu metodlar asosida tadqiqotlar mazkur soha bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi va tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Har bir kuzatish jarayoni batafsil yoziladi va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Pedagogik tajribada birinchi navbatda bola, uning rivojlanishi uchun yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar nazarda tutiladi. Pedagogik tajriba ehtiyotkorlik bilan obyektiv ravishda olib borilgandagina amalga oshiriladigan tadqiqot natijalarining obyektivligini ta'minlash imkoniyati tug'iladi. Suhbat metodi u yoki bu bolani, yoki bir guruh bolalarni yaxshiroq o'rganish imkonini yaratadi, ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bolalar bilan suhbat ularning qiziqishlarini, nutqidagi o'ziga xoslikni, atrof-muhit hamda kishilarga munosabatini aniqlashga yordam beradi. Hujjatlar, ya'ni bog'cha va aloqida tarbiyachilarning reja va hisobotlarini urganish ham nazariy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga mazkur hujjatlar maktabgacha ta'lim muassasalaridagi tashkiliy ishlar haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Ushbu xulosalar o'z navbatida tarbiya usullarini kashf etishga yordam beradi. Bolalar faoliyati mahsulini tahlil qilish metodi maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining muhim tadqiqot metodidir. Bolalar faoliyati tahlili ularni shakllantirishda juda yaxshi natijalar beradi.

O'zbekistonda Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi masalalari TDPU va boshqa ilmiy tadqiqot muassasalarida ishlab chiqiladi. Jumlanan, maktabgacha ta'lim jarayonining mazmunini yangilashga yo'naltirilgan bir qator tadqiqotlar, xususan, «Maktabgacha yoshdagi bolalarning tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan davlat talablari», «Uchinchi ming yillik bolasi» kabi tayanch dasturlarning yaratilishi diqqatga sazovor [15].

Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasida amalga oshirilgan tadqiqotlarning eng muhimi sensor tarbiya tizimi nazariy asoslarining yaratilganligidir. Chunki sensor tarbiyaning asosiy maqsadi bolalar faoliyatining har xil turlarini amalga oshirish jarayonila uning sensor qobiliyatini taraqqiy ettirishdan iborat.



**O‘zini o‘zi nazorat qilish  
va muhokama qilish uchun savollar**


1. Insoniyat tarixida bolalarga, bolalikka munosabat qanday ifodalanilgan?
2. O‘rta asrlarda Sharqda ta’lim va tarbiya berish qanday amalga oshirilgan?
3. O‘rta asrlarda Yevropada ta’lim va tarbiya berish qanday amalga oshirilgan?
4. O‘rta asrlarda Rossiyada ta’lim va tarbiya berish qanday amalga oshirilgan?
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi tarkibidan iborat?

**Mustaqil ish topshiriqlari**

1. O‘rta asrlarda Sharqda, Yevropada, Rossiyada ta’lim va tarbiya berish masalalarini «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar</b>	<b>Mamlakatlardagi maktabgacha ta’lim va tarbiya masalalari</b>
1	Rossiya	
2	Germaniya	
3	Yaponiya	
4	Buyuk Britaniya	
5	Irlandiya	
6		
7		

2. Buyuk Britaniya bilan Irlandiya mamlakatlarining maktabgacha ta'limini «Ven diagrammasi» asosida loyihalashtiring:



## 5-BOB.

### XORIJIY DAVLATLAR ILG'OR TAJRIBALARI

#### **Reja:**

5.1. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari.

5.2. Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'limning variativ shakllari.

5.3. Jahon ta'lim tajribasida differensial va integratsion ta'lim masalalari.

**Tayanch so'z va iboralar:** intergratsiya, kasb, ta'lim, fan, metod, kasb ta'limi, nazariya, amaliyot, differensial va integratsion ta'lim.

#### **Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosliklari**

*Amerika Qo'shma Shtatlarida* bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar.

Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.

2. Boshlang'ich maktab. Bu bosqich 1-5-sinflarni o'z ichiga oladi.

3. To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6-8-sinflardan iborat.

4. Yuqori maktab. Bu bosqich 9-11-sinflar bo'ladi. Mazkur Yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralastirmaslik kerak.

*Yaponiya ta'limining shakllanishi* 1867 – 1868-yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1-boyish, 2-G'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi.

1872-yili «Ta'lim haqida Qonun» qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi G'arb ta'limi bilan uyg'unlashtiriladi. 1908-yil Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. 1893-yili kasb yo'nalishidagi dastlabki kollej paydo bo'ldi.

*Janubiy Koreyada* ta'lim haqidagi Qonun 1948-yilda qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil – quyi maktab, 3 yil – o'rta, yana 3 yil – oliy maktab; so'ngra

to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

**Fransiya ta'lim tizimi** ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim haqida»gi Qonun dastlab 1955-yilda qabul qilib, 1975-yilda unga qator o'zgartirishlar kiritilgan.

Fransiya davlatining hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim haqida»gi Qonuni 1989-yil 10-iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirilishiga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatdagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimlariga kirib kelishi, o'quv predmetlarining integratsiyalari va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda:

1. Davlat maktablari;
2. Xususiy maktablar;
3. Oraliq maktablari mavjud.

Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Uning 100 yildan ortiq tarixi bor. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansa-da, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Otonalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlarini tarbiyalayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada tushgacha tarbiyalanadilar. Kunning yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham bor.

Majburiy ta'lim 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli, ya'ni bu jarayon 12 yil davom etadi. Bundan 9 yillik (ba'zi joylarda 10 yil) maktabda to'la haftalik o'qishda o'qiydi. O'qish davlat maktablarida tekin. Xususiy maktablar ozroq. O'qish 6 yoshdan boshlanib, 4 yil davom etadi (faqat Berlinda 6 yil).

Boshlang'ich maktabdan so'ng o'quvchilar yo'nalish bosqichidagi maktabga o'tadilar. Bu yerda 5-6 sinf bosqichidagi yo'nalish maktablarda maxsus dastur asosida o'qiydilar. Keyin navbatdagi maktab tipiga ko'chadilar: bular – asosiy, maxsus maktab, real bilim yurtlari. Deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi. Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu yerda o'qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to'la o'rta ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Ular 5-13 sinflarni o'z ichiga oladi. 11-13 sinflar oliy o'quv yurtlariga tayyorlash vazifasini ham bajaradi. Gimnaziyani bitirganlik haqidagi yetuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi. Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3–3,5 yilni tashkil etadi. O'qish uch bosqichdan iborat bo'lib, birinchi yili asosiy hunar ta'limi beriladi. Bunga o'qitilayotgan kasbga taalluqli maxsus fanlardan nazariy asoslar berilib, yirik korxonalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Ikkinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi beriladi. O'quvchining birinchi yilda ikkinchi yilga o'tishi sinov imtihonlari o'tkazilib o'qishni davom ettiruvchi yoshlar tanlab olinadi. Uchinchi yil davomida maxsus hunar ta'limi yanada chuqurlashtirilib boriladi.. Bitiruv imtihonlari maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya a'zolari korxonalarining yetakchi mutaxassislari, federal yerlardagi sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi vakillaridan tashkil topadi. Hunar maktablarining diplomlari oliy o'quv yurtlariga kirish uchun huquq bermaydi. Buning uchun 1 yillik tayyorlov kurslarini tugatish talab etiladi. O'qishga qabul qilish imtihonsiz maktab ta'limi to'g'risidagi hujjatga asosan oshiriladi.

Buyuk Britaniya ta'limi 4 bosqichdan iborat: boshlang'ich (Primary school) – 5-11 yoshgacha, o'rta ta'limi (Secondary school) – 11-16 yoshgacha, navbatdagisi – 16-18 yoshgacha, oliy ta'lim – 18 yoshdan boshlanadi.

Italiyada 13 yillik majburiy maktab ta'limi mavjud. Italyan farzandlari o'qishni erta boshlashadi. Italyan ota-onalar farzandlarini 3 yoshda bolalar bog'chalariga beradilar hamda u yerda 3 yil mobaynida maktabga tayyorlaydilar. Pedagog Mariya Montessori usuli asosida guruhda 15-30 o'quvchi o'qiydi. U yerda bolalar o'ynaydi, bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganadilar kelajakda maktabga borish uchun harakat qiladilar. Serkov va monarxiya qoshidagi bog'chalarda diniy tarbiya beradilar. Mazkur bog'chalarga 3 yoshdan 6 yoshgacha tarbiyalanadilar. Davlat ixtiyoridagi bog'chalardan tashqari xususiy katolik bog'chalar ham mavjud (5.1-jadvalga qarang).

### **Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'limning variantiv shakllari**

Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan (5.2-jadvalga qarang) [17; 32-43-b.].

### **Jahon ta'lim tajribasida differensial va integratsion ta'lim masalalari**

Bugungi kunda insoniyat jamiyati, shuningdek, mustaqil respublikamiz xalqi oldida turgan ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy muammolarning yechimini topish tabiiy, ijtimoiy, texnik fanlarni o'zaro aloqadorligi va o'zaro munosabatlariga bog'liq. Chunki ularning barchasi mohiyati, mazmuni, tabiati, shakli va ko'lamiga ko'ra tizimlilik xarakteriga ega bo'lib, ularga aynan mos yondashuv yordamida tadqiq etilib, yechimi topiladi. Bu o'z navbatida ta'lim-tarbiya ishida ham tizimli yondashuvdan foydalanishni ko'zda tutadi.

Ko'p sonli manbalar, xususan, pedagogik amaliyot sohasining

tahlili ta'lim-tarbiya jarayonining rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar mavjudligidan guvohlik beradi. Bular asosan, bizning fikrimizcha, o'rganilayotgan obyektlarning ba'zi bir jihat va xususiyatlarini lavhalar (fragment) shaklida o'rganish natijasida yuzaga kelib, mantiqan bog'lanmagan va tizimlashmaganligidadir. Amaliyotdagi bunday holatlarni bartaraf etishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Fanda «Integratsiya» tushunchasi XVIII asrdayoq G.Spenser tomonidan qo'llanilishiga qaramay, unga davr taqozosiga ko'ra yaqin paytlargacha yetarli ahamiyat berilgan emas [26; 92-b.].

Ilmiylik nuqtayi nazaridan olib qaraganda integratsiyaning asosini olamning yaxlitligi va uni tashkil etuvchi qism (element) larning o'zaro aloqadorligi, munosabatlari tashkil etadi. Taniqli rus psixologik olimi G.S.Kostyukning fikricha: «Tabaqalanish differentsiatsiya – ruhiy jarayonlar va holat (xususiyat)larni ko'payishiga olib kelsa, integratsiya – tartibga keltirish, subordinatsiya va uning natijalarini ma'lum ketma-ketlikda joylashtirishga olib keladi. Integratsiyalash yo'li bilan yangi psixologik jarayon, yangi faoliyat tuzilmasi hosil bo'ladi. Bu yangi tuzilma ilgari alohida-alohida bo'lgan elementlardan sintezlash yo'li bilan hosil qilinadi». Genetik jihatdan integratsiya-uzviylik, predmetlararo aloqadorlik, o'zaro aloqadorlik va nihoyat o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, kengaytiruvchi hamda chuqurlashtiruvchi, o'quv predmetlari mazmunini eng kamida ta'lim standartlari darajasida sintezlab, mantiqan tugallangan mazmun shakli va oliy darajasidir. Chunki predmetlararo aloqadorlikning har qaysi quyi darajasi, o'rganilayotgan o'quv predmetlari doirasida ma'lum didaktik birliklar orasida o'rnatilib, ularni o'rganish mazmunini va muddatlarini muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, bundan farqli o'laroq integrativ aloqadorlik asosida tashkil etilgan o'quv predmeti yoki integratsiyalab o'rganilayotgan predmet, hodisa yoki jarayonlarni yaxlit tizim shaklida har tomonlama aloqadorlik va munosabatlar nuqtayi nazaridan talqin etishni talab etadi. Bu o'z navbatida hozirgi va istiqbol talablariga javob beradigan, mustaqil fikr yurituvchi va ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi, malakali mutaxassis shaxsini shakllantirishga imkon beradi. Chunki u tahsil oluvchilardan faqatgina tahlil qilish va sintezlash operatsiyalarini talab qilish bilan chegaralanib qolmasdan, balki mavhumlashtirish, algoritmlashtirish,

turkumlash, shartli belgilar yordamida ifodalash, sabab oqibatli aloqadorlikni aniqlash, tahlil etish, sintezlash, tizimlashtirish, modellashtirish kabi yuksak darajali tafakkurlash operatsiyalarini talab etadi [26; 93-b.]. Bu operatsiyalar o'rganilayotgan obyektning barcha muhim jihat va xususiyatlarini ajratib olib (tabaqalashtirib), mohiyati va mazmunini anglab yetish va ularni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi. Demak, integratsiya har doim ham uning ikkinchi tomoni bo'lgan tabaqalashtirish (differensiatsiya)ga tayangan holda rivojlanib boradi yoki aksincha.

Integratsiya masalasini pedagog olimlar va amaliyotchilar quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etishni tavsiya etadilar:

a) o'quv predmetlari va fanlar turkumi doirasidagi mazmunning integratsiyalab o'rganish;

b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllarini integratsiyalash va shu kabilar.

Bu yo'nalishlarning har birining aniq o'z maqsadi bo'lib, uni amalga oshirish uchun mos shakl, metod, vosita va shart-sharoitlarni talab etadi. Amaliyotda ulardan uyg'un holda foydalanilgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligini ham shu o'rinda eslatib o'tish lozim.

Pedagogika fanida XX asrning 80-yillaridan boshlab integratsiya, «o'zaro aloqadorlik», «o'zaro ta'sir», «sintez» kabi tushunchalar qo'llanilgan ilmiy ishlar paydo bo'lib, ta'lim-tarbiya ishida integratsiya muammosining dolzarbligi sezila boshlangan. Hozirgi paytga kelib ta'lim-tarbiya ishiga integrativ yondashuv g'oyasi xususiy fanlar doirasida chegaralanib qolmasdan, umumpedagogik ahamiyatga ega masalaga aylandi.

Integratsiya (lot. *Integration* – tiklash, to'ldirish, birlashtirish. *Integer* – yaxlit) sintezlab bir butun qilib birlashtirish, mantiqiy yaxlit holga keltirish ma'nosida tushuniladi. Ta'lim mazmunini integratsiyalash deganda o'zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o'quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya'ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz [26; 94-b.].

Integratsiya (mujassamlashtirish) va differensiatsiya (tabaqalashtirish) bir-biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi, biri



ikkinchisidan kelib ham chiqmaydi, balki ular har doim bir vaqtni o'zida o'rganilayotgan obyektning ikki tomoni sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy bilishda ulardan biri vaqtinchalik ma'lum ustunlikka ega bo'lishi ham mumkin. Masalani ikki tomonini fan-texnika taraqqiyoti natijasida qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishida turli kasblarning paydo bo'lishi, ya'ni tabaqalanishini, mexanizatsiya, avtomatizatsiya va yana qo'shma kasblar yoki keng ixtisosli mutaxassislarning dialektik rivojlanishi ekanligini ko'rsatish mumkin.

Integratsiyalashtirish jarayonlari hozirgi zamon ilmiy bilimlarining o'zaro ta'siridan farqli o'laroq quyidagi yo'nalishlarda kechishi mumkin:

alohida olingan fan doirasida ichki ilmiy rivojlanish sifatida;

fanlararo o'zaro aloqadorlik doirasida, ya'ni bir yoki bir necha sohalar doirasida;

maxsus yaxlit ilmiy bilimlar doirasida kabilar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yo'nalishlar uyg'unligini integrativ yondashuv sifatida tasavvur etish mumkin. Ikki va undan ortiq nisbatan mustaqil qismlarda kechayotgan jarayonlarni birlashtirish – integratsiyalashtirishning natijasi bo'lishi mumkin.

Yaxlit tizimni tuzishda integratsiyalanuvchi aloqadorlik muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni ichki ilmiy aloqadorlik ham deb ataladi.

Tizimlashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ichki ilmiy aloqadorlikni tartibga keltirish yo'li bilan yaxlitlikni yuzaga keltirishdan iboratdir. Bu jarayonda hosil bo'ladigan yaxlitlik yangi sifat ko'rsatgichlariga ega bo'ladi. Integratsiyalashtirishning mohiyati, nazariy sintez vositasi sifatida yangi darajadagi bilish natijalariga erishishdir [26; 95-b.].

Mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganish quyidagi masalalarni hal etishga qaratilgan:

mutaxassislikka oid fanlarni integratsiyalab o'rganishning mohiyati, mazmuni va uni amalga oshirish shart-sharoitlari va vositalarini o'rganish;

turli fanlar mazmunini integratsiyalashtirishning ilmiy-nazariy va pedagogik-uslubiy asoslari bilan tanishish;

tahsil oluvchilarning o'quv-bilish faolligi, mustaqilligi va

bilimlar darajasini integrativ oshirishda bilimlarning dolzarbligini isbotlash;

ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, ruhiy-pedagogik, texnik-texnologik bilimlarni sintezlash talablari, imkoniyatlarini aniqlash.

Ko'p hollarda ta'lim-tarbiya ishida integrativ, tizimli va majmuaviy yondashuvlar sinonim sifatida talqin etiladi. Bu tushunchalarning umumiy tomonlarini o'rganilayotgan obyektlarning turli qirra, tomon va xususiyatlari tashkil etadi. Lekin ular bir-biridan mohiyatiga ko'ra ham farqlanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida integrativ yondashuvni amalga oshirish tizim yoki mavjud shakldagi yaxlit obyektning ichki va tashqi aloqalari, uni tashkil etish va boshqarish qonuniyatlarini bilgan holda olib borilishi mumkin. Kichik mutaxassislarni tayyorlashda integrativ yondashuv mutaxassislikka oid bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifat hamda fazilatlarini yaxlitligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Integrativ yondashuv mazmunan tutash, aloqador, mantiqiy bir-birini taqozo etuvchi va bir-biriga singib chuqurlashtiruvchi va kengaytiruvchi o'quv fanlarini integratsiyalash uchun qo'llanilib, yaxlit mantiqiy mukammal bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishni ko'zda tutadi [26; 96-b.].

*Integratsiya lotincha integration tiklash, to'ldirish, integer-butun so'zidan kelib chiqqan.*

Bu borada ikki tushunchaga egamiz:

1. Tizim, organizmning alohida tabaqalashtirilgan qism va vazifalarning bog'liqlik holatini bildiruvchi tushuncha va shu holatga olib boruvchi jarayon.

2. Tabaqalashtirish jarayonlari bilan birga amalga oshirilayotgan fanlarni yaqinlashtirish jarayoni.

Integrativ yondashish turli darajadagi tizimli aloqalarning obyektiv yaxlitligini aks ettiradi (tabiat-jamiyat-inson). U tizim elementlarining yaxlitlik va uyushqoqlik darajasini oshirishga olib keladi.

Integratsiyalash mobaynida bir-biriga bog'liqlik hajmi oshadi va tartibga tushadi, shu tizim qismlarining ishlashi va o'rganish obyektining yaxlitligi tartibga solinadi. Zamonaviy didaktika va metodikada ta'kidlanishicha, o'quvchilarni o'qitish, rivojlanishi va tarbiyasining muvaffaqiyatlari ularda dunyo birligi haqida

tushunchani shakllanganligini, o'z faoliyatlarini umumiy tabiat qonunlari asosida yo'lga solish zaruriyatini tushinishlari, tabiatshunoslik kursida fanlararo va fanlar ichidagi aloqalarni yecha olishlari bilan bog'liq. Ta'limdagi integratsiya o'quv fanlari mazmunini konstruksiyalashga tizimli yondashish orqali ko'rib chiqiladi [26; 99-b.].

***Differensial ta'lim.*** Rivojlangan mamlakatlarda ommaviy o'rta maktablarning yaratilishi ta'lim-tarbiya differensiyasi muammosini yanada keskinlashtirdi. Bunday holat umumiy ta'lim diversifikatsiyasining sifat darajasi boshqacha tizim zaruratini keltirib chiqardi. O'quvchilarning iqtidori, qiziqishi, o'zlashtirishiga ko'ra differensial tayyorgarlikni kuchaytirish va murakkablashtirish – zamonaviy maktabning global yo'nalishiga aylandi.

Differensiyaning asosiy shakllari – o'quv muassasalarini turli tiplarga bo'lish, bir maktab ichida potok va profillarga, sinfda guruhlariga ajratish nazarda tutiladi. Differensial ta'lim muammosi bir xil hal bo'lmaydi va qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiy tomondan differensiya ijtimoiy tanlov usuliga aylanadi. Pulli ta'lim va imtihonlar tizimi bunda tanlov vositasi bo'lib hisoblanadi. Odatda tabaqalanish (differensiya) boshlang'ich maktabni bitirgandan keyin boshlanadi. U turli tipdagi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Masalan: Angliyada grammatik va zamonaviy maktablarda, Germaniyada real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktablarda, Fransiyada texnologik, kasbiy va umumta'lim litseylarda, Rossiyada oddiy o'rta maktab, litsey, kollej, gimnaziyada va b. Bu o'quv muassasalarida differensiyaning asosiy o'ziga xos belgisi dasturlardir. Bir o'quv muassasasi doirasida differensiya keng yoyilgan. Masalan, AQSH va Yaponiya katta o'rta maktablarida 2 tipdagi umumta'lim va maxsus dasturlar mavjud. Ular turli qirralarda o'quvchilarning turli guruhlarini o'rganishadi. Germaniyada gimnaziya ta'limning 6 profilini taklif etadi [26; 102-b.], asosiy maktab esa differensiyani KKAM tizimi asosida amalga oshiradi. Unga ko'ra ta'lim dasturning quyidagi variantlariga ko'ra tashkil qilinadi: kasbiy kurs(K), kengaytirilgan kurs (K), asosiy kurs (A), moslashtirilgan kurs (M).

To'liqsiz o'rta maktab differensiya vositasi hisoblanadi. 1930-yil AQShda, 1950-yil Yaponiyada, 1970 – 1980-yillar G'arbiy Yevropada, 1990-yil Rossiyada differensial ta'lim amalga

oshiriladigan o'quv muassasalari paydo bo'la boshladi. Bu yerda gap AQSH va Yaponiyadagi kichik o'rta maktab, Buyuk Britaniyadagi birlashgan maktab, Germaniyadagi yagona kollej, Rossiyadagi 6 yillik o'rta ta'lim maktabi haqida ketyapti. Bu kabi ta'lim muassasalarida 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'qitiladi.

Bu o'quv muassasalarda tabaqalanishning pedagogik asoratlari ijobiy. Tabiiy maqsadga yo'naltirilgan xarakterga ega, turli guruh o'quvchilari imkoniyatlari hisobga olinadi. Umumiy dastur o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga mo'ljallangan. Masalan, Fransiyadagi ilk yagona kollejlarda yaxshi o'zlashtiruvchilar foizi shu yoshdagi parallel ta'lim muassasalarida yaxshi o'zlashtiruvchilar sonidan yuqori chiqdi. AQSH va Yaponiya kichik o'rta maktablarda to'liqsiz o'rta ta'lim beriladi. Mazkur dastur qator afzalliklarga ega. Tanlov fanlar ta'limni davom ettirish yoki mehnat faoliyatini boshlashni nazarda tutadi.

1950-yil oxirida DJ.Konant boshchiligidagi pedagoglar guruhi umumqamrab oluvchi maktab modelini taklif etdi. Bu model bo'yicha umumta'lim o'quv muassasasida ijtimoiy daraja, qobiliyat, qiziqishidan qat'i nazar barcha bolalar o'qishadi, lekin turli-tuman ta'lim dasturlari amalga oshiriladi. Konant tavsiyalari AQShdagi kichik o'rta maktablarda differensial ta'limni joriy qilishda foydalanildi. Buyuk Britaniyada birlashgan maktablar kichik grammatik sinflar va zamonaviy maktablarni o'z ichiga oladi. Ilk 3 yillikda o'quvchilar zamonaviy maktab dasturi bo'yicha shug'ullanadilar, keyin yoki shu dasturni davom ettiradi, yoki grammatik maktab dasturi bo'yicha o'qishadi. Birlashgan maktablarda yoshiga ko'ra 90% o'smirlar shug'ullanadilar [26; 103-b.].

Germaniyada umumiy maktablarda yoshiga ko'ra 5% o'quvchilar tahsil olishadi. Umumiy maktabning kooperativ va integral tiplari yuzaga keldi. Kooperativ maktablar asosiy, real maktab va gimnaziyalarni birlashtirdi. 9-sinfdan keyin o'quvchilar asosiy maktabdagi kabi diplom oladilar, 10 sinfdan keyin esa diplom real maktab va gimnaziyaning o'rta bosqichiga teng keladi. Kooperativ maktablarda mashg'ulotlar majburiy va elektiv dastur birgaligida amalga oshiriladi.

Fransiyada yagona kollejlarda guruh bo'yicha ta'lim doimiy tashkil etiladi. Turli tipdagi guruhlar tuziladi: gomogen guruhlar-

tayyorgarlik darajasi bir xil, yarim gomogen guruhlar-tayyorgarlik darajasi yaqin, geterogen-tayyorgarlik darajasi har xil. Guruhlarga o'qituvchilar, psixologlar, yo'nalishlari bo'yicha maslahatchilar tavsiyasiga ko'ra bo'linadi. Guruhlar maktab dasturi variantlarini o'zlashtiradilar. Ikkita bitiruvchi sinfda kuchli va kuchsiz bosqichli guruhlar yuzaga keladi. Bu ikki xil guruhni bitirgan kollej o'quvchilariga ta'limning keyingi tiplari tavsiya etiladi.

Yaponiya maktablarida guruhli ta'lim yaxshi mavqega ega, uni musobaqa tarzida tashkil etishadi. Sinfidagi guruhchalar kim ko'p ingliz tilidagi so'zlar, iyeroglif va she'r yod olish bo'yicha bellashadilar. Baho butun guruhga qo'yiladi. Yapon pedagoglari guruhli ta'limga har xil nuqtayi nazar bilan qarashadi. Guruhli ta'lim pedagogik jihatdan to'g'ri, lekin guruhlarda shug'ullanuvchi bolalar va o'smirlar dunyoqarashini toraytirish xavfi bor, deb hisoblashadi. Masalan, guruhni kuchlilar va zaiflar guruhiga bo'lganda 2ta holat yuzaga keladi: yoki kuchlilarga, yoki kuchsizlarga e'tibor qaratiladi, bu har ikkala guruhga ham zarar [26; 104-b.].

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga imkon yaratadi.

### **O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Buyuk Britaniya ta'limi necha bosqichdan iborat?
2. Italiya ta'limi necha bosqichdan iborat?
3. AQSH ta'limi necha bosqichdan iborat?
4. Germaniya ta'limi necha bosqichdan iborat?
5. Rossiya ta'limi necha bosqichdan iborat?

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'lim tizimlarini o'rganish, ularning ilg'or tajribasini tahlil etish va respublikamiz sharoitiga moslashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga imkon yaratadi.

## Xorijiy mamlakatlarda ta'lim tizimi

### 5.1-jadval

O'zbekistondagi ta'lim tizimi	Chet eldagi ta'lim tizimi	AQSH	Fransiya	Ispaniya	Buyuk Britaniya	Janubiy Koreya
Maktab-gacha ta'lim	Bolalar bog'chalari	3 yoshdan 5 yoshgacha	5-6-yoshlilar <i>kichik guruh</i> 2-4 yosh, <i>o'ria guruh</i> 4-5 yosh, <i>katta guruh</i> 5-6 yosh	bolalar bog'chasi (2-3yosh)	Bolalar bog'chalari	Bolalar bog'chalari
Umumiy o'rtta ta'lim	Boshlang'ich maktab	1-5-sinf	6 yoshdan 11 yoshgacha 1. <i>Tayyorlov bosqichi</i> . 2. <i>Elementar kurs</i> (bu bosqich ikki yil davom etadi). 3. <i>Chuqurlashtirilgan bosqich</i> .	Boshlang'ich maktab (4-5 yosh)	<i>boshlang'ich school</i> ) – 5-11 yoshgacha	6 yil - quyi maktab
	To'liq bo'magan o'rtta maktab	6-8-sinf	O'rtta ta'lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O'rtta ta'lim ikki bos-qichda amalga oshiriladi. O'rtta ta'lim ikki bosqichda beri-ladi. <i>Birinchi bos-qich</i> (11 yoshdan) 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, <i>5,4-o'rtta sinf</i> hisoblanadi.	Bazoviy ta'lim 8 kursdan iborat bo'lib, o'quvchilari 6-14 yosh oralig'ida bo'la-di. <i>Dastlabki 5 yil</i> bir o'qituv-chida bo'ladi. <i>Ikkinchi bosqichda</i> har xil predmet o'qituvchilari dars o'tadilar	<i>o'rtta ta'limi (Secondary school)</i> – 11-16 yoshgacha	3 yil - o'rtta maktab
	Yuqori maktab	9-11 sinf		Bachilerato o'rtta ta'liming yuqo-ri bosqichini es-latadi. U uch kursdan iborat. <i>Ikkinchi kursda</i> kasb-hunar ta'limini olishi mumkin, bu ixtiyoriy hisoblanadi. Bachirieto bepul, davlat ixtiyorida. <i>Uchinchi kursda</i> o'quvchilar aniq yoki jitmoy fanlarni aniqlashi lozim.	navbatdagisi yoshgacha. Bu ta'lim universitetga o'qishga kirish uchun bo'lib, kasb ta'limidan iborat. Kasb ta'limi - har doim to'ldirib turladi. Navbatdagi ta'lim maktab ta'limining davomi hisoblanadi.	3 yil - oliy maktab
O'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi	Kollejlar	2 yoki 4 yillik	Oliy ta'lim universitetlarda uch davrda amalga oshiriladi. <i>Birinchi davr</i> umumiy bo'lib, o'qish	1. <i>1-darajaga</i> o'rtta ta'limning yuqori sinflari kiradi. 2. <i>2-darajaga</i> 18 yoshdan boshlab o'qib, 1-darajali		4 yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi

Oliy ta'lim	Bakalavr	4 yillik kollejni bitirganlar	<p>muddati ikki yil. <i>Ikkinchi davrda</i> o'qish bir yil davom etadi. Talablar uni magistrlar darajasi bilan yakunlaydi. <i>Uchinchi davrda</i> o'qish bir-ikki yil bo'lib, bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- biron bir fanni chuqurlashtirib o'rganish haqida diplom (bir yil);</li> <li>- davlat doktorlik dissertatsiyasi - biron bir sohani mukammal o'rganib, dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.</li> </ul>	<p>kolledjni bitirishi lozim. Birinchi yili o'quvlar tanlangan kasb yuzasidan 4 ta fanni o'qishadi. Ulardan bitasidan imtihon yil yakunida bo'ladi. Ikkinchi yilga 3 ta fan va imtihon qoladi. 4 ta imtihon natijalari asosida diplom beriladi. Bu diplom mutaxassilik yuzasidan ishlash huquqini beradi, lekin menejerlikni bermaydi. Yakuniy imtihon natijalari universitetga kirish imkonini beradi. YA'ni universitetning birinchi bosqichig'v kirish imkoniyatidir. Talabaga uch variant qo'yiladi: ishlash, o'qishni davom ettirish yoki universitetga kirish.</p> <p>3. <i>3-darajali</i> kollejdagi 1 yil o'qib, sertifikat olinadi. Bu sertifikat menejer bo'lish yoki rahbar bo'lish imkonini beradi.</p> <p>4. <i>4-darajada</i> bakalavr diplomi beriladi. Bu diplom bilan firmani boshqarish mumkin.</p>	<p>Oliy ta'lim - 18 yoshdan boshlanadi. Bakalavr bosqichini magistr va doktorlik uchun sharoit yaratadi hamda universitet va kolledjning kunduzgi bo'limida 3-4 yillik maxsus o'rta injener-texnolog yoki o'rta rahbarlikda xususiy yoki davlat ixtiyorida ishlov korxonalariga ishlov imkoniyatini beradi.</p>	
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	Magistr			<p><i>Magistr bosqichining</i> dasturida 8-9 soat leksiya va seminaridan so'ng imtihon topshurilib, 3-4 oyda diplom proyektrini tayyorlaydilar. Imtihon natijalari hamda diplom loyi-hasi uchun magistr darajasini beradi. Bu bosqichning qoidasi mumkin.</p>	<p><i>Magistr bosqichining</i> dasturida 8-9 soat leksiya va seminaridan so'ng imtihon topshurilib, 3-4 oyda diplom proyektrini tayyorlaydilar. Imtihon natijalari hamda diplom loyi-hasi uchun magistr darajasini beradi. Bu bosqichning qoidasi mumkin.</p>	

			<p>bakalvr yo'nalishlari bo'yicha ta'lim quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Arxitektur.</li> <li>- Injener.</li> <li>- Litsenziat.</li> <li>- Tadqiqotchi magistr.</li> </ul> <p>1. 3. <i>Doktor</i> – 3 kurs yakunida dissertatsiyani ilmiy kengash muhokamasiga tayyorlaydi.</p>	<p>doktorlik darajasini olishi kerak hisoblanadi.</p> <p><i>Doktor bosqichining</i> dasturi ilmiy tadqiqot ishlaridan iborat. Hech qanday ma'ruza yoki o'quv seminar-lari o'tkazil-maydi. Ilmiy rahbar doktorga ilmiy tadqiqot mavzusini bera-di hamda maz-kur tadqiqotni olib borishga sharoit yaratib beradi. Tadqiq ishiga 2-3 yil vaqt ketadi. Yakunida talaba yakuniy hiso-botlarida, ilmiy yoki maxsus jumallarda nashr etishi ke-rak hamda nashr etilgan mate-riallar asosida dissertatsiyani yozadi. Muvaffaqiyatli dissertatsiya himoyasidan so'ng doktorlik darajasi beriladi.</p>	<p>Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.</p>
<p><b>Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash</b></p>					



## Xorijiy davlatlarda maktabgacha ta'limning variativ shakllari

Davlat	Ilk yoshdagi bolalari tarbiyalash va ta'lim sohasida davlat siyosati	Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning maqsad va vazifalari	Ta'lim va tarbiyaning shakllari, bolalarning yoshi	Maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'limning izchilligi
Buyuk Britaniya	<p>Maktabgacha ta'lim ustuvorlikka ega bo'lgan 1996 yilda, maktabgacha ta'lim tizimi to'g'risidagi qonun qabul qilindigagina erishdi. Bolalar bog'chalari ta'lim standartlari va sifatini oshirish uning maqsadi edi. MTT ikki tomonlama bo'ysunadi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ta'lim bo'yicha ta'lim va bilim departamentlariga;</li> <li>2. Kunduzgi parvarishning turli shakllarini tashkil qilish uchun – ijtimoiy xizmatlarning munitsipal departamenti</li> </ol> <p>Maktabgacha tayyorlov dasturi (The Early Years Foundation Stage - EYF5)</p> <p>Buyuk Britaniya</p>	<p>Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3-5 yoshdagi bolalarga mo'ljallangan va ta'lim hamda tarbiyaning oltilta tayanch mazmunini ifodalaydigan yagona milliy dastur asosida ishlab chiqilgan shart:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- shaxsiy-ijtimoiy va emotsional;</li> <li>- nutqiy;</li> <li>- matematik;</li> <li>- jismoniy;</li> <li>- ijodiy;</li> <li>- atrofdagi olam bilan tanishuv.</li> </ul> <p>Angliya va Uelsda davlat maqsadlari, o'qitishning dastur va metodlari shakllantirilgan, har bir bola o'zining potensial imkoniyatlaridan foydalanishi, ma'suliyatni olishi va kattalar hayoti tajribasini o'rganishi uchun muvozanatlashgan va keng ma'naviy, axloqiy, jismoniy va aqliy ta'lim olishga haqqi bor (1990).</p> <p>Asosiy e'tibor ishni rejalashtirishda kattalar jamoasining barcha a'zolari o'rtasida majburiyatlar taqsimotini</p>	<p>2 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar turli xil maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borishlari mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- kunduzgi yashtlar;</li> <li>- yaselli maktablar;</li> <li>- sintf va markazlar;</li> <li>- o'yin va maktabgacha guruhlar;</li> <li>- boshlang'ich maktablar qoshida ilk sinflar;</li> </ul> <p>Tashkilotning turiga qarab bolalar u yerda bir necha soatdan butun kun davomigacha bo'lishlari mumkin. Ko'pchilik bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yarim kun bo'lishadi, ya'ni, 9.00 dan 12.30 gacha, yoki 13.00 dan 16.30 gacha. Agar maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabdan alohida mavjud bo'lsa, u holda u 8.00 dan 18.00 gacha ochiq bo'ladi. Bolalar uncha katta bo'lmagan guruhlarga birlashishgan: kichik bolalar – 6 tagacha, 3-5 yoshdagi bolalar – 10 tagacha. Bolalar bog'chalardan tashqari bolalarga qarovchi markazlar, enaga-lar instituti, o'yin</p>	<p>1988 yilda bolalarni boshlang'ich maktabga qabul qilishda bolalarning psixik rivojlanish darajasining tayanch bahosini ham belgilab bergan ta'lim to'g'risidagi qonun o'z kuchiga kiradi.</p> <p>Angliya, Shotlandiya, va Uelsda majburiy ta'lim 5 yoshdan, Shimoliy Irlandiyada 4 yoshdan, bolalar davlat boshlang'ich ta'lim maktablariga o'qishga qabul</p>

<p>hukumatning bolaning ijtimoiy ta'limoti to'g'risidagi Farmonning 39-bo'limida belgilab qo'yilgan (The Childcare Act 2006). 2000 yilda maktabgacha ta'lim Angliyada rasman ta'lim tizimining "tayanch bosqichi" maqomini oldi. Maktabgacha tayyorlov dasturi bolani ijtimoiy himoya qilish va uni o'qitish hamda tarbiyalashga qo'yiladigan talablardan iborat qoidalar majmuasidir, va bu qoidalarga barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda majburiy ta'lim yoshigacha – 5 yosh – yetmagan bolalar bilan ishlayotgan barcha shaxslar rioya qilishlari shart deb ko'rsatilgan. Angliyada taxminan 6% Shotlandiyada 4% bolalar davlatdan hech qanday yordam olmasdan xususiy maktablarga borishadi</p>	<p>o'z ichiga oladigan, ta'lim mazmuniga kerakli o'zgartirishlar kiritish uchun muhokamalarga berilgan</p> <p>Bola ta'limi – bu eng avvalo, uning tashkil togan atrofidagi olam bilan odamlar, moddalar va bilimlardan o'zaro aloqasidir. O'qitish dastur qoidalarining amaliy tekshiruvi va har bir bolaning rivojlanishi xususiyatlarini kuzatishdan iborat. Dasturni amalga oshirish uchun quyidagilar-dan keng foydalaniladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- didaktik o'yinlar,</li> <li>- musiqa va kattalarning hikoyalarni tinglash,</li> <li>- kuzatilayotgan hodisalar-ning tahlili, kattalar va bolalarni jalb qilgan holda muzokaralar tashkil etish;</li> <li>- o'rganilayotgan hodisani har tomonlama bilish uchun turli xil faoliyatlar;</li> <li>- bolalarni ular indivi-dualligining namoyon bo'li-shini ro'yxatga olish va nazorat qilish, va faoliyatni rejalashtirish.</li> </ul> <p>Maktabgacha ta'lim dastur-lari bir nechta asosiy tamoyillarga amal qiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Bolalik o'z holicha qadriidir, u shunchaki hayotning kelgusi pog'omasiga tayyorgarlikka o'qitish emas, balki hayotning bir qismidir.</li> </ol>	<p>guruhlari va shu kabi boshqa tashkilot va muassasalar bor. Maktabgacha bo'lgan ta'lim jaryonida bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borishlari mumkin</p>	<p>qilingan-larida boshlanadi. Bunday ta'lim muddatlari Yevropada eng erta hisoblanadi. Asosiy maktabda bolalar 5-16 yoshdagi bolalar o'qishadi, lekin ko'pchilik maktabga etarok ham borishadi. Boshlang'ich maktabni 11 yoshda, Shotlandiyada esa 12 yoshda tugatishadi, va keyin o'ra maktabga o'tishadi. 5-11 yoshdagi bolalarga 3 ta asosiy fan o'qitiladi (ingliz tili, tabiiy fanlar, matematika), shuningdek, texnologiya, san'at, musiqa, tarix, geografiya, ular jismoniy va dimiy tarbiya oladilar. O'qitishning qanday tashkil</p>
--	--	--	--

		<p>2. Bola – har tomonlama rivojlanishi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir yaxlitlik sifa-tida qabul qilinadi, shuning uchun o‘qitish alohida predmetlarga bo‘linmaydi;</p> <p>3. O‘qitishda ichki rag‘batlantirish salmoqli; o‘ringa ega, chunki bola o‘z tashabbusi bilan o‘qiydi (yoki o‘qimaydi), u tashqi ta’sir qiluvchi omillardan holi.</p> <p>4. Mustaqillik va intizom muhimdir, bolalar o‘z tajribalariga ega bo‘lganlaridagina o‘qitish samara-lidir;</p> <p>5. Ta’lim bolalar qila olmaydigan ishlardan emas, aksincha, ular qila oladigan ishlardan boshlanadi;</p> <p>6. Har bir bola salohiyatlidir, faqat bu salohiyat qulay sharoitlarda rivojlanadi, bu o‘rinda bola aloqa o‘rnatadigan kattalar va boshqa bolalar muhim ahamiyatga egadir</p>		<p>ettilishidan qat’iy nazar 5-7 yoshli bolalarning sinf xonalarida bolalar-ning o‘zlari istagan yoki ma’lum bir faoliyat uchun tarbiyachi tanlab bergan mashg‘ulot bilan kichik guruhlarda mashg‘ul bo‘lishlari uchun ko‘pgina o‘yinchoqlar, konstruktor-lar, qurilish material-lari, rolli o‘yinlar, rasm chizish uchun burchaklar bor</p>
<p>Irlandiya</p>	<p>Irlandiyaming maktabgacha ta’lim tizimi nisbatan yosh tizimdir. Qarorlar, asosan, davlat va mahalliy miqyosda, shuningdek ota-onalarning tashabbuslari bilan qabul qilinadi</p>	<p>Irlandiyada maktabgacha ta’lim tarbiya borasidagi muammolarni hal qilishda boshqa davlatlar tajribalariga tayanishadi, shuning uchun ilk yoshdagi oila tarbiyasini qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan zamonaviy tasavvurlarga javob beradigan bir qator qoidalar tuzildi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bola parvarishida onalarga yordam berishning turli shakllarini yaratish;</li> <li>- maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida turli, sinalgan, shu bilan birga quyi tashkilotlar tashabbusi</li> </ul>	<p>Kunduzgi parvarish guruhlari ko‘ngilli tarbiyachilar, ishtiroqmand ota-onalarni jalb qilgan holda tashkil etiladi, bunda davlat ular bilan bir yoki undan ortiq bo‘lgan muddatga shartnoma tuzadi va ularni moliyalashtiradi. O‘yin guruhlari bolalar o‘z onalari bilan borishadi, va u yuqardagi har bir mashg‘ulot tarbiyachi nazorati ostida 2-3 soat davom etadi</p>	

		<p>bilan yaratilgan yangi metodlarni qo'llash</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- maktabgacha tarbiya tizimi-ga professional kadrlarni tayyorlash</li> <li>- rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni normal rivojlanayotgan bolalarning guruh va sinflariga integratsiya qilish, hamma bolalar uchun teng sharoitlar yaratish, shu jumladan, to'liq bo'lmagan, qanbag'al va noxush oilalar farzandlariga ham, davlatlararo, mahalliy hukumat, ota-onalar, tarbiyachilar bilan hamkorlik va sherikchilik qilish, barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro aloqasi</li> </ul>	
<p>Germaniya</p>	<p>Bolalar bog'chalari mahalliy hukumat, xususiyl shaxs, yoki cherkovlarga tegishli bo'lishi mumkin. Bolalarni o'qitish va tarbiyasini tashkil etish Madaniyat Vazirligi bilan muhokama qilinadi. Moliyalashtirish kommuna yoki cherkov byudjetidan amalga oshiriladi. Oilalar bilan ijtimoiy ishlashga, ota-onalar va bolalar uchun maslahat markazlari, ommabop adabiyot va sog'lom ovqatlanishga katta e'tibor qaratiladi</p>	<p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun yagona dastur yo'q. Bolalar bog'chasi xodimlari o'z ishining konsepsiya-sini o'zari ishlab chiqisha-di. Germaniyada, ayniqsa, tarbiyachining fe'lidagi empatik xususiyat nihoyatda qadrlanadi. - bu o'zini boshqa bir odamning o'miga qo'ya bilash, unga to'laigicha hamdard bo'lish va ziddiyatga kirisha olish va uni hal qilish; - o'z nuqtai nazarini himoya qila olish, asoslar topish va aqlga bo'yusinish (Hans-Dieter Schmidt, Sabine Naumann, Heidi Colberg-Schrader).</p>	<p>Maktabga maxsus tayyor-garlik yo'q, lekin deyarli hamma bolalar hech bo'lmasa qandaydir davr oralig'ida bolalar bog'chalarga borishadi. 6-10 yoshli bolalar yagona boshlang'ich maktabga borishadi, keyinchalik esa o'zlashtirish ko'rsatkich-lariga</p>

Fransiya	06.09.1990 yildagi Onalik maktabi to'g'risidagi № 90-788 sonli "Kichik va boshlang'ich yoshdagi bolalar uchun maktablarni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yish to'g'risida"gi Qonun. Qonunda quyidagi masalalar belgilangan: - jismoniy, ahloqiy, aqliy rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratish; - o'z tengdoshlari bilan muloqotning dastlabki ko'nikmalarini shakllantirish; Onalar maktabi shuningdek, bolalarni yozuv, hisob, o'qish bilan tanishtirishni ham amalga oshiradi. Rasmiiy yo'riqnomada bolalarning kundalik kelishi va parvarishi, ularni ta'minlash sharoitlari, rag'batlantirish va jazolash ro'yxati, tarbiyachi va ma'muriyat majburiyatlari, kerakli hujjatlarni yuritish qoidalari batafsil yoritilgan. Onalik maktabining asosiy didaktik yo'riqnomasi	Boshlang'ich ta'lim bosqichida ta'lim maqsadlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: kundalik murakkab hayotda uchray turadigan turli va-ziyatlardan chiqib ketish mahoratini ishlab chiqishda zarur bo'ladigan jismoniy, ijtimoiy, hujliqiy, aqliy ko'nikmalarini rivojlantirish. Metodik tavsiyalarda turli yoshdagi bolalarning yetarlicha bandligin ta'minlashga hamda bolalarning xona ichida ham bir-biriga, ham mashg'ulotlarga xalqit bermasliklariga alohida e'tibor qaratilgan. Bolaning individual psixo-fizologik rivojlanishiga tarbiyachilik sikli ko'proq mos keladi	chunki, unday bolalar ikki hissa ko'roq e'tibor talab qilishadi) XX asrning 60-yillaridan boshlab Fransiyada bola parvarishiga yordam berishning turli shakllari tashkil etildi: ota-onalar uyushmalari, xususiy bolalar bog'chalari, enagalar instituti, davlat va oila yashilari, turli tarbiyachilik yo'nalishlarda davlat MTT lari. Hozirgi kunda MTT lar ning bir nechta tiplari mavjud (guruhlariga bir-lashish yoshi bo'yicha amalga oshiriladi): - ilk yosh guruhi (2-4 yosh); - o'ra guruhi (4-5 yosh); - katta guruhi (5-6 yosh); - onalik maktabi, bolalar bir kunda 6 soat davomida bolalar bog'chasida bo'lishadi (8.15 dan 11.15 gacha va 14.00 dan 17.00 gacha), katta guruhlarda ertalab ikkita va tushdan keyin bitta mashg'ulot o'tkaziladi; - to'liq kunli bo'lmagan bolalar bog'chalari (uzoq qishloqardan bo'lgan 3-4 yoshli bolalar, - ilk boshlang'ich sinflar (3-6 yosh), - ilk boshlang'ich guruhlari (4-6 yosh) bolalar bog'chasini ochish uchun yetarli kontingentga ega bo'lmagan joylarda maktablar qoshida. - "Ilk yoshdagi bolalar uchun sinflar", bu shunday bir sinfli onalik maktabiki, unda 3 ta guruhi birlashadi: birinchisi – 2-5 yoshli bolalar (kichikinalar), ikkinchisi – 5-6 yoshli bolalar (kattalar), uchinchisi –	6 yoshli bolalar boshlang'ich maktabga borishadi, dastlab bilimlar asosi-ning tayyorlov, so'ngra elementar kursini o'tishadi 7-9 yoshli bolalarga o'qitishning 3 sikli mos keladi (o'ra kurs, birinchi sinf, ikkinchi sinf). Sinf taxminan bir xil yoshdagi 25 ta (ko'pi bilan 35 ta) boladan tashkil topadi. Ayrim vaziyatlarda, ta'limning turli darajalaridagi bolalar uchun dasturlar aralash bo'ladi
----------	--	--	--	--

AQSH	bo'lib "Onalik maktabi tarbiyachilikasi" (1973) hisoblanadi. Undagi nazariy ishlanma v.v aqliy rivojlanirish metodikasi J.Piagetga tegishli	Asosiy maqsadlari: - jismoniy ko'nikma va sog'likni rivojlanirish; - emotsional va hissiy, kognitiv bilimlarning rivojlanishini qo'llash; - kelgusi o'qishda muvaffaqiyatga olib keladigan ko'rsatma va natijani shakllantirish; - bolalar va ularning ota-onalarida jamiyat oldida ma'suliyat hissini shakllantirish; - qanabog'allarga yordam berishda jamonning qo'llab-quvvatlashi; - bolada va oilada o'z-o'zini hurmat qilish va shaxsini himoya qilishni rivojlan-tirish	6-7 yoshli bolalar. - ochiq bolalar bog'chasi loyihasi (Kristian Le Lijevr) 5-6 yoshli bolalarga mo'ljallangan, nutq va yozuv, matematika, jismoniy va aхлоqiy tarbiya metodikasi taklif etiladi	Bolalar bog'chasi va boshlang'ich maktab o'zaro erkinlik va tartib, erkin o'yin va strukturali faoliyat, shafqatlilik va intizom bilan muvazamatlashgan
			Bolalar bog'chalari (kindergartens) – maktabga tayyorlov sinflari maktablarga birkirilgan. XX asming –yillarida "bolalar maktablari, enagalor maktablari" (nursery schools) yoki "maktabgacha ta'lim tashkilotlari" shakllana boshlandi, dastlab ular o'rtaqatlam tashabbusi bilan tashkil etilgan, va o'z oldiga turli maqsadlarni qo'ygan: oilaga yo'naltirish (bolalar va kattalarga muloqot qilishga imkon beradigan ota-onalar kooperivlari), bolaning istiqboliga yo'naltirish (to'g'ri ovqatlanirish dasturini amalga oshirish, sog'liqni saqlash); yoki izlanishga yo'naltirilgan (universitetlar qoshida). Bolalar bog'chalarining ish vaqtlari quyidagicha: 7.00 da bolalar bog'chasi ochiladi (ko'pincha ota-onalar bolalar va tarbiyachilar bilan o'ynab, subbatlashib birmuncha vaqt o'tkazishadi, bolalar bino yoki ko'chada o'yinchoqlar yoki boshqa narsalar bilan erkin o'ynashadi); 12.30 da bolalar bog'chasi yarim kun bo'ladigan bolalarni onalari olib ketishadi, qolganlari esa 17.30 gacha qolishadi	

Kanada	Bolalar bog'chalari – bu davlat maktablari tizimining bir qismi va o'quv yili boshlanganida 1 sentabr holatiga 5 yoshga yetgan bolalar uchun majburiy hisoblanadi	Bolalar bog'chasida o'qitish natijalari bolalar bog'chasidan boshlab to 8-sinfgacha bo'lgan davrda kelgusi rejalashtirishdagi dastlabki qadamlar bo'lib hisoblanadi. Bolalar bog'chasida o'qitishda dastlab bolalarning rivojlanish darajasi har xil. O'qitishdan kutilayotgan natija o'qitishning olitira sohasida namoyon bo'lgan: shaxsiy va ijtimoiy farq, matematika, til, ilim va texnologiya, sog'liqni saqlash va jismoniy tarbiya, tasviriy san'at	Maktabgacha ta'lim 5 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'qitishning barcha shakllarini qamrab oladi, unga ilk yoshdagi bolalar uchun dasturlar, o'yinli maktab, bolalar bog'chasi kiradi. Kanadada tayyorlov maktablarining bir nechta tiplari bor: -foydali kelirmaydigan birfahmal/kooperativlar (tarbiyachilar bilan bir qatorda tarbiyachi sifatida ko'ngilli ota-onalar ishlashadi); - cherkovlar qoshidagi maktablar (dimiy hamjamiyatlar, dimiy ta'lim ham qo'shilishi mumkin); - mahalliy uyushma maktablari; - xususiy maktablar va Montessori maktablari (2,5-6 yoshli)	Bolalar bog'chasini bitirish vaqtiga kelib bolalar o'qitishning olitira sohasining har birida o'z yutuqlarini namoyon qilishlari rejalashtirilgan
Xitoy	1976 yildan – modernizatsiya va ijtisodiy rivojlanish davri. Maorif organlari, malaka oshirish tizimi tiklandi va mustahkamlandi, ta'lim sifatiga alohida e'tibor qaratladi. XX asrning 80-yillarida AQSH, Yaponiya tajribalariga tayanish boshlandi, hozirgi kunla Xitoyning MTT larning xilma-xilligi oshdi. Xitoyda o'z an'analarni saqlagan holda chet el tajribasiga tayanib ish yuritiladi	Maktabgacha ta'lim mazmunining ustuvor yo'nalishlarida asosiy maqsadlar aks etgan: - g'iyenik ko'nikmalarni singdirish; - jismoniy tarbiya; - nutqni rivojlantirish, lug'at boyligini kengaytirish; -matematik tushunchalarni shakllantirish; -tabiat va jamiyat to'g'risida tasavvurni shakllantirish; -ahloqni shakllantirish. Vatanga, xalqqa, oilaga, bolalar bog'chasiga, tarbiyachi va do'stlariga muhabbat, altruizm, bo'lishishga ishtiyoq, kamtarlik, tanqidni qabul qila olish, rostgo'ylik, kattalarga hurmat,	Bolalarning bir qismi MTT da 8.00 dan 18.00 gacha bo'lishadi (bolalarni qabul qilish 7.45 da boshlanadi). Bolalarning bir qismi uylariga ketishadi, bir qismi esa (5%) kechasiga ham qolishadi, ularni ota-onalar faqatgina chorshamba va shamba kunlari olib ketishadi	Boshlang'ich maktabdan oldin jismoniy, aqliy, ahloqiy, estetik rivojlanish, sog'lom tana va aqlni tarbiyalash uchun zarur sharoitlarni yaratish masalasi qo'yiladi. Uning faoliyati ta'lim mazmunini o'zlashtirish, ta'lim olish jarayoniga yo'naltirilgan bo'lib, ko'p

Yaponiya	<p>Bolalar bog'chasi ta'lim, ilim va madaniyat Vazirligi tasarrufi-dadir. Kunduzgi parvarish Mar-kazlari va ijtimoiy ta'minot esa Sog'liqni saqlash Vazirligi tasarrufidadir. Bolalarni u yerlarga munitsipal hukumat yo'naltiradi, to'lovi ota-onalarning daromadidan kelib chiqadi.</p> <p>Asosiy e'tibor onalar Maslahati kengashiga beriladi, chunki aynan ona farzandining ta'limini tashkil etishga javobgardir.</p> <p>Ular bolalar bog'chalari, maktablarga yordam berishadi (ularning huquqlarini himoya qilishadi, o'yinchoq va jihozlar xarid qiladilar, muhtoj bolalarga yordam berishadi);tarbiyaga doir ota-onalar konerensiyalari va xalqaro simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashadilar</p>	<p>optimizm va ishonch hissi; - mehnat tarbiyasi: jamoada ishlay olish, jamoa mulkiga hurmat; - musiqa va san'at bilan shug'ullanish</p>	<p>Asosiy maqsad – indivi-duallik va guruhga tegish-likni, majburiyatlar va bolalar bog'chasi, oila hamda jamoat bilan to'g'ri nisbatni muvofiqlashtirishdir. MTT quyidagi masalalarni hal qiladi: bolaga boshqa bolalar qa kattalar bilan yaxshi munosabat o'rnatishga, sog'lom hayotiy odatlarni o'zlashtirish, tabiatni hurmat qilish, ijtimoiy hujuk ko'mikmalarini egallash</p> <p>Ish mazmuniga bola parvarishi, emosional muvozanatni ta'minlash, sog'liqqa e'tibor, ijtimoiy muloqotni nazorat qilish, tegishli muhitni yaratish va tanishish, nutqni rivojlantirish va o'z-o'zini namoyon qilish</p>	<p>MTT ning quyidagi tiplari mavjud: - bolalar bog'chalari 3 yoshdan katta bo'lgan bolalar borishadi va uerda bir kunda 4 soat bo'lishadi (bunda asosiy urg'u o'qitishga qara-tiladi); - kunduzgi parvarish mar-kazlari bir kunda 8 soat ishlaydi (bunda urg'u tarbiyaga beriladi, bu yerda ilk yoshdagi bilan bir qatordan maktabgacha yoshdagi bolalar birga tarbiyalanishadi); - gimnasitika, suzish, musi-qa, raqs va shu kabilar bilan shug'ullanadigan qo' - shimcha maktablar; - maktablar bilan o'zaro aloqasi mavjud bo'lgan universitetlarga tayyorlay-digan, o'sha maktablar qoshidagi xususiy bolalar bog'chalar</p>	<p>maqsadli loyihalalar bo'yicha ishlash bilan bog'liq</p> <p>Maktab ta'limi guruhlari yondashuv asosida qurilgan. Bolalar individual-likning farqi haqida gapirish taqiqlangan. Guruh (sinf) ta'lim tashkilotidan tashqarida ham guruh (sinf) ligicha qoladi (masalan ekskur-siyalarda)</p>
----------	--	--	---	--	--



## O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar


1. Buyuk Britaniya ta'limi necha bosqichdan iborat?
2. Italiya ta'limi necha bosqichdan iborat?
3. AQSH ta'limi necha bosqichdan iborat?
4. Germaniya ta'limi necha bosqichdan iborat?
5. Rossiya ta'limi necha bosqichdan iborat?
6. Yaponiya ta'limi necha bosqichdan iborat?
7. Koreya ta'limi necha bosqichdan iborat?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Quyidagi «Toifalash jadval»ini to'ldiring:

Xorijiy mamlakatlar	Ta'lim tizimi
Buyuk Britaniya	
AQSH	
Germaniya	
Yaponiya	
Koreya	

2. «Venn diagrammasi» strategiyasini «O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar ta'limi»ni ishlab chiqing:



## **6-BOB.**

### **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDAGI TA'LIM FAOLIYATINING MAQSAD VA TAMOYILLARI**

#### **Reja:**

6.1. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim faoliyatining maqsadlari va tashkil qilish tamoyillari.

6.2. Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish va sog'lom ovqatlanishni tashkil etish.

**Tayanch so'z va iboralar:** qo'shimcha ta'lim xizmatlari, sog'lom ovqatlanish, autsorsing usulida sog'lom ovqatlanirish.

#### **Maktabgacha ta'lim muassasasidagi ta'lim faoliyatining maqsadlari va tashkil qilish tamoyillari**

O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir. MTMda ta'lim jarayonini tashkil qilish tamoyillari. MTM ta'lim jarayonining tamoyillari quyidagilardan iborat:

bola huquqlari, o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari va salohiyatlarini hisobga olish;

ta'lim jarayonida barcha turdagi rivojlanish sohasining o'zaro bog'liqligi;

bola salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, uning harakatlanish ehtiyojlarini qondirish;

bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash;

o'yin orqali ta'lim berish va rivojlantirish;

bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish;

bola uchun xavfsiz muhitni ta'minlash;

MTMning oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi;

milliy madaniy an'analar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.

Head Start Birlashgan Shtatlardagi eng katta federal erta bolalik dasturi. 1965-yildan 2009-yilgacha Head Start 27 milliondan ortiq bolalarga xizmat qilgan, 2009-yilda 900000 dan ortiq turli xalqlarga

mansub bolalarni qabul qildi. Dastur asl shaklidan iqtisodiy nochor yosh bolalar va ularning oilalari uchun xizmatlar to'plamidek ancha rivojlandi [14; 61-b.].

Bolaning maktabgacha ta'lim muassasasidagi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uning amalga oshirilishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari javobgar bo'ladi.

### **Qo'shimcha ta'lim xizmatlarini tashkil qilish va sog'lom ovqatlanishni tashkil etish**

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari maktabgacha ta'lim muassasasi tomonidan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bolalar va aho-li ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etiladi. Qo'shimcha ta'lim xizmatlari fakultativ hisoblanadi va ularni tashkil qilishda ko'ngillilar (volontyorlar), ota-onalar va homiylar ishtirok etishi mumkin [12].

Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sog'lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta'minlash lozim. Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri bolalarning sog'lom ovqatlanishini, ular sog'lig'ini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish xizmatlari bilan ta'minlash, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun sharoitlar yaratishdan iborat.

Sog'lom, xavfsiz va sifatli ovqatlanishni ta'minlash bo'yicha vazifalarni hal qilish uchun davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida bunday xizmatlarni ko'rsatish qisman autsorsing shartlari asosida tadbirkorlik subyektlariga berilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim tizimidagi tibbiyot xodimlarining malakasini tizimli oshirish bo'yicha chora-tadbirlar faol qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, sog'lom avlodni tarbiyalash vazifalarini samarali hal qilish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda:

1) maktabgacha ta'lim muassasalarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va yetkazib beruvchilarning narx siyosatiga amal qilishini nazorat qilishning shaffof markazlashtirilgan tizimini yaratish;

2) tayyor taomlarni tayyorlash va maktabgacha ta'lim muassasalariga yetkazib berish uchun ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini, jumladan outsorsing asosida jalb qilish;

3) maktabgacha ta'lim tizimida sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami xizmatlari bilan maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

4) bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'minoti uchun munosib, jumladan, to'laqonli, to'g'ri, balanslashtirilgan, sog'lom ovqatlanish, asoslangan tibbiy ko'rsatmalarda belgilangan hajm va tezlikdagi, ko'ngilochar mashg'ulotlar va bilim olish elementlari mavjud faol o'yinlar va mashqlardan iborat sharoitlarni yaratish;

5) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarga barvaqt kompleks yordam berish tizimini takomillashtirish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki psixik buzilishlari bo'lgan bolalarda asosiy kompetensiyalarni zaruriy sifat darajasida shakllantirishga erishish, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlash [6].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son qarorining 3-bandiga muvofiq Toshkent shahrida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga tadbirkorlik subyektlari tomonidan tayyor ovqatlarni yetkazib berish bo'yicha eksperiment o'tkazildi.

Eksperiment jarayonida 60 nafar tadbirkor va 266 ta maktabgacha ta'lim muassasasi ishtirok etib, jami 63760 nafar tarbiyalanuvchini outsorsing usulida (maktabgacha ta'lim muassasasiga tayyor ovqat yetkazib berish yo'li bilan) ovqatlantirish tashkil etildi. Eksperiment jarayonida tarbiyalanuvchilarning ishtirok etgan 3 358 nafar ota-onasi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, 2 921 nafar (87%) ota-onalar outsorsierlar tomonidan tayyorlagan taomlarga ijobiy baho berdi.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish ishlarini yanada takomillashtirish, belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq holda ovqatlantirishni tashkil etish orqali bolalarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash, sog'lom ovqatlantirishning zamonaviy usullarini joriy etgan holda ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi quyidagicha qaror qildi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2017-yil 9-sentyabrdagi PQ-3261-son qaroriga muvofiq Toshkent shahridagi davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida tadbirkorlik subyektlari tomonidan outsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperiment natijalari jamoatchilik va ota-onalar tomonidan ijobiy baholanganligi ma’lumot uchun qabul qilidi.

2. Quyidagilar hujjatlar qabul qilindi:

Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida outsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom;

2019 – 2021-yillarda davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari rejasi (6.1-jadvalga qarang):

### 6.1-jadval

#### «Davlat maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to‘g‘risida»gi NIZOM

№	Boblar	Boblar mazmuni
1	1-bob.	Umumiy qoidalar
2	2-bob.	Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishning maqsad va vazifalari
3	3-bob.	Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishga qo‘yiladigan asosiy talablar
4	4-bob.	Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish
5	5-bob.	Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni kunlik ovqatlantirish narxlarini belgilash
6	6-bob.	Maktabgacha ta’lim muassasalarida xodimlarining ovqatlanishini tashkil etish
7	7-bob.	Maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarini sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etishda ishtirok etadigan xodimlarning vazifalari
8	8-bob.	Maktabgacha ta’lim muassasalarida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish monitoringini olib borish
9	9-bob.	Yakunlovchi qoida

**«Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida autorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida» gi NIZOM**

<b>№</b>	<b>Boblar</b>	<b>Boblar mazmuni</b>
1	1-bob.	Umumiy qoidalar
2	2-bob.	Autorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning maqsad va vazifalari
3	3-bob.	Autorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablar
4	4-bob.	Autorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish
5	5-bob.	Autorserning huquq va majburiyatlari
6	6-bob.	Autorser faoliyatini tashkil etish
7	7-bob.	Buyurtmachining huquq va majburiyatlari
8	8-bob.	Yakunlovchi qoida
9	9-bob.	Yakunlovchi qoida

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori 1-ilovaga muvofiq tasdiqlangan «Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida»gi Nizomning 9-bobida maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanishni tashkil etish berilgan. Ushbu Nizomning 45-46-bandlarida o'z ifodasini quyidagicha topgan:

45-band: Maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

46-band: Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar ovqatlanishini tashkil etish uchun javobgarlik maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari zimmasiga yuklanadi [9].

**O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi nimadan iborat?
2. MTM ta'lim jarayonining tamoyillari nimalardan iborat?
3. Qo'shimcha ta'lim xizmatlari deganda nimalar nazarda tutilgan?

4. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish qanday tashkil etilgan?

5. Sog'lom avlodni tarbiyalash vazifalarini samarali hal qilish maqsadida qanday chora-tadbirlarni amalga oshirilishi nazarda tutilgan?

6. Outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirish qanday tashkil etiladi?

7. Sog'lom ovqatlantirish bo'yicha qanday hujjatlar qabul qilindi?

8. «Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom qachon qabul qilingan?

9. «Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom qachon qabul qilingan?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Maktabgacha ta'lim muassasidagi ta'lim faoliyatining maqsadlari va tashkil qilish tamoyillari «Toifalash» jadvali asosida joylashtiring.

<b>O'quv-tarbiyaviy jarayonning maqsadi</b>	<b>MTM ta'lim jarayonining tamoyillari</b>

2. «Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom bilan «Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizomni «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

<b>Boblar</b>	<b>«Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ov-qatlan-tirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom</b>	<b>«Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqat-lantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida»gi Nizom</b>
1-bob.		
2-bob.		
3-bob.		
4-bob.		
5-bob.		
6-bob.		
7-bob.		
8-bob.		
9-bob.		



## **7-BOB.**

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TARBIIYASI**

#### **Reja:**

- 7.1. Bolaning ruhiy taraqqiyotida ta'lim va tarbiyaning roli.
- 7.2. Muhit va biogenetik omillarning roli.
- 7.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** bolaning ruhiy taraqqiyoti, muhit, biogenetik omil, biologik yo'nalish, preformizm yo'nalishi, bixeviorizm yo'nalishi, tarbiya, irsiyat, tabiiy (geografik) muhit, oila muhiti, ijtimoiy muhit, yosh davrlari, maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlari.

#### **Bolaning ruhiy taraqqiyotida ta'lim va tarbiyaning roli**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

1) maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

2) maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

4) «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini keng joriy etish;

5) tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o'rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi rehabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta'lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko'maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;

7) maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;

8) mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejaları va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;

9) bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

10) maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish;

11) bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish;

12) maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnamaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlari turlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish [6].

### **Muhit va biogenetik omillarning roli**

***Odam bolasining rivojlanishi*** – bu muhim jarayon hisoblanadi. Ma'lumki, hayot davomida inson jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib

boradi. Lekin bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Tarbiya, irsiyat (nasl) va muhit bolaning rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Agar ana shu uchta omil bolaga ijobiy ta'sir qilsa, u kelajakda barkamol inson bo'lishi va salbiy tomondan ta'sir qilsa, badaxloq kimsaga aylanishi mumkin.

Bolaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqida Islom dini va ulamolarning asarlarida yetarlicha fikr va mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga bolaning rivojlanishi haqida G'arb faylasuflari ham o'zlarining qarashlarini bayon qilishgan. Quyida biz G'arb va Islom dunyosining bolaning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar haqidagi fikrlarini keltirib o'tamiz.

#### ***Bolaning shakllanishi haqida G'arb faylasuflarining fikrlari.***

***Biologik yo'nalish*** – bu yo'nalish tarafdorlari odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishida tabiiy – biologik (irsiy) omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi deb biladilar. Ularning fikricha, bola ona qornidalik vaqtida avlod-ajdodlardan o'tgan tug'ma xususiyatlariga rivojlanadi. Ular tarbiya va muhitning rolini cheklab qo'yishadi. Yo'nalishning tarafdorlari Aristotel, Platon hisoblanadi.

***Preformizm yo'nalishi*** – XVI asr falsafasida vujudga kelgan bu oqim namoyandalarining fikricha, bo'lajak shaxsga tegishli barcha xususiyatlarga bola ona qornidaligidayoq ega bo'ladi. Ular tarbiya va muhitning rolini butunlay inkor etishadi.

***Bixeviorizm yo'nalishi*** – bu oqimga amerikalik pedagog va psixolog E.Torandayk asos soldi. Uning fikricha, shaxsning barcha xususiyatlari, jumladan, ong va aqliy xususiyat ham nasldan naslga o'tadi. Bu bilan E.Torandayk tarbiyaning shaxs rivojlanishiga ta'sirini butunlay inkor etadi va uni shaxsning xususiyatlariga ta'sir etishdan o'zini deb biladi.

Insonning shakllanishida Islom dini va mutafakkirlarning fikrlari. Islom dini va mutafakkirlarning asarlarida bolaning shakllanishi uchun tarbiya, irsiyat va muhit ta'siri alohida ta'kidlangan. Shu uch omilning ichida tarbiyaning roli, ayniqsa, ahamiyatli hisoblanadi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Chunki nasl va muhitda kamchilik bo'lsa, tarbiyaning ta'siri sezilmasligi mumkin. Quyida

biz uchta omil haqida Islom dini va ulamolarning qarashlarini keltiramiz.

***Bolaning shakllanishida tarbiyaning ahamiyati.*** Tarbiya – inson kamolotiga ta’sir etuvchi tashqi va eng muhim omil hisoblanadi. «Tarbiya» arabcha soʻz boʻlib, oʻstirdi, rahbarlik qildi, isloh qildi degan maʼnolarni bildiradi.

Islom ulamolaridan Rogʻib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha taʼrif qiladi: «Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga oʻtkaza borib, batamom nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning maʼnolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uygʻunlik va muvozanat ila oʻstirishdir». Tarbiyani insonga yetkazishda ota-onaning oʻrni beqiyosligini Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) taʼkidlaydilar. Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: «Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): «Har bir tugʻilgan bola faqat fitrat (sof tabiat) bilan tugʻiladi. Bas, ota-onasi uni yahudiy yoki nasroniy yoki majusiy qiladi...». Bu hadisi sharifdan irsiyat, yaʼni biologik omil insonni shakllanishida asosiy oʻrin tutadi degan fikrni ilgari suruvchi Gʻarb faylasuf va oqimlarining fikrlari asossiz ekanini va tarbiyaning muhimligini bilib olamiz.

Oʻrta Osiyolik mutafakkirlardan Forobiy va Abu Ali ibn Sino inson tarbiyasiga ta’sir etadigan omillar ahamiyatiga eʼtibor berganlar. Forobiy inson kamolotida taʼlim-tarbiyaning muhimligini taʼkidlab: Munosib inson boʻlish uchun insonda ikki xil imkoniyat: taʼlim va tarbiya olish imkoniyati bor. Taʼlim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yoʻldir...» deydi. Abu Ali ibn Sino oila tarbiyasida ota-onaning oʻrniga alohida toʻxtalib: «Bola tugʻilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qoʻyishi, soʻng uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak... Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa, oila baxtli boʻladi» degan fikrni ilgari suradi.

***Bolaning shakllanishida irsiyat (nasl)ning ahamiyati.*** Bola shaxsining rivojlanishida naslning taʼsiri deganda ota-onadan bolaga meros boʻlib oʻtadigan jismoniy xususiyatlari (tananing tuzilishi, sochining, koʻzining, terining rangi, boʻy-basti) shuningdek, tananing vertikal holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati, tugʻma holatda oʻtadigan qobiliyatlar va xususiyatlar tushuniladi. Islom dinida naslga alohida eʼtibor qaratiladi. Chunki nasl pokiza va ota-ona maʼrifatli, axloqli boʻlsa, bu

xususiyatlar tug‘ma holatda bolaga o‘tadi va kelajakda komil insonga aylanadi. Agar ota-ona ma‘rifatdan yiroq va axloqsiz bo‘lsa, ulardan tug‘iladigan farzand jamiyatga zarar keltirishi mumkin. Lekin otanadan tug‘ma holatda o‘tadigan qobiliyat va xususiyatlar o‘z holicha rivojlana olmaydi, go‘yo u «mudroq» holda bo‘lib, uning uyg‘onishi – rivojlanishi uchun qulay muhit va muttasil tarbiya kerak.

***Bolaning shakllanishida muhitning ahamiyati.*** Bola kamolotiga ta‘sir etadigan omillardan biri tashqi muhit hisoblanadi. Muhit deganda kishiga tabiiy ta‘sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, oila muhiti va ijtimoiy muhit kiradi.

***Tabiiy (geografik) muhit*** – insonning hayot tarziga, xarakteri va mehnat faoliyatiga ta‘sir etadi. Masalan, shimolda istiqomat qilayotgan inson, janubda yashayotgan insondan nafaqat jismoniy ko‘rinishi, shu bilan birga ruhiyati, dunyoqarashi va xususiyatlari bilan ham ajralib turadi.

***Oil muhiti*** – insonning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko‘z ochib ota-onasini, qarindosh-urug‘ini ko‘radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta‘sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo‘lsa, bolaning axloqi go‘zal va fazilatli bo‘lib ulg‘ayadi.

***Ijtimoiy muhit*** – ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta‘sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy aloqa, ya‘ni insonlararo o‘zaro munosabatlar natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Jamiyatda ma‘naviy muhit yaxshi, adolat ustuvor bo‘lsa, inson faoliyatiga ijobiy ta‘sir qilishi va aksincha bo‘lsa, salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy munosabatlar o‘rganish uchun asos bo‘lganidek, aloqa ham ushbu munosabatlarning o‘rnatilishi va saqlanishida, bolalar atroflaridagi dunyoni tanishlariga, buni boshqalarga ifoda etish qobiliyatlarida va o‘z ehtiyojlarini uchratishlarida muhim o‘rin tutadi. Nutq, til va xatti-harakat – bularning barchasi kommunikativ bo‘lib, bolalar bilan olib borgan sa‘yi-harakatlarimiz ularni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak [14; 104-105-b.].

Demak, insonning kamolotga yetishiga ta‘lim-tarbiya, muhit va irsiyat muhim hisoblanadi. Nega bugungi kunda o‘tmishda yashab o‘tgan Imom Buxoriy, Forobiy, Beruniy va G‘azzoliy kabi olimlarga o‘xshagan insonlarni uchratmaymiz? Chunki ularning

irsiyati toza, ota-onalari solih va soliha bo‘lishgan, ular yashagan davrda ilm, ma‘rifat va taraqqiyot o‘zining cho‘qqisiga chiqdi, ya‘ni muhit yaxshi bo‘lgan va eng asosiysi, ajdodlarimizning tarbiyasiga mas‘ul bo‘lgan ota-onalari va ustozlari o‘z vazifalarini a‘lo darajada bajarishgan, tarbiyalarida nuqson bo‘lmagan. Agar farzandlarimizning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi bu omillardagi nuqsonlarni bartaraf etsak, albatta kelajak avloddan Imom Buxoriy, G‘azzoliyga o‘xshagan zabardast olimlar yetishib chiqadi [19].

### **Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlari**

O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunining 32-moddasida maktabgacha bo‘lgan yosh va uning davrlari berilgan. Maktabgacha bo‘lgan yosh bola shaxsining jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir. Maktabgacha bo‘lgan yosh quyidagi davrlarni o‘z ichiga oladi (7.1-jadvalga qarang) [3]:

#### **7.1-jadval**

### **Maktabgacha bo‘lgan yosh va uning davrlari**

No	Maktabgacha bo‘lgan yosh davrlari	Maktabgacha bo‘lgan yosh
1	Go‘daklik	Tug‘ilganidan bir yoshgacha
2	Ilk bolalik	Bir yoshdan uch yoshgacha
3	Maktabgacha bo‘lgan kichik yosh	Uch yoshdan to‘rt yoshgacha
4	Maktabgacha bo‘lgan o‘rtacha yosh	To‘rt yoshdan besh yoshgacha
5	Maktabgacha bo‘lgan katta yosh	Besh yoshdan yetti yoshgacha

O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunining 34-moddasida maktabgacha ta‘lim tashkiloti guruhlarini to‘ldirish ko‘rsatilgan. Guruh maktabgacha ta‘lim tashkilotining tarkibiy birligidir. Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi guruhlar yoshga doir toifalar yoki yoshga doir bo‘lmagan toifalar bo‘yicha to‘ldirilishi mumkin. Guruhlar yoshga doir toifalar bo‘yicha to‘ldirilganda quyidagi yosh toifalari belgilanadi (7.2-jadval) [3]:

7.2-jadval

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish holati**

<b>Yoshga doir guruh toifalari</b>	<b>Yosh toifalar</b>	<b>Umumiy turdagi davlat MTT guruhlari</b>	<b>Bolalar soni</b>
ilk rivojlanish guruhi	1 yoshdan 3 yoshgacha	uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan	30 nafar bola
kichik guruh	3 yoshdan 4 yoshgacha	qisqa vaqt bo'ladigan	30 nafar bola
o'rta guruh	4 yoshdan 5 yoshgacha	turli yoshdagilar	25 nafar bola
katta guruh	5 yoshdan 6 yoshgacha	kechayu kunduz bo'ladigan	10 nafar bola
maktabga tayyorlov guruhi	6 yoshdan 7 yoshgacha		
<b>Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan MTT guruhlari</b>	<b>Bolalar soni</b>	<b>Inklyuziv guruhlarga ega MTT guruhlari (ko'pi bilan 25 nafar)</b>	<b>Bolalar soni</b>
nutqida og'ir nuqsonlari	12 nafar	jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan (3 yoshgacha)	3 nafar
kar bolalar	10 nafar	yaxshi ko'ra olmaydigan yoki yaxshi eshita olmaydigan yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan (3 yoshdan katta)	3 nafar
yaxshi eshitmaydigan	12 nafar	ko'rish ambliopiyasiga chalingan, ko'zi g'ilay yoki nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan yoki autizmga chalingan	2 nafar
ko'zi ojiz bolalar	10 nafar	nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan	3 nafar

<b>Yoshga doir guruh toifalari</b>	<b>Yosh toifalar</b>	<b>Umumiy turdagi davlat MTT guruhlari</b>	<b>Bolalar soni</b>
ko'zi yaxshi ko'rmaydigan	12 nafar	ruhiy rivojlanishida kechikayotgan	3 nafar
	<b>Bolalar soni</b>	<b>Qo'shma turdagi MTT guruhlari</b>	<b>Bolalar soni</b>
tayanch-harakat apparati buzilgan	18 nafar	qulog'i kar bolalar	10 nafar
gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari i	12 nafar	qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalar	12 nafar
bolalar serebral falaji sindromi asoratlar	10 nafar	ko'zi ojiz bolalar	12 nafar
yengil darajada aqli zaif bo'lgan aqliy nuqsonlari	10 nafar	ko'zi yaxshi ko'rmaydigan bolalar	12 nafar
o'rtamiyona va o'rtacha darajada aqli zaif bo'lgan aqliy nuqsonlari	10 nafar	tayanch-harakat apparati buzilgan bolalar	18 nafar
autizmga chalingan uch yoshdan katta bolalar	10 nafar	gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bo'lgan bolalar	12 nafar
aqliy rivojlanishi kechikayotgan uch yoshdan katta bolalar	12 nafar	serebral falaji sindromi asoratlari bo'lgan bolalar	10 nafar
murakkab nuqsonlari (ikki va undan ortiq nuqsoni)	10 nafar	autizmga chalingan uch yoshdan katta bolalar	10 nafar

O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining 45-moddasida maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga qarab turish va ularni ta'minlash berilgan. Davlat maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning, ayniqsa yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning, sog'lig'ining holatini tuzatishga, uzoq vaqt davolanishga hamda




reabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan bolalarning, shuningdek kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalardagi bolalarning ijtimoiy himoya qilinishi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida turli nuqsonlar bo'lgan bolalarga qarab turish qisman yoki to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi. Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'liq davlat ta'minotida bo'ladi. Yetim bolalarga va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga qarindoshlik munosabatlarini saqlash, shuningdek, ularning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish huquqi kafolatlanadi. Ko'rish, eshitish qobiliyatini, tayanch-harakat apparatini tuzatishga muhtoj bo'lgan bolalar O'zbe-kiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib-da O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan harakatlanish, protezlash, axborotni idrok etish va qabul qilish vositalari, shuningdek, boshqa individual tuzatish vositalari bilan ta'minlanadi [3].

### **O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Bolaning rivojlanishida asosiy o'rin nimalarda ko'rinadi?
2. Biologik yo'nalish nimalarni o'rgangan?
3. Preformizm yo'nalishi nimalarni o'rgangan?
4. Bixeviorizm yo'nalishi nimalarni o'rgangan?
5. Insonning shakllanishida Islom dini va mutafakkirlarning qanday fikrlaridan xabardorsiz?
6. Bola shakllanishida tarbiyaning qanday ahamiyati mavjud?
7. Bolaning shakllanishida irsiyatning qanday ahamiyati mavjud?
8. Bolaning shakllanishida muhitning qanday ahamiyati mavjud?
9. Tabiiy (geografik) muhit deganda nimani tushunasiz?
10. Oila muhiti deganda nimani tushunasiz?
11. Ijtimoiy muhit deganda nimani tushunasiz?
12. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh davrlarini sanang.
13. Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish qanday amalga oshiriladi?
14. O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining 45-moddasida nimalar berilgan?

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlarini «Klaster» metodi yordamida loyihalashtiring:



2. Bolaning shakllanishi haqida G'arb faylasuflarining fikrlarini «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

No	Bolaning shakllanishi haqida yo'nalishlar	Bolaning shakllanishi haqida G'arb faylasuflarining fikrlari
1	Biologik yo'nalish	
2	Preformizm yo'nalishi	
3	Bixeviorizm yo'nalishi	

3. Bolaning shakllanishida muhitning ahamiyatini «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

No	Bolaning shakllanishida muhit	Muhitning ta'siri
1	Tabiiy (geografik) muhit	
2	Oila muhiti	
3	jtimoiy muhit	

## 8-BOB.

### MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TA'LIMIGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

#### **Reja:**

8.1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning asosiy umumiy kompetensiyalari.

8.2. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari.

**Tayanch soʻz va iboralar:** kompetensiya, umumiy kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya, oʻyin kompetensiyasi, ijtimoiy kompetensiya, bilish kompetensiyasi, bola rivojining sohalari, jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish.

#### **Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning asosiy umumiy kompetensiyalari**

Kompetensiya – u yoki bu soha boʻyicha bilimdonlik [25; 62-b.]. «Kompetensiya» (lot. competo – erishayapman, munosibman, loyiqman) – 1) muayyan davlat organi (mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba [29; 682-b.].

Kompetentlik taʼrifi oʻxshash va bir-birini oʻrnini egallaydi (toʻldiradi), shu bilan bir vaqtda kompetensiya soʻzi uchun yagona izohlash yoʻq, bu tushuncha «vakolatlar yigʻindisi (huquq va majburiyatlar) qandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab qoʻyilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar», «nimanidir toʻgʻrisida fikr yuritishga yoʻl beradigan bilimlarga ega boʻlish (egallik qilish)», «kimdir yaxshi xabardor boʻlgan savollar toʻplami (sohasi)» tushuniladi [24; 209-210-b.].

Maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim berishda kompetensiyaviy yondashuv oʻsib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur boʻlgan, axloqiy meʼyor va qadriyatlarni oʻzlashtirish, boshqa

insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bogʻliq boʻlgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni koʻzda tutadi. Boshlangʻich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq subyekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Kompetensiya bolaning bilim, koʻnikma, malaka va qadriyatlari majmuyidir. Boshlangʻich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qatʼi nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos boʻlib xizmat qiladi [12]. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari «Ilk qadam» davlat dasturida berilgan (8.1-jadvalga qarang):

### 8.1-jadval

#### Maktabgacha yoshdagi (6 – 7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari

No	Umumiy muhim kompetensiyalar	Kompetensiyalarning mazmun-mohiyati
1	Kommunikativ kompetensiya	muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish koʻnikmasi
2	Oʻyin kompetensiyasi	bolaning oʻyin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va koʻnikmalardan ijodiy foydalanishi
3	Ijtimoiy kompetensiya	hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va meyorlariga rioya qilgan holda oʻzini tuta olish mahorati
4	Bilish kompetensiyasi	atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, koʻnikma, malaka va qadriyatlardan oʻquv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish

#### Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohaslarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;  
 bilish jarayonining rivojlanishi;  
 ijodiy rivojlanish (8.2-jadvalga qarang):

**8.2-jadval**

**Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari**

<b>No</b>	<b>Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari</b>	<b>Bolaning rivojlanish sohalaridagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola</b>
1	«Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish meyorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;</li> <li>• turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;</li> <li>• turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;</li> <li>• o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;</li> <li>• shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi;</li> <li>• sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;</li> <li>• xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi</li> </ul>
2	«Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• o‘z «Meni» va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;</li> <li>• o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;</li> <li>• o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;</li> <li>• kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;</li> <li>• murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi</li> </ul>

№	Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari	Bolaning rivojlanish sohalaridagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola
3	«Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• nutqni eshitadi va tushunadi;</li> <li>• o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;</li> <li>• ikkinchi tilni o'rganishga qiziqish namoyon qiladi;</li> <li>• ikkinchi tilni egallash bo'yicha dastlabki bilimlarini ko'rsatadi;</li> <li>• badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;</li> <li>• so'zning lug'aviy, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;</li> <li>• turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so'zlab berishni biladi;</li> <li>• yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi</li> </ul>
4	«Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;</li> <li>• o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;</li> <li>• predmetlar, voqealar va ko'rinishlar o'rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;</li> <li>• raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;</li> <li>• makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;</li> <li>• elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;</li> <li>• atrof-muhitdagi voqea-hodisalar va ko'ri-nishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;</li> <li>• atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g'amxo'r munosabatni namoyon etadi</li> </ul>

№	Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari	Bolaning rivojlanish sohalaridagi o'quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so'ng 6-7 yoshli bola
5	«Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;</li> <li>• milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;</li> <li>• san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;</li> <li>• olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;</li> <li>• insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi</li> </ul>

1969-yili Sirakuzida (Nyu York) davlat maktablariga muqobil sifatida barpo etilgan Djovanio maktabi gumanistik erkin maktab harakatini aks etardi. Qarorlar hamkorlikda qabul qilinadigan umumiy dastur sifatida boshqarilgan, bu bolaning hissiy, ijtimoiy rivojlanishi va akademik yutug'iga alohida urg'u beradi. (102-103)

Erta ta'lim standartlari yosh bolalarda rasmiy maktablarning dastlabki yillarida kutilishi kerak bo'lgan ko'nikma va bilimlarni tavsiflaydi. Standarlarda belgilangan o'qish ustuvorliklari barcha yosh bolalar sinflarida o'rgatish va baholash mumkin bo'lgan narsalarga ta'sir qiladi. Standartlarning asosiy maqsadi o'qituvchilarni asos bilan ta'minlashdan iborat [14; 169-b.].

### **O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari «Ilk qadam» davlat dasturida qanday berilgan?
2. Kommunikativ kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
3. O'yin kompetensiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Ijtimoiy kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
5. Bilish kompetensiyasi deganda nimani tushunasiz?
6. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining qanday sohalarida belgilanadi?

7. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat nimadan iborat?

8. Ijtimoiy-hissiy rivojlanishida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat nimadan iborat?


9. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat nimadan iborat?

10. Bilish jarayonining rivojlanishida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat nimadan iborat?

11. Ijodiy rivojlanishda o‘quv-tarbiyaviy faoliyat nimadan iborat?

### Mustaqil ish topshiriqlari

1. Maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi guruhlarni «Klaster» metodi yordamida loyihalashtiring:



2. Kompetensiya tushunchasiga ta‘riflarni toping va foydalanilgan adabiyotni ko‘rsating.

3. Kompetensiya turlari bo‘yicha ma‘lumotlarni toping va foydalanilgan adabiyotni ko‘rsating.



## **9-BOB.**

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHNING MAQSAD VA VAZIFALARI**

#### **Reja:**

9.1. Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning maqsad va vazifalari.

9.2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish.

9.3. Jismoniy tarbiya. Aqliy tarbiya. Axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi.

**Tayanch soʻz va iboralar:** jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari, bilish jarayonining rivojlanishi, ijodiy rivojlanish.

#### **Har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashning maqsad va vazifalari**

Maktabgacha taʼlim vazirining buyrugʻi (3.07.2018-yilda 3032-son bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan) bilan Ik va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qoʻyiladigan davlat talablari tasdiqlandi. Hujjat bilan kichik yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, taʼlim-tarbiya berish va maktab taʼlimiga tayyorlash boʻyicha talablar tizimi belgilangan. Uning asosiy maqsadi – intellektual rivojlangan va maʼnan mukammal shaxsni tarbiyalash. Tugʻilgandan 7 yoshgacha boʻlgan bolalarning har bir yoshga mos keluvchi «ideal» rivojlanish koʻrsatkichlari va bunga imkon beruvchi kattalarning harakatlari (mashqlar, oʻyinchoqlar bilan taʼminlash, birgalikdagi oʻyinlar, bolalarni ragʻbatlantirish va h.k.) belgilangan. Talablar tizimi 5 ta asosiy rivojlanish sohasidan iborat, har biri oʻz oʻrnida kichik sohalarga boʻlingan. Har bir kichik rivojlanish sohasi boʻyicha kutilayotgan koʻrsatkichlar, yaʼni bola oʻz yoshida nimalarni uddalay olishi kerakligi belgilangan (9.1-jadvalga qarang):

## Har bir kichik rivojlanish sohasi bo'yicha kutilayotgan ko'rsatkichlari

№	Bolalarni rivojlantirishning asosiy sohasi	Kichik rivojlanish sohalari
1	Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• yirik motorika</li> <li>• mayda motorika</li> <li>• sensomotorika</li> <li>• sog'lom turmush tarzi va xavfsizlik</li> </ul>
2	Ijtimoiy-hissiy rivojlanish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• «Men» konsepsiyasi</li> <li>• hissiyotlar va ularni boshqarish</li> <li>• ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot</li> </ul>
3	Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	<ul style="list-style-type: none"> <li>• nutq va til</li> <li>• o'qish malakalari</li> <li>• qo'l barmoqlari mayda motorikasi</li> </ul>
4	Bilish jarayonining rivojlanishi	<ul style="list-style-type: none"> <li>• intellektual-anglash malakalari</li> <li>• elementar matematik malakalar</li> <li>• tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat</li> </ul>
5	Ijodiy rivojlanish	<ul style="list-style-type: none"> <li>• dunyoni badiiy tasavvur etish</li> <li>• badiiy-ijodiy qobiliyatlar</li> </ul>

Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida quyidagi asosiy tamoyillar belgilandi:

har bir bolaning noyobligi;

«Men» konsepsiyasi – bolaning o'zi to'g'risidagi aniq tasavvurlar tizimining qo'llanilishi;

bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi;

bola tarbiyasi va rivojlanishida kattalarning asosiy roli;

har bir bolaga individual variativlik asosida yondashish.

Hujjatning amal qilishi barcha davlat va xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari, shuningdek maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo'lgan «Mehribonlik» uylariga tatbiq etiladi. Hujjat bilan belgilangan talablarga maktabgacha ta'lim turlari uchun kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar muassasalari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash muassasalari, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya olayotgan oilalar ham rioya qilishlari shart [22].

## **Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagilar nazarda tutiladi:

1) maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini, shuningdek, bolaning rivojlanishi va uning umumiy boshlang'ich ta'limga tayyorligini kompleks baholashning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;

2) maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'quv-metodik, didaktik materiallar va badiiy adabiyotlarni tanlab olishni va ekspertizasini ishlab chiqilgan tartibga muvofiq o'tkazish;

3) maktabgacha ta'limning muqobil shakllari uchun yangi o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

4) «Ilk qadam» davlat o'quv dasturini keng joriy etish;

5) tarbiyalanuvchilarning yakka tartibdagi ish daftarlari, kartochkalar, tarqatma va sanoq materiallari mazmuni va dizaynini o'rnatilgan talablarga muvofiq ishlab chiqish;

6) rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar ta'limining kompleks texnologiyalarini ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim, eng yangi rehabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish, ularning izchil ijtimoiylashuvi va umumiy maktabgacha ta'lim umumiy tizimi integratsiyalashuviga ko'maklashadigan moslashtirilgan dasturlar va yakka tartibdagi ta'lim yo'nalishlarini ishlab chiqish;

7) maktabgacha ta'limda fanlarni rivojlantiruvchi muhitning innovatsion texnologiyalari va modullarini ishlab chiqish, maktabgacha va umumiy boshlang'ich ta'lim izchilligining mazmun va protsessual komponentlarini optimallashtirish;

8) mashg'ulotlar davomiyligining eng maqbul vaqtini va ularning ketma-ketligini aniqlash maqsadida o'quv rejaları va ta'lim dasturlarini optimallashtirish;

9) bolalarni sog'lom turmush tarzini yuritishga o'rgatish, gimnastika va faol o'yinlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish orqali tarbiyalanuvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari va sportga qiziqish uyg'otishni shakllantirish, jismonan sog'lom o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash;

10) maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta'lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o'qitish asoslarini joriy etish;

11) bolaning kelgusida o'zini o'zi muvaffaqiyatni namoyon qilishi uchun asos sifatida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni rivojlantirish;

12) maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnamaydigan bolalar uchun ta'lim xizmatlari turlari: pullik ta'lim xizmatlari, qisqa muddatli guruhlar va boshqalarni kengaytirish [6].

### **Jismoniy tarbiya. Aqliy tarbiya. Axloqiy tarbiya. Mehnat tarbiyasi**

Jismoniy tarbiya to'g'risidagi ta'limot pedagogikaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Pedagogika fanining mazkur sohasiga qarashli turli hodisalarga ta'rif berilganda, «badantarbiya», «jismoniy barkamollik», «jismoniy tarbiya», «jismoniy rivojlanish» degan asosiy tushunchalar qo'llaniladi. «Badantarbiya» tushunchasi eng umumiy hisoblanadi. U xalq madaniyatining bir qismi sifatida qaraladi. Badantarbiya jamiyat odamlarini jismoniy jihatdan mukammallashtirish uchun to'plangan, vujudga keltirilgan va foydalaniladigan moddiy hamda madaniy qadriyatlar yig'indisidir. Badantarbiyaning mazmuni quyidagilardan iborat:

1) mehnat va turmushdagi ko'nikmalarni (tartiblilik, kiyimlarning ozodaligi, xonalarning tozaligi) va gigiyenik rejimga doir odatlar (faoliyat va dam olishning oqilona tartibi, uyqu, ovqatlanish gigiyenasi va h.k.);

2) tabiatning tabiiy sharoitlarida (havo, quyosh va suv) organizmni chiniqtirish;

3) jismoniy mashqlarni oʻz ichiga oladi.

Jismoniy barkamollik odamning tarixan shart qilib olingan uy-  
gʻun jismoniy rivojlanishi, salomatligi, jismoniy tayyorgarligi darajasi  
boʻlib, u jamiyat talablariga eng maqbul tarzda mos kelishi kerak.

**Jismoniy rivojlanish** – odam organizmining tarkib topishi,  
uning shakllari va vazifalarining oʻzgarishini ifodalaydigan  
biologik jarayon. Tor maʼnoda bu antropometrik va biometrik koʻr-  
satkichlar: boʻy, tana ogʻirligi, koʻkrak qafasi aylanasi, oʻpka sigʻimi,  
qaddi-qomat va boshqalardir [13; 43-b.]. Jismoniy rivojlanish  
biologik hayot qonunlari – muhit va organizmning birligi, miqdor  
oʻzgarishlarining sifat oʻzgarishlariga muntazam ravishda oʻtishiga  
muvofiq tarzda amalga oshadi. Zotan, turmush sharoitini, jumladan  
jismoniy tarbiya metodlarini oʻzgartirib, organizmning funksional  
imkoniyatlari darajasini ancha oshirish, jismoniy rivojlanish  
koʻrsatkichlarini oʻzgartirish mumkin.

Jismoniy tarbiya bilan tarbiya boshqa jihatlarining oʻzaro  
aloqasi, bir tomondan, tarbiya maqsadi va vazifalari birligi bilan,  
boshqa tomondan, shaxs tuzilishi va uning rivojlanishida biologik  
va ijtimoiy hodisalarning birligi bilan belgilanadi. Jismoniy tarbiya  
jarayonida ongni rivojlantirishga, axloqqa muvofiq odamlar  
xulq-atvoriga faol taʼsir etish mumkin. Mustahkam salomatlik  
va toʻlaqonli jismoniy rivojlanish ishchanlikni, turli xildagi  
vazifalarni bajarishga tezda moslashishni belgilaydi. Jismoniy  
mashqlar organizmning oʻsishi va rivojlanishiga, uning funksional  
imkoniyatlari kengayishiga chuqur taʼsir koʻrsatadi. Harakat  
faoliyati miya peshona qismidagi boʻlimlarining rivojlanishiga  
ijobiy taʼsir koʻrsatadi, u aqliy faoliyatni amalga oshirishda yetakchi  
oʻrin tutadi. Qoʻllar va barmoqlarning harakati nutq harakati markazi  
rivojlanishini ragʻbatlantiradi. Shu munosabat bilan bolaning nutqi,  
shu bilan birga fikrlashi ertaroq va toʻlaqonliroq rivojlanadi. Harakat  
barcha analizator sistemalarning ishini faollashtiradi. Shu tariqa  
hissiy organlar tezroq va muvaffaqiyatliroq rivojlanadi. Jismoniy  
va aqliy tarbiyaning mustahkam aloqasi fazodagi moʻljal olishlarini  
rivojlantirishda ham namoyon boʻladi. Ular aqliy faoliyat xilma-xil  
turlarining zarur jihati boʻlib, faqat koʻrish organi orqaligina emas,  
shu bilan birga harakat organlari va boshqa analizatorlar ishtirokidagi

jismoniy mashqlar yordamida, ayniqsa, faol o'zlashtiriladi. Rejim jarayonlarini, jismoniy mashqlarni o'tkazish, chiniqish paytida bolalarning dunyoqarashi o'zgaradi, ular ayrim eng oddiy bilimlarni egallaydilar. Mustahkam sog'lik faol aqliy faoliyatning asosi hisoblanadi. Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan bog'liqdir. Bolalar gigiyena, chiniqtirish tadbirlarini, harakatli o'yinlarni bajarish chog'ida faqat axloqiy xulq-atvor (mardlik, halollik, tartiblilik va h.k.) to'g'risidagina tasavurlarga ega bo'lib qolmay, shu bilan birga ana shu xulq-atvor xususida mashq qiladilar, ularda irodaviy sifatlar (qat'iyat, mustaqillik va h.k.) rivojlanadi [13; 44-45]. Aksariyat jismoniy mashqlarning his-tuyg'uga boyligi ularning bola shaxsini shakllantirishga ta'sirini kuchaytiradi.

Jismoniy tarbiya asosan ishning jamoa shakllarida amalga oshiriladi. Jismoniy mashg'ulotlarda, harakatli o'yinlarda bolalarda jamoatchilik tuyg'usi shakllanadi, uyushqoqlik, intizom tarbiyalanadi. Jismoniy tarbiya bilan estetik tarbiyaning aloqasi dastavval shunda o'z ifodasini topadiki, to'laqonli jismoniy rivojlanish – bola estetik tashqi ko'rinishining garovidir. Bolalarda chiroyli qaddi-qomat, umumiy estetik qiyofa (chiroyli kiyinish, tartiblilik va h.k.) to'g'risida tasavvurlar shakllanadi. Bolalar mashqlarni bajarar ekanlar, erkin, chiroyli, ifodali harakat qilishga o'rganadilar, bu esa estetik tuyg'ularni tarbiyalashga ko'maklashadi.

Jismoniy tarbiya mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Umumiy chidamlilikni rivojlantirish – ishchanlikni tarbiyalash asosidir. Jismoniy mashqlar jarayonida harakat tajribasini to'plash, harakatlar uyg'unligini, kuchni chamalashni va boshqa qobiliyatlarni rivojlantirish mehnat harakatlarini egallashda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Irodaviy kuch-g'ayrat sarflash odatini tarbiyalash ham muhimdir. Sog'lom, chaqqon bola mehnat topshiriqlarini oson bajaradi.

**Jismoniy tarbiyaning tabiiy-ilmiy asoslari.** Bolaning biologik rivojlanishi jarayonini tabiiy fanlar majmuyi o'rganadi. Ularning asosini I.M.Sechenov, I.P.Pavlov va ular izdoshlarining organizm va muhit birligi, organizmning yaxlitligi va uning hayotiy faoliyatida markaziy asab sistemasining tartibga soluvchilik roli haqidagi ta'limoti tashkil etadi. Oliy asab faoliyati, shartli reflektor, organizmning muhit bilan o'zaro aloqasini va unga eng ko'p darajada moslashuvini ta'minlovchi asosiy qonunlarning kashf etilishi bolani to'laqonli jismoniy va ijtimoiy rivojlantirishda

tarbiyaning rolini to'g'ri tushunishga, bolalar orga-nizmining funksional imkoniyatlarini kengaytirishga yordam berdi.

Organizmdagi barcha jarayonlarning birligi to'g'risidagi qoida ko'p qirrali masala sifatida ko'rib chiqiladi.

**Birinchi**dan, organizm yagona bir butunlikdan iborat bo'lib, unda alohida organlar va sistemalar ishi o'zaro bog'liq holdadir [13; 45-b.]. Bu qoida jismoniy tarbiya, bolaga alohida yondashish vazifalarini hal etishning asosini tashkil etadi: jumladan chiniqtirish faqat shamollash kasalliklarining oldini olish uchun emas, shu bilan birga organizmning atrof-muhitning turli noqulay ta'sirlariga chidamliligini oshirish uchun o'tkaziladi; har tomonlama jismoniy rivojlanish shuning uchun kerakki, organlar va sistemalar rivojlanishidagi nomutanosibliklar ulardan har birining ishlashiga o'z ta'sirini o'tkazadi, bu esa salomatlikda ham, harakat sifatlarida ham namoyon bo'ladi.

**Ikkinchi**dan, organizm yagona bir butun bo'lib, unda jismoniy va ruhiy jarayonlar bir-birini shart qilib qo'yadi. Bu qoida maktabgacha tarbiya muassasasida ishni tashkil etish uchun muhimdir. Jismoniy tarbiya vositalari normal jismoniy rivojlanishni, yaxshi kayfiyatni, bolalarning bosiq va ayni paytda shodon holatini, ularning ishchanligini ta'minlashga qaratilgandir. Busiz bolada ruhiy jarayonlarning to'laqonli kechishi, uning har tomonlama rivojlanishi mumkin emas.

**Uchinchi**dan, organizm yaxlit bir narsa sifatida atrofda muhit bilan o'zaro aloqada bo'ladi. O'zgarib borayotgan muhit sharoitlariga yuksak darajada moslashish murakkab dinamik andozalarni va shartli reflektorli aloqalarni vujudga keltirish bilan ta'minlanadi. I.P.Pavlovning beixtiyor harakatlarning shartli reflektor tabiatiga bog'liqligi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro aloqasi haqidagi ta'limoti negizida jismoniy mashqlar didaktikasi ishlab chiqiladi, bolalarning madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni va odatlarni o'zlashtirishi ro'y beradi. Oliy asab faoliyati tiplari to'g'risidagi ta'limot katta ahamiyatga ega, chunki bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, alohida ish olib borish metodikasi shunga asoslangandir. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari jamiyatning ehtiyojlari bilan belgilanadi. Bu ehtiyoj tarbiyaning umumiy maqsadidan kelib chiqadi, bu maqsad o'zida ma'naviy boylikni, axloqiy poklikni va jismoniy barkamollikni

mujassamlashtirgan uyg'un rivojlangan shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda ularning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Jadal o'sish va rivojlanish maktabgacha yoshdagi bola organizmining o'ziga xos xususiyatidir. Lekin sistemalar va ular vazifalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bola juda nozik bo'ladi. Shu munosabat bilan quyidagi sog'lomlashtirish vazifalari birinchi o'ringa qo'yiladi:

- 1) hayotni muhofaza qilish, kasallikka qarshi kurash olib borish, organizmning tashqi muhit ta'siriga qarshiligini oshirish [13; 46-b.];
- 2) organizmning barcha sistemalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish;
- 3) to'g'ri qaddi-qomat va tovonna shakllantirish, uyg'un jismoniy rivojlantirish.

Bolalar organizmi nomukammal, nozik bo'lsa-da, barcha to'qimalarning juda egiluvchanligi, tezkorligi, modda almashinuvi jarayonlarining jadalligi qudratli rivojlanishni ta'minlaydi. Bola sharoitlarning o'zgarishiga, jismoniy zo'riqishga kattalarga nisbatan ancha tezroq va yaxshiroq moslashadi. U o'ziga tushunarli bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga idroki baland bo'ladi, bu esa bir qancha ta'limiy vazifalarni hal etish imkonini beradi:

- 1) jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq dastlabki bilimlarni shakllantirish;
- 2) shaxsiy va ijtimoiy gigiyena ko'nikmalarini singdirish;
- 3) kelgusida sport bilan shug'ullanish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hayotiy zarur harakatlar, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish.

Jismoniy mashqlar bolalarning to'laqonli aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yordam berib, ularning ma'naviy-irodaviy sifatlarini (jasurlik, halollik, qat'iyat va boshq.) rivojlantiradi. Jismoniy tarbiya maqsadlari va vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bizning mamlakatimizda yagona davlat sistemasi barpo etilgan. O'zbekistonda jismoniy tarbiya tizimi mafkuraviy, ilmiy-metodik, dasturiy-meyoriy asoslar birligidan iborat. O'zbekistondagi jismoniy tarbiya tizimi o'zining g'oyaviyligi, xalqchilligi va ilmiyligi bilan ajralib turadi. U barkamol avlodni tarbiyalash, rivojlantirish, sog'lomlashtirish bilan bog'liqdir.



Maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ish olib borishda bu qoidalar quyidagilarda o'z ifodasini topadi. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish qoidasi harakat madaniyati asoslarini shakllantirishni va ayni vaqtda aqliy qobiliyatlamini (topqirlik, kuzatuvchanlik, qiziqish va boshq.), axloqiy fazilatlamini (intizomlilik, jamoatchilik va boshq.), estetik didni rivojlantirishni ta'minlaydi. U yoki bu alohida jismoniy mashq turlariga erta ixtisoslashuvga yo'l qo'yib bo'lmaydi. U bola salomatligiga va uning uyg'un jismoniy rivojlanishiga zarar yetkazishi, yangi ko'nikmalar, keyinchalik sport mahorati tarkib topishida, shakllanishida qiyinchilik tug'dirishi mumkin [13; 47-b.].

Sog'lomlashtirish yo'nalishi qoidasi materiallar va vositalar mazmunini, hajmini tanlashni ko'zda tutadi, u salomatlikni mustahkamlashni, shifokor-pedagog nazoratini amalga oshirishni ta'minlaydi. Jismoniy tarbiyaning mehnat tajribasi bilan aloqasi bolalarni ijtimoiy asoslangan har xil harakatlar tajribasi bilan boyitishda namoyon bo'ladi. Turli vositalardan foydalanib, bolalarda aniqlik, harakatlar tezligi, sharoitga bog'liq tarzda o'zini moslashtirish, o'quv, mehnat, maishiy kabi har qanday yangi faoliyatda tezda o'z o'rnini topish tarbiyalanadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida jismoniy tarbiya sistemasi jismoniy tarbiya vazifalari ro'yobga chiqariladigan ilmiy asoslangan mazmun, vositalar, metodlar va shartlarning kompleks mazmunidan iboratdir.

Jismoniy tarbiya shartlari. Asab sistemasini muhofaza qilish bolani to'laqonli jismoniy va ruhiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Dastavval u faoliyatning turli xillarini almashtirishni belgilab beruvchi oqilona rejimni tashkil etish orqali ta'minlanadi, bunda turli shakllardagi harakatlarga katta o'rin beriladi. Bolaning kunduzgi va tungi to'laqonli uyqusini ta'minlash ham juda muhim ahamiyatga egadir, bu yakka tartibdagi ehtiyojlar va oliy asab faoliyatining ishi xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Bolalarda asab bosiqligi uchun qulay ruhiy iqlim yaratish katta ahamiyatga egadir. Ijobiy his-tuyg'ular bosh miya qobig'i ishini yaxshilaydi, undagi biotoklarning bir meyorda bo'lishiga ta'sir etadi. Bu barcha analizator sistemalarini rivojlantirishga, turli-tuman ruhiy jarayonlarning muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hissiy holatning o'zgarishi bilan barcha organlar faoliyati o'zgaradi. Ijobiy hissiyot fiziologiya sistemalari vazifalarini

faollashtiradi, salbiylari charchatadi: yurak urishi tezligi kamayadi, tomir urishi susayadi, qonga kislorodning kelishi pasayadi.

Ijbiy his-tuyg'u holatidagi bola yaxshi ovqat yeydi, yaxshi uxlaydi, atrofdagi bolalarga va kattalarga hayrixohlik bilan munosabatda bo'ladi, kam kasal bo'ladi, to'laqonli rivojlanadi, unda ishonch, dilkashlik, nekbinlik shakllanadi. Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi jismoniy tarbiyaning navbatdagi shakli oddiy muhitni barpo etish zarurligidir, ya'ni xona va uchastkani oqilona, bolalarning yoshiga muvofiq tarzda mebel va fizkultura uskunalari bilan ta'minlashdir [13; 48-b.].

Zal va uchastka bolalarning harakatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun eng ko'p darajada mos bo'lishi kerak. Buning uchun zalda kamida to'rt qator gimnastika devori, to'rtta skameyka, bordon to'shaklar, bir necha darvozachalar, taxtachalar, nishonlar va bolalarning soniga qarab kichik uskunalar bo'lishi kerak. Uchastkada fizkultura anjomlari bo'lgan sport maydonchasi, sakrash chuqurchasi bo'lgan yugurish yo'lkasi, sportning tarkibiy qismi bo'lgan o'yinlar uchun turli moslamalar bo'lishi kerak. Mavjud normativlarga muvofiq tarzda sanitariya-gigiyena vaziyatini barpo etish ham jismoniy tarbiyaning muhim shartidir. Bu shart xona va uchastkada ozodalik va tartibni saqlashni, xonada yorug'lik, havo va harorat rejimiga rioya etishni, shuningdek, bolalar va kattalar kiyimi gigiyenasini ko'zda tutadi [25; 49-b.].

Yosh avlodni har tamonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan obyektiv zaruratdir. Aqliy tarbiya ijtimoiy tarbiyaning eng muhim jihataridan biri. Aqliy tarbiya bu aqlni rivojlantirish maqsadida yosh avlodga muntazam va maqsad asosida pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Demak, aql keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlab to tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisi bo'lib, u yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, ko'nikma va malakalar, meyorlar, qoidalar va boshqalarda ro'y beradi. Bu holat kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishi ni ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlarni, kerakli shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan kattalarning ma'lum maqsad asosidagi ta'sir etishdir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni

tizimlashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni, bilim qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli, ayniqsa, kattadir [25; 59-b.]. Chunki aql his-tuyg'ular va idrok etishdan tortib, fikrlash va tasavvur etishgacha bo'lgan jarayonlar yig'indisidir. Aqliy rivojlanish fikrning kengligida voqealarni har xil bog'lanishlarda, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiy lashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi faoliyat jarayonida, dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida, keyin esa o'quv, mehnat, samarali faoliyatlar: rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, applikasiya, qurish - yasash jarayonida amalga oshirib boriladi. Bolaning aqliy rivojlanishga ta'lim va tarbiya samarali ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika va psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali hal etishda, birtomondan, bolaning imkoniyatlaridan unumli foydalanish, ikkinchi tomondan, bola organizmning umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha toliqtirish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonuniyatlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shugullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim malaka va ko'nikmalar mazmunini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligidan dalolatdir [25; 60-b.]. Maktabgacha tarbiya yoshining oxiriga kelib, bolalar tevarak-atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'ladi, asosiy fikrlash jarayonlarini egallab oladilar. Faqat yaxshi tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi, shuning uchun o'qituvchi va tarbiyachilarning asosiy vazifasi - bolaga muayyan maqsadni ko'zlab tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun

kerakli sharoit yaratishdir. Bola har doim buyumlar hamda hodisalar orasida bo'ladi. Bola doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, hidlaydi, tortib ko'radi, nimagadir quloq soladi. Shu tariqa asta-sekin dunyoni bilib boradi. Tevarak atrofdagi buyumlar, tabiat bolaning sezgi organlari – analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil qiladi.

Sezgi bolalarga buyumlarning ayrim xossalarini: sovuq-issiq, g'adir-budur, silliq-yaltiroq, xushbo'y va h.k.ni bilim olishsa yordam beradi. Sezgi atrofdagi muhitni bilishning dastlabki bosqichi sanaladi. Bola sezgi tufayligina tevarak-atrofdagi narsalar to'g'risida bilim, tajriba to'plab boradi. Idrok esa ancha murakkab jarayon bo'lib, sezgilar asosida hosil bo'ladi. Bola olmani qo'lida ushlab ko'rib, qarab chiqib va yeb ko'rib, uni yaxlit bir buyum, ayni bir vaqtda dumaloq, qizargan, xushbo'y, mazali va h.k. tarzda idrok qiladi. Bola olmani yaxlit bir buyum tarzida tasavvur qilishi uchun birdaniga bir nechta analizator: ko'rish, sezish va hid bilish analizatorlaridan foydalanadi. Analizatorlar bir vaqtning o'zida birdaniga ishlashi buyumning xossasi va belgilarini aniqroq hamda to'laroq bilish imkonini beradi. Shuning uchun katta yoshdagi kishilar bolani ilk yoshlik chog'idan boshlab aqliy jihatdan to'g'ri tarbiyalash maqsadida buyumlarni ko'proq analizatorlar yordamida idrok qilishga imkon tug'dirishlari, analizatorlarning rivojlanishiga, ya'ni bolaning sensor madaniyatiga alohida e'tibor berishlari kerak [25; 61-b.].

Bolada nutq paydo bo'lishidan ancha oldin (bola bir yoshga to'la boshlaganda birinchi bor gapira boshlaydi) u tevarak-atrofdagi odamlar va buyumlar dunyosini katta yoshdagi kishilar yordamida bilib oladi. Bola 3 yoshga to'lganda uning so'z zaxirasi 1200-1500 taga yetadi. Bola katta yoshdagi kishilar unga nima haqida gapirayotganlarini yaxshi tushunadi. Bu katta yoshdagi kishilar nutqidan har tomonlama tarbiyalashning kuchli vositasi tarzida foydalanish imkoniyatini beradi. Bolalarning aqliy jihatdan o'sishida xotira katta ahamiyatga ega. Bola tug'ilganda hech narsani bilmaydi va hech narsa qilolmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga ko'tarilib biror bir foydali ish uchun ko'pgina bilim va malakalarini eslab qolishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning xotirasi ko'pincha beixtiyor tarzda bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishida

xayol muhim rol o'ynaydi. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida ta'lim va tarbiya ta'sirida tarkib topadi. Bolaning xayoli u syujetli o'yinlar o'ynay boshlaganida, kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o'sha ertaklarga qiziqish orqali dastlabki alomatlari paydo bo'ladi. Ammo boladagi xayol ko'proq aniq vaziyatga bog'liq bo'ladi (masalan, qo'g'irchoq ko'rinib qolsa, uni uxlatadi, mashina bo'lsa, biror narsani tashiydi va h.k.). Katta bog'cha yoshiga kelganda, bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o'zgarish yuz beradi. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi yosh avlodni aqliy tarbiyalash vazifalarini jamiyatimizning ijtimoiy talablariga va insonning aqliy rivojlanish mohiyati va tabiatiga asoslanib ishlab chiqadi. Aqliy tarbiyaning asosiy vazifalari:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish [25; 62-b.].

2. Aqliy faoliyat, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni, aqliy jarayonning xilma-xil usullarini rivojlantirish.

3. Mustaqil bilish qobiliyatlarini, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish.

4. Aqliy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Bilimni tasavvurlar va tushunchalar, qoidalar, qonuniyatlar, sistemalar shaklidagi turli fanlarning mazmuni tashkil etadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalarda voqea va hodisalarni to'la aks ettiradigan yuksak darajadagi umumlashtirilgan bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bilim dunyoqarashning asosini tashkil etadi. Demak, bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi sifati va xossalari (sinadi, pachoq bo'ladi, yirtiladi, to'kiladi) haqida, qaysi materialdan tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladi. U tabiat hodisalari, ularning o'zaro bog'liqligi va qonuniyatlari (yil fasllarining o'ziga xos belgilari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, hayvonlar, ularning hayoti va yashash tarzining tashkil qilinishiga, xulqiga, yashash sharoitiga mosligi va h.k.) ni bilib oladilar. Jonsiz tabiat, o'simliklar, hasharot va hayvonlarni kuzatishi jarayonida tarbiyachi bolalarda borliq to'g'risidagi materialistik tasavvurlarni shakllantirib boradi. Bilimlarni egallab borish natijasida bolaning shaxsi ham shakllanib boradi. Bola san'atning har xil turlari to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni egallab oladi. Bilim insonning mehnatga munosabatini shakllantiradi.

Aqliy faoliyatni rivojlantirish bilim hajmi va xususiyatiga bog'liq. Aqliy faoliyatni rivojlantirish esa psixik jarayonlarni sezgi va idrok etish, taassurot, xotira, fikrlash, tasavvur va nutqni shakllantirishni ham bildiradi [25; 63-b.]. Bunda ularga aqliy faoliyatning g'oyat samaradorligini ta'minlaydigan his-tuyg'ular nozikligi va aniqligi, idrok etishning sobitqadamligi va to'laqonli, esda qolishning mustahkamligi hamda ongligi, tafakkur mantiqi va uning moslashuvchanligi, ijodiy xususiyat va mustaqillikka xos bo'lishi kerak. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar o'zlariga tushunarli bo'lgan ijtimoiy voqea va hodisalar, kishilarning mehnati, umumxalq bayramlari, respublikamizda yashaydigan ba'zi xalqlar hayoti bilan tanishtiriladi. Bu tadbirlar ularda jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga qiziqish uyg'otish, Vatanga muhabbat tuyg'usi va baynalmilalchilik asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Aqliy ta'lim- maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatini muntazam va rejali ravishda rivojlantirib borish, bolalar bog'chasi dasturida belgilangan eng oddiy bilimlar tizimi bilan qurollantirish, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berishda ta'lim yetakchi rol o'ynaydi. Chunki ta'lim jarayonida aqliy tarbiyaga doir hamma masalalar hal etiladi. Ta'lim bolalarga izchillik bilan bilim berishni, bu bilimlarni aniqlash va tizimlashtirish, bilish jarayonlari, tafakkur faolligini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik va sinchkovlik, ziyraklik, tanqidiylik kabi sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida bolalarda o'quv faoliyati asoslari hosil qilinadi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratiladi. Hayot ta'limning ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishini taqozo etmoqda.

***Birinchi yo'l*** – bolalarning bilim, malaka ko'nikmalarini kattalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali egallab borishidir. Bu muomala, mehnat faoliyati va shu kabilar bilan belgilanadi [25; 64-b.]. Ammo bu yo'l bilan egallagan bilim va malakalar bolaga hayotning turli sohalarida mustaqil qatnashish uchun imkoniyat yaratmaydi.

***Ta'limning ikkinchi yo'li*** – maxsus tayyorgarligi bor kishilarning maxsus o'quv muassasalarida bolalarni kerakli bilim, malaka va ko'nikmalar bilan rejali ravishda qurollantirib borishidir. Bunday yo'l bilan ta'lim berishdan maqsad yosh avlodni zamonaviy ishlab

chiqarish, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida faol qatnashish uchun zarur bo'lgan fan yutuqlari bilan tanishtirishdir.

Barcha olimu fozillar, shoir-u yozuvchilar o'z davrining nufuzli ta'lim maskanlarida o'qish bilan hurmat-e'tibor topganlar. Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh Rudakiy, Abu Saidrasul Aziziy, Muhammad Sharif So'fizoda, Abdulqodir Shokiriy, Abdulla Avloniy va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar va yangiliklar yaratganlar, shu bilan birga boshqalarni ham ilm egallashga chaqirganlar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish tizimi pedagogikada ilk bor chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592 – 1670) tomonidan yaratilgan. Y.A.Komenskiy 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim va tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Y.A.Komenskiy 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi. Masalan, u tabiatshunoslik (fizika) suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, o't, qum va boshqalar haqida bilim berish lozimligini, astrnomiya, geografiya, optika va boshqa sohalarda bolalarga bilim berish kerakligini asoslab berdi. Bolalar bog'chasida beriladigan ta'lim bolalarning maktabda oladigan bilimlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerakligini ta'kidladi. U o'zining «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni tarbiyalash va o'qitish dasturi hamda metodikasini juda sinchiklab ishlab chiqqan [25; 65-b.]. Shu bilan Y.A.Komenskiy maktabgacha tarbiya pedagogikasining mustaqil fan sifatida shakllanishiga asos soldi.

Shveysar pedagogi I.G.Pestalotssi (1746 – 1827) maktabgacha tarbiya didaktikasini tuzishda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlantirish masalasiga katta e'tibor beradi. G.Pestalotssi tomonidan ishlab chiqilgan ta'limning asosiy mazmuni maktabgacha tarbiya pedagogikasining rivojlanishda va bolalarga keyinchalik maktabda sistemali ta'lim berishda asosiy dastur bo'lib xizmat qildi. Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda A.P.Usovaning xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Olima rahbarligida 1950-yillarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilib, bolalar bog'chasi har bir yosh guruhining ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, metod va usullari ishlab chiqildi. Bu o'tkazilgan ishlar ta'limning tarbiyaviy ishdan farqini aniq belgilab berdi. Ta'limning nazariy jihatlari ishlanishi «Bolalar bog'chasi tarbiya dasturi»da

«Mashg‘ulot» bo‘limini ajratish imkonini berdi va dasturning keyingi nashrlarida bu bo‘lim takomillashtirilib borildi [25; 66-b.].

«Axloq» ijtimoiy tushunchalardan biri bo‘lib, uning mohiyati shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shuning uchun ham axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma‘naviy-ruhiy hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. «Axloq» tushunchasi oila fikri asosida tartibga solinuvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Demak, «axloq» tushunchasi qadim-qadimdan ijtimoiy falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko‘lamlarda ishlatib kelingan.

**Axloq** (xulq-atvor demakdir) – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy tartib qoida bo‘lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kish ilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo‘lgan ma‘naviy moyillikni asosini, poydevorini tashkil etadi. Axloq kishilarning xulq-atvor me‘yorlari va qoidalariga, ularning o‘z-o‘ziga, boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning alohida shaklidir [25; 77-b.].

Axloq tarixiy xususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatda avlodlar tomonidan to‘plangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Zero, axloqsiz, axloqiy talab hamda ularda ifoda etilgan g‘oyalarsiz shaxsning ruhan va jismonan yetukligining asosi bo‘lgan ma‘naviy komillik shakllanadi. Demak, insonning barkamolligi, avvalo, uning ma‘naviy jihatdan yetukligi bilan belgilanadi. Bizning nazarimizda, shaxe ma‘naviyati uning ongida kechadigan ijobiy mazmunga ega o‘y fikrlari, niyatlar, g‘oyalar, nazariya va ta‘limotlar mazmunining amaliy faoliyatidagi tatbiqida namoyon bo‘luvchi ruhiy jarayondir. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, shaxs ma‘naviyati asosida ijobiy mazmunga ega bo‘lgan, o‘y fikrlar, niyatlar, g‘oyalar, nazariyaning va ta‘limotlar mazmunini tushunib yetishishini e‘tiborga olish lozim. Demak, o‘zbek xalqining ma‘naviyati haqiqatg‘oy va adolatli bo‘lish, jaholat va qabixlik yo‘lini to‘shish, insoniylik, mehr-shafqat, ma‘rifat, do‘stlik, mardlik, birodarlik, mehmondo‘stlik, poklik, xush xulqlilik, insof, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarini singdirishga chaqiradi.



Qadim-qadimdan o‘zbek va sharq klassiklari ijodida axloq-odob masalasi markaziy o‘rin egallab kelgan. Kaykovusning «Qobusnomasi»dan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning nazmiy va nasriy asarlarida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilik», Ahmad Yugnakiyning «Hibat-ul haqoyiq» (Haqiqat sovg‘alari), Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al adab Al-Mufrat kabi» jahonga mashhur asarlarida Alisher Navoiyning o‘lmas she‘riyatida, Munis, Xorazmiy kabi shoirlar asarlarida axloq-odob masalalari yoritilgan. Koshifiyning asarlaridagi ta‘lim-tarbiya, axloq masalalari ko‘pchilik uchun andoza, namuna, odob meyori sifatida qisqa asosli, lo‘nda qilib yozilgan. 25; 78-b.]

Shuningdek, Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarida odob, axloqqa oid g‘oyalar ilgari surilgan. Uning birdan-bir orzu-umidi, ideal insonga bo‘lgan mehr-muhabbat, samimiylik edi: «Donishmandlar aytibdurlarkim, odobli inson barcha odamlarning yaxshiligi va barcha xalqlar uchun yoqimlidir. U mansabdor kishilardan go‘zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir. Yoshlarni ko‘zga ulug‘ qilib ko‘rsatadigan narsa odobdir». Qoshg‘ariy: «Insonlarda oq ko‘ngillilik, bag‘ri kenglik, mehnatsevarlik, sofdillik, rostgo‘ylik, saxiylik, vijdonlilik, irodalilik, qatiyatlilik kabi fazilatlar, bo‘lishi shart va bular insonning barkamolligidan dalolat beradi, - deydi, ammo xasislik, olg‘irlik, ochko‘zlik, g‘irromlik, pastkashlik, tuhmatchilik, xoinlik, yolg‘onchilik kishilarni beburd, axloqsiz qilib qo‘yadi. Bunday salbiy xislatlar ularni obro‘sizlantiradi, hayotini izdan chiqaradi, noto‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. Pastkash, baxil odamdan yaxshilik kutish mevasiz daraxtdan meva kutishga o‘xshaydi». Odobli bo‘lishning fazilati to‘g‘risida she‘r va dostonlardan, adabiy manbalardan juda ko‘plab parchalar, she‘riy misralar keltirish mumkin. Odobli, yaxshi xulqli bo‘lish to‘g‘risida dono xalqimiz to‘qigan ko‘plab maqol matallar asrlar osha og‘izdan og‘izga o‘tib kelmoqda: Odobing – obro‘ying; Odob-kishining zebu ziynati; Oltin olma, odob ol; Yaxshilikka yaxshilik har kishining ishidir, yomonlikka yaxshilik er kishining ishidir [25; 79-b.]

Maktabgacha tarbiya yoshining o‘ziga xos tomoni shundaki, bu yoshda bolalar axloqiy tushuncha yoki xulqni so‘z bilan aniq ta‘riflab berolmaydilar. Lekin bolalar bog‘chasidagi to‘g‘ri talqin voqealarning umumiy ma‘nosini anglab olishga yordam beradi.

Agar bolalar boshqalarda yaxshi xulq namunalarini ko'rsalar o'zlari ham ularga o'xshashga harakat qiladilar. Axloqiy tarbiyaning g'oyaviy asosi uning maqsadi vazifasi va tamoyillarini belgilaydi, ruhiy pedagogik asosi esa bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya berishning vazifasi va mazmuni vositalari va metodini hamda pedagogik shart-sharoitini belgilab beradi. Maktabgacha tarbiya yosh idagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiya vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Bolalarda axloqiy his-tuyg'ular, tasavvurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash.

2. Xulq madaniyatini va ijobiy sifatleri tarbiyalash.

3. Shaxsda axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.

4. Xulqdagi salbiy tomonlarni barham toptirish.

Bu tarzda umumiy vazifalar yosh guruhlari bo'yicha aniqlashtiriladi va o'quv-tarbiya jarayonining mazmunida o'z aksini topadi. Axloqiy tarbiyaning asosiy tamoyillari quyidagilar:

g'oyaviy va tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi; ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;

axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan hamnafaslikda olib borish;

bolalarning faolligi;

jamoada tarbiyalash;

tarbiyaviy ishning tizimlari va izchilligi [25; 82-b.];

ta'sirchanligi;

oila, bog'cha hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirning birligi;

boladagi ijobiy sharoitlarga suyanish;

bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

Bolalar bog'chasida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Avvalo, bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg'ulotlarda va mashg'ulotlardan tashqari vaqtlarda ta'lim berish, kun davomidagi maishiy, mustaqil, badiiy faoliyatda, ko'ngil ochishlarda qatnashtirish orqali bu ish hal etiladi. Har xil bayramlar. San'at vositalari, ijtimoiy hayot voqealari, bolalar badiiy adabiyoti, musiqa, ashula, tasviriy va amaliy san'at, o'yinchoq va o'yin materiallari, ommaviy axborot

vositalari, oynai jahon va radio, kino va diafilmlar, diapozitivlar va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday vositalardan ma'lum bir izchillik va tizimlilik bilan foydalanilgandagina bolalarning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagi aytilganlardan xulosa shuki, axloq odob o'zbek millati hayotining mazmuni hisoblanadi. Qayerda, qaysi jamiyatda, qaysi davlatda yaxshi xulq qaror topsa, o'sha jamiyatdagi kishilarning hayoti farovon, turmushi tinch, odamlari boy-badavlat bo'ladi [25; 81-b.].

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullardan foydalaniladi. Axloqiy tarbiya metodlari – bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarini egallab olishi, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhga bo'linadi.

**1-guruh:** axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

**2-guruh:** axloqiy his-tuyg'ular va munosabatlarni rag'batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar [25; 82-b.].

Hamma guruh metodlari axloqiy his-tuyg'ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta'minlaydi. Shuningdek, ko'rsatmali, og'zaki metodlar, tushuntirishni ko'rsatish bilan qo'shib olib borish. Tarbiyachining hikoyasi, o'qib berish, axloqiy mavzularda suhbatlar (rasmga qarab, tajribaga asoslanib, o'qilganlar bo'yicha), kuzatish, rasmlarni namoyish qilish, bolalar adabiyoti va hayotdagi ijobiy misollardan foydalanish asosida olib boriladi.

Mehnat faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina bo'lib qolmay, balki xalqqa xizmat qilish, vatan uchun qayg'urish, shaxsiy manfaatdan xalq manfaatini ustun qo'yishning asosi hamdir [25; 95-b.].

Ta'lim-tarbiya jarayonida mehnat tarbiyasini bolalarga yangicha singdirish, ularda mehnat qilishga ishtiyoq o'stirish, mehnat natijasidan zavqlana bilish kabi hislarni tarkib toptirish orqali ularda mehnat ahliga hurmatni, jamiyat foydasiga mehnat qilish qobiliyatini, fidoyilik va mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish kabi axloqiy sifatlarni tarkib toptirish lozim. Bolalarni mehnatga o'rgatishda, eng avvalo, ularni psixologik va amaliy tayyorlash:

jamoada mehnat qilish ko'nikmalarini tarbiyalash muhim rol o'ynaydi. Mehnatga ruhiy, aqliy va amaliy tayyorlash jarayonida yoshlarda mehnatsevarlik, shijoat, fidoyilik, halollik, intizomlilik kabi sifatlar shakllanishi bilan birga ularda axloqiy-irodaviy xususiyatlar ham shakllanib boradi. Ayniqsa, mehnat madaniyati ko'nikmalarini tarbiyalay borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, mehnatni sevmaydigan va qadrlamaydigan insondan madaniyatli kishi chiqmaydi. Insonning ongliligi, tarbiyalanganligi avvalo, mehnatga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Mehnat insonni ulug'laydi, go'zallikka chorlaydi. Mehnatsiz turmush mazmunsiz, deyiladi. Mehnat qilmaydigan insonning hayoti zerikarlidir. Unday inson ma'naviy qashshoq va jismonan zaif bo'ladi. Uzoq umr ko'rishning siri ham mehnatdir. Mehnat qilmasang hatto iste'dod ham so'nadi. Mehnat har qanday qobiliyatni rivojlantiradi. Mehnatga bolalar dastlab oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida va tarbiya jarayonining butun tizimida o'rgatilib boriladi. Bolalar bog'chasida va oilada bajariladigan uncha murakkab bo'lmagan har bir topshiriq uning kundalik vazifasiga aylanishi kerak. Bola mehnatning ahamiyati va madaniyatini tushunib yetishi uchun pedagog kattalarning mehnati, bolalarning o'zlari bajaradigan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtiradi. Bolalarning har xil mehnat jarayonida ishtirok etishi, kattalar mehnati bilan tanishishi, ularning tevarakatofdagi hayot, kishilarning o'zaro munosabatlari to'g'risida, narsalar va ularning xususiyatlari, materiallarga ishlov berish usullari, qurilmalar va asboblarni to'g'risida muayyan taassurotlarga ega bo'lishlariga yordam beradi [25; 96-b.].

Mehnat bolalardan diqqat, o'tkir zehn, topqirlik, ijodkorlik qobiliyatlarini egallashni talab etadi. Mehnat jarayonida bolalar ayrim ish turlarini (bir varaq qog'ozni buklash, biror bir shaklni andozaga qarab qirg'ish, kerakli uzunlikni o'lchash kabi harakatlarni) anglatuvchi bir qancha tushuncha va atamalardan foydalanishga, bajarilgan ishdagi izchillikni berishga to'g'ri keladi. Bu bola nutqini yangi so'zlar bilan boyitadi, fikrlashi, dunyoqarashini shakllantirishga imkon beradi. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan, unga to'g'ri nazorat yoki rahbarlik qilgandagina ijobiy natija berishi mumkin. V.I.Loginovning ta'kidlashicha, bolalarga mehnat tarbiyasi berish

uchun ular mehnat va mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar tizimini o'zlashtirib olishlari kerak bo'ladi:

1. Mehnat maqsad va uning natijasini belgilab olishdan boshlanadi (maqsad – mehnat tasviri).

2. Mehnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tanlab ajratib olish.

3. Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab ajratib olish.

4. Natijaga erish ish uchun mehnat harakatlarini bajarish.

Shunday qilib, maktabgacha tarbiya yoshi davrida mehnat faoliyati shakllantiriladi. Maktabgacha tarbiya yoshi davrining o'ziga xos tomonlaridan biri bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir. O'yin jarayonida biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinchi tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishadi. Mehnat tarbiyasining vazifasi xilma-xil bo'lib, ularni guruhlar bo'yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi [25; 97-b.]:

**Birinchi guruh vazifalari:** bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik yondashuv, bolalarni maqsad asosida mehnat malakalari, ko'nikmalari hamda mehnat madaniyati bo'yicha kerakli material va qo'llanmalarni tanlashga o'rgatish.

2. Bolalarda mehnat faoliyatiga qiziqishni va mehnatda ijobiy natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

3. Mehnat faoliyati jarayonida bolalar mehnatining ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushunib yetishish.

**Ikkinchi guruh vazifalari** bolalarda kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan:

1. Bolalarda kattalarning mehnati orqali erishayotgan yutuqlari haqida tushuncha berish.

2. Bolalarda mehnat ahliga hurmatni va ulardan o'z yordamini ayamaslik haqidagi xohishlarini tarbiyalash.

**Uchinchi guruh vazifalari** bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan mehnat faoliyati bilan bog'liq. Bolalarda mehnatsevarlik orqali mehnatda qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish, o'zining mehnatiga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash javobgarlik, qatilylik, sabr matonatlilik, chidamlilik, o'zi va o'rtoqlarining mehnatini xolisona baholash tarbiyalanadi. Mehnat ijtimoiy taraqqiyotning asosi barcha moddiy va ma'naviy ehtiyoqlarini

qondirish sharti bo‘lishi bilan birga ayni vaqtda inson hayotining asosiy shakli, mazmuni sifatida barcha xalqlarning eng asl farzandlari – mutafakkirlari, olimu fozillarining diqqat markazida bo‘lgan. Shoir Abu Shukur Balxiyning mehnatni ulug‘lovchi quyidagi satrlarini keltirish mumkin:

*Orzu tilak yo‘li mehnat tagida,  
Xazinaning mo‘li mehnat tagida.*

Alisher Navoiy, Furqat, Muqimiy, Hamza va boshqalar mehnat insonni ma’naviy go‘zallashtiruvchi roliga, mehnatsevarlikni tarbiyalashga va mehnat ahlini qadrlashga katga o‘rin beradilar [25; 98-b.]. Qadimda ota-bobolarimizning mehnat haqida aytgan dono naqlari hozirga qadar ham o‘z qadrini yo‘qotmagan: «Mehnat qilsang ko‘ksing tog‘», «Hurmat qilsang, diling bog‘»; «Mehnatli non – shakar», «Mehnatsiz non zahar»; «Mehnat baxt keltirar»; «Mehnat qilib topganing, qand-u asal totganing». Bu maqollar orqali dono xalqimiz mehnatni ulug‘laydi, uning samarasi haqida fikr yuritadi. O‘zbek bolalar yozuvchi va shoirlari ham kattalar mehnatining mazmunini yortib berganlar. Bunga Q.Muhammadiyning «Etik», «Bir hovuch yong‘oq» kabi she‘rlari misol bo‘ladi [25; 99-b.].

### **O‘zini o‘zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Har bir kichik rivojlanish sohasi bo‘yicha kutilayotgan ko‘rsatkichlar nimalardan iborat?
2. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishida qanday kichik rivojlanish sohalari bo‘ladi?
3. Ijtimoiy-hissiy rivojlanishida qanday kichik rivojlanish sohalari bo‘ladi?
4. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalarida qanday kichik rivojlanish sohalari bo‘ladi?
5. Bilish jarayonining rivojlanishida qanday kichik rivojlanish sohalari bo‘ladi?
6. Ijodiy rivojlanishda qanday kichik rivojlanish sohalari bo‘ladi?
7. Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash jarayonida qanday asosiy tamoyillar belgilandi?
8. Jismoniy tarbiya qanday amalga oshiriladi?

9. Aqliy tarbiya qanday amalga oshiriladi?
10. Axloqiy tarbiya qanday amalga oshiriladi?
11. Mehnat tarbiyasi qanday amalga oshiriladi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya va mehnat tarbiyasini «Toifalash» jadvali asosida loyihalashtiring:

<b>Tarbiya maqsadi va vazifalari</b>	<b>Jismoniy tarbiya</b>	<b>Aqliy tarbiya</b>	<b>Axloqiy tarbiya</b>	<b>Mehnat tarbiyasi</b>
Maqsadi				
Vazifalari				

## **10-BOB.**

### **O‘QUV-TARBIYAVIY FAOLIYAT**

#### **Reja:**

10.1. Maktabgacha ta’lim bo‘yicha metodik ishlarni tashkil qilish vazifalari, mazmuni va shakllari.

10.2. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat va uni rejalashtirish.

10.3. Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish.

**Tayanch so‘z va iboralar:** o‘quv-tarbiyaviy faoliyat, rejalashtirish, rivojlantiruvchi muhit, MTM ta’lim dasturi, namunaviy o‘quv rejasi, soatlar miqdori, rivojlanish xaritasi.

#### **Maktabgacha ta’lim bo‘yicha metodik ishlarni tashkil qilish vazifalari, mazmuni va shakllari**

O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunining 10-bobida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta’minoti, maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash vazifalari berilgan. Shuningdek, 52-moddada maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta’minoti quyidagilar amalga oshiradi:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va uning tasarrufidagi ilmiy-uslubiy muassasalar;

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tegishli tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim tashkilotlari;

Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish institutlari (kurslari) [3].

Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta’minotini qonun hujjatlariga muvofiq boshqa ilmiy va ta’lim tashkilotlari ham amalga oshirishi mumkin.

53-moddada esa maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash vazifalari quyidagilardan iboratligi belgilangan:

ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish;



maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish va ishlab chiqarish;

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish;

maktabgacha ta'lim va tarbiyani boshqarishning zamonaviy uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimiga joriy etiladigan ta'lim uslublari va dasturlari samaradorligini tahlil qilish hamda baholash [3].

### **O'quv-tarbiyaviy faoliyat va uni rejalashtirish**

O'quv-tarbiyaviy jarayon «O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari» asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasi o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'quv yili bo'yicha tashkil qiladi. O'quv yili 2 sentyabrda boshlanadi va 31 maygacha davom etadi. 1 iyundan 31 avgustgacha MTMda yozgi sog'lomlashtirish davri tashkil etiladi [12; 11-b.].

O'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish. O'quv-tarbiyaviy jarayon guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o'yinlari, bo'sh vaqt va o'quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayon ta'lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojiga asoslanuvchi o'quv rejaga muvofiq olib boriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayon bola hayoti va uning atrofidagi muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi. O'quv-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish ta'lim sharoitlariga bog'liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi. O'quv-tarbiyaviy jarayonda quyidagi rejalashtirish turlari qo'llaniladi:

yillik mavzuviy; haftalik.

Rejalashtirishda ta'lim jarayonining mavzusi, maqsadlari, mazmuni va turlari yoritiladi. Jarayon turlarini tanlashda nafaqat o'quv-tarbiyaviy jarayonning umumiy maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlar, faoliyat mazmuni va turlarini integratsiyalash ham hisobga olinadi. Rejalashtirishda kun tartibini

hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur'atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o'tishda yordam berishi lozim. Shuni yodda tutish joizki, o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi.

### **Rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish**

Mazkur dastur bola rivojiga individual yondashuv, uning shaxsini hurmat qilish, uning manfaatlari, ehtiyojlari va rivojlanish darajasini hisobga olish, hissiy qulaylik borasida g'amxo'rlik qilish, erkin ijodiy o'zo'zini ko'rsatishi uchun sharoitlar yaratishga intilishni ko'zda tutadi. Shu sababli, rejalashtirish bilan bir qatorda, bola rivojlanishini kuzatib borish pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagog bolani va uning o'zini tutishi sabablarini yaxshiroq tushunish, bola rivojini, uning ichki dunyosini ko'rish, qo'llab-quvvatlash, rivojlanish yo'llarini belgilash, ehtiyoj va manfaatlarini aniqlash uchun bola hayotini sistematik kuzatib boradi. Pedagogik kuzatuvlar asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish amalga oshiriladi va takomillashtirib boriladi.

Bolaning individual rivojlanishini kuzatish uchun O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablarida aks ettirilgan sohalar va kichik sohalar hamda kutilayotgan natijalar (malaka va ko'nikmalar) olingan. Bolaning rivojlanish xaritasi 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, har bir bola uchun individual tarzda yiliga uch marta to'ldiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidan chiqishda 6-7 yoshdagi bolaning maktabga tayyorlik xaritasi to'ldiriladi (faqat maktabgacha ta'lim muassasa bitiruvchilari uchun. Maktabga tayyorlik deganda bolada umumiy kompetensiyalarni va rivojlanish sohaları kompetensiyalarining shakllanganligi tushuniladi. Bu xarita maktabgacha ta'lim muassasasining har bir bitiruvchisi uchun to'ldiriladi. Unda Davlat dasturiga muvofiq rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) bo'yicha kutilayotgan natijalar ifodalanadi. Tarbiyachiga u yoki bu natija qanday darajada aks etayotganini belgilash taklif etiladi. Rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) umumlashtiriladi va tavsifiya hamda takliflar

ko‘rinishida ota-onalar e‘tiboriga havola etiladi.

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish. Maktabgacha ta‘lim muassasasida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o‘ziga xos belgilarga ega bo‘lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuni quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta‘lim muassasasining ko‘rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlar: milliy va hududiy an‘analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo‘lishi lozim;

muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim [12; 12-b.].

### **O‘zini o‘zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya tizimining ilmiy-uslubiy ta‘minoti qanday amalga oshiradi?

2. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta‘minlash vazifalari nimalardan iborat?

3. O‘quv-tarbiyaviy jarayon qanday rejalashtiriladi?

4. O‘quv-tarbiyaviy jarayonda qanday rejalashtirish turlari qo‘llaniladi?

5. Rivojlantiruvchi muhitni qanday tashkil etiladi?

6. Rivojlantiruvchi muhit mazmuni nimalardan iborat?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi va uning tasarrufidagi ilmiy-uslubiy muassasalar ro‘yxatini shakllantirish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, tegishli tarmoq ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta‘lim tashkilotlari ro‘yxatini shakllantirish.

3. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya tizimining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish instituti kurslari ro‘yxatini shakllantirish.

## **11-BOB.**

### **MTM TA'LIM DASTURI VA UNI TUZISH TALABLARI**

#### **Reja:**

- 11.1. MTM ta'lim dasturini tuzish bo'yicha tavsiyalar.
- 11.2. Namunaviy o'quv rejasi va soatlar miqdori.
- 11.3. 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish xaritasi.

**Tayanch so'z va iboralar:** MTM ta'lim dasturi, namunaviy o'quv rejasi, soatlar miqdori, rivojlanish xaritasi.

#### **MTM ta'lim dasturini tuzish bo'yicha tavsiyalar**

Ta'lim dasturi – MTM Davlat o'quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta'lim jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo'lib, u qo'yilgan maqsadlarga erishishni ta'minlashi lozim.

Dastur – muhim vosita bo'lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'llarini belgilaydilar.

Dastur majburiy qism va ta'lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topadi. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarini amalga oshirish nuqtayi nazaridan o'zaro bir-birini to'ldiruvchi hamda zaruriy hisoblanadi. Dasturning majburiy qismi barcha beshta ta'lim sohasi: jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; nutq, muloqot, o'qish va yozish ko'nikmalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni ko'zda tutadi. Dastur tarbiyachi (mutaxassis) ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga quyiladigan Davlat talablari asosida bolalar rivojlanishining muayyan sharoitlari, ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning individual pedagogik modelini qanday yaratayotganini ko'rsatib berishi lozim. Dastur uchta asosiy bo'limni qamrab oladi (11.1-jadvalga qarang):

## Dastur bo'limlari

No	Dastur bo'limlari	Dastur bo'limlarining mazmun-mohiyati
1	maqsadli	tushuntirish xati hamda dastur o'zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o'z ichiga oladigan bo'lim
2	mazmunli	Dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to'laqonli rivojlanishini ta'minlovchi bo'lim
3	tashkiliy	Dasturning moddiy-texnik ta'minoti ta'rifi, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga oluvchi bo'lim

Dastur MTMning pedagogik kengashida muhokama qilinadi va mudir buyrug'i bilan tasdiqlanadi va quyidagi tarkiblardan iborat:

Mundarija sahifalar ko'rsatilgan holda Dasturning barcha qismlari, paragraflar, bo'limlar nomi, adabiyotlar va ilovalar ro'yxati, matnda mavjud bo'lgan barcha sarlavhalarni o'z ichiga oladi. Ularning ta'rifi ish mazmuniga to'liq mos kelishi, qisqa, aniq va izchil bo'lishi hamda uning ichki mantiqiy qonuniyatlarini aniq ifodalashi lozim.

Maqsadli bo'lim tarkibiga tushuntirish xati kiradi va unda Dastur ishlab chiqilishiga asos bo'lgan meyoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil qilishning turli shakllari, metodlari va yo'llari ko'rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, quyidagilar ham ta'riflanishi lozim:

dastur bo'yicha ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilarning yoshga oid ruhiy va individual xususiyatlari;

dasturning maqsadi;

dasturning vazifalari;

dasturni amalga oshirish muddati;

asosiy tamoyillar;

bola shaxsining asosiy tavsiflari.

**Dasturning maqsadli** yo'nalishlari ta'rifi maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi hamda O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablarining maqsadli yo'nalishlariga mos kelishi lozim.

**Mazmunli bo'limga** bola rivojining beshta ta'lim sohasi yo'nalishlariga mos ravishdagi ta'lim faoliyatining ta'rifi kiradi: ta'lim sohasining vazifalari, ta'lim faoliyatining mazmuni, ta'lim faoliyatining natijalari, mintaqaviy tarkibiy qism (komponent), ta'lim sohasini amalga oshirish bo'yicha ta'lim faoliyatini tashkil qilish shakllari.

**Kompleks-mavzuviy rejalashtirish** (barcha beshta ta'lim sohasini amalga oshirishni hisobga olgan holda). Mazkur kichik bo'limning ta'rifi integrativ modelni ko'zda tutadi va u hafta mavzusini faoliyatning turli ko'rinishlarida, shakllarida, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bilan birgalikda ochib beradi. Dasturda ifodalangan kompleks-mavzuviy rejalashtirishning tarkibiy qismi jadvallar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin. Kompleks-mavzuviy rejada dasturdagi bo'limlar va mavzularni o'rganish ketma-ketligi ochib beriladi. Ta'lim faoliyatining taqsimoti, bolalar bilan ishlash shakllari va yakuniy tadbirlar ko'rsatiladi.

**Tashkiliy bo'lim.** Mazkur bo'limda kun tartibi, o'quv yili tuzilmasi, ta'lim faoliyati jadvali (me'yoriy hujjatlarga muvofiq), yoshni hisobga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish, tarbiyalanuvchilarning yoshi va individual xususiyatlari, ularning ta'lim ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olgan ravishda Dasturni amalga oshirishining turli shakllari, metod va vositalarining qisqacha ta'rifi beriladi. Shuningdek, turli xildagi faoliyatning o'ziga xos ruhiy-pedagogik xususiyatlari, tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan o'zaro hamkorlik turlari ifodalanishi mumkin.

Dasturni amalga oshirish shartlari:

moddiy-texnik ta'minot;

o'quv-metodik ta'minot (dasturlar, texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-metodik va o'quv-metodik adabiyot, bolalar, ota-onalar uchun mo'ljallangan adabiyot, internet-resurslar, ta'limiy CD disklar, didaktik material, hujjatlar).

Foydalanilayotgan adabiyotlar ro'yxati.

Dasturga ilovalar, ularda quyidagi materiallar berilishi mumkin: mashg'ulotlar ishlanmalari, xordiq, bayramlar ssenariylari va h.k; tarbiyachi ishining chuqurlashtirilgan yo'nalishi bo'yicha ish dasturi (rejasi);

o'yinlar va didaktik o'yinlar ta'rifi;

pedagoglar va ota-onalar uchun mahorat maktabi ssenariylari;

har bir yosh bo'yicha ilova qilinadigan metodik jild-to'plamlar; ota-onalar uchun tarbiyalanuvchilarning oilalari bilan hamkorlikning turli shakllari ssenariylari (maslahatlar, davra suhbatlari, treninglar, praktikumlar, seminarlar) [12; 16-17-b.].

### *11.2-jadval*

#### **Bolalar to'liq kun mobaynida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi**

<b>№</b>	<b>Kun tartibi</b>	<b>3-4 yosh</b>	<b>4-5 yosh</b>	<b>5-6 yosh</b>	<b>6-7 yosh</b>
1	Bolalarni qabul qilish, mustaqil faoliyat, o'yinlar, ertalabki badantarbiya	7.00-8.20	7.00-8.25	7.00-8.30	7.00-8.30
2	Nonushtaga tayyorgarlik, nonushta	8.20-8.50	8.25-8.50	8.30-8.50	8.30-8.50
3	Mustaqil faoliyat, o'yinlar	8.50-9.00	8.50-9.00	8.50-9.00	8.50-9.00
4	O'yinli ta'lim faoliyati	9.00-9.40	9.00-9.50	9.00-10.00	9.00-10.50
5	Didaktik o'yinlar, mustaqil faoliyat	9.40-10.00	9.50-10.00	10.00-10.35	----- ----
6	Sayrga tayyorgarlik, sayr	10.00-12.00	10.00-12.10	10.35-12.25	10.50-12.35
7	Sayrdan qaytish, o'yinlar	12.00-12.20	12.10-12.30	12.25-12.40	12.35-12.45
8	Tushlikka tayyorgarlik, tushlik	12.20-12.50	12.30-13.00	12.40-13.10	12.45-13.10
9	Uxlashga tayyorgarlik, kunduzgi uyqu	12.50-15.00	13.00-15.00	13.10-15.10	13.10-15.10
10	Tetiklashtiruvchi gim-nastika, havo va suv muolajalari	15.00-15.10	15.00-15.10	15.00-15.10	15.00-15.10
11	Uyqusiz vaqt Erkin faoliyat	13.00-15.10	13.00-15.10	13.00-15.10	13.00-15.10
12	Ikkinchi tushlikka tayyorgarlik, ikkinchi tushlik	15.15-15.30	15.15-15.30	15.20-15.30	15.20-15.30
13	Qo'shimcha ta'lim, badiiy adabiyot o'qish, mustaqil o'yin faoliyati	15.30-16.30	15.30-16.30	15.30-16.30	15.30-16.30

<b>№</b>	<b>Kun tartibi</b>	<b>3-4 yosh</b>	<b>4-5 yosh</b>	<b>5-6 yosh</b>	<b>6-7 yosh</b>
14	Sayr, mustaqil o‘yin faoliyati	16.30- 17.45	16.30- 17.45	16.30- 17.45	16.30- 17.45
15	Bolalarning uyga ketishi	17.45- 18.00	17.45- 18.00	17.45- 18.00	17.45- 18.00

*11.3-jadval*

**Qisqa muddatli guruhlarning namunaviy kun tartibi**

<b>№</b>	<b>8:30-12:00 (3,5 soat) 1-smena</b>	
1	Bolalarni qabul qilish, filtr, ertalabki gimnastika	
2	Ertalabki davra suhbat	
3	O‘yinli ta’lim jarayoni	
4	O‘yin, mustaqil mashg‘ulotlar, loyihaviy faoliyat	
5	Ikkinchi nonushta	
6	Sayr, bolalarning uyga ketishi	
7	Pedagoglar uchun tushlik tanaffus	
8	Pedagoglarning ikkinchi smenaga tayyorgarligi	
<b>№</b>	<b>13:30-17:00 (3,5 soat) 2-smena</b>	
1	Bolalarni qabul qilish, filtr	
2	Bolalarni kutib olish	
3	O‘yinli ta’lim jarayoni	
4	O‘yin, mustaqil mashg‘ulotlar, loyihaviy faoliyat	
5	Ikkinchi tushlik	
6	Sayrga tayyorgarlik	
7	Sayr, bolalarning uyga ketishi	



## Namunaviy o'quv rejasi va soatlar miqdori

### 11.4-jadval

### O'quv dasturi namunasi 3 dan 4 yoshgacha bo'lgan guruh- larda o'tkaziladigan mashg'ulotlarning taxminiy miqdori

№	Mashg'ulotlar nomi	O'quv yili mobaynida			Sog'lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobaynida	o'quv yili mobaynida	hafta mobaynida	oy mobaynida	sog'lomlashtirish davri mobaynida
1	Atrofdagi olam bilan tanishtirish eksperimentlar – amaliy tajriba	1	4	36	1	4	12
2	Tabiat bilan tanishtirish Badiiy adabiyot	1	4	36	o'yin viktorialar	1	3
3	Nutqni rivojlantirish	1	4	36	1	4	12
4	Sensor tarbiya Elementar matematika	1	4	36	o'yinlar	1	3
5	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
6	Applikatsiya Konstruksiyalar tuzish	1 navbatmanavbat	2	36	1	4	12
7	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
8	Jismoniy tarbiya	2 (undan bittasi toza)	8	72	hordiq	1	3
9	Musiq	2	8	72	hordiq	1	3
<b>Jami:</b>		<b>12</b>	<b>8</b>	<b>43</b>	<b>25</b>	<b>24</b>	<b>72</b>

*11.5-jadval***Bolalar bilan qisqa muddatli guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy soni**

<b>№</b>	<b>Faoliyat turlari</b>	<b>O‘tkazish davriyligi</b>
1	Bolalarning erkin, mustaqil faoliyati	Har kuni
2	O‘yin faoliyati	Har kuni
3	Tasviriy faoliyat	Haftasiga ikki marta
4	O‘rganuvchi tadqiqiy faoliyat (atrofdagi olamni anglash)	Haftasiga ikki marta
5	Tabiat bilan tanishuv	Haftasiga 1 marta
6	Matematika	Haftasiga ikki marta
7	Musiq	Haftasiga ikki marta
8	Jismoniy madaniyat	Haftasiga ikki marta
9	Nutqni rivojlantirish	Haftasiga 1 marta
10	Savodxonlikka o‘rgatish	Haftasiga 1 marta
<b>Jami:</b>		<b>15 soat</b>

## Yillik mavzuviy (tematik) reja

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari			
			Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
Sentyabr	O'zbekiston – mening Vatanim	1-hafta	Men va bolalar bog'chasi	Men va bolalar bog'chasi	Mening qadrdon O'zbekistonim	Mening qadrdon O'zbekistonim
		2-hafta	Mening shahrim	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam	Mening shahrim – mening mahallam
		3-hafta	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam	Men va mening oilam
		4-hafta	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim	Men va mening do'stlarim
Oktabr	Kuz bo'yoqlari	1-hafta	Oltin kuz	Oltin kuz	Mavsumiy o'zgarishlar. Ko'chmanchi qushlar.	Mavsumiy o'zgarishlar. Ko'chmanchi qushlar
		2-hafta	Sabzavot va mevalar	Tabiat ombor-xonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat ombor-xonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar	Tabiat omborxonasi: sabzavotlar, mevalar, rezavor mevalar
		3-hafta	Non hamma-siga sarkor	Non hamma-siga sarkor	Non hamma-siga sarkor	Non hamma-siga sarkor
		4-hafta	O'zbekistonning oq oltini	O'zbekistonning oq oltini	O'zbekistonning oq oltini	O'zbekistonning oq oltini

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari			
			Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
Noyabr	Transport, ko'cha harakati qoidalari (KHQ) Hayotiy faoliyat xavfsizligi asoslari (HFXA)	1-hafta	Transport bilan tanishuvim	Transport bilan tanishuv	Yer usti transporti	Havo, suv va yer usti transporti
		2-hafta	Rangli svetofor	Rangli svetofor	Rangli svetofor	Ehtiyotkor piyoda haftasi
		3-hafta	Tez yordam va o't o'chirish yordami	Tez yordam va o't o'chirish yordami	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari	Shoshilinch (tezkor) harakat xizmatlari
		4-hafta	Bizning yaxshi ishlarimiz	Bizning yaxshi ishlarimiz	Barcha kasblar muhim	Bizning yaxshi ishlarimiz
Dekabr	Qish	1-hafta	Qish	Qish	Qish. Konstitutsiya kuni	Qish. Konstitutsiya kuni
		2-hafta	Sog'lom tanda – sog'lom ruh	Sog'lom tanda – sog'lom ruh	Sog'lom tanda – sog'lom ruh	Sog'lom tanda – sog'lom ruh
		3-hafta	Kiyim-bosh	Mavsumiy kiyimbosh va poyabzal	Mavsumiy kiyim-bosh va poyabzal	Mavsumiy kiyimbosh va poyabzal
		4-hafta	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?	Yangi yil nima?

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari			
			Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
Yanvar	Bolalar bog'chasi	1-hafta	Qishki o'yin kulgilar	Qishki o'yin kulgilar	Qishki o'yin kulgilar	Qishki o'yin kulgilar
		2-hafta	Vatan himoyachilari kuni	Vatan himoyachilari kuni	Vatan himoyachilari kuni	Vatan himoyachilari kuni
		3-hafta	Men va mening badanim	Men va mening badanim	Men va mening badanim	Men va mening badanim
		4-hafta	Xushmuomalalik alifbosi	Xushmuomalalik alifbosi	Xushmuomalalik alifbosi	Xushmuomalalik alifbosi
Fevral	G'aroyib dunyo	1-hafta	Bizning inoq mamlakatimiz	Bizning amlakatismiz – do'stlik va tinchlik mamlakati	Qo'shni mamlakatlar	Qo'shni mamlakatlar
		2-hafta	Hayvonlar va qushlar bilan do'stlashamiz	Hayvonlar va qushlar bilan do'stlashamiz	Dunyo mamlakatlar	Dunyo mamlakatlar
		3-hafta	O'simliklar bilan do'stlashamiz	O'simliklar bilan do'stlashamiz	O'zbekistonning buyuk arboblari	O'zbekistonning buyuk arboblari
		4-hafta	Kitob bilan do'stlashamiz	Kitob bilan do'stlashamiz	Kitob tarixi	Kitob tarixi

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari			
			Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
Mart	Go'zal bahor	1-hafta	Onamning kuni	Onamning kuni	Onamning kuni	Onamning kuni
		2-hafta	Mavsumiy o'zgarishlar	Mavsumiy o'zgarishlar	Mavsumiy o'zgarishlar	Mavsumiy o'zgarishlar
		3-hafta	Navro'z bayrami	Navro'z bayrami	Xalq manbalari. Navro'z bayrami	Xalq manbalari. Navro'z bayrami
		4-hafta	Hasharotlar	Hasharotlar	Hasharotlar	Hasharotlar
Aprel	Yer sayyorasi – umumiy uyimiz	1-hafta	Gullab yashnayotgan bahor	Gullab yashnayotgan bahor	Gullab yashnayotgan bahor	Gullab yashnayotgan bahor
		2-hafta	Koinot sirlari	Koinot sirlari	Koinot sirlari	Koinot sirlari
		3-hafta	Yer sayyorasi kuni	Qushlar hovlisi	Yer sayyorasi kuni	Yer sayyorasi kuni
		4-hafta	O'yinchoqlarga g'amxo'r munosabat	Shaharga g'amxo'r munosabat	Sayyorani saqla!	Sayyorani saqla!

Oylar	Oy mavzusi	Oy haftalari	Hafta mavzulari			
			Yosh guruhlari			
			Kichik guruh	O'rta guruh	Katta guruh	Tayyorlov guruhi
May	Asboblarning va anjomlarning	1-hafta	Men va mening uyim	Men va mening uyim	Men va mening uyim. Xotira kuni	Men va mening uyim. Xotira kuni
		2-hafta	Mebel	Mebel	Mebel	Mebel. Milliy hunarmandchilik
		3-hafta	Idishlar	Maishiy asboblarning	Idishlar. Milliy naqshlar	Idishlar. Milliy naqshlar
		4-hafta	Bizning yordamchilaringiz maishiy asboblarning	Bizning yordamchilaringiz maishiy asboblarning	Bizning yordamchilaringiz maishiy asboblarning	Bizning yordamchilaringiz maishiy asboblarning

### 3 dan 7 yoshgacha bo'lgan bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch sikldan iborat bo'lgan kuzatuv olib boriladi:

dastlabki (o'quv yili boshida); oraliq; yakuniy.

**Dastlabki kuzatuv** o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyi mobaynida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari aniqlanadi, uning shu davrgacha erishgan yutuqlari belgilanadi. Tarbiyachi ta'lim sohasini o'zlashtirish bo'yicha mavjud bo'lgan muammolarga ham e'tibor qaratadi, bolaning qanday sifatlari qo'llab-quvvatlashni talab etishini, har bir bola uchun qanday vazifalar dolzarbligini aniqlaydi. Keyin bolaning ayni davrdagi yoshini hisobga olgan holda uning rivojlanish sohalari bo'yicha yutuqlari xaritasi to'ldiriladi.

**Oraliq kuzatuv** birinchi yarim yillik oxirida (dekabr, yanvar) o'tkaziladi. Bu monitoringni o'tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to'g'riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatuv natijalariga ko'ra, tarbiyachi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug'ilgan holatlarda pedagogika jarayoniga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'quv yili oxirida (odatda may oyida) tarbiyachi yakuniy kuzatuv o'tkazadi. Mazkur kuzatuv asosida yil boshida qo'yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko'zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi. Kuzatuv o'tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

kuzatuv bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo'naltirilgan bo'ladi;

bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatuv kamida ikki hafta (yoki oy) mobaynida olib boriladi;

tarbiyachi bola to'g'risidagi ma'lumotlarni ota-onalar yoki muassasaning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin;

tarbiyachi bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e'tibor qaratishi lozim.

O'quv yili oxirida tarbiyachi yakuniy pedagogika kengashiga bolalar tomonidan o'quv dasturi o'zlashtirilishining sifat darajasi to'g'risida hisobot yozadi va unda bolalar tomonidan tegishli natijalarga erishilmagan bandlar hamda ular nega bajarilmaganligi sabablariga to'xtalib o'tadi (ba'zi metodikalar o'zlashtirilmagani, tarqatma materiallar, adabiyotlarning yetarli bo'lmagani, guruh texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmagani, bolaning betob bo'lgani va darslarni o'tkazib yuborgani, ota-onalarning faol bo'magani va h.k.). Ushbu natijalar asosida sabablarni bartaraf etish borasidagi ishlar rejalashtiriladi va mazkur guruh uchun kelasi yilga mo'ljallangan vazifalar belgilanadi. Keyinchalik pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini yiliga kamida 3 marta to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi bilan belgilaydi. Kuzatuv rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu bilim olish sohasida indikator «ishlamasa», pedagog (tarbiyachi) daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo'yishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda yordam beradi.




Mazkur 31 tashxis (diagnostika) asosida pedagog (tarbiyachi) ruhshunos (psixolog), logoped, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi va boshqalar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini ajratadi, shuningdek, ta'lim sohalarini o'zlashtirishning salbiy tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi. O'quv yili oxirida (odatda may oyida) ushbu xarita bo'yicha yakuniy kuzatuv o'tkaziladi [12; 30-31-b.].

### **O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Ta'lim dasturi nima?
2. Dastur bo'limlarining mazmun-mohiyati nimadan iborat?
3. Bolalar to'liq kun mobaynida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi nimadan iborat?
4. Qisqa muddatli guruhlarning namunaviy kun tartibi nimadan iborat?
5. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun necha sikldan iborat bo'lgan kuzatuv olib boriladi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Bolalar to'liq kun mobaynida bo'ladigan guruhning namunaviy kun tartibi bilan qisqa muddatli guruhlarning namunaviy kun tartibini «Ven diagrammasi» asosida loyihalashtiring:



Guruh	Tayyorlov guruhi (nomi)			
Mavzu	MENING SHAHRIM. MENING MAHALLAM			
Davr	Sentaabring 2-haftasi			
Rivojlanish sohalari bo'yicha	jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish	Kolonnada bir, ikki, to'rt kishi bo'lib yurish		
	jijimoy-hissiy (emotsional) rivojlanish	O'z hissiyotlarini mazorat qilishni o'rganish		
Rivojlanish maqsadlar	nutq, mulohot, o'qish va yozish ko'nikmalari bilish (anglash) orqali rivojlanish	Bolaning og'zaki nutqini yoshiga muvofiq mustahkamlash Vatan, mahalla to'g'risidagi bilimlarni mustahkamlash		
	ijodiy rivojlanish	Hamkorlikdagi faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish, ritm hissini, musiqani his etish fazilatini, harakatlarda ritmik ifodalilikni tarbiyalash		
Rivojlanish markazlari	O'quv-tarbiyaviy faoliyat			
Ertalabki doira	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Juma
	Dam olish kunlarini qanday o'tkazgani haqida suhbat		Payshanba	Ob-havo haqida suhbat
Markazlarda erkin faoliyat	«Qurilish konstruksiyalash» markazi va «Syujet-rolli o'yinlar va dramalashirish» markazi	Mening bo'lajak uyim	Zamonaviy shahar	Mahalla ko'chalarini (uzunligiga)
	«Til va nutq» markazi	«Buvijonimnikida mehmonda»		«Sartaroshxona»
	«Ilm-fan va tabiat» markazi	«Mening shahrim, mening mahallam» nomli syujetli rasm bo'yicha suhbat		Shahar parklariga ekskursiya (AKT – slaydlar yordamida)
	«San'at» markazi	Loy, tosh va qumning xususiyatlari		«Kimning uyi mustahkamroq?»
	«San'at» markazi	Ochiq havoda o'z fikri bo'yicha rasm chizish		«Obod mahalla» mavzusida origami va applikatsiya
Musiqqa va ritmika markazi	«Shahrisabz» qo'shig'ini tinglash	«Salom nima degani?», qo'shig'ini sadolari ostida kuylash va ritmik harakatlantirish		«Dunyo rang-barang yaylovga o'xshaydi» qo'shig'ini kuylash
Katta guruhlarda ishlash				
				Resurslar, izoh
				Qurilish bloklari, lego, konstruktör
				Niqoblar, kiyimbosh, atributlar
				Syujetli rasmlar, AKT materiallar
				Loy, qum, tosh, maxsus idishlar, sharlar
				A-4 qog'oz, rangli qog'oz, bo'yoqlar, tabiiy materiallar
				Musiqqa markazi, musiqaqali diskalar

## **12-BOB.**

### **MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA O'YIN**

#### **Reja:**

12.1. O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi ekanligi. O'yinning ijtimoiy xarakteri. O'yin bolalar hayotini tashkil etish vositasi ekanligi.

12.2. O'yin turlari: mazmunli, ijroli, o'yinlar, harakatli o'yinlar, ta'limiy o'yinlar, syujetli-rolli o'yinlar, milliy o'yinlarning o'ziga xos xususiyatlari.

12.3. Kichik yoshdagi bolalar o'yiniga rahbarlik qilish. O'yinchoq va uning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati.

**Tayanch so'z va iboralar:** o'yin, mazmunli o'yin, ijroli o'yin, harakatli o'yinlar, ta'limiy o'yinlar, syujetli-rolli o'yinlar, milliy o'yin.

#### **O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi ekanligi.**

#### **O'yinning ijtimoiy xarakteri.**

#### **O'yin bolalar hayotini tashkil etish vositasi ekanligi**

O'yin bog'cha yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lib, u orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatining qay darajada shakllanib borishini belgilaydi. O'yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san'atshunos olimlar diqqatini o'ziga tortib kelgan. O'yin ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq yuzaga kelgan bo'lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa vakillari o'z o'yinlarida ovchilik urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Ba'zi hollarda o'yin mehnat qilish istagi orqali yuzaga keladi. Bola o'z o'yinida oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi. Keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. O'yin yosh avlodni mehnatga tayyorlaydi. Bolalar o'yinini bunday tushunish birinchi marta K.D.Ushinskiy tomonidan ta'riflab berilgan edi. U o'z asarlarida bolalar o'yinining mazmuni ularning hayotdan olgan taassurotlari bilan belgilanib, ular shaxsi shakllanishiga ta'sir etadi, deb yozadi. Bu fikrni P.F.Leyegaft ham tasdiqlab, bolalar o'z o'yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning

rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga ega ekanini olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishlari lozim:

1. O‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish.

2. O‘yinda bolalarning bo‘ljak mehnat ahliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash.

O‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, bog‘chaning ta‘lim-tarbiya ishida axloqiy, mehnat va estetik tomondan tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinda yosh organizmga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi. Hayotiy faollik yaratiladi. Birdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. O‘yin ta‘lim va mashg‘ulotlar bilan kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, juda katta ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. O‘yinda aks ettirilgan narsani bilib olishga qiziqish uyg‘onadi, ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrlarini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bolalar o‘yinlari o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ular o‘z mazmuni va tashkil etilishiga ko‘ra, qo‘llaniladigan buyumlarning turlari kelib chiqishiga ko‘ra turlichadir. Bularning barchasi bolalar o‘yinlarini turkumlashtirishni favqulodda noziklashtiradi, biroq o‘yinlarga rahbarlik qilish uchun ularni, albatta, guruhyaash zarur. Pedagogikada o‘yinlarni ikki katta guruhga bo‘lish juda keng tarqalgan ijodiy va qoidali o‘yinlar. Ijodiy o‘yinlarning mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar va ularda o‘z taassurotlarini, borliq haqidagi tushunchalarini hamda unga munosabatlarini aks ettiradilar. Qoidali o‘yinlar esa kattalar tomonidan yaratiladi va bola hayotiga olib kiritiladi. Mazmuni qoidalarning murakkabligiga qarab, ular turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan bo‘ladi. Tayyor qoidali o‘yinlarning katta guruhini xalq o‘yinlari tashkil etadi, ularning ko‘plari avloddan avlodga o‘tib, bizga yetib kelgan. O‘yinlarning har ikkala guruhi ham o‘zining xilma-xil ko‘rinishlariga ega. Ijodiy o‘yinlar guruhini syujetli rolli o‘yinlar tashkil etadi. O‘yinlar o‘z mazmuni va qoidalari, tarbiyaviy xarakteriga ko‘ra shartli ravishda didaktik o‘yinlar va musiqiy o‘yinlarga bo‘linadi. Didaktik o‘yinlarda avvalo, bolalarning aqliy faoliyati rivojlanadi, ularning bilimlari chuqurlashadi va kengayadi, harakatli o‘yinlarda

bolalarning turli harakatlari takomillashadi, musiqali o‘yinlarda esa musiqiy qobiliyatlar rivojlanadi va hokazo. Demak, har bir o‘yinning o‘ziga xos sifatleri mavjud, biroq ular qator umumiy xususiyatlarga ham ega.

O‘yin – bu bola faoliyatining turi. Shunday ekan, bir faoliyatda bo‘lgani kabi unga ham xos xislatlar: maqsadning mavjudligi, rejali harakatlar, natijaning mavjudi kabilar xosdir. N.K.Krupskaya bolalar rivojlanishiga qarab, uning o‘yinda o‘z oldiga qo‘yadigan maqsadining tabiati ham o‘zgarishini bolalar taqlidi harakatlardan asta-sekin o‘ylangan asosli maqsadlarga o‘tishlarini ko‘rsatib o‘tgan edi. Bola o‘yindagi maqsadiga erishishi uchun o‘ziga sheriklar tanlaydi, zarur o‘yinchoqlarni topadi, o‘yin davomida muayyan harakat va qiliqlar qiladi. Boshqa faoliyat turlarida bo‘lgani singari o‘yin jarayoniga bolaning butun shaxsiyati, uning psixik bilish jarayonlari, irodasi, hissiyoti va ta’sirchanligi, ehtiyoj va qiziqishlari jalb etiladi, o‘yinda bola faol harakat qiladi, gapiradi, o‘z bilimlarini qo‘llaydi. O‘yin o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘yin bolaning shaxsiy tashabbusiga ko‘ra vujudga keladigan, o‘zining faol ijodiy yo‘sindagi, yuksak ta’sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyatdir. O‘yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, uyqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil qilish tavsiya etiladi. Mashg‘ulot o‘rtasida harakatli, qoidali o‘yinlar ham o‘tkazib turiladi.

Ochiq havodagi o‘yinlarga esa yugurish, otish, sirpanish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar, qoidali o‘yinlar (oq terakmi ko‘k terak, ona bo‘ri kabilar) kiradi.

Kunduzgi uyqudan keyingi o‘yinlarga qurilish o‘yinlari, ertak bo‘yicha sahnalashtiriladigan, rolli o‘yinlar, didakgik o‘yinlar va h.k. kiradi.

**O‘yin turlari: mazmunli, ijroli, o‘yinlar, harakatli o‘yinlar, ta’limiy o‘yinlar, syujetli – rolli o‘yinlar, milliy o‘yinlarning o‘ziga xos xususiyatlari**

*Ijodiy o‘yinlarga syujetli* – rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, qurish-yasashga doir o‘yinlar kiradi. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi.

Ijodiy o‘yin bolalarning mustaqil o‘yini bo‘lib, uning mazmunini bolalar o‘zlari o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchiligi va ijodkorlik qobiliyatlarini to‘laligicha namoyon bo‘ladi.

**Syujetli-rolli o‘yin** o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuni uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘yinning syujeti – o‘z harakati, munosabatlari bilan bog‘langan voqea, hodisalar va ularning harakatlari xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqitirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmdagi faoliyatni yaxshilaydi. O‘yin bolaning aqliy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi [25; 124-b.]. Bolalar o‘ynashlari uchun ma‘lum vositalar ham kerak. Masalan: bolalarning o‘z harakatlari, o‘yinchoq va boshqa materiallar. Bolalarning ko‘p harakatlari qurish – yasash bilan bog‘liq bo‘ladi. Ular soatlab parovoz, paroxod, elektravoz quradilar, ularni asliga o‘xshatishga urinadilar. Tarbiya vositalariga o‘yinchoq ham kiradi. O‘yinchoq bola harakatini to‘ldiradi, o‘ylagan obrazi va fikrini amalga oshirishga yordam beradi. Masalan: qo‘liga qo‘g‘irchoqni ko‘tarib olgan qizaloq o‘zini onadek sezadi va haqiqiy onalar bajaradigan ishni bajaradi, uni ovqatlantiradi, kiyintiradi, uxlatadi va h.k. Bolalar o‘yin jarayonida ba‘zi bir narsalarni xohlagan narsalarining nomi bilan atab, xuddi o‘sha narsalarini faraz qilib juda yaxshi o‘ynaydilar. Masalan, qumni, «shakar», o‘rindiqni «mashina» deb atashi mumkin. Shunday qilib, o‘yin ijtimoiy faoliyat sifatida jamiyatda muayyan vazifalarni bajaradi. Bola shaxsini rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi [25; 125-b.].

Qurish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarning qurilish, buyum yasash o‘yinlari rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinning tarkibiy qismidir. Biror narsani qurish bolalarni o‘z fikrlarini ro‘yobga chiqarish usuli hisoblanadi. Qurilish o‘yining boshlovchisi tarbiyachi bo‘lishi mumkin. Katta yoshdagilarning ishtiroki qurilish o‘yinlariga o‘z-o‘zidan qiziqishni jalb qilishi mumkin. Bunda bolalarning asosiy diqqatlari biror narsani qurish jarayoniga qaratiladi. Bolalar o‘z maqsadlari uchun maishiy turmushdagi narsalardan: g‘o‘zalardan, yashiklardan, shoxchalardan tabiiy materiallardan esa qum, loy, suv qordan ham foydalanadilar.

Bolalar ulgʻaygani sari oʻzlari qilgan qurilish ishlaridan koʻngillari toʻlmaydi. Ular oʻz ishlarining haqiqiy qurilishiga koʻproq oʻxshash boʻlishini istaydilar. Buning uchun bolalarga maxsus qurilish materiallari zarur boʻladi.

Qurilish materiallari turli xil geometrik shakldan iborat boʻlishi mumkin. Qurilish oʻyinlari bolalarning mehnat faoliyatiga yaqin boʻlib, ularni mehnatga tayyorlaydi. Qurilish materiallari bilan oʻynaladigan oʻyinlar bolalar tafakkurini rivojlantiradi, ularni qurilish ishlarining oʻziga xos xususiyatlarini ajratish, tahlil va sintez qilish, solishtirish, oʻxshash va farqli tomonlarini aniqlashga majbur etadi. Vazifalarni toʻgʻri hal qilishga oʻrgatadi. Qurilish materiallari bilan oʻynaladigan oʻyinlar geometrik jismlarning xususiyatlari, ular bilan ishlashda fazoviy nisbatlarni (uzoq-yaqin, baland-past, oʻng-chap, uzun-qisqa, keng-tor) amalda bilib olishga yordam beradi. Bolalar qurish-yasash faoliyati jarayonida bir jamoa boʻlib birlashadilar, natijada, ularning nutqi rivojlanadi [25; 126-b.]. Qurilish materiallari bilan oʻynash bolalarning maʼnaviy dunyosiga ham taʼsir etadi: tarbiyachi bolalar bilan biron inshootni kuzata turib davlatimizning xalq farovonligi toʻgʻrisida gʻamxoʻrlik koʻrsatayotganligini tushuntiradi. Tarbiyachi bolalarni qurish-yasashga oʻrgatish uchun tarbiyachi turli xil usullarni qoʻllaydi:

tarbiyachi bolalarga qurish-yasashdan oldin tushuntirgan holda qurib koʻrsatadi:

tarbiyachi koʻrib koʻrsatgan ishni har bir qismini tahdil qilib beradi;

tarbiyachi tayyor qurilishni namuna sifatida koʻrsatadi va uni tushuntirib beradi;

tarbiyachi oʻzi bitkazilmagan qurilishni bolalarga qurib bitkazishni taklif qiladi;

bolalarga xohlagan mavzuda ixtiyoriy qurilishni taklif qiladi.

Sahnalashtirilgan oʻyinlarning oʻziga xosligi shundaki, bolalar biror bir ertak yoki hikoya syujeti asosida maʼlum bir rolni bajaradilar [25; 127-b.].

Sahnalashtirilgan oʻyin bolalarning eshitgan asarlar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash yoki mashq qilish imkonini beradi. Bu oʻyinlar bolalarda iroda, intizom, oʻz harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi.

Sahnalashtirish bolalarni qayta soʻzlashga oʻrgatish usullaridan biridir. Ayrim bolalarda qayta soʻzlab berishga xohish ham qiziqish ham boʻlmaydi, lekin unga oʻyin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, oʻsha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday oʻyinda bola oʻzini oʻsha asardagi qahramon oʻrnida his etib, uning sezgi kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida soʻzlab berish bolalardagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud boʻlgan jasurlik, oʻz-oʻziga ishonch, mustaqillik kabi xarakter kabi sifatlarini egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan oʻyinlarda tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli boʻlib bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obraz va harakatlar toʻgʻri aks ettiriladi. Sahnalashtirilgan oʻyinga tayyorlanish uchun maʼlum vaqt ajratiladi va har bir mashgʻulotda aniq bir masalalar hal etib boriladi. Didaktik oʻyinlar bolalar bogʻchasida taʼlim-tarbiya vositasi sifatida keng qoʻllaniladi. Didaktik oʻyinlar bevosita taʼlim bilan bogʻliq boʻlib, unga yordam beradi. Didaktik oʻyin – bu bogʻcha yoshidagi bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan taʼlim berish metodidir. Tarbiyachi oʻz tajribasiga tayanib, bu oʻyindan passiv bolalarni jamoaga aralashtirish, har xil rejalar, vazifalarni qoʻrqmasdan bajarishlari uchun foydalanadi [25; 128-b.]. Didaktik oʻyinlar bolalarning birgalikda oʻynab, oʻz manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uygʻunlashtira olishi bir-biriga koʻmaklashish va uygʻotishning muvaffaqiyatidan xursand boʻlish kabi yaxshi munosabatlarni tarkib topishiga yordam beradi. Oʻyinlar shaxsning sofdillik, rostgoʻylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi. Didaktik oʻyinlar bolalarning amaliy faoliyati sanaladi. Chunki unda bolalar mashgʻulotlarda olgan bilimlaridan foydalanadilar. Shuning uchun ham didaktik oʻyinlar bolalarning aqliy faoliyatlarini kuchaytiradi, olgan bilimlaridan har xil usulda foydalanishlari uchun hayotiy sharoit yaratib beradi. Shuningdek, didaktik oʻyinlar bolalarni tevarak-atrof toʻgʻrisidagi bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, oʻz shaxsiy tajribalari va mashgʻulotlarda olgan bilimlarini amalda qoʻllay bilishga oʻrgatadi, ulardagi fikrlash qobiliyatlari, ijodiy kuchlar, sensor jarayonni rivojlantiradi, olgan bilimlarini tartibga soladi. Didaktik oʻyinlar taʼlim jarayonini yengilroq qiziqarliroq oʻtishiga yordam



beradi. Bolalar yoshlariga mos qiziqarli faoliyat orqali o'yinda amalga oshiriladigan aqliy tarbiya vazifasini juda osonlik bilan yaxshi o'zlashtiradilar. Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. Unda o'yin elementlari qancha ko'p bo'lsa, bolalarga u shuncha ko'p quvonch bag'ishlaydi. Didaktik o'yinning eng muhim jihati uni o'tkazishdan ko'zda tutiladigan g'oyadir. O'yin g'oyasi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otadi, ko'pincha bu g'oya didaktik o'yinning bosh sababi bo'ladi. Masalan, qutichada nima bor? kim qanday qichqiradi? Va shunga o'xshash. Har bir didaktik o'yin mazmuni g'oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo'ladi. Unda qoidaning mavjudligi harakat yo'nalishini yoki o'yinning borishini belgilab beradi, bolalarning xulqini, o'zaro munosabatlarini boshqarib, kerak tomonga yo'naltirib turadi. Qoida bolalar harakatini baholovchi [25; 129-b.].

Didaktik o'yinlarda amal qiluvchi qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri-noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon sanaladi. O'yin natijalari bolalarning ma'naviy va axloqiy ozuqa olganliklari bilan belgilanadi. Ayniqsa, bolalarning fahm-farosati, topog'onligi, diqqat va xotirasini namoyish qiladi. Bularning hammasi bolalarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi, to'ldiradi, ular bundan ma'naviy qoniqish hosil qiladilar. Didaktik o'yinni bolalarning bergan savollari, takliflari va tashabbuslariga qarab, o'yin jarayonida kutilmaganda kengaytirish, uning mazmunini boyitish mumkin. O'yinni belgilangan vaqtda boshlash va tugatish katta mahoratdir. O'yinni tarbiyachi bolalarda o'yinga qiziqish uyg'otgan holda tugatishi kerak, toki bolalar shu o'yinni yana davom ettirishni xohlasinlar. Didaktik o'yinlar guruh xonasi, zal, maydoncha, o'rmon, dala va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yinning ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi. Shunday qilib, didaktik o'yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta'lim berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi [25; 130-b.].

Milliy xalq o'yinlari ikki guruhga bo'linadi:

1. Milliy harakatli o'yinlar.
2. Milliy xalq o'yinlari.

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadriyatlarini bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U

bolalarning jismonan baquvvat, sogʻlom, jasur, qatʼiyatli, chaqqon, uddaburon boʻlib oʻsishlarida muhim omil boʻlib hisoblanadi. Xalq milliy oʻyinlarida millatning oʻtmish tarixi, maʼnaviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urf-odatlarini, anʼanalari jamlangandir.

Xalq milliy oʻyinlari orqali bolalarni maʼnaviy, aqliy, jismoniy, estetik jihatdan tarbiyalab borish jarayonida bolalarda oʻz Vatani sevish, uning boyliklari qadriga yetish, buyuk ajdodlarimiz meroslarini hurmat qilish, milliy kuy va qoʻshiqlardan zavqlanish tuygʻulari, shuningdek, oʻsib kelayotgan yosh avlodda chidamlilik, sabr-toqatlilik, tezkorlik, ildamlilik, botirlik kabi shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. Xalq milliy oʻyinlarini maktabgacha taʼlim muassasalarida tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

xalq milliy oʻyinlarining turlari va ularni tashkil etish yoʻllari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;

milliy oʻyinlarni tashkil etishda maʼnaviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;

maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqloq ruhida tarbiyalashda xalq milliy oʻyinlaridan maqsadli foydalanish;

xalq ertaklari, xalq ogʻzaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

bolalarning oʻynashlari uchun shart-sharoit (oʻyin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;

maktabgacha taʼlim muassasalari, oila va mahallalar oʻrtasida milliy oʻyinlar boʻyicha koʻrik tanlovlari va musobaqalar oʻtkazish.

Milliy harakatli oʻyinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, oʻyindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2 yoshli bolalar bilan oʻynaladigan oʻyin turlari. «Barmoqqa-barmoq», «Gʻoz-gʻoz», «Gʻoz tursin», «Boʻp-boʻp», «Toy-toy», «Poyezd», «Achom-achom» oʻyinlari goʻdak endi bir-ikki qadam tashlashni oʻrganayotgan vaqtda gavdasini toʻgʻri tutishga yordam beradigan oʻyinlar hisoblanadi.

3-4 yoshli bolalar bilan oʻynaladigan oʻyin turlari: «Ot oʻyini», «Kesak qoʻydi», «Koʻz boylagich», «Choriy chambar», «Avvalakam», «Tayoq iringitish», «Quloq choʻzish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdi-uchdi».

4-5 yoshli bolalar bilan oʻynaladigan oʻyin turlari: «Chir aylanma», «Chillak», «Tortishmashoq», «Lafta», «Dor oʻyin», «Koʻpkari»,

«Berkinmachoq», «Jami», «Chertan devor gir-gir aylan».

Katta yoshdagi bolalar uchun o'yinlar: «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do'ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Oq terakmi ko'k terak». Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo'lishga tayyorlanib boriladi. Xalq harakatli o'yinlarini tashkil etish va bolalarga o'rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Bolani ruhiy jihatdan o'yinga tayyorlash.

2. O'yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e'tibor berish.

3. Har bir o'yinning pedagogik tomonlarini nazardan qochirmaslik.

4. O'yinlarni ijtimoiy-foydali mehnat bilan bog'lagan holda hayotga tatbiq etish.

5. O'yin davomida o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash.

6. Jamoa bo'lib birgalikda harakat qilish, jamoa manfaatiga hurmat va e'tiborli bo'lish.

O'zbek xalqining ermak va ovutmachoq o'yinlari bilan, asosan, bolaning ilk yosh davridan boshlab shug'ullanib boriladi. Bu o'yinlar asosan kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so'zlaming uyg'unlashuvi bilan o'ynatiladi. Masalan, «Barmoqlar», «Sichqon-sichqon» o'yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatlari hosil qilinib tasavvurlari o'sib boradi. Xalqimizda «Bolaning ilonni changallaydigan davri» degan ibora bor. Bu hikmat bola hali qo'rqish hissini bilmaydigan davrida, ya'ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan vaqtda qo'llaniladi. Xuddi shu davrda «Sichqon-sichqon» o'yini qo'l keladi. Ilk yoshdagi bolalar dastro'moldan yasalgan «sichqon»ning harakatlanishidan qattiq zavqlanib, qiyqirib yayraydilar. «Sichqon»ni harakatlantiruvchi katta odam uning juda chaqqonligini namoyish etishi kerak. Bu ovutmachoq go'dakka sichqon shakli va uning juda yugurdakligi to'g'risida tasavvur hosil qilishga ko'maklashadi [13; 69-b.]. Ermak o'yinlardan «Oymoma», «Bog'ga kirsam maylimi», «Alla», «Aji-aji», «Boylandi», «Chapakka-xo-chapakka» orqali bolalarni muloqotga o'rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarning eshitish, ko'rish, sezish, his qila olish kabi sensor qobiliyatlari faollashadi. Bolalarning nutq faol-

ligini o‘stirish maqsadida aytishma o‘yinlaridan keng foydalaniladi. Bunday o‘yinlarga «Boylandi», «Xolam keldi», «Mundi-mundi», «Bulbulim-bulbulim», «Ko‘zboylog‘ich», «Oq sholi, ko‘k sholi», «Ada, hormang»lar kiradi. Yana, xalqimizda azal-azaldan o‘ynab kelinadigan so‘z o‘yinlaridan «Yarashtirgich»lar hali-hanuzgacha bolalar orasida «tinchlik-yarashuv» timsoli sifatida qo‘llaniladi. Bu o‘yinlar bolalar tilidan ana shunday jaranglaydi:

*Karimga berdim toychoq,  
U olavermadi har choq.  
Toychoq‘imni kim olsa,  
Men u bilan chin o‘rtoq.  
Yalinchoq-yalinmachiq,  
Pista po‘choq.  
Qilichmi, to‘qmoq, qirq yilgacha o‘rtoq,  
To‘qmoq, to‘qson yilgacha o‘rtoq.*

Bolalarning matematik tasavvurlarini o‘stirishga yordam beradigan o‘yin turiga «Sanamalar» kiradi. Bu o‘yin jarayonida bolalar she‘riy satrlar orqali son-sanoqdan topishmoq tarzida foydalanib qatnashadilar. Bunda bolalarning tasavvurlari, fikrlash doiralari kengayib, she‘riy ohangda to‘g‘ri javob qaytarishga o‘rgatilib boriladi. Asosan, bu o‘yinlar quyidagicha jaranglaydi:

*Dadam-u oyim,  
Bor ikkita singlim.  
Bahodir, Dildor,  
Bog‘chaga ketar,  
Sanab ko‘r chaqqon,  
Bizlar nechta jon.*

O‘zbek xalqi nihoyatda so‘zga chechan, topqir bo‘lib, o‘zining alyor-u qo‘shiqlariga boydur. Bu fikrimizning isboti sifatida xalq rasida mashhur bo‘lgan «Qiqillamalar»ni misol sifatida keltirish mumkin. Bu so‘z o‘yinlarida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalar, kechinmalar she‘riy ohangda ijro etiladi. Masalan [13; 70-b.]:

*Shov-shov etadi ariq,  
Karim ekadi tariq.*

Yoki:

*Echki keladi ma'rab,  
O'z egasiga qarab.*

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yinlarni ertalab va kechki soatlarda o'ynash mumkin [13; 71-b.].

### **Kichik yoshdagi bolalar o'yiniga rahbarlik qilish. O'yinchoq va uning ta'lim-tarbiyadagi ahamiyati**

**O'yinchoq** – bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo'ldosh quvonch manbayi. O'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

*«Qisqacha aytganda, xonadondagi har bir narsa - daraxt va o'simliklar bo'ladimi, turli o'yinchoqlar uy hayvonlari bo'ladimi - bularning barchasi bolaning ko'ziga, go'yoki, olamning beqiyos mo'jizasi bo'lib ko'rinadi va shu tariqa u yorug' dunyoni o'zi uchun kashf qiladi»*, deb to'g'ri ta'kidlagan edi yurtboshimiz I.A.Karimov.

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. O'yinchoqlar bolalarda ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondashuv o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi.

**Pedagogik talablar.** O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi jamiyatimiz g'oyasi nuqtayi nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada olijanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalashi, voqelikka nisbatan olijanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning

faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak [13; 71-b.]. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi. O'yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko'p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi.

**Gigiyenik talablar.** O'yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

**Badiiy talablar.** Shakl, bo'yoq va bezaklarning har tomonlama uyg'unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to'ldirib, ta'kidlab, o'yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O'yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to'la mos kelmoq' ilozim. To'g'ri tanlangan o'yinchoq bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o'yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta'sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo'lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi. O'yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o'ynash tuyg'usini uyg'otadi va ijobiy his-tuyg'ulami tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg'ularni shakllantirishda qo'g'irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo'g'irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo'lgan tengdoshlariga bo'lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San'atning birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo'lgan o'yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg'otadi, estetik tarbiyani to'plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o'rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo'lgan xalq o'yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim.

O'yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi [13; 72-b.].

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqildoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi, ushlar harakatlari va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi. O'yinchoqlarni

turlari va ko‘rinishlari bo‘yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- sujeqli-obrazli;
- texnika o‘yinchoqlari;
- qurish-yasash, qurilish materiallari o‘yinchoqlari;
- didaktik o‘yinchoqlar;
- sport va harakatli o‘yinlar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoqlar;
- yig‘ma-bo‘linma o‘yinchoqlar;
- teatr va dekorativ o‘yinchoqlar (soya va qo‘g‘irchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o‘yinlar uchun kiyimlar, archa o‘yinchoqlari);
- o‘yinchoq-ermaklar;
- ohang chiqaruvchi musiqaviy o‘yinchoqlar;
- qo‘lbola o‘yinchoqlar va o‘yin materiallari, turli-tuman o‘yin jihozlari.

**Sujeqli-obrazli o‘yinchoqlar** sujeqli-rolli o‘yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g‘amxo‘rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek, kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o‘ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

**Texnika o‘yinchoqlari** bolalarda texnikaga va texnika asboblari bo‘lgan qiziqishni uyg‘otib, ularni o‘z o‘yinlarida qo‘l-lay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko‘rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o‘yinchoqlar yaqin turadi.

**Qurish-yasash o‘yinchoqlari** sodda, boshqarish va foydalanish jihatidan qulay va osondir. Bu o‘yinchoqlar o‘ynashda buyumning asosiy vazifalariga taqlid qilish imkonini yaratishi lozim (avtomobilda g‘ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy tipi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, silindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to‘plami.

b) turli blok-devor, froniton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materiallari. O‘ynashga mo‘ljallangan mayda (stol o‘yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) qurilish materiallarining rangi har xil bo‘lishi mumkin [13; 73-b.].

Didaktik o‘yinchoqlarining asosini xalq o‘yinchoqlari tashkil qiladi. Ularni o‘ynashda bola o‘z-o‘zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaikalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o‘yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

arakatli o'yinlarga mo'ljallangan o'yinchoqlar: suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, ko'ptoklar, arg'amchilar, chambaraklar, kegli va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

O'yinchoq-ovutmachoqlar harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, sujetlari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

Qo'lbola o'yinchoqlarni kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

O'yinchoqlarni materialiga ko'ra hunarmandchilik, qo'lbola usulda, fabrikada tayyorlanadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning uch turini ajratib ko'rsatgan edi: tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi bilan tanishtiradi, tasavvurini o'stiradi. Ikkinchi turi boladan aktiv faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o'sishga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta'minlaydi [13; 74-b.].

### **O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. O'yin bog'cha yoshidagi bolalarning qanday faoliyati hisoblanadi?
2. Syujetli-rolli o'yin qanday o'yin hisoblanadi?
3. Didaktik o'yinlar qanday o'yin hisoblanadi?
4. Milliy xalq o'yinlari qanday o'yin hisoblanadi?
5. 1-2 yoshli bolalar bilan qanday o'yin o'ynaladi?
6. O'yinchoq deganda nimani tushunasiz?
7. O'yinchoqlarga qanday talablar qo'yiladi?
8. O'yinchoqlarni turlari va ko'rinishlari bo'yicha qanday turkumlarga ajratiladi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Mazmunli, ijroli, o'yinlar, harakatli o'yinlar, ta'limiy o'yinlar, syujetli – rolli o'yinlar, milliy o'yinlarni «Keys» metodi asosida loyihalashtiring.

2. Bitta o'yin loyihasini ishlab chiqing.



**13-BOB.**  
**INGLIZ TILI MASHG'ULOTLARIDA**  
**KOMMUNIKATIV O'YINLAR**

**Reja:**

- 13.1. «Head and shoulders» va «So'zni ayt» o'yinlari.
- 13.2. «I can see» va «Simon says» o'yinlari.
- 13.3. «My family» o'yini va «Compliment» o'yinlari.
- 13.4. «Ikki qo'g'irchoq» va «Hayvonot bog'ida» o'yinlari.
- 13.5. «To have» va «Stand up! Sit down!» o'yinlari.

**Tayanch so'z va iboralar:** o'yin, kommunikativ o'yin, o'yin loyihasi, o'yin turi, didaktik o'yin.

**O'yinlar** – bola hayotining ajralmas qismi hisoblanarkan, ulardan maqsadli foydalanish o'z samarasini bermay qolmaydi. D.B.Elkonin didaktik o'yinlarning o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan holda o'yinlarga «ijtimoiy munosabatlar arifmetikasi», deya ta'rif beradi va ularning pedagogik mohiyatini batafsil ochib berishga muvaffaq bo'ldi [23]. Chunki o'yinlar o'z mohiyatiga ko'ra bolaning ko'z o'ngida jamiyatdagi ijtimoiy vaziyatlar va kattalar hayotini yaqqol gavdalantirishga xizmat qiladi. O'yinlar muayyan faoliyat shakli bo'lib, bolalarning ruhiy holatlari va bilish ko'nikmalarining rivojlanish shakli sifatida ular hayotining muayyan bosqichida vujudga keladi. Bolalarni muloqotga chorlashning asosiy, o'ziga xos shakli sifatida alohida pedagogik qiymatga ega.

D.B.Elkonin harakatli o'yinning qoidalari mazmunining o'zaro bog'liqligidan kelib chiqib, ularni to'rt guruhga ajratadi:

1. Harakatga taqlid qilish – taqlidiy o'yinlar;
2. Muayyan syujetli dramalashtirilgan o'yinlar;
3. Syujetli oddiy o'yinlar;
4. Aniq maqsadli mashqlardan iborat sport o'yinlari [23].

Bolani o'yinga undovchi omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq to'g'risidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri hamda ularni o'zining shaxsiy faoliyatida sinab ko'rish istagidir. Jamoa bo'lib o'ynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Shu bilan birga, o'yin davomida ingliz tili iboralaridan foydalanish, uni muloqot davomida qo'llash, bolalarga zavq bag'ishlaydi.

### **«Head and shoulders» va «Soʻzni ayt» oʻyinlari**

Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish.

Oʻyin qoidasi: boshlovchi ushbu qoʻshiqni bolalar bilan birga aytadi va qoʻshiqni kuylash davomida qoʻshiqdagi har bir soʻzga muvofiq harakatlar bajariladi. Masalan, bosh, yelkalar, tizzalar va oyoqlarga qoʻl tekkiziladi.

Head and shoulders, knees and toes, knees and toes,  
Head and shoulders, knees and toes, knees and toes,  
And eyes and ears and mouth and nose,  
Head and shoulders, knees and toes, knees and toes.  
... and shoulders, knees and toes, knees and toes,  
and eyes and ears and mouth and nose,  
... and shoulders, knees and toes, knees and toes.  
... and ..., knees and toes, knees and toes,  
And eyes and ears and mouth and nose,  
... and ..., knees and toes, knees and toes.  
... and ..., ... and toes, ... and toes,  
And eyes and ears and mouth and nose,  
... and ..., ... and toes, ... and toes.  
... and ..., ... and ..., ... and ...,  
And eyes and ears and mouth and ...,  
... and ..., ... and ..., ... and ....[23]

### **«Soʻzni ayt» oʻyini**

Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish.

Oʻyin qoidasi: Boshlovchi chet tilida soʻz aytib ishtirokchilarga koʻptokni otadi va bolalar shu soʻzni takrorlaydilar [23].

### **«I can see» va «Simon says» oʻyinlari**

Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish koʻnikmalarini rivojlantirish.

Oʻyin qoidasi: stolga bir nechta oʻyinchoq hayvonchalar qoʻyiladi. Bolalar koʻzlarini yumadilar va shu payt oʻyinchoq hayvonchalardan biri berkitib qoʻyiladi. Bolalar qaysi hayvoncha berkinib olganini va qaysi hayvonchalar qolganini aytib berishlari kerak.

I can see ... I can't see ... [23]

### **«Simon says» o‘yini**

Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘yin qoidasi: bolalar o‘qituvchini yoniga turadilar (yoki o‘yin boshlovchisini yoniga turadilar). Bolalarning vazifasi o‘qituvchi berayotgan ko‘rsatmani (buyruq) bajarishdan iborat. O‘qituvchi Simon says...iborasini aytadi, keyin quyidagi ko‘rsatmani beradi: «Hands up! Sit down! Jump! Run!» va hokazo. Agar o‘qituvchi Simon says... iborasini aytmasa ko‘rsatma bajarilmaydi [23].

### **«My family» va «Compliment» o‘yinlari**

«My family» o‘yini. Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: barmoqqa kiydiriladigan qo‘g‘irchoqlar.

O‘yin qoidasi: Bolalarning har bir barmog‘iga qo‘g‘irchoqlar kiydiriladi («Tashqi ko‘rinish» mavzusi o‘tilganda bolalar o‘zlari barmoqqa kiyiladigan qo‘g‘irchoqlarni yasashlari mumkin). Bolalar barmoqlarini ko‘rsatgan holda chet tilida she’rni o‘qiydilar:

This is my mother.

This is my father.

This is my brother Paul.

This is my aunt.

This is my uncle.

How I love them all [23].

«Compliment» o‘yini. Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘yin qoidasi: Bolalar bir-birlarini qo‘llaridan ushlab doira hosil qiladilar. Yonlaridagi qo‘shnilariga qarab bir nechta yaxshi so‘zlarni aytadilar, biron narsa uchun minnatdorchilik bildiradilar: You are my friend., You are very good., Your eyes are kind va boshqalar. Maqtov (kompliment) aytilayotgan bola esa quyidagicha javob qaytaradi: Thank you!

Agar bola kompliment qilishga qiynalsa o‘qituvchi unga yordam beradi va o‘zi bolaning o‘rniga kompliment qiladi [23].

### **«Ikki qo‘g‘irchoq» va «Hayvonot bog‘ida» o‘yinlari**

«Ikki qo‘g‘irchoq» o‘yini. Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Kerakli jihozlar: 2 ta qo'g'irchoq va qo'g'irchoqlar uchun 2 ta kiyimlar to'plami (qog'ozdan yasasa ham bo'ladi) (Ilovaga qarang, 59 bet).

O'yin qoidasi: O'yinda ikkita guruh ishtirok etadi. Ularga qo'g'irchoqlarni kiyintirish vazifasi beriladi va kiyintirish jarayonida bolalar kiyimlarni nomini chet tilida aytishlari kerak bo'ladi. Masalan: She has a blouse on. She has a dress on. She has a skirt on va boshqalar. Eng ko'p jumalarni to'g'ri tuza olgan guruh g'alaba qozonadi [23].

«Hayvonot bog'ida» o'yini. Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yin qoidasi: Bolalar hayvonlar ro'lini o'ynaydilar. O'yinda ishtirok etayotgan hamma bolalar doira bo'lib stulda o'tiradilar. O'qituvchining (o'yin boshlovchisining) o'ng tomonidagi stul bo'sh qoldiriladi. O'qituvchi o'yin so'zlarini aytib o'quvchilardan birini ismini aytib chaqiradi. Ismi aytib chaqirilgan bola o'qituvchidan qaysi hayvon timsolida uning yoniga borishi kerakligini so'raydi va o'qituvchi aytgan hayvon timsolida o'qituvchining yoniga borib o'tiradi. O'yin shu tariqa davom etadi. O'yin musiqa sadosi ostida olib borilishi ham mumkin.

T: My right, right place is free,

And I want to see ...(Name) here.

P: Like who must I come?

T: Like a ...(Animal name) [23].

### **«To have» va «Stand up! Sit down!» o'yinlari**

«To have» o'yini. Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'yin qoidasi: «To have» fe'li «Button» o'yinida yaxshi o'zlashtiriladi. Hamma o'quvchilar qo'llarini qayiqcha qilib doira shaklida turishadi. O'yin boshlovchilaridan biri tugmachani hech kimga sezdirmay bolalarning birini qo'lga solib qo'yadi va ikkinchi o'yin boshlovchisi tugmacha kimning qo'lida ekanligini topishi kerak. Ikkinchi boshlovchi har bir bolaga quyidagicha murojaat qiladi: Button, button! Have you a button? va No! degan javobni eshitadi, keyin xuddi shu savol bilan boshqa bolalarga ham murojaat qiladi. Boshlovchi tugmacha kimning qo'lidagini topgunga qadar o'yin davom etadi. Boshlovchi faqat yuqorida keltirilgan so'zlardan foydalanishi mumkin. Bu o'yin bolalarni nutqini rivojlantirishga qaratilgan [23].

## «Stand up! Sit down!» o‘yini

O‘yinning birinchi ko‘rinishi. Maqsad: kommunikativ va tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**O‘yin qoidasi:** O‘qituvchi bolalarga Stand up! Sit down! – deb ko‘rsatma beradi va ko‘rsatmalariga mos harakatlarni bajaradi. Lekin o‘qituvchining harakatlari har bir ko‘rsatmalariga mos bo‘lishi shart emas. O‘quvchilar esa aksincha barcha harakatlarni o‘qituvchining ko‘rsatmalariga muvofiq bajarishlari shart. O‘quvchilardan qaysi biri o‘qituvchi bajargan noto‘g‘ri harakatni takrorlasa o‘yinda mag‘lub bo‘ladi. Eng e‘tiborli o‘quvchi o‘yinda g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yindan kichik jismoniy tarbiya sifatida foydalanish mumkin.

O‘yinning ikkinchi ko‘rinishi. O‘yin qoidasi: Ushbu o‘yinning yana bir ko‘rinishi mavjud. Bunda o‘quvchilar o‘qituvchining ko‘rsatmalarini emas, balki iltimoslarini bajaradi. Masalan, quyidagi iborani eshitganda o‘rnidan turish kerak bo‘ladi: Stand up, please!, lekin – «Stand up!» iborasini eshitganda harakatlanmaslik kerak, chunki bu yerda please! iltimos qilish formasi qo‘llanilmagan [23].

## O‘zini o‘zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar

1. Kommunikativ o‘yinlarning ingliz tilini o‘rganishdagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Kommunikativ o‘yinlar deganda nimani tushunasiz?
3. «Head and shoulders» o‘yinini izohlab bering.
4. «So‘zni ayt» o‘yinnini izohlab bering.
5. «I can see» o‘yini izohlab bering.
6. «Simon says» o‘yinnini izohlab bering.
7. «My family» o‘yinini izohlab bering.
8. «Compliment» o‘yinnini izohlab bering.
9. «Ikki qo‘g‘irchoq» o‘yinini izohlab bering.
10. «Hayvonot bog‘ida» o‘yinnini izohlab bering.
11. «To have» o‘yinini izohlab bering.
12. «Stand up! Sit down!» o‘yinnini izohlab bering.

## Mustaqil ish topshiriqlari

1. O‘yin loyihasini tayyorlang.

## **14-BOB.**

### **BOLA VA JAMIYAT**

#### **Reja:**

14.1. Bolalar tarbiyasida oilaning roli. Ota-onalar bilan hamkorlik.

14.2. MTTning oila bilan ishlash shakllari. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati.

14.3. Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari. Tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar. MTT bilan maktab o'rtasidagi aloqa shakllari.

14.4. Sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish.

**Tayanch so'z va iboralar:** oila, oilaviy tarbiya, ijtimoiy tarbiya, ota-onalar bilan hamkorlik, alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar, davlat-xususiy sherikchilik.

#### **Bolalar tarbiyasida oilaning roli. Ota-onalar bilan hamkorlik**

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», deb bejiz aytilmagan xalqimizda. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofda qiladigan o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan «ma'naviy kasal» insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar «ommaviy madaniyat» ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Albatta, bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan bahobar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, jinsiy tarbiya, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (s.a.v.): «Birontangiz o'z farzandlaringizni tartib-intizomga o'rgatsa, bu har kuni sadaqa bergandan yaxshiroqdir», deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o'rgatish oila mustahkamligiga asos bo'ladi. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda «Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring» deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. «Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?» degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Yana shu so'zga qo'shimcha qilib taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: «...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi». Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim. Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero, hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab yetishga o'z umri va salohiyatini bag'ishlagan allomalarimizning asarlarida

sogʻlom avlod tarbiyasi bilan bogʻliq masalalarga alohida oʻrin berilgan. Sharq allomalari oʻz asarlarida farzandlarga tarbiya va taʼlim berish, uni maʼrifatu madaniyatga yetaklash muammolariga eʼtibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, goʻzal axloqning inson kamolotiga sabab boʻluvchi yuksak fazilat ekanini taʼkidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning «Al-Adab al-mufrad» hadislar toʻplami, Abu Lays Samarqandiyning «Tanbehul gʻofiliyn» asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish tarannum etilgan. Yurtimiz ulamolari oʻz asarlarida farzandining chiroyli odobidan umid qilgan ota-ona, uni muntazam ravishda husni xulq asosi boʻlgan muomala odobining quyidagi qirralari bilan tanishtirib borishi muhim ekanini alohida taʼkidlaganlar:

farzandingiz odamlar bilan muomalada shirinsoʻz, muloyim, bosiq va kamtar boʻlishiga eʼtibor qarating;

odamlar xursandchiligini baham koʻrish, gʻam-anduhidan qaygʻurish, mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytarish husni xulq egalariga xos fazilatlardandir. Shuning uchun farzandingizga ana shu xislatlarni bolalikdan singdirish payida boʻling;

farzandingizga oʻzgalar bilan muomala chogʻida boshqalarni gʻiybat qilish, oʻzgalarni mensimaslik, obroʻsi, boyligi yoki mansabiga qarab munosabat koʻrsatish ham odobsizlik ekanini uqtirib boring;

yoshi ulugʻ kishilar, ustozlar bilan muomalada ularning koʻziga tik boqmay, gaplarini jim tinglash, savollarigagina javob qaytarish, buyruqlarini sidqidildan bajarish ham bolalar qalbiga jo qilishga eʼtibor bering.

Ota-bobolarmiz azaldan oʻgʻil qizlarning goʻzal xulqli, odobli boʻlishiga katta ahamiyat berganlar. Binobarin, islom dinida ham axloq imon qatoriga qoʻyiladi.

Farzand tarbiya qilganda odatda oʻgʻil bolalar tarbiyasi bilan koʻproq ota, qiz bola tarbiyasi bilan esa ona shugʻullanadi. Albatta bunda farzandning saviyasini inobatga olish muhim. Bolani biror-bir yutuqqa erishishida, natijani koʻrishga shoshmaslik kerak. Masalan, ikki yoshgacha faqat shirin soʻz bilan, erkalash orqali tarbiya qilinadi. Besh yoshgacha bola atrofni oʻrganadi, asosiy maʼlumotni shu yosh oraligʻida egallaydi. Bu davrda biz koʻproq amaliy jihatdan namuna boʻlishga urinishimiz, sogʻlom oilaviy muhitni



yaratishimiz zarur bo'ladi. Oilada otaning bolalariga loqayd bo'lishi oxiri xunuk oqibatlariga sabab bo'ladi. Loqaydlik yomon illat bo'lib, u bola tarbiyasining buzilishiga katta yo'l ochadi. Ota sustkashlik qilib, burchini ado etmagani va manfaatli ilm hamda yaxshi amalni o'rgatmagani oqibatida o'z farzandidan zarur ijobiy hislatlarni shakllantira ololmagan. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo'lib o'sadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o'smirlik payti bo'lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o'rganadi. Bu davrda farzand to'g'ri yo'lga solinsa, tarbiyali do'stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo'lib, yaxshi inson bo'lishi uchun muhim qadam qo'yiladi. Odatda onalar o'z bolalarining xato va kamchiliklarini otasidan yashirishga harakat qiladilar. Aysam urishadi, bolamga qattiq tegadi deb, yo'l qo'ygan xatolari, qo'l urgan yomon ishlarini otaga aytmaydilar. Oqibatda bola o'z vaqtida tanbeh olmaganidan keyin bora-bora kattaroq jinoyatlarni ham qo'rqmasdan qilaverishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi qonunining 38-moddasida bolaning qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlari belgilab berilgan. Bolaning qonuniy vakillari quyidagi huquqlarga ega:

bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

o'z bolasi uchun maktabgacha ta'lim shaklini va ta'lim olish tilini tanlash;

maktabgacha ta'lim tashkilotlari ma'muriyatidan maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur shart-sharoitlar ta'minlanishini talab qilish;

maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolani rivojlantirish, unga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish masalalari yuzasidan davlat organlariga murojaat qilish;

bolaga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishida ishtirok etish;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining kuzatuv kengashi tarkibini saylash va unga saylanish.

Bolaning qonuniy vakillari qonun hujjatlariga va shartnomaga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Bolaning qonuniy vakillari:

bolaning jismoniy sog‘lig‘i, ruhiy holati haqida qayg‘urishi, uning tabiiy qobiliyatlari, ishtiyoqlari va iste‘odlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

bolaning maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha ta‘lim va tarbiya olishiga ko‘maklashishi yoki uning oilada ta‘lim va tarbiya olishini ta‘minlashi;

maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridagi ta‘lim-tarbiya jarayoni boshqa ishtirokchilarining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi;

bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashi;

oilada bolaning har tomonlama rivojlanishi, ta‘lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlashi shart.

Bolaning qonuniy vakillarining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Bolalarning umumiy o‘rta ta‘lim muassasasiga kirguniga qadar umumiy o‘rta ta‘limga bir yillik majburiy tayyorgarlik ko‘rishi uchun javobgarlik ularning qonuniy vakillari zimmasiga yuklatiladi [3].

Ota-onalar bilan hamkorlik. Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta‘minlash uchun maktabgacha ta‘lim muassasasi ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikning quyidagi shakllarini tashkil qilishi mumkin:

ota-onalarning maktabgacha ta‘lim muassasasi borasidagi fikrlarini hisobga olish;

ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;

ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;

ota-onalarning muassasa hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash [12].

### **MTTning oila bilan ishlash shakllari. Alohida ehtiyojga ega bo‘lgan bolalar uchun mo‘ljallangan ta‘lim faoliyati**

O‘zbekiston Respublikasi «Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida»gi qonunining 45-moddasida maktabgacha bo‘lgan

yoshdagi bolalarga qarab turish va ularni ta'minlash berilgan. Davlat maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning, ayniqsa, yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning, sog'lig'ining holatini tuzatishga, uzoq vaqt davolanishga hamda reabilitatsiya qilishga muhtoj bo'lgan bolalarning, shuningdek, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalardagi bolalarning ijtimoiy himoya qilinishi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydi.

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida turli nuqsonlar bo'lgan bolalarga qarab turish qisman yoki to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi. Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'liq davlat ta'minotida bo'ladi. Yetim bolalarga va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga qarindoshlik munosabatlarini saqlash, shuningdek ularning shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarini himoya qilish huquqi kafolatlanadi.

Ko'rish, eshitish qobiliyatini, tayanch-harakat apparatini tuzatishga muhtoj bo'lgan bolalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan harakatlanish, protezlash, axborotni idrok etish va qabul qilish vositalari, shuningdek, boshqa individual tuzatish vositalari bilan ta'minlanadi [3].

Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati. Maktabgacha ta'lim muassasasida alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoaviy ish hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari javobgar bo'ladi. Zarurat tug'ilganda, pedagoglar tarkibi va maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati, tor ixtisoslikdagi mutaxassislarni jalb etgan holda, bola uning rivojlanishi) uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonning yakka tartibdagi rejasini tuzadi [12].

### **Bolalarni maktabga tayyorlash vazifalari. Tayyorlov guruhida olib boriladigan ishlar. MTT bilan maktab o'rtasidagi aloqa shakllari**

Maktabdagi majburiy ta'lim bolaga ma'lum talablarni qo'yadi. Ma'lumki, bola ta'lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin.

Olimlar qanday qilib maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashadi? Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta'lim va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmunini muvaffaqiyatli o'zlashtirib olishi shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko'rsatilgan. Psixologlar maktabga umumiy tayyorgarlikning quyidagi tomonlarini ajratadilar: jismoniy, aqliy, ijtimoiy-axloqiy (yoki ijtimoiy his-tuyg'uli) va sababli (motivli). Boshlang'ich maktab bolani o'qitishga tayyorgarlik darajasiga o'z talablarini qo'yadi. Talablardan biri – bog'cha bolalariga xos bo'lgan kun tartibiga rioya qilish. Bolaning bog'chaga borish vaqti oilaviy sharoitga qarab belgilanadi. Ammo maktabga boorish majburiy – bola darslarga har kuni kelishi shart.

Bog'cha bolasi kun bo'yi tuzilishi va mazmuni qiziq bo'lgan turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanadi. Bola asosan, o'z xohishi bo'yicha o'ynaydi yoki ish bilan shug'ullanadi. Maktabda esa kunning birinchi qismini tartibli (sistemali) o'qitish egallaydi, bundan tashqari kunning ikkinchi qismida ham ma'lum vaqtni darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o'z xohishi va qiziqishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maktabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi, maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi, tanaffusda esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak boladi [13; 127-b.]. Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish uchun bola eng awal sog'lom, jismoniy chiniqqan va chidamli bo'lishi kerak. Sistemali ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim, deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uch fan (o'qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma'lum tasavur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o'quv materialni to'liq o'zlashtirishi va ta'limning bola qobiliyatlariga mos kelishi uning aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya'ni narsalarni (predmetlarni) idrok

etganda muhim va muhim bo‘lmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o‘rganishi kerak. Bola zehni, ziyrak, topqir, mustaqil bo‘lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo bo‘ladi. Ta‘limning muvaffaqiyatli bolishi ko‘p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug‘at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to‘g‘ri gapira olishiga bog‘liq bo‘ladi. Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o‘rnida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi.

Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o‘tadi. Oldingi jamoada bola o‘zining huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bola o‘zini boshidan ko‘rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi. Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o‘qish bo‘lib qoladi.

Maktabda uzoq muddat ota-ona g‘amxo‘rligisiz bo‘lgani sababli, bola o‘z yoshiga mos his-tuyg‘u va iroda mustahkamligiga ega bo‘lishi, o‘z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o‘quvchi o‘qishga ijobiy yondashsa, o‘qishni xohlab, intilsa, ta‘limdagi boshlang‘ich qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bo‘lish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega [13; 128 b.]. Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarning shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do‘stona munosabat o‘rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi.

Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg‘uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o‘zlashtirmaslikning sabablaridan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfdagi o‘quv fanlarining (o‘qish, yozuv, matematika) mazmunini o‘zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak. Masalan, matematikani o‘qitishda o‘qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o‘rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to‘g‘ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim,

malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi. Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda kata ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

7 yosh bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A.Kamenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta'lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarda tutilgan) u yetarli va optimal muhlat, deb hisoblagan. Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, u o'zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi. Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to'g'ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak [13; 129-b.]. 6-7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o'zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko'nikmalari o'z tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi.

Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtida bajarishi lozim.

Bolada estetik idrokni shakllantirish, o'zining yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish, yon-atrofnii estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so'z, rasmlarning chiroyini sezishni o'rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash. Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Bog'cha tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va ajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular MTMda ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi.

Ammo ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yinqaroqligi, mustaqil bo'la olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'rnini topa olmaydilar.

Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj: berilgan vazifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan [13; 130-b.]. Lug'at boyligi, o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlashtirishni bajara olmaydi va hokazo. Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yengil tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi. Maktabga tayyor bo'lmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsining rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. O'qishdagi o'zlashtira olmasliklar bolada o'qishga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi. Uning jismoniy va ruhiy sog'lig'i ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo bo'lishi mumkin: uyquning buzilishi, siydik ushlay olmaslik, bosh og'riqlari va boshqalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo'la boshlaydi: bola qanday bo'lmasin o'ziga diqqat-e'tiborni qaratmoqchi bo'ladi, yomon harakatlar qila boshlaydi. Agar bolaning maktabga tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarning oldini olish mumkin bo'ladi. Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassislar aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishini aniqlaydi, agar ma'lum bir jismoniy, ruhiy kamchiligi bo'lsa, uni ruhiy-

pedagogik tekshiruvga yuboradi. Ma'lum bir nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi.

1 sentyabrga qadar 7 yoshga to'lmagan, bolalar bog'chasiga bormagan, pedagogik qoloq, nutq kamchiliklari, jismoniy rivojlanish kamchiliklari bo'lgan bolalarni maxsus konsultatsiyalar, boshlang'ich sinf o'qituvchilari tekshirib beradilar.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolaning maktabga tayyorgarligini har tomonlama aniqlashadi. Ular ta'lim-tarbiyadagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda profilaktik va korreksion usullarni tavsiya etadilar, tarbiya sohasiga oid maslahatlar beradilar. Bular bilan birga tuman mahalla qo'mitalari faol ishtirok etadilar. Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etadigan ota-onalar bilan mahalla qo'mitalari va boshqa ijtimoiy tashkilotlar ishlashadi.

Tuman ruhiy-pedagogik konsultatsiyalarida bolalarning maktabga tayyorligini aniqlashda psixologik testlardan foydalaniladi. Testlarni mazmun jihatdan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. O'qish jarayonida ishtirok etadigan alohida psixologik tomonlarning shakllanish darajasini aniqlaydigan testlar [13; 131-b.].

2. Maktabga umumiy tayyorgarlikni tekshiradigan testlar.

Konsultantlar bolani ota-onalar oldida tekshiruvdan o'tkazadilar.

So'ngra tekshiruvlar natijalari asosida quyidagi choralarni maslahat beradilar:

a) umumta'lim maktabining 1-sinfiga yozish;

b) o'qishni 1 yilga qoldirish;

c) bolani bog'cha yoki maktab qoshidagi maxsus sinfga yozdirish;

d) bolani maxsus maktabga yozdirish.

Konsultatsiyalarning xulosasi asosida mahalla qo'mitalarining maktab bo'limlari bola qayerda o'qishini hal qilishadi. Agar bola 7 yoshga to'lib, ammo uning sog'lig'i yaxshi bo'lmasa, unda tekshiruvlar natijasiga ko'ra o'qish 1 yilga qoldiriladi. 1 yildan so'ng, bola qaytadan maxsus tekshiruvdan o'tadi va qayerda o'qishi hal qilinadi. Agar bola tarbiyasida ishtirok etadigan shaxslar unga alohida e'tibor ajratishsa, uning har tomonlama rivojlanishiga yaxshi sharoit yaratib berishsa, yordam berishsa, o'qishdan qolgan muhlat ijobiy natija beradi.

O'qishdan qolgan bolalar bilan ishlashda tarbiyachilar uchun hozircha maxsus dasturlar ishlab chiqilmagan. Pedagoglar bunday bolalar bilan mavjud bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim



va tarbiya dasturi bo'yicha ishlashmoqda, faqat ularga ko'proq e'tibor ajratadilar. Maktabda o'qishni o'zlashtira olmaydigan bolalar uchun maxsus sinflar ochiladi. Bunday sinfda o'qishni vaqtincha o'zlashtira olmaydigan, normal intellektga ega bo'lgan bolalar o'qiydilar.

O'qishdagi qoloqlikni individual mashg'ulotlar, alohida parvarish va maxsus kurs tartibi yordamida bartaraf etish mumkin. Maxsus sinf 12-15 o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, maktab direktorining ruxsati bilan ochiladi. Maxsus sinfga o'tkazish sinf rahbari tavsiyasi, maktab shifokori va ruhiy-pedagogik konsultatsiya xulosasi asosida amalga oshiriladi. O'quvchi maxsus sinfda vaqtincha, uning o'qishdagi qoloqligi bartaraf etilguncha qoladi. Sinfda 2 yilgacha o'qish mumkin.

Aqliy va jismoniy, nutq kamchiliklariga ega bo'lgan, qiyin tarbiyalanadigan, kasal va quvatsiz bolalar maxsus maktablarga yuboriladi. Bularga aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablar va yordamchi maktablar kiradi [13; 132-b.].

Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi. Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak, deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak, deb aytishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi. Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? Bog'cha tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo. Lekin, oila – bola tug'ilishidan keyin yashaydigan birinchi ijtimoiy muhit. Oilada bola o'zining birinchi ijtimoiy tajriba va malakalarini orttiradi, ota-ona va kattalar namunalari orqali tarbiyalanadi, oilaviy

rishtalarni tushunib yetadi va qadrlaydi. Shuning uchun bolani maktabga tayyorlashda oila hal qiluvchi, muhim ahamiyatga ega. Ota-onalarning ko'pchiligi bolani maktabga tayyorlashda bog'cha bilan oilaning hamkorligi zarur, deb hisoblashadi. Ba'zi ota-onalar esa bolani maktabga tayyorlashda javobgarlikni bog'chaga yuklashadi, ba'zilari esa butun javobgarlikni o'z bo'yniga olishadi.

Y.A.Kamenskiy o'zining «Onalar maktabi» kitobining maktabga tayyorlash bobida yozishicha, barcha insonlar bajaradigan ishlar, ma'lum bir tayyorgarlikni talab qiladi. Ota-onalar shuni o'ylab, o'z bolalarini maktabga tayyorlashadi. Maktabga har tomonlama tayyorgarlikdan tashqari, Y.A.Kamenskiy ota-onalar uchun quyidagi vazifalarni ko'rsatadi [13; 133-b.]:

1. Bolalarda maktabga borganda, o'z tengdoshlari bilan o'qigan va o'ynaganda xursandchilik hissini tug'dirish.

2. Bolalarga maktabdagi ta'limning mohiyatini tushuntirish, ularni maktabdagi faoliyat turlari bilan tanishtirish.

3. Bolalarda bo'lajak o'qituvchilarga nisbatan hurmat va ishonchni shakllantirish.

Hozirda ota-onalar bolalarni maktabga qanday tayyorlashmoqda? Ota-onalarning ko'pchiligi maktabda yaxshi o'qishning shartlaridan biri – shaxsning umumiy rivojlanishi, deb hisoblashadi. Ammo bolaning aqliy rivojlanishi eng asosiysi deb bilishadi, shuning uchun mashg'ulotlarda bilim, nutq, tafakkur va xotirani rivojlantirishga harakat qiladilar. Keyingi o'ringa bolaning o'qish va o'zish malakalarini rivojlantirishni qo'yishadi, yodlatishadi, suhbatlashishadi, birgalikda mantiqiy o'yinlar o'ynashadi.

Gohida mehnat, sport, ashula yoki raqs bilan shug'ullantirishadi. Xulosa qilib aytganda, bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari bilan ota-onalarning hamkorlikda ish yuritishi ijobiy natija beradi [13; 134-b.].

### **Sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish**

Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish bo'yicha vazifalarni hal etish birinchi navbatda maktabgacha ta'lim muassasalari quvvatlarini oshirishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning hozirgi hajmi, tug'ilishning o'sishi dinamikasi saqlanib qolayotgan bir

paytda, maktabgacha yoshdagi bolalarning qamrovini mavjud darajada saqlab turishni ta'minlab beradi, ammo uning o'sishiga yordam bermaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'larining cheklanganligini e'tiborga olib, nodavlat sektor maktabgacha ta'lim muassasalari soni o'sishining harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lishi, davlat-xususiy sherikchiligi esa xususiy tadbirkorlik subyektlarini maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etishning asosiy mexanizmiga aylanishi lozim.

Maktabgacha ta'limning hammabopligini, shu jumladan respublikaning olis tumanlarida hamda maktabgacha ta'limning standart shakllarini kengaytirish qiyin bo'lgan joylarda ta'minlash yangi muqobil shakllarni joriy etish hisobiga ham amalga oshirilishi lozim. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

1) O'zbekiston Respublikasining rivojlantirish davlat dasturlari doirasida va boshqa manbalardan ajratiladigan mablag'lar hisobidan yangi davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

2) maktabgacha ta'lim sohasida qulay investitsiya muhitini yaratish, xususiy sektorni maktabgacha ta'lim muassasalarining quvvatlarini oshirishga yanada rag'batlantirish va manfaatdorligini oshirish;

3) maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchiligini, jumladan uning quyidagi shakllarini yanada rivojlantirish:

mavjud davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini rekonstruksiya qilish va jihozlash sharti bilan xususiy sherikka nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish uchun yer uchastkalarini yoki mavjud davlat ta'lim muassasalari binolarini bepul asosida berish;

ko'p kvartirali turar joy binolari quruvchilari uchun davlat buyurtmasini joylashtirish;

davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini xususiy sherikka ishonchli boshqaruvga berish;

konsessiya asosida qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun yer uchastkasi yoki bino ajratish;

homiyluk va boshqalar;

4) fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarini nodavlat maktabgacha

ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil qilishda uslubiy qo'llab-quvvatlash;

5) bo'sh turgan davlat mulki obyektlari va sobiq maktabgacha ta'lim muassasalarining ishlamayotgan binolari negizida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish maqsadida ularni xatlovdan o'tkazish;

6) hamma joyda bolalarni umumiy boshlang'ich ta'limga bepul majburiy bir yillik tayyorlashning yagona tizimini joriy etish;

7) maktabgacha ta'limning moslashuvchan ish jadvali hamda rivojlantiruvchi, tuzatuvchi xizmatlar va tadbirlarning keng ko'lamini o'z ichiga olgan quyidagi muqobil shakllarini joriy etish va rivojlantirish:

har xil yoshdagi bolalar uchun qisqa muddatli maktabgacha ta'lim guruhleri – «Play-guruhlar»;

maktabgacha yoshdagi bolalarga uyiga borib maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish dasturi – «Nome visits»;

maktabgacha ta'lim muassasalari korporativ guruhleri va boshqalar;

8) yengil qurilish konstruksiyalari va zamonaviy energiya samarador materiallar va texnologiyalardan foydalangan holda, shinamlik va ekologik xavfsizlik talablariga muvofiq quriladigan maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi binolar loyihalarini ishlab chiqish (shu jumladan rivojlanishida jismoniy va ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalar uchun to'siqsiz muhit elementlarini hisobga olgan holda);

9) maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va samarali tashkil qilish zaruratini hisobga olgan holda, qurilayotgan turarjoy komplekslari va boshqa obyektlarni kerakli ijtimoiy infratuzilma bilan ta'minlash;

10) respublikaning barcha maktabgacha ta'lim muassasalarini ichimlik suvi, isitish tarmog'i, elektr energiyasi va tabiiy gaz bilan, shu jumladan zamonaviy energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish yo'li bilan bosqichma-bosqich ta'minlash;

11) ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning variativligi hisobiga rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy buzilishlari bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish ko'lamini oshirish;

12) maktabgacha ta'limning bola shaxsini shakllantirishdagi roli va muhimligi haqida tushuntirish tadbirlarini olib borish;

ushbu faoliyatga nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik va ota-onalarni faol jalb qilish.

### **O'zini o'zi nazorat qilish va muhokama qilish uchun savollar**

1. Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladimi?
2. Bolaning qonuniy vakillari qanday huquqlarga ega?
3. Bolaning qonuniy vakillarining qanday majburiyatlari mavjud?
4. Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikning qanday shakllarini tashkil qilishi mumkin?
5. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyati nimadan iborat bo'ladi?
6. Bolaning maktabga tayyorgarligi qanday aniqlanadi?
7. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishini nazarda tutadi?

### **Mustaqil ish topshiriqlari**

1. Alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim faoliyatiga misollar keltiring.
2. Bolaning qonuniy vakilining huquq va majburiyatlarini izohlab bering.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисида Қонуни // 2020 йил 23 сентябрь ЎРҚ-637-сон.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури тўғрисида // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б. 31-61.
3. Ўзбекистон Республикасининг Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида Қонуни // Қонунчилик палатаси томонидан 2019 йил 22 октябрда қабул қилинган, Сенат томонидан 2019 йил 14 декабрда маъқулланган.
4. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-4947-сон Фармони. 2017 йил 7 февраль.
5. 2017-2021 йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2707-сон қарори. 2016 йил 29 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-4312-сон қарори. 2019 йил 8 май.
7. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 929-сон Низоми. 2017 йил 21 ноябрь.
8. Мактабгача таълим муассасалари раҳбар ва мутахассисларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти уставини тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори.
9. Ҳуқуқий типдаги давлат ва нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 391-сон қарори 1-иловага мувофиқ тасдиқланган Низом. 2019 йил 13 май.
10. Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талабларини тасдиқлаш ҳақида. Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим вазирининг 1-мх-сон буйруғи. 2018 йил 18 июнь.
11. Болажон таянч дастури. – Тошкент, 2016. – 50 б.
12. Илк қадам. Мактабгача таълим муассасасининг Давлат ўқув дастури. – Тошкент, 2018. – 60 б.
13. Jaipul L. Roopnarine, James E. Johnson. Approaches to Early Childhood Education. – Pearson, 2013. – 452 p.
14. Hasanboyeva O.U., Tojiyeva M.X., Qayumova N.M., Toshpo‘latova Sh.K., Pirmuhamedova M.M., Akbarova R.T., Nurmaroya M.Sh., Jamilova N.N., Sariboyev X., Kulay L.A. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. –

Toshkent: Ilm ziyo, 2012. – 186 b.

15. Maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi. Электрон ресурс: [https://uz.wikipedia.org/wiki/Maktabgacha\\_yoshdagi\\_bolalar\\_pedagogikasi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Maktabgacha_yoshdagi_bolalar_pedagogikasi). Мурожаат санаси: 30.03.2020.

16. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. Darslik. – Toshkent: «Tafakkur Bo‘stoni», 2013. – 288 b.

17. Абдуллаева Н.Ш. Мактабгача таълимни вариатив ёндашув асо­сида такомиллаштириш.: Дис. ... пед.фан.бўйича фалсафа док. – Тош­кент, 2019. – 152 б.

18. Абидов Б.К. Мактабгача таълим (хорижий мамлакатлар тажри­баси) // Замо­навий таълим. – № 11. – Тошкент, 2017. – Б. 34-46.

19. Болани шакллантирувчи уч омил. Электрон ресурс: Мурожаат санаси: 06.04.20.

20. История воспитания, образования и педагогической мысли до XX века. Электронный ресурс:[https://studme.org/118131/педагогика/история\\_воспитания\\_образования\\_педагогической\\_мысли\\_века](https://studme.org/118131/педагогика/история_воспитания_образования_педагогической_мысли_века). Дата обращения: 30.03.2020.

21. Кодирова Ф.Р., Тошпулатова Ш.К., Аъзамова М.Н. Мактабгача педагогика. – Тошкент: Маънавият, 2013. – 160 б.

22. Мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчиларини ривожлантириш нормалари белгиланди. Электрон ресурс: [https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda\\_yangi/maktabgacha\\_talim\\_muassasalari\\_tarbiyalanuvchilarini\\_rivojlantirish\\_normalari\\_belgilandi#](https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/maktabgacha_talim_muassasalari_tarbiyalanuvchilarini_rivojlantirish_normalari_belgilandi#). Мурожаат санаси: 29.03.20.

23. Мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчилари ва бошлангич мактаб ўқувчиларига чет тилини ўргатишда ўйинлар. Ком­муникатив ўйинлар тўплами. – Тошкент, 2016. – 72 б.

24. Маннопов Ж., Холматова А. Касб таълими ўқитувчисининг мустақил педагогик фаолият юрита олиш компетентлигини шакллантириш // Узлуксиз таълим тизимида ўқитувчиларни касбий-педагогик компетентлигини ривожлантириш муаммолари ва истикболлари: Респ. илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2013. – 444 б. – Б. 209-210.

25. Педагогикадан атамалар лугати. – Тошкент: Фан, 2008. – 196 б. – Б. 62.

26. Таълимда илғор хорижий тажрибалар. Ўқув-услубий мажмуа. – Тошкент, 2017. – 187 б.

27. Шодмонова Ш. Мактабгача таълим педагогикаси. Ўқув-мето­дик қўлланма. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 160 б.

28. Қосимова Д.С., Собиров А.А. Бошқариш назарияси асосла­ри. Дарслик. – Тошкент: ТДИУ, 2011. – 340 б.

29. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Ко­нигил. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – 704 б. – Б. 682.

## GLOSSARY

<b>O'zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>	<b>Inglizcha</b>
alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalar	дети с особыми потребностями	children with special needs
aqliy tarbiya	умственное воспитание	intellectual upbringing
outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirish	здоровое питание на основе аутсорсинга	healthy nutrition on the basis of outsourcing
axloqiy tarbiya	нравственное воспитание	moral upbringing
bilish jarayonining rivojlanishi	процесс развития познания	the process of development of knowledge
bilish kompetensiyasi	компетенция познания	knowledge competence
biogenetik omil	биогенетический фактор	biogenetic factor
biologik yo'nalish	биологическое направление	biological direction
bixeviorizm yo'nalishi	направление бихевиоризма	behaviorism
bola rivojining sohalari	сферы развития ребенка	spheres of child development
bolalar bog'chalari	детский сад	kindergartens
bolalar yaslisi	ясли	nursery
bolalarga qarash markazlar (hoikuen)	центр по уходу за детьми	child care centers
bolaning ruhiy taraqqiyoti	ментальное развитие детей	mental development of the child
davlat dasturi	государственная программа	state program
davlat maktabgacha ta'lim muassasalari	государственное дошкольное образовательное учреждение	state preschool educational institutions
davlat-xususiy sherikchilik	государственно-частное партнерство	public-private partnership
harakatli o'yinlar	подвижные игры	outdoor games
ijodiy rivojlanish	творческое развитие	creative development
ijroli o'yin	ролевые игры	role playing
ijtimoiy kompetensiya	социальная компетенция	social competence




<b><i>O'zbekcha</i></b>	<b><i>Ruscha</i></b>	<b><i>Inglizcha</i></b>
ijtimoiy muhit	социальная среда	social environment
ijtimoiy tarbiya	социальное воспитание	social education
ijtimoiy-hissiy rivojlanish	социально-эмоциональное развитие	socio-emotional development
ilk yosh guruh (2-3 y.)	ясельные группы (2-3 года)	nursery groups (2-3 y.)
integratsion bolalar bog'chalari	интегрированные детские сады	integrated kindergartens
internatsional bolalar bog'chalari	интернасиональные группы	international kindergartens
irsiyat	наследственность	heredity
jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi	физическое развитие и здоровый образ жизни	physical development and a healthy lifestyle
jismoniy tarbiya	физическое воспитание	physical training
katta guruh (5-6 yosh)	старшая группа (5-6 лет)	senior group (5-6 years)
kichik guruh (3-4 yosh)	младшая группа (3-4 года)	junior group (3-4 years)
kommunikativ kompetensiya	коммуникативная компетенция	communicative competence
kompetensiya	компетенция	competence
maktabga tayyorlov guruh (6-7 yosh)	дошкольная группа (6-7 лет)	pre-school group (6-7 years)
maktabgacha ta'lim	дошкольное образование	preschool education
maktabgacha ta'lim tashkiloti	дошкольное учреждение	preschool institution
maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlari	группы дошкольного учреждения	preschool education groups
maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo'lgan «mehrbonlik» uylari	детские дома с дошкольными группами	orphanages with preschool groups
mazmunli o'yin	осмысленная игра	thematic game
mehnat tarbiyasi	трудовое воспитание	labor education
milliy o'yin	национальная игра	national game
mtm ta'lim dasturi	программа дошкольного образования	preschool curriculum
muhit	среда	environment

<b>O'zbekcha</b>	<b>Ruscha</b>	<b>Inglizcha</b>
namunaviy o'quv rejasi	типовая рабочая программа	standard curriculum
nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari	негосударственное дошкольное учреждение	non-governmental preschool institution
nogironlar uchun maxsus muassasalar	специальные учреждения для инвалидов	special institutions for invalids
nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari	навыки речи, общения, чтения и письма	speech, communication, reading and writing skills
oila	семья	family
oila muhiti	семейная среда	family environment
oilaviy tarbiya	семейное воспитание	family upbringing
ota-onalar bilan hamkorlik	сотрудничество с родителями	cooperation with parents
preformizm yo'nalishi	направление преформизма	direction of preformism
qo'shimcha ta'lim xizmatlari	услуги дополнительного образования	additional education services
rahbarlik qilish	руководить	to manage
rejalashtirish	планирование	planning
rivojlanish xaritasi	схема развития	development chart
rivojlantiruvchi muhit	среда развития	environment of development
soatlar miqdori	количество часов	number of hours
sog'lom ovqatlanish	здоровое питание	healthy nutrition
syujetli-rolli o'yinlar	ролевые игры	role-playing games
ta'limiy o'yinlar	развивающие игры	educational games
tabiiy (geografik) muhit	природная (географическая) среда	natural (geographical) environment
tarbiya	воспитание	education
umumiy kompetensiyalar	общие компетенции	general competencies
yosh avlod	молодое поколение	younger generation
yosh davrlari	возрастные периоды	age periods
o'quv-tarbiyaviy faoliyat	образовательная деятельность	educational activity
o'rta guruh (4-5 yosh)	средняя группа (4-5 лет)	middle group (4-5 y.)
o'yin	игра	game
o'yin kompetensiyasi	игровая компетенция	game competence

Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлигининг 2019 йил 1 июльдаги 108-сон буйруғига  
ИЛОВА

Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги марказий апаратининг  
ТУЗИЛМАСИ



Бошқарув ходимларининг чекланган умумий сони-138 бирлик.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son qaroriga 1-ILOVA  
Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida  
NIZOM

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinda maktabgacha ta'lim tashkilotlari deb ataladi) maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

maktabgacha ta'lim tashkiloti – umumiy tipdagi davlat yoki nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

bolaning qonuniy vakillari – bolaning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar.

3. Ushbu Nizom ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tatbiq etilmaydi.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga va o'z ustaviga muvofiq amalga oshiradi.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin.

6. Maktabgacha ta'lim tashkiloti vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiya asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

7. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va shtampga, mustaqil balansga, byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega.

8. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o'z nomi yozilgan muhr va shtampga ega bo'lishi mumkin.

**2-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari**

9. Quyidagilar maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari hisoblanadi:

bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash;

bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash;

umumta'lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash.

10. Quyidagilar maktabgacha ta'lim tashkiloti vazifalari hisoblanadi:

bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;

bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;

ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

### **3-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi**

11. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi.

12. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

13. Yuridik shaxslar – xususiy mulk huquqi subyektlari va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

14. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolari va inshootlarini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishmasdan xususiylashtirish, o'zgaga berish va qayta ixtisoslashtirish mumkin emas.

15. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

### **4-bob. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash**

16. Maktabgacha ta'lim sohasidagi nodavlat ta'lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziyalar yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tganidan keyin beriladi.

17. Maktabgacha ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlarini amalga oshirish huquqi uchun litsenziya berish, litsenziyaning amal qilish muddatini uzaytirish, litsenziyaning amal qilishini to'xtatib turish yoki to'xtatish, shuningdek, uni bekor qilish va qayta rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan tartibda amalga oshiriladi.

### **5-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

18. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi asosida o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;

maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturida ko'rsatilgandan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ishlanmaydigan kunlarda yoki belgilangan ish soatlaridan tashqari bolaning qonuniy vakillari bilan kelishuv asosida bolalarni parvarishlash va ularga qarab turish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

19. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishi;

maktabgacha ta'limning tegishli sifatini ta'minlashi;

bolani tarbiyalash va o'qitish masalalari bo'yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berishi;

bolalarni kamol toptirish, tarbiyalash va o'qitish uchun xavfsiz shart-sharoitlarni yaratishi;

maktabgacha ta'lim sifati ta'minlanishini nazorat qilishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi shart.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

20. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagilar uchun javob beradi:

bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi;

bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtda ularning hayotini himoya qilishni va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiq kelmasligi;

bolalarni umumta'lim muassasalaridagi boshlang'ich ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda tayyorlash sifati;

ta'lim dasturlari tegishli sifatda va belgilangan hajmda amalga oshirilishini ta'minlash;

ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

21. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati ustidan monitoring olib borish va nazorat qilish vakolatli davlat organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

22. O'quv jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki ta'lim olayotgan bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonun hujjatlariga zid harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

23. Pedagog xodimlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish uchun javob beradilar.

#### **6-bob. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish**

24. Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

25. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'limning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturida belgilab beriladi.

26. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejaları va jadvali bilan tartibga solinadi.

27. Maktabgacha ta'lim tashkiloti «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga, Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

28. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi.

29. Har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida belgilab beriladi. Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lish vaqtiga qarab u yerdagi guruhlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

bolalar qisqa muddat (kuniga 3-4 soat) bo'ladigan guruh;

qisqa kunli guruh (bir kunda 9 soatgacha);

to'liq kunli guruh (kuniga 10,5 va 12 soat);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruh.

30. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ishlash tartibi va bolalarning unda bo'lish vaqti uning ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi.

31. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga o'tkazilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi. Shartnomada bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradigan rejim, necha marta ovqatlanish va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

32. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davrni, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

33. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash «Davlat tili to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat tilida va boshqa tillarda olib boriladi.

#### **7-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish**

34. Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotlariga doimiy yoki vaqtincha qatnashga qabul qilish ushbu tashkilotda bo'sh joylar bo'lsa, kalendar yil davomida quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

bola qonuniy vakilining arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma (davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun);

bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

35. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

36. Bola davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq qabul qilinadi.

37. Bola nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ustaviga muvofiq qabul qilinadi.

38. Bolani davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

39. Bolaning qonuniy vakili bilan tuzilgan shartnoma bolani nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

#### **8-bob. Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish**

40. Guruh maktabgacha ta'lim tashkilotining tarkibiy birligi hisoblanadi.

41. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin.

42. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini to'ldirish va bir guruhdan boshqasiga o'tkazish har yili o'quv yili boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.

43. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlarda – kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola;

bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda – ko'pi bilan 30 nafar bola;  
turli yoshdagi guruhlarda – kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola;  
bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarda – ko'pi bilan 10 nafar bola.

Agar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan joyda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni xohlovchi maktabgacha yoshdagi bolalar soni 20 nafar boladan kam bo'lsa va bu joyda boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarni tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

44. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlarni to'ldirish tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlab turish, tuzish va ularda ishlash tartibini tashkil etishga qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablarini hisobga olgan holda muassis tomonidan belgilanadi.

#### **9-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanishni tashkil etish**

45. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ovqatlanish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

46. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar ovqatlanishini tashkil etish uchun javobgarlik maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari zimmasiga yuklanadi.

#### **10-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar sog'lig'ini asrash**

47. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga moddiy yordam maktabgacha ta'lim tashkiloti shtatiga kiradigan tibbiyot xodimlari yoki sog'liqni saqlash muassasalarining maktabgacha ta'lim tashkilotiga birlashtirilgan tibbiyot xodimlari tomonidan ta'minlanadi, ular bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy kamoloti, davolash-profilaktika tadbirlari o'tkazilishi, sanitariya-gigiyena normalariga, ovqatlanish rejimi va sifatiga rioya etilishi uchun javob beradi.

48. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish tuman (shahar) tibbiyot birlashmalariga yuklanadi.

49. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiyot xodimlari faoliyatini nazorat qilish uning rahbariga yuklanadi.

50. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining shtatdagi xodimlari sog'liqni saqlash muassasalarida belgilangan tartibda bepul tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

51. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga tibbiy yordam qonun hujjatlariga muvofiq beriladi.

52. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish bepul asosda sog'liqni saqlash tizimining malaka oshirish muassasalarida 3 yilda kamida bir marta o'tkaziladi.

#### **11-bob. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini moliyalashtirish**

53. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash uchun olinadigan ota-onalar to'lovi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsoslari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

54. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati ularning muassislari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

55. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'shimcha byudjet mablag'larini jalb qilish byudjetdan moliyalashtirishni kamaytirishga olib kelmaydi.

#### **12-bob. Bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotida saqlash uchun ota-onalar to'lovi**

56. Tarbiyalanuvchilarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash



deganda tarbiyalanuvchilarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish tushuniladi.

57. Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash uchun ota-onalar to'lovi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

58. Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash uchun ota-onalar to'lovi miqdori va uni to'lash shakli ularning muassislari tomonidan belgilanadi.

59. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalar farzandlarini saqlash uchun ota-onalar to'lovi imtiyozli shartlarda qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

### **13-bob. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish**

60. Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlarida, ushbu Nizomda, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti ustavida nazarda tutilgan tartibda boshqariladi.

61. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuv bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim muassasasi Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan mudir rahbarlik qiladi.

62. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari hisoblanadi.

63. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga mudir joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassisi oldida hisob beradi.

64. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga direktor joriy rahbarlik qiladi va muassis oldida hisob beradi.

65. Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruvi organlari hisoblanadi:

Pedagogika kengashi; Kuzatuv kengashi.

66. Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi:

maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarining pedagogik yuklamasini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama etadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlar hisobotlarini eshitadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tarbiyalash, shakllantirish va o'qitishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari orasidan tuziladi.

67. Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi:

maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

maktabgacha ta'limning tuman (shahar) bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek, uni egallab turgan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan eshitadi;

maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

68. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlarida, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

69. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

#### **14-bob. Yakunlovchi qoidalar**

70. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

71. Xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlar amaliyotini o'tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

### **3-ilova**

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son qaroriga 2-ILOVA  
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar to'g'risida NIZOM

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar qisqa muddatli guruhleri maqsadlari, vazifalar va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Qisqa muddatli guruhlar faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari ustavi bilan tartibga solinadi.

3. Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan bolalarning to'laqonli kamol topishini ta'minlash, ularni tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish uchun mo'ljallangan.

4. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi.

5. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli

guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov muassis tomonidan belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha belgilanadi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno.

## **2-bob. Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari va vazifalari**

6. Qisqa muddatli guruhlar maqsadlari bolalarning maktabgacha ta'limga to'liq jalb etilishini va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalar maktabgacha ta'lim olishda teng imkoniyatlardan foydalanishini ta'minlashdan iborat.

7. Qisqa muddatli guruhlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini saqlash va mustahkamlash;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish,

bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;

bolaning yosh va o'ziga xos imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab har tomonlama kamol topishini ta'minlash;

bolani shakllantirishda, tarbiyalashda va o'qitishda oilaga har tomonlama yordam berish;

bolalarning bilim orttirishini, ijtimoiy-shaxsiy, badiiy-estetik va jismoniy kamol topishini ta'minlash.

## **3-bob. Qisqa muddatli guruhlar tashkil etish, ularga qabul qilish va ularni to'ldirish tartibi**

8. Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida foydalanilmaydigan xonalar bo'lganda tashkil etiladi.

9. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlariga bolalar ularning ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarning (keyingi o'rinlarda qonuniy vakillar deb ataladi) arizasi va bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy xulosa asosida qabul qilinadi.

10. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlariga bolalar quyidagilar asosida qabul qilinadi:

bolaning qonuniy vakili arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma;

bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

11. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar o'z faoliyatini davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida amalga oshiradi.

12. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar o'z faoliyatini bolaning qonuniy vakillari bilan shartnoma asosida amalga oshiradi.

13. Bitta xonada ko'pi bilan 3 ta qisqa muddatli guruh faoliyatini uchta smenada tashkil etishga yo'l qo'yiladi.

14. Qisqa muddatli guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining sanitariya-gigiyena talablariga va yong'in xavfsizligi qoidalariga javob beradigan xonalarida tashkil etiladi.

15. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

16. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlariga 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

17. Qisqa muddatli guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin.

18. Bolalarni qisqa muddatli guruhlardan chiqarib yuborish maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi va:

bola qonuniy vakilining arizasi bo'yicha;  
tibbiy ko'rsatmalar bo'yicha;

bola maktabgacha ta'lim tashkilotining to'liq kunli guruhiga joylashtirilganda amalga oshiriladi. Bu haqda qisqa muddatli guruhga boradigan bolaning qonuniy vakillari maktabgacha ta'lim tashkilotiga yo'llanma olgan kundan boshlab 14 kun ichida maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbarini xabardor qilishi shart.

19. Qisqa muddatli guruhlarning ishlash tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavida va bolaning qonuniy vakili bilan tuziladigan shartnomada belgilanadi.

20. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarning quyidagi turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin:

rivojlantirish guruhi;

bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi;

inklyuziv guruh;

kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

Rivojlantirish guruhi 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ularni har tomonlama kamol toptirish, tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi. Rivojlantirish guruhi kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi 5-6 yoshdagi bolalar uchun (umumta'lim muassasalariga qabul qilishdan bir yil avval) maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida yordam berish maqsadida, shuningdek, bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash va teng imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko'pincha maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida, shuningdek, bo'sh turgan xonalar bo'lsa – umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, «Barkamol avlod» bolalar markazlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari negizida tashkil etiladi;

Inklyuziv guruh 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'ziga xos ehtiyojlari bor bolani jamiyatga moslashtirishni ta'minlash, bolaning qonuniy vakillariga maslahat-metodik ko'maklashish, o'ziga xos ehtiyoji bor bolalarning bunday zaiflikka ega bo'lmagan bolalar bilan birga o'qishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar uchun bolalarni tarbiyalash, ta'lim berish, parvarishlash va ularga qarab turish masalalarida qonuniy vakillarga yordam berish maqsadda tashkil etiladi. Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh ko'pi bilan 15 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlar turiga qarab 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qonun hujjatlariga muvofiq qisqa muddatli guruhlarning boshqa turlari tashkil etilishi mumkin.

21. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar uchun quyidagi shtat birliklari belgilanadi:

bitta guruh uchun – 0,5 birlik tarbiyachi va 0,5 birlik tarbiyachi yordamchisi;

ikkita guruh uchun – 0,25 birlik tibbiy hamshira va 0,25 birlik musiqa rahbari.

22. Qisqa muddatli guruhlar faoliyati tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti quyidagilar uchun javob beradi:

bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtda ularning hayoti himoya qilinishini va sog'lig'i mustahkamlanishini tashkil etish;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiqligi;

bolalarni umumta'lim muassasalaridagi boshlang'ich ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda tayyorlash sifati;

umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatda va belgilangan hajmda ta'minlamalik.

#### **4-bob. Qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish**

23. Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturiga hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturida belgilab beriladi.

24. Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni moslashuvchan xususiyatga ega, shuningdek, bolaning o'ziga xos, shaxsga yo'naltirilgan kamol topishini ta'minlaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

25. Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayoni yakka tartibdagi va birgalikdagi faoliyatning har xil shakllarini – ham katta yoshdagilarning bolalar bilan, ham bolalarning o'zlari ishtirokidagi shakllarini o'z ichiga oladi.

26. Negizida qisqa muddatli guruh tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari bolalar bilan metodik ishlarni tashkil etadi, qisqa muddatli guruhlarda ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini va hujjatlar yuritilishini nazorat qiladi.

27. Qisqa muddatli guruhlarda bolalar bilan mashg'ulotlarni tashkil etishda ta'lim yuklamasi bir haftalik ta'lim yuklamasining eng ko'p ruxsat etilgan hajmidan va mashg'ulotlarning eng ko'p ruxsat etilgan sonidan oshmasligi kerak.

28. Uzlüksiz ta'lim faoliyati muddati sanitariya talablariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

#### **5-bob. Qisqa muddatli guruhlarini moliyalashtirish**

29. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida saqlash uchun olinadigan ota-onalar to'lovi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayr-ehsonlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi.

30. Ta'lim faoliyatini olib boruvchi qisqa muddatli guruhlarining pedagog xodimlari mehnatiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haq to'lanadi.

#### **4-ilova**

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son qaroriga 3-ILOVA

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida NIZOM

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim

tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar deb ataladi) va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (keyingi o'rinlarda qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar deb ataladi) maqsadlari va vazifalari, huquqlari, majburiyatlari hamda javobgarligini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga hamda o'z ustaviga amalga qiladi.

3. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning faoliyati jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim olishiga, shuningdek, ularni tarbiyalash va rehabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bir tashkilotda alohida guruhlarda birgalikda o'qishini va tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan.

Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkin.

4. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bo'lishi mumkin.

5. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot akkreditatsiyasi attestatsiya asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga hamda shtampga, mustaqil balansga, byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga ega.

7. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot yuridik shaxslar hisoblanadi, ajratilgan mol-mulkka, mustaqil balansga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha o'z ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o'z nomi yozilgan muhrga va shtampga ega bo'lishi mumkin.

8. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot litsenziya olgan vaqtdan boshlab qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'lim faoliyatini amalga oshiradi.

## **2-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning maqsadlari hamda vazifalari**

9. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot maqsadlari quyidagilardan iborat:

bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlash;  
bolalarni o'qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;  
bolalarning yosh va o'ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlariga va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini ta'minlash;

bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning

ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash.

10. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksiya-pedagogik yordam berilishini ta'minlash;

bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf-odatlariga hurmat, o'ziga va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;

tibbiy abilitatsiya va rehabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;

bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;

bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;

o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

**3-bob. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi**

11. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti yoki qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotning muassislari bo'lishi mumkin.

12. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni 6 tani tashkil etadi.

Qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarini tashkil etish uchun guruhlarining eng kam soni tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etishi kerak:

a) kamida 4 ta inklyuziv guruh;

b) quyidagi ixtisosliklardan biri bo'yicha rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun kamida 4 ta guruh:

eshitishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;

ko'rishda og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun;

psixik rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun.

13. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan 5 yoshga bo'lgan bolalar kontingenti mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni har yili yig'ib boradi va bu ma'lumotni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga belgilangan tartibda taqdim etadi.

14. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda maktabgacha ta'lim hududiy boshqaruv organlari, deb ataladi) Qoraqalpog'iston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi, viloyatlar sog'liqni saqlash boshqarmalari, Toshkent shahar sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda sog'liqni saqlash hududiy boshqaruv organlari deb ataladi) bilan birgalikda bunday muassasalarga bo'lgan ehtiyojni o'rganish yakunlari bo'yicha tashkil etiladi.

15. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar mavjud bo'lsa, maktabgacha ta'limning hududiy boshqaruv organlari sog'liqni saqlashning hududiy boshqaruv organlari bilan birgalikda davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi taklif bilan O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga murojaat qiladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi taklif oxirgi 5 yil har yilga bo'lib chiqilgan va tegishli hududdagi 5 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida qayd etilgan kasalliklar o'sishini ko'rsatadigan sog'liqni saqlash organlarining rasmiy statistika ma'lumotlari bilan asoslangan bo'lishi kerak.

16. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini tashkil etish masalasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishib olganidan keyin Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga tegishli taklif bilan murojaat qiladi.

17. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini yoki qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotini tashkil etish to'g'risidagi qaror Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan qabul qilinadi.

18. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarining va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining bino hamda inshootlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishilmasdan xususiy lashtirilishi, o'zga berilishi va qayta ixtisoslashtirilishi mumkin emas.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot o'quv yili tugaganidan keyin qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etiladi yoki tugatiladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini qayta tashkil etish yoki tugatish jarayonida bolalarni boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmalari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi tomonidan bolaning qonuniy vakillari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

#### **4-bob. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini litsenziyalash**

19. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan litsenziyani olgan vaqtdan boshlab amalga oshiradi.

#### **5-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi**

20. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

tasdiqlangan moslashtirilgan ta'lim dasturi asosida mustaqil ravishda o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;

bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;

maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha



tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

21. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar:

bolalarning jismoniy o'sishi va sog'lig'i mustahkamlanishi uchun sanitariya-gigiyena meyorlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratishi va ularga rioya etilishini ta'minlashi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli nozologiyalarni davolash standartlariga muvofiq bolalarning abilitatsiyasi va reabilitatsiyasini o'tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratishi;

ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogika jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, psixik va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga mos kelishini ta'minlashi;

bolalar to'g'ri oqatlanishini va ularga tibbiy yordam ko'rsatilishini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

bolalarni shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda umumta'lim muassasalarida o'qishga sifatli tayyorlashni ta'minlashi;

maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlash ustidan nazorat olib borishda, salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash, abilitatsiya va reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi;

ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi guruhlarini ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'limga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirilishi;

qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlardagi inklyuziv guruhlar uchun mo'ljallangan guruhlarini umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarini ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalar bilan to'ldirishi shart.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

22. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagilar uchun javob beradi:

bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;

bolalar ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda yoki qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda bo'lgan vaqtda ularning hayotini himoya qilishni va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish;

belgilangan talablarga muvofiq ta'lim-tarbiya, korreksion-pedagogika hamda reabilitatsiya jarayonlarini amalga oshirish;

bolani tarbiyalash va ta'lim berish masalalari bo'yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berish;

umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatda va belgilangan hajmda ta'minlash;

ushbu Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

23. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning faoliyati ustidan monitoring hamda nazorat vakolatli davlat organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

24. O'quv jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki ta'lim olayotgan bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonun hujjatlariga zid harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

## **6-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarga bolalarni qabul qilish hamda ulardan chiqarish**

25. Bolalarni ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotga qabul qilish ushbu tashkilotda bo'sh joylar bo'lsa, kalendar yil davomida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarga bolalarni qabul qilish: tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida amalga oshiriladi.

Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning inklyuziv guruhlariga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalar:

bola qonuniy vakilining arizasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma (qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti uchun);

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida qabul qilinadi.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlariga, shuningdek, qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning inklyuziv guruhlariga jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar:

bola qonuniy vakilining arizasi;

tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakl bo'yicha bolaning tibbiy kartasi va profilaktik emlash kartasi asosida qabul qilinadi.

26. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda, qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan hamda inklyuziv guruhlarda bo'lish davri, korreksion ishlari muddati tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tomonidan belgilanadi.

27. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotga quyidagi nuqsonlari bo'lgan bolalar qabul qilinmaydi:

og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik;

shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;

tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar;

turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og'ir shakllari;

asab tizimining organiq shikastlanganligi sababli siydik va najas ushlab turolmaslik;

yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi.

## **7-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish**

28. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot maktabgacha ta'limga qo'yiladigan belgilangan davlat talablariga muvofiq bolalar ta'lim olishi, tarbiyalanishi, parvarishlanishi va sog'lomlashtirilishini ta'minlaydi.

29. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan ta'lim dasturi asosida, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan (shu jumladan, mualliflik, moslashtirilgan va boshqa) dastur bilan belgilanadi.

30. Ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejaları va jadvali bilan tartibga solinadi.

31. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot qonun hujjatlariga hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari va usullarini tanlaydi.

32. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni ishlab chiqiladigan yakka tartibdagi yo'nalish asosida bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlar frontal, kichik guruh va yakka tartibda olib boriladi.

33. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta'lim beriladi va tarbiyalanadi:

ta'limning korreksion yo'naltirilganligi;

ijtimoiy moslashuvi;

ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish.

34. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda besh kunlik ish haftasi belgilanadi.

35. Bolalar tashkilotda bo'ladigan muddatga qarab ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotdagi guruhlar:

qisqa muddatli guruhlar (kuniga 3,5 – 4 soat);

to'liq kunli guruhlar (kuniga 10,5 va 12 soatgacha);

bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar bo'lishi mumkin.

36. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ishlash tartibi hamda tarbiyalanuvchilarning bo'lish muddati uning ustavida va muassis qarorida belgilanadi.

37. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola ushbu tashkilotga joylashtirilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi.

38. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus maktabgacha ta'lim bo'yicha tegishli malakaga ega pedagog xodimlar tomonidan o'tkaziladi. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotdagi ta'lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik kuzatuv psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

39. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya davlat tilida hamda «Davlat tili to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq boshqa tillarda olib boriladi.

**8-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda reabilitatsiya jarayonini tashkil etish**

40. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari

bo'lgan bolalar uchun reabilitatsiya tadbirlari tashkilot shtatidagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga yoki qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotga hududiy biriktirilgan sog'liqni saqlash organlari tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

41. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlarda reabilitatsiya tadbirlari tashkilot shtatidagi tibbiyot xodimlari, shuningdek, boshqa tibbiyot xodimlari tomonidan shartnoma asosida o'tkaziladi.

42. Tibbiyot xodimlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan davolash standartlariga muvofiq tarbiyalanuvchining rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiya qilishga, rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarni tibbiy reabilitatsiya qilish, abilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashuvga qaratilgan davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini o'tkazadi.

43. Davolashning belgilangan kursi doirasida tibbiy reabilitatsiya muolajalarini o'tkazish har bir tarbiyalanuvchi uchun mashg'ulotlar jadvalini hisobga olib yakka tartibda o'tqaziladi.

44. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda bolaning bo'lish muddati tugaganidan so'ng uning qonuniy vakillari yashash joyidagi tibbiyot muassasasi uchun rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan har bir bolaning tibbiy kartasidan ko'chirma beriladi.

45. Tibbiy jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar tibbiy jismoniy tarbiya instruktorigi yoki tegishli tayyorgarlikka ega o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

46. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda barcha sog'lomlashtirish va reabilitatsiya tadbirlari to'g'ri tashkil etilishi hamda o'tkazilishi ustidan nazorat ushbu tashkilot joylashgan joydagi sog'liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

47. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotining shtatidagi xodimlar sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy tekshiruvdan o'tadi.

48. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilotlar xodimlari sog'liqni saqlash organlarining muassasalari tomonidan shartnoma asosida tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi.

### **9-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda guruhlarini to'ldirish**

49. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan 2 yoshdan 7 yoshgacha tarbiyalanuvchilar kontingentiga muvofiq quyidagi guruhlar tuziladi:

- nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- eshitishida og'ir nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- ko'rishida og'ir nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- psixik rivojlanishda kechikayotgan tarbiyalanuvchilar uchun;
- aqlik zaiflik bilan tarbiyalanuvchilar uchun;
- tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar uchun.

50. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to'ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagilarni tashkil etadi:

kar tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

zaif eshituchi tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

ko'zi ojiz tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

zaif ko'ruvchi yaxshi ko'rmaydigan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 15 nafar va ko'pi bilan 18 nafar tarbiyalanuvchi;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

bolalar serebral falaji sindromi asoratlari bilan tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

o'rta darajada aqliy zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 6 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

51. Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda inklyuziv guruhlar yoshi bo'yicha to'ldiriladi.

52. Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan inklyuziv guruhlar jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldiriladi hamda quyidagini tashkil etadi:

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan jismoniy yoki psixik rivojlanishda nuqsonlari bo'lgan (zaif ko'ruvchilar yoki zaif eshituvchilar yoki tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan) 3 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan (ambliopiya bilan, ko'zi g'ilyalik, yoki nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan yoki autizm bilan) 2 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan 3 nafar bola;

kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan, ko'pi bilan psixik rivojlanishda kechikayotgan 3 nafar bola.

Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda guruhlar bolalarning toifasiga va yoshiga qarab to'ldiriladi hamda tegishli ravishda quyidagini tashkil etadi:

kar bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar bola;

zaif eshituvchi bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar bola;

ko'zi ojiz bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar bola;

zaif ko'ruvchi bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar bola;

tayanch-harakat apparatida nuqsonlar bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 15 nafar va ko'pi bilan 18 nafar bola;

gemiparez, monoparez, plegiya asoratlari bilan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar bola;

bolalar serebral falaji sindromi asoratlari bilan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar bola;

yengil darajada aqli zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

o'rta darajada aqliy zaif bo'lgan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 6 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

autizm bilan uch yoshdan katta tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi;

psixik rivojlanishda kechikayotgan uch yoshdan katta bolalarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 10 nafar va ko'pi bilan 12 nafar tarbiyalanuvchi;

murakkab nuqsonli (ikki va undan ortiq nuqsonli) tarbiyalanuvchilarga mo'ljallangan guruhlarda – kamida 8 nafar va ko'pi bilan 10 nafar tarbiyalanuvchi.

53. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlarni to'ldirish tartibi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini saqlab turish, tuzish va ularda ishlash tartibini tashkil etishga qo'yilgan sanitariya-gigiyena talablarini hisobga olgan holda muassis tomonidan belgilanadi.

#### **10-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarda ovqatlanishni tashkil etish**

54. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ovqatlanish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

55. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda tarbiyalanuvchilar ovqatlanishini tashkil etish uchun javobgarlik ushbu tashkilotning rahbari zimmasiga yuklanadi.

#### **11-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish**

56. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot faoliyati quyidagilar hisobiga moliyalashtiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lgan davri uchun olinadigan ota-onalar to'lovi;

jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

57. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'shimcha byudjet mablag'larini jalb qilish byudjetdan moliyalashtirishni kamaytirishga olib kelmaydi.

58. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni va qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilotni moliyalashtirish hamda moddiy-texnik ta'minlash muassis mablag'lari, jismoniy va yuridik shaxslarning ixtiyoriy xayriya ehsonlari hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

59. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida bolalarning bo'lgan davri uchun olinadigan ota-onalar to'lovi qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda undiriladi.

60. Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarda va qo'shma tipdagi

nodavlat maktabgacha tashkilotlarda bolalarning bo'lgan davri uchun olinadigan xizmatlar haqi muassis tomonidan shartnoma asosida belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha to'lanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

61. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj oilalardan kelgan tarbiyalanuvchilar uchun ota-onalar to'lovi imtiyozli shartlar asosida qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda olinadi.

62. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarida va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarida ota-onalar to'lovi undirilmaydigan tarbiyalanuvchilarning jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari ro'yxati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda belgilanadi.

63. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni moliyalashtirish ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot tomonidan tasdiqlangan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatga olingan xarajatlar smetasi asosida amalga oshiriladi.

Qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining inklyuziv guruhleri qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

Qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlar bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhleri qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun xarajatlar smetasi asosida moliyalashtiriladi.

64. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotida xodimlar ish haqi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida rahbarlar, pedagogik va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

Qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotlarining jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga mo'ljallangan guruhlarda ishlovchi pedagog va tibbiyot xodimlari, shuningdek, tarbiyachilar yordamchilari lavozim maoshlariga hamda tarif stavkalariga 100 foiz miqdorida qo'shimcha to'lov to'lanadi.

65. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot tegishli davlat organlariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moliyaviy va statistik hisobot taqdim etadi.

66. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotining moliya-xo'jalik faoliyati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan nazorat qilinadi.

## **12-bob. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqaruvi**

67. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotni va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqarish qonun hujjatlariga, ushbu Nizomga va mazkur tashkilotning ustaviga muvofiq amalga oshiriladi.

68. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotini va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini boshqarish organlari quyidagilardan iborat:

Pedagogik kengashi;

Kuzatuv kengashi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari.

Nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va nodavlat qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar o'z boshqaruv organlari tizimini mustaqil belgilaydi.

69. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti pedagogika kengashi:

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti ish rejasini hamda pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilaydi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama qiladi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari va pedagogik xodimlari hisobotlarini eshitadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotining Pedagogik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

70. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotida va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotida bolani tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim berishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan tuziladi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotining Kuzatuv kengashi:

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek uni egallagan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi davriy hisobotlarini eshitadi;

davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga davlat ixtisoslashtirilgan



maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotining Kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

71. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

72. Davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotiga yoki qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan mudir rahbarlik qiladi.

73. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotning yoki qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilotning rahbari hisoblanadi.

74. Mudir davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti yoki qo'shma tipdagi davlat maktabgacha tashkiloti faoliyatiga joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassis oldida hisob beradi.

75. Direktor nodavlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot yoki qo'shma tipdagi nodavlat maktabgacha tashkilot faoliyatiga joriy rahbarlik qiladi va muassis oldida hisob beradi.

76. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot rahbarining huquqlari hamda majburiyatlari qonun hujjatlarida, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

77. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

78. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda psixolog, tibbiyot va pedagog xodimlardan iborat tibbiy-psixologik-pedagogik kengash tuziladi hamda faoliyat ko'rsatadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotning tibbiy-psixologik-pedagogik kengashi:

bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqadi;

individual yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi;

korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib boradi va baholaydi;

bola ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda bo'lgan muddat davomida uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqadi;

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bolaning bo'lish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi

maktabgacha tashkilotda bo'lish muddati tugaganidan xabardor qiladi hamda ushbu tashkilotlarda bo'lishini davom ettirish yuzasidan uni Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaga tekshiruvga yuboradi.

### **13-bob. Yakunlovchi qoidalar**

79. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

80. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlar va tibbiyot xodimlari amaliyotini o'tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **5-ilova**

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyuldagi 626-son qaroriga 1-ILOVA  
Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari davlat maktabgacha ta'lim muassasalariga (keyingi o'rinlarda maktabgacha ta'lim muassasalari deb ataladi) nisbatan tatbiq etiladi.

2. Tarbiyalanuvchilarning sog'lom ovqatlanishini tashkil etish maktabgacha ta'lim muassasalarining oshxonalarida (keyingi o'rinlarda oshxona deb ataladi) sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiriladi.

### **2-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning maqsad va vazifalari**

3. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning maqsadi tarbiyalanuvchilarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash, oshxonalarda sifatli taomlar tayyorlash, taomlarni iste'mol qilish uchun gigiyenik talablarga muvofiq sharoitlar yaratish hisoblanadi.

4. Quyidagilar maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

tarbiyalanuvchilarning belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq holda ovqatlanishni tashkil etish;

tarbiyalanuvchilarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;

oziq-ovqat mahsulotlari hamda taomlarning xavfsizligi va sifatini kafolatlash;

tarbiyalanuvchilarda ovqatlantirish bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;

tarbiyalanuvchilar o'rtasida sog'lom ovqatlantirish ko'nikmalarini shakllantirish; taomlarni tayyorlashda, oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilish hamda saqlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga qat'iy rioya qilish.

### **3-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablar**

5. Quyidagilar maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablar hisoblanadi:

tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni autsorsing korxonalarida jalb qilinmagan hollarda bevosita maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan tashkil etish;

tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni sanitariya-gigiyena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar bajarilishiga qat'iy rioya qilgan holda tashkil etish;

oshpazlar tomonidan taom tayyorlash jarayonida texnologiya va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi;

taom tayyorlash, oziq-ovqat mahsulotlarini sifatli qabul qilish, saqlash uchun zarur sharoitlar yaratish;

taomnomaga muvofiq mahsulotlar to'liq yetkazilishi va sarflanishini ta'minlash choralarini ko'rish;

oshpazlarning har uch yilda bir marta malaka oshirishi, tibbiy ko'rikdan o'tgan holda ishga qo'yilishi.

Tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish uchun tegishli tuman (shahar) hokimlari, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari mudirlari hamda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari mas'ul hisoblanadi.

#### **4-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish**

6. Oshxonalarda sog'lom ovqatlantirish tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq ravishda tuzilgan, ushbu Nizomga 1-ilovada keltirilgan taomnoma asosida tashkil etiladi. Bunda:

tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari hamda davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy taomnomalar asosida o'n kunlik taxminiy taomnomalar oldindan tuziladi;

taomnoma joriy kundagi tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib, keyingi ish kuni uchun soat 16.00 ga qadar hamshira tomonidan maktabgacha ta'lim muassasasi oshpazi va ombor mudiri yoki omborchi ishtirokida tuziladi;

taomnoma asosida keyingi kun uchun oziq-ovqat mahsulotlari ombor mudiri yoki omborchi tomonidan hamshira yoki navbatchi tarbiyachi ishtirokida ish kuni yakunlangunga qadar oshxonaga beriladi;

taomnoma bir kun oldingi tarbiyalanuvchilar soniga mutanosib ravishda har bir tarbiyalanuvchi uchun bir kunlik o'rtacha sarflanadigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori va ularning qiymati chiqarilgan holda ikki nusxada tuziladi;

joriy kunda ertalab soat 9.00 ga qadar maktabgacha ta'lim muassasasiga kelgan tarbiyalanuvchilar soni taomnomada nazarda tutilgan tarbiyalanuvchilar sonidan 10 nafar va undan ko'p bo'lsa, guruh tarbiyachilarining tarbiyalanuvchilar soni to'g'risidagi bildirishnomalari asosida taomnomaga o'zgartirish kiritilishi to'g'risida dalolatnoma tuziladi va sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlarida belgilangan tartibda mahsulotlar omborga qaytariladi yoki qo'shimcha ajratiladi;

taomnoma sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari asosida to'g'ri tuzilganligi hamshira va maktabgacha ta'lim muassasasi rahbari tomonidan imzo bilan tasdiqlanadi;

taomnomaning bitta nusxasi hamshiraga, ikkinchi nusxasi oshxonaga foydalanish uchun beriladi;

kunlik tayyorlanadigan taom turlari va bir tarbiyalanuvchi uchun taom miqdori maxsus ovqat tarqatish joyiga yozib qo'yiladi;

tarbiyalanuvchilar uchun taomlar ovqatlanish texnologiyasi qoidalariga amal qilgan holda tayyorlanadi, saqlanadi va tarqatiladi.

7. Kunlik taomnomalar tuzishda bir nafar tarbiyalanuvchiga sarflanadigan oziq-ovqat mahsulotlarining kunlik miqdori sanitariya normalari, qoidalari va gigiyena normativlari asosida belgilanishi talab etiladi.

8. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi qisqa muddatli guruhlar uchun taomnoma alohida tuziladi va muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

9. Maktabgacha ta'lim muassasasi uchun har o'n kunlik taomnomalar blankalari ip o'tkazib bog'langan holda oldindan raqamlanadi, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri va bosh hisobchi tomonidan raqamlanib imzolaniadi, muhrlanadi va alohida daftarda ro'yxatdan o'tkaziladi.

10. Maktabgacha ta'lim muassasasida oziq-ovqat mahsulotlari va taomlar sifatini o'rganish bo'yicha brakeraj komissiyasi (keyingi o'rinlarda brakeraj komissiyasi deb ataladi) tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi mudirining brakeraj komissiyasini tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i har yil uchun alohida qabul qilinadi.

11. Maktabgacha ta'lim muassasasi hamshirasi brakeraj komissiyasining raisi bo'lib, uning tarkibiga tarbiyachi, oshpaz, muassasa kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslar (keyingi o'rinlarda ota-onalar deb ataladi) vakillari a'zo sifatida kiritiladi.

12. Brakeraj komissiyasi oshxonaga qabul qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar sifatini doimiy ravishda o'rganib boradi. O'rganish natijalari alohida yuritiladigan, ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq shakldagi brakeraj daftarida qayd etiladi.

13. Brakeraj daftarini oziq-ovqat mahsulotlarining sifati, mazasi, kunlik sinama olinganligi, ovqatni tarqatishga ruxsat berilganligi haqidagi ma'lumotlar belgilangan tartibda to'ldirilib, har kuni hamshiraning imzosi bilan tasdiqlanadi.

Brakeraj komissiyasi a'zolari tomonidan brakeraj daftarini yuritilishining doimiy monitoringi olib boriladi.

14. Brakeraj daftarini tikilgan, raqamlangan, muassasa rahbari tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi shart.

15. Brakeraj daftarining birinchi sahifasida brakeraj komissiyasini tasdiqlash haqidagi buyruqdan ko'chirma bo'lishi, daftar raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan va maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan uning familiyasi, ismi, otasining ismi va sana ko'rsatilgan holda imzolaniadi, muhrlangan bo'lishi lozim.

16. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni ta'minlash maqsadida ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakldagi sifati tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftarini muassasa hamshirasi tomonidan yuritiladi.

Sifati tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftarida mahsulotlarning ishlab chiqarilgan vaqti, maktabgacha ta'lim muassasasiga qabul qilingan vaqti va oxirgi ishlatish muddati haqidagi ma'lumotlar qayd etib boriladi.

Daftar raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan va maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri tomonidan uning familiyasi, ismi, otasining ismi va sana ko'rsatilgan holda imzolaniadi, muhrlangan bo'lishi lozim. Daftarning birinchi sahifasida tez buziluvchi mahsulotlarning saqlanish muddatlari haqidagi jadval ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

17. Sifati tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftarining yuritilishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri va hamshira bevosita mas'ul hisoblanadi.

18. Oshxonada tayyor bo'lgan taom tarbiyalanuvchilarga tarqatilishidan 15 – 20 daqiqa oldin undan maktabgacha ta'lim muassasasi hamshirasi tomonidan kunlik sinama olinadi.

19. Olingan sinama toza idishga solinib, idishning ustki qismiga taomning nomi, tayyorlangan va sinama olingan vaqti yozilgan yorliq yopishtirilgan holda, sovutgich yoki boshqa sinama sifatiga ta'sir qilmaydigan sharoitda to'liq bir sutka saqlanadi.

20. Maktabgacha ta'lim muassasasiga ta'minotchi korxonalar tomonidan keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlari brakeraj komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilganidan keyin muassasaning ombor mudiri tomonidan omborxonaga qabul qilib olinadi.

21. Oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilishda brakeraj komissiyasi a'zolari tomonidan mahsulotlarning sifatini kafolatlovchi hujjatlar (sertifikat, markirovka) mavjudligi, shartnomada belgilangan narxi va mahsulotning tavsifiga muvofiqligi ko'rib chiqiladi.

22. Qabul qilingan oziq-ovqat mahsulotlari sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq holda saqlanadi va sarflanadi.

23. Omborxonaga keltirilgan va kunlik taomnoma asosida oshxonaga berilgan oziq-ovqat mahsulotlari ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq shakldagi omborxonada saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftariga yozib qo'yiladi.

Daftarning yuritilishi uchun ombor mudiri bevosita mas'ul hisoblanadi.

24. Omborxonada saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftarida omborxonaga keltirilgan va oshxonaga topshirilgan oziq-ovqat mahsulotlari nomma-nom yozib boriladi. Bunda har bir oziq-ovqat mahsuloti uchun alohida varaq yuritiladi.

Omborxonada saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining qoldig'i har kuni belgilab boriladi.

25. Omborxonada saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftari raqamlangan, ip o'tkazib tikilgan va maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri tomonidan, uning familiyasi, ismi, otasining ismi va sana ko'rsatilgan holda imzolanib, muhrlangan bo'lishi lozim.

26. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga nisbatan tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi oyma-oy tahlil qilib boriladi hamda choraklik tahlil natijalari chorak yakunlanganidan keyingi oyning 5-kuniga qadar maktabgacha ta'lim tuman (shahar) bo'limlariga topshiriladi.

Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan muassasalarda tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi to'g'risidagi umumlashtirilgan hisobotlar chorak yakunlanganidan keyingi oyning 10-kuniga qadar tegishli Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalariga va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasiga taqdim etiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat bilan ta'minlanish darajasi to'g'risidagi umumlashtirilgan hisobotlar chorak yakunlanganidan keyingi oyning 15-kuniga qadar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligiga topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi to'g'risidagi umumlashtirilgan hisobotlarni chorak yakunlanganidan keyingi oyning 25-kuniga qadar o'rganib chiqiladi, o'rganish natijasida aniqlangan kamchilik va muammolarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari bilan hamkorlikda bartaraf etish choralari ko'riladi.

27. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi to'g'risidagi hisobotlar ushbu Nizomga 5-ilovada keltirilgan sxemaga muvofiq tarzda yuritiladi.

## **5-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni kunlik ovqatlantirish narxlarini belgilash**

28. Tarbiyalanuvchining maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lgan davri uchun badal to'lovlari belgilangan tartibda tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirishni tashkil etishga yo'naltiriladi. Bunda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini to'liq bajarish uchun ota-onalar to'lovlari bilan qoplanmagan qismi O'zbekiston Respublikasi byudjeti mablag'lari hisobiga qoplanadi.

29. Maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari yoki muassasaning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga tashkil etilgan taqdirda, tarbiyalanuvchilar uchun belgilangan bir kunlik ovqatlanish ratsioni sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq belgilangan normalardan oshmasligi lozim.

## **6-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ovqatlanishini tashkil etish**

30. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlarining ushbu muassasada ovqatlanishi maktabgacha ta'lim muassasasi mudiri bilan xodim o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq to'lov asosida tashkil etiladi.

Faoliyati bolalar tarbiyasi bilan uzluksiz ravishda bog'liq bo'lgan xodimlar (mudira, hamshira, tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi) shartnoma asosida ovqatlanadi.

31. Maktabgacha ta'lim muassasasi xodimlari alohida taomnoma bo'yicha ovqatlanadilar.

32. Taomnomada ovqatlangan xodimlar soni, ular uchun sarflangan oziq-ovqat mahsulotlarining miqdori va qiymati ko'rsatiladi.

Joriy oyda xodimlarning maktabgacha ta'lim muassasasi hisobiga ovqatlanishi uchun bir oylik to'lov miqdori oldingi oyda tuzilgan taomnoma bo'yicha xodimlarga sarflangan oziq-ovqat mahsulotlarini ovqatlangan xodimlar o'rtacha soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

33. Xodimlarning maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanganligi uchun to'lovlar joriy oying 10-kunidan kechiktirmay banklarga to'lanadi hamda to'lov to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (kvitansiya) nusxasi maktabgacha ta'lim muassasasiga taqdim etiladi.

Xodimlarning maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanganligi uchun to'langan mablag'lar tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari hisob-varaqlarida ulardan keyinchalik foydalanish uchun hisobga olinadi.

34. Xodimlarning maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanganligi uchun to'lovlar miqdorini hisoblashda xodimning faqat ishda bo'lgan kunlari e'tiborga olinadi.

Xodimning ishda bo'lmagan kunlari uchun undirilgan to'lovlar keyingi oy uchun to'lov amalga oshirilayotganida hisobga olinadi.

35. Xodimlarning maktabgacha ta'lim muassasasida ovqatlanganligi uchun amalga oshirgan to'lovlari to'liq oziq-ovqat xarajatlariga yo'naltiriladi.

## **7-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishda ishtirok etadigan xodimlarning vazifalari**

36. Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limining mudiri:

tasarrufidagi maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarini sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishga hamda ularni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash ishlariga umumiy rahbarlik qiladi;

tarbiyalanuvchining muassasada bo'lgan davri uchun muassasa hisob-raqamiga

tushgan badal to'lovlari va davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar hisobiga oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish yuzasidan shartnomalar tuzadi;

xarid qilish uchun tuzilgan shartnomalarda oziq-ovqat mahsulotlari muvofiqlik va gigiyenik sertifikatlar asosida tasarrufidagi muassasaga sifatli yetkazib berilishini ta'minlaydi;

bir nafar tarbiyalanuvchiga kunlik ovqatlanish narxlarini belgilashni, taomnoma blankalarini raqamlash, muhrlash, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar shartlari bajarilishini ta'minlaydi;

tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirish sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini to'liq ta'minlagan holda amalga oshirilishiga shaxsan mas'uldir.

Oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

37. Maktabgacha ta'lim muassasasining mudiri:

tarbiyalanuvchilarni sog'lom va to'laqonli ovqatlantirishni tashkil etishga javobgar hisoblanadi;

maktabgacha ta'lim muassasasiga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifat tavsifiga mos ravishda qabul qilinishini ta'minlaydi;

tarbiyalanuvchilarning muassasada bo'lgan davri uchun badal to'lovlari o'z vaqtida va to'liq to'lab borilishini ta'minlaydi;

ota-onalar yig'ilishlarida tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirish uchun tayyorlanayotgan taomlarning sifati, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi to'g'risida har chorakda bir marta hisobot berib boradi;

tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish darajasini baholash maqsadida har yarim yilda kamida bir marta ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazadi va uning natijalarini muhokama qilib boradi;

maktabgacha ta'lim muassasasidagi brakeraj komissiyasining tarkibini tasdiqlaydi, zarur hollarda tarkibga o'zgartirishlar kiritadi, brakeraj komissiyasining ishini muvofiqlashtiradi.

38. Maktabgacha ta'lim muassasasi hamshirasi:

taomnomalarning xilma-xilligi va sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga asosan tuzilishi, oshxona va omborxonaning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilgan holda faoliyat yuritishini nazorat qiladi;

oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini, saqlanish qoidalariga amal qilinishini hamda iste'molga berilishini, tayyorlangan taomlar sifatini, mahsulotlarning taomlarni tayyorlashda to'g'ri taqsimlanishini, taom vaznini va sifatini, oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan meyorlar asosida sarflanishini ta'minlaydi;

tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirishni maktabgacha ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlangan kun tartibiga asosan tashkil etadi;

asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari bo'yicha ta'minlanishi yuzasidan har o'n kunlik hisobotini yuritadi;

yig'ma hisobotlardan kelib chiqib, taomlar ratsioniga kiritilgan oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibiy qismi va energetik qiymatini doimiy ravishda tahlil qilib boradi;

tayyor taomlardan sinama olish, ularning organoleptik (hid bilish, ta'm bilish, ko'rish) usul asosida baholanishini va jurnalga qayd etishni hamda taomlardan olingan sinamalar talab etilgan darajada saqlanishini ta'minlaydi;

ombor mudiri va oshpaz bilan hamkorlikda taomnoma tuzadi;  
har uch yilda bir marta belgilangan tartibda maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha malaka oshiradi.

39. Maktabgacha ta'lim muassasasi oshpazi eng kamida 3-razryadli oshpaz darajasiga oid maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo'lishi zarur va quyidagi vazifalarni bajaradi:

taomlarni maktabgacha ta'lim muassasasidagi taomnoma asosida tayyorlash texnologiyasiga amal qilgan holda tayyorlaydi;

tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarzda taomlarni porsiyalarga bo'ladi va tarqatadi;

kunlik taomnomani tuzishda ishtirok etadi;

oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan tartibda saqlanishi va taomnoma asosida to'g'ri sarflanishini ta'minlaydi;

taomlarni tayyorlashda mahsulotlarga dastlabki va issiqlik ishlov berishni amalga oshiradi;

turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlarining tavsifi va biologik qiymatini o'rganadi hamda organoleptik usul orqali ularning sifat ko'rsatkichlarini farqlaydi;

issiqlik ishlov beruvchi, vazn o'lchovchi, muzlatgich va boshqa jihozlardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qiladi;

har uch yilda bir marta maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha malaka oshiradi.

40. Maktabgacha ta'lim muassasasining oziq-ovqat mahsulotlari ombor mudiri (omborchi) eng kamida o'rta maxsus (buxgalter, tovarshunoslik yoki oziq-ovqat texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha) ma'lumotga ega bo'lishi zarur va quyidagi vazifalarni bajaradi:

oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilishni tashkil etadi, omborxonaga joylashtiradi va ularni saqlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga amal qiladi;

kunlik taomnomani tuzishda ishtirok etadi;

oziq-ovqat mahsulotlarining omborxonadagi qoldiq miqdoridan kelib chiqib, yetkazib beruvchilarga buyurtmalarni shakllantirishda ishtirok etadi;

kunlik taomnomada belgilangan barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini oshxonaga beradi;

yetkazib beruvchilar tomonidan topshirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining yukxatiga mosligini tekshiradi, ularning vaznini o'lchaydi va sifatini ko'zdan kechiradi;

omborxonadagi oziq-ovqat mahsulotlarining hisobini yuritadi, mahsulotlarni sifat tavsifiga, foydalanish muddatlariga amal qilgan holda saqlaydi;

omborxonada saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftarini yuritadi;

har uch yilda bir marta maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha malaka oshiradi.

41. Maktabgacha ta'lim muassasasida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishga mas'ul xodimlarning malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda ishlab chiqilgan o'quv rejasi va dasturi asosida amalga oshiriladi.



## **8-bob. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish monitoringini olib borish**

42. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari maktabgacha ta'lim muassasasida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish monitoringini olib borishda:

maktabgacha ta'lim muassasasida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish yuzasidan doimiy monitoring olib boradi, jumladan, tarbiyalanuvchilarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini tahlil qilib boradi;

tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlariga oshxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha takliflar kiritadi;

monitoring natijalarini har chorakda hududiy tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi yig'ilishlarda prokuratura, moliya, sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim bo'limlari rahbarlari ishtirokida muhokama qilib boradi;

oshxonalarda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bo'lmagan holatlarni zudlik bilan bartaraf etish choralari ko'radi.

43. Hududiy davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalari oshxonalarida sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari hamda sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarning bajarilishiga rioya qilinishi yuzasidan nazorat ishlari amalga oshiriladi.

## **9-bob. Yakunlovchi qoida**

44. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

## **6-ilova**

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyuldagi 626-son qaroriga 2-ILOVA

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida (keyingi o'rinlarda muassasa deb ataladi) outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq shart-sharoitlar yaratilgan holda amalga oshiriladi.

3. Ushbu Nizom talablari tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar barcha turdagi davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi mahalliy va xorijiy tadbirkorlik subyektlariga (keyingi o'rinlarda outsorser deb ataladi) taalluqli hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni sog'lom ovqatlantirishning outsorsing usulini joriy etish ustuvor hisoblanadi.

### **2-bob. Outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning maqsad va vazifalari**

4. Muassasada outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

tarbiyalanuvchilarni to'laqonli sog'lom ovqatlantirish, sog'lig'ini mustahkamlash va ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni ta'minlash;

sifatli taomlar tayyorlash orqali tarbiyalanuvchilarning sog'lom va barkamol o'sishini ta'minlash;

taomlarni iste'mol qilish uchun gigiyenik talablarga muvofiq sharoitlar yaratish; tarbiyalanuvchilarni sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq sog'lom ovqatlantirish;

muassasalar rahbarlarini ta'limga oid bo'lmagan vazifalardan ozod qilish va ta'lim samaradorligini oshirish.

5. Outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishning vazifalari quyidagilardan iborat:

tarbiyalanuvchilarning fiziologik yoshiga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talablarini inobatga olgan holda, ularning ratsional ovqatlanishini ta'minlash;

oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarni tarbiyalanuvchilarning sog'lom o'sishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan zarur moddalar bilan ta'minlash;

oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarning xavfsizligi hamda sifatini kafolatlash; tarbiyalanuvchilarda ovqatlanish bilan bog'liq yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;

tarbiyalanuvchilar o'rtasida to'g'ri ovqatlanish ko'nikmalarini shakllantirish; oziq-ovqat mahsulotlari va taomlarni tayyorlashda hamda oziq-ovqat xom ashyosini saqlashda, tashishda sanitariya normalari va qoidalarga qat'iy rioya qilish.

### **3-bob. Outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablar**

6. Outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida belgilangan oziq-ovqat mahsulotlari asosida amalga oshiriladi.

7. Tarbiyalanuvchilarni sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish, belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari asosida outsorser tomonidan tuzilgan, hududiy davlat sanitariya-epidemiologiya markazi va maktabgacha ta'lim bo'limini xabardor qilgan holda bir oylik taomnomalar asosida tashkil qilinadi.

8. Outsorser xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, foydalaniladigan texnologik jihozlarning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mosligini, oshxonalar xodimlari tomonidan taom tayyorlash texnologiyasi qoidalarga rioya qilinishiga, oshpazlarning har uch yilda bir marta malaka oshirishiga, tibbiy ko'rikdan o'tgan holda ishga qo'yilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

9. Muassasa oshpazlarining malakasini oshirish O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan o'quv rejasi va dasturi asosida tashkil etiladi hamda outsorser tomonidan moliyalashtiriladi.

### **4-bob. Outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish**

10. Muassasada outsorsing usulida ovqatlantirish «Davlat xaridlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tarkibi tasdiqlanadigan Tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) tomonidan o'tkaziladigan tanlov asosida tashkil etiladi.

11. Komissiya tarkibi ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq tarzda tuziladi.

Vazirliklar va idoralardan komissiya tarkibiga kiritiladigan mutaxassislar va ular to'g'risidagi ma'lumotlar (F.I.O., lavozimi, telefon raqami, elektron manzillari) har yili Maktabgacha ta'lim vazirligining murojaatiga asosan 5 kun muddatda ajratilishi ta'minlanadi.

12. Outsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha takliflar tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari (keyingi o'rinlarda hududiy maktabgacha ta'lim bo'limi deb ataladi) tomonidan har chorakda bir marotaba (keyingi chorak birinchi oyining 15-kuniga qadar) tegishligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, viloyatlar maktabgacha ta'lim boshqarmalari va Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasiga (keyingi o'rinlarda hududiy boshqarmalar deb ataladi) taqdim etiladi.

13. Hududiy boshqarmalar tushgan takliflarni umumlashtirib (keyingi chorak birinchi oyining 25-kuniga qadar) Komissiyaga taqdim etadi.

14. Muassasalarda tarbiyalanuvchilarni outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha tanlov O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan (keyingi chorak ikkinchi oyining 25-kuniga qadar) oshkorlik, mablag'larning iqtisodiy samarali sarflanishi tamoyillari asosida o'tkaziladi.

Tanlov o'tkazish bo'yicha e'lonlar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytining maxsus bo'limiga joylashtiriladi.

15. Outsorsierlar uchun qo'yiladigan umumiy talablar O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi va vazirlikning internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytining maxsus bo'limiga joylashtiriladi.

Autorsierlarga muassasaning hududiy joylashuvi, ixtisoslashuvi va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib qo'shimcha texnik talablar qo'yilishi mumkin.

16. Tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi (keyingi chorakning uchinchi oyining 5-kuniga qadar) tanlovda g'olib chiqqan outsorsier bilan muassasalarda outsorsing usulida sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish xizmatini ko'rsatish bo'yicha tegishli shartnomalarni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va vazirlikning internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytining maxsus bo'limiga joylashtirilgan namunaviy shakl asosida tuzadi.

17. Outsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha tanlovni o'tkazish tartibi ushbu Nizomga 2-ilovadagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

18. Komissiya outsorsier faoliyati yuzasidan alohida monitoring olib boradi. Shuningdek, ularning faoliyati natijalariga ko'ra, Outsorsierni «insofi ijrochi» yoki «insofsiz ijrochi» ro'yxatiga kiritish huquqiga ega.

### **5-bob. Outsorsierning huquq va majburiyatlari**

19. Outsorsier quyidagi huquqlarga ega:

foydalaniladigan kommunal xizmatlar qiymati belgilangan limit va maktabgacha ta'lim muassasasiga ajratilgan byudjet mablag'lari doirasida qoplanishini talab qilish;

ijara shartnomasi doirasida outsorsierga vaqtincha foydalanishga beriladigan oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebelidan foydalanish uchun to'lovni nol stavka bo'yicha olish;

ko'rsatgan xizmatlar uchun to'lovni shartnomada belgilangan miqdor va muddatda talab qilish.

muassasada sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun 20 foizgacha ustama haqini olish;

boshqa huquqlari ham bo'lishi mumkin.

20. Outsorsier quyidagilarga majbur:

muassasalar oshxonalarida o'z faoliyatini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq amalga oshirish;

tarbiyalanuvchilarni sogʻlom ovqatlantirish xizmatini muassasa oshxonasining oʻzida toʻliq va sifatli tashkil etish;

yuridik shaxsning davlat roʻyxatidan oʻtkazilganligi toʻgʻrisidagi guvohnoma nusxasini tanlov komissiyasiga taqdim etish;

tanlovda qatnashish uchun ariza berish kunidan kamida bir oy oldin tegishli tashkilotlardan soliq qarzdorligi, toʻlovlar, boshqa majburiy toʻlovlar va moliyaviy sanksiyalarning yoʻqligi toʻgʻrisida yozma maʼlumotlarni taqdim qilish;

Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha taʼlim vazirligi tomonidan belgilangan texnik vazifalar asosida autsorsing usulida muassasada sogʻlom ovqatlantirishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish va taqdimotini oʻtkazish;

taomlar tayyorlash texnologiyasi boʻyicha mutaxassislar (injener-texnolog, diyetolog, oshpazlar malaka razryadlari) bilan taʼminlash;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga amal qilinishini taʼminlash tadbirlarini amalga oshirish;

taomnomalar, tayyor taomlarning vazni, narxi, tarkibidagi mahsulotlar miqdorlari, texnologik kartalarning mavjudligini taʼminlash;

bitta tarbiyalanuvchi uchun yil davomida sarflanadigan mablagʻ miqdorini koʻrsatish;

taom tayyorlash uchun sarflangan xarajatlarni (oshxona va oshxona jihozlarini taʼmirlash, xodimlar ish haqi, inventarlar, oshpazlar uniformasi, oshxonada ishlatiladigan zararsizlantirish va yuvish vositalari, olinadigan sof foyda) qoplash uchun ustama miqdorlarini koʻrsatish (foizda);

umumiy ovqatlanishni tashkil qilish sohasidagi ish tajribasi hamda boʻsh aylanma mablagʻlari mavjudligi;

Autsorserlarga texnik vazifalardan, muassasaning hududiy joylashuvi va ixtisoslashuvidan kelib chiqib boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

#### **6-bob. Autsorser faoliyatini tashkil etish**

21. Komissiya qarori asosida tuman (shahar) maktabgacha taʼlim boʻlimlari bilan autsorser oʻrtasidagi shartnoma bir yildan uch yilgacha boʻlgan muddatga tuziladi.

Bunda bir yillik muddat barcha autsorserlarga, uch yillik muddat esa muassasa oshxonasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun zamonaviy jihozlar bilan toʻldirish maqsadida investitsiya kiritish sharti bilan majburiyat olgan autsorserlarga nisbatan qoʻllaniladi.

22. Autsorser tomonidan muassasalarda sogʻlom ovqatlantirishni tashkil etish boʻyicha uzoq muddatga rejalashtirilgan istiqbolli loyihalar taqdim qilinganda, Komissiyaning qaroriga asosan tuman (shahar) maktabgacha taʼlim boʻlimlari bilan autsorser oʻrtasida besh yilgacha muddatga shartnomalar tuzilishi mumkin.

23. Autsorserlarga muassasalarning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunalari, idish-tovoqlari va mebelidan foydalanganlik uchun toʻlov nol stavka boʻyicha belgilanadi hamda ovqatlantirishni tashkil etish uchun isteʼmol qilinadigan kommunal xizmatlar qiymati maktabgacha taʼlim muassasasiga ajratilgan Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari doirasida qoplanadi.

24. Autsorsing usulida ovqatlantirish tashkil etiladigan muassasalarda bolalarni ovqatlantirishni moliyalashtirish ota-onalar toʻlov pullari, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablagʻlari, homiylik mablagʻlari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi. Bunda autsorsing usulida ovqatlantirish tashkil etilgan muassasadagi mavjud oshpaz, oshxona ishchilari, omborchi shtat birliklari belgilangan tartibda qisqartiriladi.

25. Autsorser tomonidan tayyorlab berilayotgan taomlar sifati, vazni, tarkibining

taomnomaga muvofiqligi muassasa mudiri, hamshira, ota-onalar vakillaridan iborat Brakeraj komissiyasi tomonidan nazorat qilinadi va nazorat yakunlari muassasaning tayyor taomlar sifatini nazorat qilish bo'yicha yuritilgan ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakldagi brakeraj daftarida har kuni qayd qilib boriladi.

Brakeraj komissiyasi outsorser tomonidan tayyorlab berilayotgan taomlar sifati, vazni, tarkibining taomnomaga nomuvofiqligi aniqlanganda, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga bildirgi kiritadi.

26. Bildirgi asosida tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida outsorsing usulida ovqatlantirishni tashkil etish bo'yicha Tanlov komissiyasi bilan kelishgan holda, ishchi guruh tashkil qiladi va outsorser faoliyatini o'rganib chiqadi hamda o'rganish natijalarini Komissiyaga taqdim etadi.

27. Outsorser tomonidan sanitariya qoidalari va meyorlari bajarilishi holatining monitoringini olib borish hamda kunlik sinamalar olish muassasa tibbiyot xodimi zimmasiga yuklanadi.

28. Tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirish guruhlarda tashkil etilganda, tayyor taomlar taomnomada belgilangan miqdorlarda va sanitariya-gigiyena talablariga mos ravishda bo'lishini ta'minlashga muassasa rahbari mas'ul hisoblanadi.

29. Outsorser tomonidan sog'lom ovqatlantirishni tashkil etishda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishi, oshxona xodimlarining sanitariya-gigiyena tadbirlari bajarilishini nazorat qilish tuman (shahar) davlat sanitariya-gigiyena nazorati markazi tomonidan amalga oshiriladi.

30. Taomnoma rejasi bir kun oldingi tarbiyalanuvchilar soniga mutanosib ravishda, har bir tarbiyalanuvchi uchun bir kunlik o'rtacha sarflanadigan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori va ularning qiymati chiqarilgan holda outsorser tomonidan bir kun oldin soat 16:00 gacha tuziladi.

31. Muassasa rahbari tomonidan joriy kundagi tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib, ertalab soat 9:00 ga qadar tasdiqlangan buyurtmada ko'rsatilgan bolalar soniga ko'ra asosiy taomnoma outsorser tomonidan ushbu Nizomga 4-ilovaga muvofiq shaklda uch nusxada tuziladi.

Outsorser har kuni asosiy taomnomaning bir nusxasini muassasa rahbariga taqdim etadi va bir nusxasini tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limiga har o'n kunda hisobot bilan topshiradi.

32. Taomnomada tayyor taomlar vazni, narxi, sarflangan mahsulotlar turi va ularning miqdorlari ko'rsatiladi.

33. Muassasada tarbiyalanuvchilarning xavfsiz ovqatlanishini ta'minlash maqsadida ushbu Nizomga 5-ilovaga muvofiq shakldagi sifati tez buziluvchi oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftari outsorser tomonidan yuritiladi.

34. Oshxona va oshxona jihozlarini ta'mirlash, xodimlar ish haqi, oshxona jihozlari, oshpazlar uniformasi, oshxonada ishlatiladigan zararsizlantiruvchi va yuvish vositalari bilan ta'minlash ishlari outsorser tomonidan amalga oshiriladi.

35. Outsorser har o'n kunda tasdiqlangan taomnomalar nusxalari va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha hisob-faktura hujjatlarini, muassasa rahbari tomonidan tasdiqlangan buyurtmani tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi markazlashtirilgan buxgalteriyasiga taqdim etadi.

Bunda outsorser barcha xarajatlarni (soliqlar, xodimlarning ish haqi, transport xizmatlari hamda asbob-uskunalarini ta'mirlash va ulardan foydalanish va boshqalarni) o'z ichiga oladigan 20 foizgacha ustama haq hisobga olingan holda, amaldagi o'rtacha bozor narxlari bo'yicha bir ovqatlanuvchiga tegishli kontingent

uchun ovqatlanishning tasdiqlangan normasidan kelib chiqadi.

Amaldagi o'rtacha bozor narxlari har oyda tuman va shahar hokimliklari tomonidan aniqlanib, hokimning yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga taqdim qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuman (shahar) hokimliklari tomonidan taqdim qilingan narxlarni tahlil qilib, hokimlikning internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytida joylashtiradi hamda tegishli hududiy maktabgacha ta'lim boshqarmasiga tasdiqlangan holda taqdim etadi.

36. Hisobotlar asosida tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari autorserga ko'rsatgan xizmatlari bo'yicha tegishli mablag'larni joriy o'ning 25-kuniga qadar o'tkazib berishni ta'minlaydi. Bunda joriy o'ning qolgan kunlari uchun mablag'lari keyingi oy kunlari uchun to'lanadigan mablag'larga qo'shib o'tkazib beriladi.

37. Muassasa xodimlarining ushbu muassasada ovqatlanishini tashkil etish autorseri bilan xodim o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq to'lov asosida amalga oshiriladi. Faoliyati bolalar tarbiyasi bilan uzluksiz ravishda bog'liq bo'lgan xodimlar (mudira, hamshira, tarbiyachi va yordamchi tarbiyachi) shartnoma asosida ovqatlanadi.

38. Muassasa xodimlarini ovqatlantirish alohida taomnoma asosida tashkil qilinadi.

39. Ovqatlantirish narxlari ovqatlanish xodimlari soni, ular uchun sarflangan taomlar miqdori va qiymati orqali aniqlanadi va har bir xodimga to'lov puli belgilanadi.

40. Xodimlarning muassasada ovqatlanish uchun to'lovlar xodimlar tomonidan joriy o'ning 25-kunidan kechiktirmay autorserga to'lab beriladi.

41. Xodimlarning muassasada ovqatlanish uchun to'lovlar miqdorini hisoblashda xodimning faqat ishda bo'lgan kunlari e'tiborga olinadi.

Xodimning ishda bo'lmagan kunlari uchun undirilgan to'lovlar keyingi oy uchun to'lov amalga oshirilayotganida hisobga olinadi.

#### **7-bob. Buyurtmachining huquq va majburiyatlari**

42. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

autorsering usulida ovqatlantirishni amalga oshirish uchun qo'yilgan talablar bajarilishini o'rganish;

tayyor taomlar sifatining taomnomaga muvofiqligini tekshirish;

tayyor taomlarning miqdori, mazasi, tarkibidagi mahsulotlarning sifati bo'yicha kamchiliklar aniqlangan holatda Komissiyaga bildiri kiritish;

xarid qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyorlanayotgan taomlar, ularda foydalaniladigan texnologik sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mosligini, oshxonalar xodimlarining sanitariya-gigiyena talablari va epidemiyaga qarshi tadbirlar bajarilishiga rioya etilishini tasdiqlangan rejaga asosan nazorat qilish.

Boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

43. Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

foydalaniladigan kommunal xizmatlar xarajatlarini belgilangan normalar asosida maktabgacha ta'lim muassasasiga ajratilgan byudjet mablag'lari hisobidan qoplash; ijara shartnomasi doirasida autorserga vaqtincha foydalanishga beriladigan

oshxonaning ishlab chiqarish xonalari, asbob-uskunolari, idish-tovoqlari va mebellardan foydalanish uchun nol stavkada topshirish;

ko'rsatilgan xizmatlar uchun shartnomada belgilangan miqdor va muddatda to'lovni amalga oshirish.

Boshqa majburiyatlarni ham ega olishi mumkin.

**8-bob. Yakunlovchi qoida**

44. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

**7-ilova**

1. Titul varag'i

Maktabgacha ta'lim muassasasi nomi

Pedagogik kengash tomonidan qabul qilindi: Bayon №\_\_ sana \_\_\_\_\_

\_\_ Tasdiqlandi: MTM mudiri: (FIO) Sana \_\_\_\_\_ №

maktabgacha ta'lim muassasasi DASTURI Tuzuvchi: Familiya, ism, otasining

ismi \_\_\_\_\_ Malaka toifasi \_\_\_\_\_

Pedagogik staji \_\_\_\_\_ Lavozimi \_\_\_\_\_ 20\_\_yil.

*Ilmiy-uslubiy nashr*

I.TUXTASINOV, N.ISAKULOVA, B.KULMATOV

**BOLALAR PEDAGOGIKASI**  
(maktabgacha ta'lim pedagogikasi)

Muharrir  
Feruza QUVONOVA

Badiiy muharrir  
Zilola TO'LAGANOVA

Texnik muharrir  
Umidbek YAXSHIMOV

Kompyuterda sahifalovchi  
Feruza QUVONOVA

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014 yil 02.10 da berilgan.

Bosishga 14.08.2018 y.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1/32.

Bosma tabog'i 7,69.

Shartli bosma tabog'i 12,91.

Garnitura «Times New Roman». Ofset qog'oz.

Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 125.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 147-00-14, 129-09-72.

Marketing bo'limi – 128-78-43.

faks – 273-00-14; e-mail: yangiasravlodi@mail.ru